

G.N.Najmiddinova

O'.U.Qurbonova

QIYOSIY PEDAGOGIKA

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**QIYOSIY
PEDAGOGIKA**

Bilim sohasi:	100000-Ta'lim
Ta'lim sohasi:	140000-O'qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani
Bakalavriat:	5110900 – pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishi talabalari uchun

Buxoro - 2014-yil

ANNOTATSIYA

“Qiyosiy pedagogika” O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tasdiqlagan dastur (14 mart 2012 yil) asosida tayyorlandi.

Mazkur darslik milliy istiqlol g‘oyasi va bugungi kun mafkurasi talablari asosida bo‘lg‘usi pedagog kadrlarga jahon pedagogikasining muhim masalalari ayniqsa, rivojlangan davlatlar ta’lim tizimi, tuzilishi, ta’lim turlari, ta’lim-tarbiya jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlari va tashkil etish shakllari, amalga oshirish yo‘llari haqida ma’lumot beradi.

Darslik oliy o‘quv yurtlarining pedagogika va psixologiya yo‘nalishi talabalari hamda magistrantlarga mo‘ljallangan. Shuningdek, darslikdan kollej va litseylarning o‘quvchilari ham foydalanishlari mumkin.

АННОТАЦИЯ

Данное учебник написано на основе требований современной идеи национальной независимости и даёт сведения будущим педагогическим кадрам о важных задачах международной педагогики, о системе образования в развитых странах, об особенностях и о путях их практического применения.

Данное учебник предназначено для студентов магистратуры, а также для студентов направлений педагогика и психология в высших учебных заведений. Также данным учебник могут воспользоваться учащиеся школ, колледжей и лицеев.

ANNOTATION

Given allowance is written on base of the requirements modern idea to national independence and gives the information to future pedagogical personnel(frames) about important problems international pedagogics, about system of the formation in developed country, about particularity and about fetter of their practical application.

Educational textbook is intended for the students of Universities. Also this allowance can be used for the students of the schools, colleges and lyceums.

Tuzuvchi:

**Buxoro davlat universiteti
“Pedagogika” kafedrasi o‘qituvchi
O‘.U. Qurbonova**

Taqrizchilar:

**p.f.n. dosent G.N.Najmiddinova
p.f.n. dosent M.M.Tilavova
p.f.n. A.T.Gulboyev**

Ushbu darslik Buxoro davlat universiteti Ilmiy kengashining 2013 yil 28 noyabr kuni bo‘lib o‘tgan 2–sonli majlisi qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

M U Q A D D I M A

Bugungi kunda ozod Vatanimiz hayotida yuz berayotgan barcha ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy va ma'naviy-madaniy o'zgarishlar insonni o'zgartirish va rivojlantirishi uchun shart-sharoitlarni vujudga keltiradi.

«Ta'lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni voyaga etkazish» to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bir necha muhim, dolzarb masalalarni o'z ichiga oladi. Xususan,

- ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni zamon talablari darajasiga ko'tarish milliy kadrlar tayyorlashning yangi tizimini barpo qilish, kelajak uchun barkamol va salohiyatli alodni tarbiyalash;
- uzluksiz ta'limning barcha bosqichlari uchun davlat standartlarini ishlab chiqish, tasdiqlash va amaliyotga tadbiq etish;
- uzluksiz ta'lim tizimining milliy modelini amalga oshirish.

Shuning uchun bu sohada yangi o'quv rejalar, dasturlar va o'quv qo'llanmalar yaratish muhim ahamiyatga egadir.

Mazkur darslik pedagogik nazariyalar va o'quv-tarbiya amaliyoti taraqqiyotining umumiy va farqli xususiyatlari va tendensiyalarini o'rganadi. Ularning iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy va falsafiy asoslarini, milliy xususiyatlarini ochadi. O'sib kelayotgan avlodni o'qitish va tarbiyalash borasida to'plangan tajriba bilan cheklanib qolmasdan, balki jarayon dinamikasini hisobga oladi. Muammolarning paydo bo'lishi va shakllanish jarayonini qarab chiqadi. Uning hozirgi ahvolini qayd etadi va turli mamlakatlar pedagogik sistemalari hodisalarini tahlil etish asosida keyingi rivojlanish tendensiyalarini aniqlaydi.

Darslikning asosiy maqsadi:

- bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun tayyorlangan o'quv dasturidan joy olgan mavzularni yoritib berish;
- talabalarda mazkur fan yuzasidan bilim, ko'nikma, malaka hosil qilish;
- mamlakat ta'lim tizimi hamda jahon mamlakatlari ta'lim tizimi muammolarini qiyoslash va fan yangiliklarini amaliyotga joriy qilish hokazo.

Ushbu darslik oliy o'quv yurtlarining pedagogika va psixologiya yo'nalishi talabalari hamda magistrantlarga mo'ljallangan. Shuningdek, ushbu o'quv qo'llanmadan kollej va litseylarning o'quvchilari ham foydalanishlari mumkin.

I BOB. QIYOSIY PEDAGOGIKAGA (PEDAGOGIK KOMPARATIVISTIKA¹GA) KIRISH

1 Qiyosiy pedagogika alohida fan sohasi sifatida (Qiyosiy pedagogika tushunchasi, uning obyekti, predmeti, vazifasi va bajaradigan ishi; milliy ta'lim tizimi tushunchasi).

Qiyosiy pedagogika tushunchasi. *Qiyosiy pedagogika* yoki *komparativistika* dastlab falsafa fanlari sohasida shakllangan bo'lib, turli masalalarni, jumladan, o'sib kelayotgan yosh avlod ta'lim-tarbiyasi muammolarining jahon mamlakatlarda rivojlanish masalalarini ham o'rgangan. Qadim zamonlardayoq, falsafiy ta'limotlar mazmunida turli xalqlar va mamlakatlarda bolalarga qanday ta'lim-tarbiya berganliklari to'g'risida anchagina ma'lumotlar mavjud edi. Ularda ta'lim-tarbiya metodlari va qadriyatlari umumlashtirilgan bo'lib, katta avloddan yosh avlodga hayotiy tajribani qanday etkazilayotganligining o'ziga xos jihatlarini tahlil qilingan edi.

Zamonaviy tilda qiyosiy pedagogika **komparativistika** deb ham ataladi. **Komparativizm** (lot. *comparativis*-qiyosiy) qiyoslash va taqqoslash ma'nosini anglatib, tarixiy taraqqiyot tendensiyalarining o'xshash va farqli jihatlarini aniqlash, o'xshash hodisalarning o'zaro mos jihatlarini ajratishni o'zida mujassamlashtiradi. Ingliz tilida "*to compare*" ham "taqqoslash" degan ma'noni anglatadi. Mustaqil falsafiy tushuncha sifatida komparativizm turli fan sohalarida, shuningdek, adabiyotshunoslikda turli xalqlar badiiy adabiyotida obraz va syujetlar rivojlanish jarayonini qiyosiy tarixiy tahlil etishda qo'llaniladi. Ta'lim nazariyasida "komparativistika" tushunchasi "qiyosiy pedagogika" tushunchasi bilan bir sinonik qatorda turadi. Shuning uchun pedagogikaning bu sohasini "*pedagogik komparativistika*" deb atasa ham xato bo'lmaydi.

Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, chet el manbalarida ko'proq "qiyosiy pedagogika" emas, balki "qiyosiy ta'lim" atamasi ishlatiladi. Zero, "ta'lim" (ing. "*education*") so'zi pedagogika ("*pedagogie*") so'ziga nisbatan keng ma'noda qo'llaniladi. Chet el pedagogik an'anasiga ko'ra "ta'lim" so'zi rivojlanish, ta'lim va tarbiya birligini anglatadi. Shu bilan bir qatorda pedagogika faqat bolalarning ta'limi va tarbiyasiga taalluqli tushuncha sifatida qo'llaniladi. Shuning uchun ham chet el ta'rifida "qiyosiy ta'lim" ("*education compare*") iborasini "qiyosiy pedagogika" ("*pedagogie comparative*") ga nisbatan ko'proq ishlatilishini kuzatamiz. Biz "qiyosiy pedagogika", "pedagogik komparativistika", "qiyosiy ta'lim" va "komparativistika" tushunchalarini bir ma'nodosh so'zlar qatorida qo'llaymiz. Chunki bir qancha farqli jihatlariga qaramasdan, zamonaviy pedagogik nazariyasi va amaliyotida bu tushunchalar tez-tez aynan bir xil hodisa va jarayonlarni belgilashda ishlatiladi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, bugungi kunda "qiyosiy pedagogika" tushunchasi O'zbekistonda kengroq tarqalgan. Umuman olganda, **qiyosiy pedagogika** turli mamlakatlarda maorif, ta'lim va tarbiyaning o'ziga xos jihatlarini o'rganuvchi pedagogikaning mustaqil tarmog'i

¹ **Komparativizm** lot. *comparativis*- qiyoslash va taqqoslash ma'nosini anglatadi.

sanaladi. **Qiyosiy pedagogika** keng ma'noda dunyoning turli davlat va hududlarida ta'limning holati, qonuniyatlari va rivojlanish tendensiyalarini o'rganuvchi fan sohasi bo'lib, xorij tajribasini qo'llash yo'li orqali milliy ta'lim tizimini o'zaro boyitish usullarini ishlab chiqadi.

Qiyosiy pedagogikaga yanada aniqroq ta'rif beradigan bo'lsak, u pedagogikaning mustaqil fan sohasi sifatida dunyoning turli davlat va mamlakatlarida pedagogika nazariyasi va amaliyotining rivojlanish tendensiyalari, qonuniyatlari va holatini o'zaro taqqoslab o'rganadigan fandır. Shuningdek, u umumiy tendensiyalarning milliy va regional o'ziga xosligining mos va farqli jihatlarini ajratib ko'rsatadi hamda milliy ta'lim tizimini xorij tajribasi orqali o'zaro boyitish shakl va usullarini ishlab chiqadi. "Qiyosiy pedagogika"ni tushunishga nisbatan bu yondashuvlarning har biri uning o'ziga xos mohiyatini ochib beradi.

*Birinchi*dan, u pedagogika fanining aniq muayyan sohasi. *Ikkinchi*dan, dunyoning turli davlat va hududlarida maorif, ta'lim, tarbiya, pedagogika nazariyasi va amaliyotining rivojlanish jarayonini o'rganishga yo'naltirilgan. *Uchinchi*dan, qiyosiy taqqoslash darajasidagi tahlil xorij tajribasini ma'lum darajada qo'llash uchun amalga oshiriladi. *To'rtinchi*dan, milliy ta'lim tizimini o'zaro boyitishning o'ziga xos shakl va usullari ajratib ko'rsatiladi.

Milliy ta'lim tizimi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining qoidalariga muvofiq holda tayyorlangan bo'lib, milliy tajribaning tahlili va ta'lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri ola bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgan.

Dastur kadrlar tayyorlash milliy modelini ro'yobga chiqarishni, har tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan, ta'lim va kasb-hunar dasturlarini ongli ravishda tanlash va keyinchalik puxta o'zlashtirish uchun ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, psixologik-pedagogik va boshqa tarzdagi sharoitlarni yaratishni, jamiyat, davlat va oila oldida o'z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalashni nazarda tutadi.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iboratdir:

Shaxs – kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekti va obyekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi;

davlat va jamiyat – ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlar tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillari;

uzluksiz ta'lim malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlarini, davlat ta'lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi;

fan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg'or pedagogik va ahborot texnologiyalarini ishlab chiquvchi;

ishlab chiqarish kadrlarga bo'lgan ehtiyojni, shuningdek ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliya va moddiy-tehnika jihatidan ta'minlash jarayonining qatnashchisi.

Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari

Ta'lim O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor deb e'lon qilinadi.

Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik karakterda ekanligi;
- ta'limning uzluksizligi va izchilligi;
- umumiy o'rta, shuningdek o'rta mahsus, kasb-hunar ta'limining majburiyligi;
- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishini: akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o'qishni tanlashning ixtiyoriyligi;
- ta'lim tizimining dunyoviy karakterda ekanligi;
- davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi;
- ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv;
- bilimli bo'lishni va iste'dodni rag'batlantirish;
- ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish.

Uzluksiz ta'lim kadrlar tayyorlash tizimining asosi, O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-tehnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor sohadir.

Uzluksiz ta'lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxs shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar ildam tayyorlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi.

Uzluksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirish prinsiplari

Uzluksiz ta'limning faoliyat ko'rsatish prinsiplari quyidagilardan iborat:

ta'limning ustuvorligi uning rivojlanishining birinchi darajali ahamiyatga ega ekanligi, bilim, ta'lim va yuksak intellektning nufuzi;

ta'limning demokratlashuvi ta'lim va tarbiya uslublarini tanlashda o'quv yurtlari mustaqilligining kengayishi, ta'limni boshqarishning davlat-jamiyat tizimiga o'tilishi;

ta'limning insonparvarlashuvi inson qobiliyatlarining ochilishi va uning ta'limga nisbatan bo'lgan turli-tuman ehtiyojlarining qondirilishi, milliy va umumbashariy qadriyatlar ustuvorligining ta'minlanishi, inson, jamiyat va atrof-muhit o'zaro munosabatlarining uyg'unlashuvi;

ta'limning ijtimoiylashuvi ta'lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilish, ularda yuksak ma'naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlashni shakllantirish;

ta'limning milliy yo'naltirilganligi ta'limning milliy tarix, xalq an'analari va urf-odatlar bilan uzviy uyg'unligi, O'zbekiston xalqlarining madaniyatini saqlab qolish va boyitish, ta'limni milliy taraqqiyotning o'ta muhim omili sifatida e'tirof etish, boshqa xalqlarning tarixi va madaniyatini hurmatlash;

ta'lim va tarbiyaning uzviy bog'liqligi, bu jarayonning har tomonlama kamol topgan insonni shakllantirishga yo'naltirilganligi;

iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularga ta'limning eng yuqori darajasida, izchil ravishda fundamental va maxsus bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish.

Uzluksiz ta'lim kadrlar tayyorlash tizimining asosi, O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-tehnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor sohadir.

Uzluksiz ta'lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxs shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar ildam tayyorlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi.

Uzluksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirish prinsiplari

Uzluksiz ta'limning faoliyat ko'rsatish prinsiplari quyidagilardan iborat:

ta'limning ustuvorligi uning rivojlanishining birinchi darajali ahamiyatga ega ekanligi, bilim, ta'lim va yuksak intellektning nufuzi;

ta'limning demokratlashuvi ta'lim va tarbiya uslublarini tanlashda o'quv yurtlari mustaqilligining kengayishi, ta'limni boshqarishning davlat-jamiyat tizimiga o'tilishi;

ta'limning insonparvarlashuvi inson qobiliyatlarining ochilishi va uning ta'limga nisbatan bo'lgan turli-tuman ehtiyojlarining qondirilishi, milliy va umumbashariy qadriyatlar ustuvorligining ta'minlanishi, inson, jamiyat va atrof-muhit o'zaro munosabatlarining uyg'unlashuvi;

ta'limning ijtimoiylashuvi ta'lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilish, ularda yuksak ma'naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlashni shakllantirish;

ta'limning milliy yo'naltirilganligi ta'limning milliy tarix, xalq an'analari va urf-odatlar bilan uzviy uyg'unligi, O'zbekiston xalqlarining madaniyatini saqlab qolish va boyitish, ta'limni milliy taraqqiyotning o'ta muhim omili sifatida e'tirof etish, boshqa xalqlarning tarixi va madaniyatini hurmatlash;

ta'lim va tarbiyaning uzviy bog'liqligi, bu jarayonning har tomonlama kamol topgan insonni shakllantirishga yo'naltirilganligi;

iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularga ta'limning eng yuqori darajasida, izchil ravishda fundamental va maxsus bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish.

Pedagogika fanlarining alohida sohasi va o'quv predmeti sifatida qiyosiy pedagogika pedagogika va ta'lim tarixi, etnopedagogika va etnopsixologiya, didaktika, tarbiya nazariyasi, psixologiya, etnografiya, sotsiologiya, falsafa va boshqa fanlar bilan bog'liqdir. Bir paytning o'zida qiyosiy pedagogika ilmiy bilishning mustaqil sohasi bo'lib o'z predmeti, obyekti, vazifalari va bajaradigan ishi bilan farq qiladi. Qiyosiy pedagogika uchun pedagogika tarixi, falsafa va ta'lim tarixi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki, aynan qiyosiy pedagogika kursida turli davlatlarda pedagogik fikr taraqqiyoti muammolari kengroq va kompleks o'rganiladi. Shu bilan bir qatorda pedagogika tarixi, falsafa va ta'lim tarixi fanlari qiyosiy pedagogika mazmunini aynan takrorlamaydi.

Qiyosiy pedagogikaning obyekti, vazifalari va bajaradigan ishi.

Qiyosiy pedagogika pedagogika fanining bir sohasi bo'lsa ham, (ijtimoiy pedagogika didaktika, tarbiya nazariyasi, pedagogika tarixi fanlari kabi) o'zining muayyan tadqiqot obyekti va predmetiga egadir. Bular, fan va o'quv predmetining bosh masalasini aniqlab beradi.

Qiyosiy pedagogika obyekti – milliy, regional va global masshtabdagi ta'lim.

Qiyosiy pedagogika predmeti – xorij va O'zbekiston pedagogik tajribasi va zamonaviy milliy pedagogik madaniyatning holati, tendensiyalari va rivojlanish qonuniyatlarini qiyosiy tahlil qilish.

Qiyosiy pedagogikaning asosiy vazifalari:

-turli mamlakatlarda ta'lim rivojlanish jarayonlarini aks ettiradigan fakt va dalillarni tasvirlash va tahlil etish;

-turli mamlakatlardagi ta'limning rivojlanishi to'g'risidagi miqdor va sifat o'zgarishlarini qiyosiy tahlil qilish, tasniflash va tizimlashtirish;

-turli mamlakatlardagi ta'lim rivojlanishi tendensiyalari va qonuniyatlarini ochib berish;

-turli mamlakatlarda ta'limni rivojlantirishning yo'llari va imkoniyatlarini prognoz qilish;

-xorij mamlakatlarida ta'lim yutuqlari va kamchiliklarini o'zaro taqqoslash va qiyoslash;

-xorij mamlakatlari ta'lim tizimini umumiy tahlil qilish

Qiyosiy pedagogika fanining bajaradigan ishi.

-xorij tajribasini mutaxassislar tomonidan o'rganilishi qulay bo'lishi uchun turli mamlakatlar pedagogik hujjatlaridagi atama va tushunchalarni muvofiqlashtirish va tartibga solish;

-xorij va o'zbek pedagoglari ta'lim arboblarning nazariy g'oyalari, ta'lim siyosati, ta'lim modellarini o'zaro taqqoslash;

-ta'limning rivojlanish istiqbollarini prognoz qilish;

-ta'limni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish.

Qiyosiy pedagogika keng ko'lamdagi muammolarni o'rganadi:

Turli mamlakatlardagi ta'lim nazariyasi mazmuni va tashkilotlarinigina emas, shuningdek, ta'lim metodlari, shakllari, vositalari, ta'lim muassasalari, boshqaruv, ta'lim qadriyatlari va hokazolar. Turli mamlakatlardagi ta'lim va tarbiya tizimi taraqqiyoti va amal qilish qonuniyatlarini taqqoslash, ularning o'xshash va farqli tomonlarini ajratib ko'rsatish orqali tadqiq qiladi. Ta'lim tizimi va uning rivojlanish dinamikasini muayyan davlatning madaniy tarixiy va ijtimoiy-siyosiy xususiyatlarini inobatga olgan holda, solishtiradi va qiyoslaydi.

Qiyosiy pedagogikaning asosiy kategoriyalari va tushunchalari.

Qiyosiy pedagogika umumiy pedagogik va psixologik kategoriya va tushunchalarni qo'llaydi: maorif, ta'lim, tarbiya, rivojlanish, ijtimoiylashuv va hokazo. Komparativ tadqiqotlarning xos tushunchalariga – qiyosiy pedagogika, pedagogik komparativistika, dunyo ta'lim tizimi, milliy ta'lim tizimi, ta'limni globalashtirish, ta'limning ijtimoiy sinflari, ta'limni rivojlantirish strategiyasi, ta'limni standartlashtirish, zamonaviy xorij pedagogik tajribasi, milliy ta'lim va tarbiya tizimi, pedagogik madaniyat, ta'lim siyosati, ta'lim tendensiyalari va hokazo.

1.2 Qiyosiy pedagogikaning metodologik asosi (qiyosiy pedagogikaga umumiy metodologik yondashuvlar, qiyosiy pedagogika metodlari)

Qiyosiy pedagogikada metodologik yondashuvlar. Bir o'quv kursi doirasida dunyoning barcha davlatlaridagi ta'lim tizimi to'g'risida barcha axborotlarni o'rganib taqqoslab bo'lmaydi. Chunki 2012 yilda mustaqil statusga ega bo'lgan 257 mamlakat ro'yxatga olingan. Shu bilan bir qatorda dunyoda o'zining aniq statusiga ega bo'lmagan davlatlar ham bor (Abxaziya). Shunga qaramasdan, hududiy jihatdan shuningdek, madaniyati va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi jihatdan bir xil yoki bir-biriga yaqin bo'lgan davlatlarning ta'lim tizimini umumlashtirgan holatda o'rganish mumkin. Ana shunday murakkab vazifani bajarish uchun turli metodologik yondashuvlarni birgalikda qo'llash talab etiladi. Qiyosiy pedagogika sohasidagi tadqiqotlar uchun *ambivalentli, kompleks, insonparvar, tarixiy, madaniy, etnopsixologik, aksiologik* kabi metodologik yondashuvlar alohida ahamiyat kasb etadi.

Ambivalentli yondashuv u yoki bu hodisaning rivojlanish jarayonidagi ziddiyatli tendensiyalarni tadqiq qilishda qo'llaniladi; qiyosiy pedagogika muammolarini muayyan mamlakatdagi ta'lim taraqqiyotining xususiyati va o'ziga xosligi o'rtasidagi ziddiyatlarni hisobga olgan holda hal etish imkonini beradi. Bu yondashuv shuningdek, ko'pgina davlatlarga xos bo'lgan ta'lim taraqqiyotidagi inqirozli hodisalarni tahlil qilishda ham qo'llaniladi.

Kompleks yondashuv zamonaviy ta'limning ko'proq ahamiyatga ega bo'lgan komponentlarini (masalan: ta'lim mazmuni, metodlari, ta'limni tashkil etish shakllari, tarbiya qadriyatlari, ta'limni asosiy bosqichlari yoki darajalar sh.k.)ni ajratish va tahlil etish ahamiyatli sanaladi. Ushbu yondashuvni qo'llash orqali turli ta'lim tizimlarini u yoki bu asosini o'zaro taqqoslash mumkin bo'ladi. Turli ta'lim tizimlarini taqqoslash uchun zamonaviy ta'lim tarkibiy tuzilmasiga kiruvchi ta'lim va tarbiya maqsadi (bu ta'lim tizimi g'oyasi to'g'risida tasavvur hosil qiladi) muhim ahamiyatga ega.

Insonparvar yondashuv ta'lim jarayonida shaxs, uning o'rnini, ahamiyatini aniqlash yo'l va usullarini tushunishga yordam beradi. Bu o'rinda pedagogning ham, tarbiyalanuvchining ham subyekt pozitsiyasi asosiy o'rinda turadi. Turli mamlakatlarda ta'limning insonparvar rivojlanish imkoniyatlarini tahlil qilish hamda ta'limni insonparvarlashtirishda o'zlarining salmoqli hissalarini qo'shgan ta'lim va maorif arboblarni o'rganishga yordam beradi. Shuningdek, bu yondashuv turli ta'lim tizimlarida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida o'zaro munosabatni, u yoki bu ta'lim muassasasida har bir ta'lim oluvchining ijtimoiy va individual pozitsiyasini tushunishga ham yordam beradi.

Tarixiy yondashuv turli davlatlarda ta'limning davrlar va o'zgarib boradigan tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va boshqa shart-sharoitlarda rivojlanish jarayoni, dinamikasini tahlil etish va tavsiflash imkonini beradi. Ushbu yondashuvni amalga oshirish jarayonida u yoki bu davlatning ta'lim tizimini shakllantirish va rivojlantirishga poydevor vazifasini bajargan tarixiy voqea hamda hodisalarni hisobga olish zarur.

Madaniy yondashuv- jamiyatning umumiy madaniy rivojlanishi asosida ta'lim jarayonida yuz beradigan o'zgarishlar, yuksalishlarni kuzatish imkoniyatini beradi.

Etnopsixologik yondashuv- xalqlarning milliy xususiyatlari asosida milliy qadriyatlari, urf-odatlari, an'analarning yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga ta'sirini o'rganishga yo'naltirilgan bo'ladi. Har bir xalq, millatning o'zigagina xos madaniy-ma'naviy boyligi, mentaliteti ta'limning rivojlanishini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Aksiologik yondashuv-ijtimoiy tajribaning avloddan-avlodga o'tishi jarayonida qadriyatlar va g'oyalarning hal qiluvchi ta'sirini tahlil qilishga yordam beradi.

Qiyosiy pedagogika bugungi kunda ta'lim-tarbiya nazariyasi va amaliyotining rivojlanish qonuniyatlari va tendensiyalarining farqli xususiyatlarini qiyosiy o'rganadi. Qiyosiy pedagogika mamlakatda tanlangan maktab siyosatini yangilash va hayotiyalashtirish uo'llarini belgilashda maslahat berish, qabul qilingan qarorlar natijalariga ta'sir ko'rsatadigan shart-sharoit, tanlangan siyosatning oqibatlarini va uni amalga oshirish yo'llarining to'g'riligini oldindan ko'ra bilish kabi vazifalarni tahlil qiladi.

Qiyosiy pedagogika metodlari-metodologik yondashuvlar bilan bevosita bog'liq bo'lib, ular asosida amalga oshiriladi. Kompravistika uchun: tasvirlovchi, tarixiy, ijtimoiy, statistika, qiyoslash kabi metodlar ulkan ahamiyatga ega.

Qiyosiy pedagogika yondosh fanlarda qo'llanadigan tadqiqot metodlaridan ham foydalanadi. Tadqiqot jarayonida bu metodlar bir-biriga o'zaro ta'sir qilib bog'lanib ketadi. Qiyosiy pedagogikaning o'ziga xosligi shundan iboratki, uning asosiy tadqiqot metodi qiyoslash metodidir.

Taqqoslash (qiyoslash) turli madaniy an'analarga ega bo'lgan ta'lim tizimlarini o'zaro taqqoslash hamda qiyoslashga asoslanadi.

Taqqoslash metodi – ta'lim tizimlari, pedagogik nazariya va amaliyotdagi umumiy va farqli jihatlarni, shuningdek, qonuniyatlar va tendensiyalarning namoyon bo'lishini aniqlaydi.

Taqqoslash metodi ta'lim tizimlaridagi umumiylik va o'ziga xoslikni, pedagogik nazariya va amaliyotning o'xshash va farqli tomonlarni, qonuniyatlar va tendensiyalarning universal va spetsifik jihatlarni ajratish imkonini beradi. Masalan, hududiy jihatdan yaqin bo'lgan Xitoy va Yaponiya ta'lim tizimlarini bir-biriga qiyoslash imkoniyatlari kengroq. Ammo, bu ikki davlat ta'lim tizimlarini Evropa davlatlari bilan qiyoslash va taqqoslash maqsadga muvofiq bo'ladi. Fanlar ni qiyosiy metod bilan taqqoslash zarurligini ko'pgina olimlar uqtiradilar. Ularning fikricha, qiyosiy pedagogika fanlarni qiyoslash va taqqoslash obyektlar sohasidagi farqlarni aniqlash tufayli katta yutuqqa erishadi. Bu fanlarda qiyoslash xuddi qiyosiy anatomiya, botanika, tilshunoslik va boshqa fanlardagidek umumiy xarakter kasb etadi. Qiyoslanayotgan ma'lumotlarni taqqoslash turli ijtimoiy tizimga ega bo'lgan mamlakatlarda pedagogik hodisalarni qarama-qarshi va qiyosiy metod yordamida xalq maorifi tizimining ijtimoiy-iqtisodiy tuzum belgilangan prinsiplari, alohida mamlakatlar va maorif taraqqiyotining umumiy qonuniyatlari va tendensiyalari, ilmiy xususiyatlari aniqlanadi. Maktab va

maorifning ahvoli haqidagi miqdor va sifat ma'lumotlarini qiyoslash va solishtirish uchun umumiy sifat ko'rsatkichlari bo'lishi kerak.

Qiyoslash va solishtirishda quyidagilar hisobga olinadi: ijtimoiy, iqtisodiy tizim, ta'lim va tarbiya sohasidagi tarixiy an'analar, mamlakat fan-texnika va madaniyatning rivojlanishi darajasi, pedagogik nazariyalar va ularning tarbiya amaliyotida ta'siri aks etishidir.

Tadqiqot metodlari tahlil qilinadigan materialning vazifasi va mazmuniga bog'liq bo'lib, hamkorlikda qo'llanishi mumkin. Pedagogik hodisalar, muammolar metod ko'rsatkichlari klassifikatsiyasi esa yetarli mukammal emas va yanada mukammallashtirishni talab qiladi. Materiallar asosiy uch guruh: Sharq, Evropa hamda rivojlangan mamlakatlarda pedagogik hodisalarni qiyosiy tahlil qilish prinsipi asosida bayon etiladi. Pedagogik muammoni qiyosiy tahlil etishda mamlakatlar guruhi yoki alohida mamlakatning qo'yilishi va hal etilishi, tavsifi hamda darajasiga ta'sir ko'rsatadigan o'ziga xos xususiyatlari hisobga olinadi.

Tasvirlash metodi- tahlil qilish uchun zarur va etarli bo'lgan axborotlarni to'plash, aniqlangan dalillarning o'ziga xosligi, obyektivligi, guruhlanishi, tizimlanishi va tasnif etilishini tadqiq qilish uchun qo'llaniladi. Ta'lim tizimidagi yagona va o'ziga xos hodisalarni aniqlashni nazarda tutadi. Ko'p hollarda tasvirlash metodi ilmiy va badiiy adabiyotlarni o'rganish orqali turli mamlakatlarda ta'lim va tarbiya jarayonining yorqin lavhalarini ifodalash imkonini beradi. Masalan, rus jurnalisti va yozuvchisi V.V.Ovchinnikovning publististik asarlari- "Qayin ildizi(Angliya va inglizlar haqidagi fikrlar va taassurotlar)", "Sakura novdasi (Yaponlar qanday odamlar ekanligi haqida hikoya)"da biz Buyuk Britaniya va Yaponiyadagi ta'lim va tarbiya hamda bolalarni ijtimoiylashtirish to'g'risida ajoyib lavhalar tasvirlanganligining guvohi bo'lamiz. XVIII asrda yashab ijod etgan faylasuf Chesterfildning "O'g'limga xat" deb nomlangan mashhur asarida hozirgi zamondoshlarimiz uchun o'z ahamiyatini yo'qotmagan Angliyaning oqsuyak bolalari tarbiyasining o'ziga xos qadriyatlarini ko'rishimiz mumkin.

Tarixiylik metodi- turli davrlarda ijtimoiy-siyosiy davlatchilik shakliga ega bo'lgan mamlakatlarda ta'lim tizimining vujudga kelishi, rivojlanishi va taraqqiyoti, uning o'ziga xos muammolarini qiyosiy-tahliliy jihatdan o'rganish imkoniyatini beradi.

Tadqiqotning *tarixiy metodi* qiyosiy pedagogikada pedagogik hodisalarga nisbatan qo'llanishi mumkin. Milliy maorif tizimining paydo bo'lishi va shakllanishi, maorif va madaniyatning paydo bo'lishi va shakllanishi, maorif va madaniyatning rivojlanishidagi asosiy an'analar, xalq maorifi sistemasining tuzilishi, uning tarixiy davrda o'zgarishi, mamlakatda davlatning maktab siyosatiga maktab va dinning o'zaro munosabatiga xarakteristika, maorif taraqqiyotidagi traditsiyalar, muammolar va tendensiyalarni aniqlash, pedagogik g'oyalar, nazariyalar va maorifning ayrim muammolarini tadqiq etish va hokazo. Pedagogik muammoga oid xulosalashning genezisi va taraqqiyot xususiyatlarining tahliliga asoslangandagina ilmiy natija olish mumkin.

Ijtimoiylik metodi- zamonaviy ta'lim har qaysi mamlakatning iqtisodiy taraqqiyoti, xalqning ijtimoiy-ma'naviy yuksalishiga nechog'lik mos ekanligini

taqqoslashga qaratiladi. U xalq maorifi sistemalarining ijtimoiy xarakterini baholashni ta'lim-tarbiyaning maqsad va vazifalarini, mazmun va metodlarini, jamiyatning tuzilishini analiz qilish, maktab tashkil etishlarini nazarda tutadi. Zamonaviy ta'lim taraqqiyoti davrida innovatsion g'oyalar, konsepsiyalar, ta'limotlarning u yoki bu xalqning mentalitetiga, urf-odatlariga hamda asrlar davomida shakllangan qadriyatlariga uyg'unligini ko'rsatishga asoslanadi.

Statistika metodi- ta'limning miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarini tahlil qiladi.

Statistik metod- tavsiflash metodi bilan uzviy bog'langan statistik axborot berish bilan cheklanmaydi balki maorif sistemasiga va quyidagi pedagogik hodisalarga daxldor raqam va ma'lumotlarni tahlil qilish va baholashni ko'zda tutadi.

Bolalarni o'qishga jalb qilish, o'qitish bosqichlari bo'yicha o'quvchilarning sinfda qolib borishining oldini olish, sinflarning o'rtacha to'liqligi, o'quvchilarning ijtimoiy guruhi, davlat va shaxsiy o'quv yurtlari va ulardagi o'quvchilar soni nisbati, maktab yoshidagi bolalarning maktabdan tashqari tashkilotlarga jalb etilishi va boshqalar.

Tashviqot metodi- qator mamlakatlardagi keyingi tahlil va qiyoslash hamda xulosalar chiqarish uchun zarur axborotni jamlashga imkon beradigan pedagogik hodisalarining tashqi belgilarini tavsiflashda qo'llaniladi.

Tavsiflash metodi xalq maorifini o'quv-tarbiya masalalarining turi va tizimini turli darajadagi o'quv yurtlarining o'quv rejasi va dasturlari, o'qituvchilar tayyorlash va ularning moddiy ahvoli, maktabdan tashqari tarbiya sistemasi bolalar va yoshlar tashkilotlari faoliyatini analiz qilishda qo'llaniladi.

Analitik metodga analiz, sintez, umumlashtirish, induksiya, deduksiya. qiyosiy pedagogikada analiz, sintez, umumlashtirishdek mantiqiy jarayon ko'proq ahamiyatga ega. Barcha pedagogik hodisalarni tadqiq etishda tarixiy, tavsifiy, statistik va sosiologik metodlar yordamida va ular asosida analiz va sintez qo'llanishi umumiy baho berish va qiyosiy tahlil uchun zarur bo'lgan xulosa chiqarishga imkon beradi. Xususan, taraqqiyotning darajasida bir xil bo'lgan mamlakatlar guruhidagi xalq maorifi sistemasining asosiy xususiyatlarini ijtimoiy baholash, pedagogik nazariyalarga xarakteristika berish va ularning musobaqa hamda chet elga sayohat, tanlagan mavzu ustida mustaqil ishlash va yakunida og'zaki yoki yozma imtihondan iboratdir.

Adabiyotlar, arxiv manbalari, pedagogik bosma materiallarning **nazariy, qiyosiy-taqqoslovchi va qiyosiy-tarixiy tahlili** etarli darajadagi faktik materiallarni qo'llash lozimligini nazarda tutadi. O'rganuvchilar uchun manbalarni tahlil qilish tadqiqot va izlanishlar uchun muhim metod sanaladi. Shunday manbalar sirasiga eng avvalo o'tmish va hozirgi zamon pedagoglarning asarlari, me'yoriy-huquqiy hujjatlar, olimlarning tadqiqotlari, arxiv materiallari, statistik ma'lumotlar, o'quv reja va dasturlari kiradi.

Yuqorida sanab o'tilgan istalgan bir metodni qo'llash orqali qiyosiy pedagogikaning bosh metodologik masalasi – qaysi vositalar va qanday shakllarda zamonaviy xorij tajribasini o'z mamlakatimiz ta'lim tizimida qo'llash samarali natija berishi mumkinligini aniqlab beriladi.

1.3 Ilm va fanning bir sohasi sifatida qiyosiy pedagogikaning asosiy rivojlanish bosqichlari

Ixtiyoriy ilmiy bilimning barqaror rivojlanishning zaruriy sharti uning evolyutsion bosqichlarida ongli tarzda avloddan-avlodga o'tishidir. Pedagogika fanlari uchun bu juda muhim hisoblanadi. Chunki bir davrdan ikkinchi davrda uzluksiz o'tuvchi xususiyatga ega ta'lim-tarbiya'ning dolzarb va abadiy muammolari bir talay. Yangi ijtimoiy tarixiy sharoitda hamda fanning yangi rivojlanish bosqichida tarixiy ilmiy merosga tayanib ish ko'rish zarur. Shuning uchun pedagogikaning tarixi ikkilamchi masala yoki qadimiy ashyolar yig'indisi bo'lmay, doimiy taraqqiyotda bo'lgan muammolarni o'z ichiga qamrab olgan majmua hisoblanadi. Ularning batafsil tahlili pedagogika fanlariga oid ixtiyoriy sohaning ilmiy tadqiqotlari nazariy metodologik darajasini mukammallashtiradi. Odamning kasbiy va aqliy kamolotida muhim ko'rsatkichga aylanadi. Bularning bari qiyosiy pedagogikaga ham to'la aloqador hisoblanadi. Qiyosiy pedagogika tahliliga metodologik yondashuvlar majmuini hisobga olgan holda biz uning besh taraqqiyot bosqichini ajratamiz: ***ilmiydan oldingi bosqich, paydo bo'lish bosqichi, rivojlanish bosqichi, inqiroz bosqichi, integratsiya bosqichi.***

1-bosqich (ilmiydan oldingi) – qadimgi davrlardan XIX asrgacha.

2-bosqich (paydo bo'lish) – XIX asr oxiridan XX asr boshlarigacha.

3-bosqich (rivojlanish) – XX asr boshlaridan XX asrning 60-yillarigacha.

4-bosqich (inqiroz) – XX asrning 60-yillaridan 80-yillarigacha.

5-bosqich (integratsiya) – o'tgan asrning 80-yillaridan hozirgacha bo'lgan davr.

Qiyosiy pedagogika taraqqiyotining birinchi bosqichi – qadimgi davrlardan XIX asrgacha.

Bu davr qiyosiy-pedagogik tadqiqotlar rivojlanishining boshlang'ich bosqichi hisoblanadi. Yoki bu davrni boshqacha qilib, ***falsafiy*** davr deb atash mumkin. Chunki barcha muammolar falsafa fani doirasida ko'rilgan. Turli mamlakatlarda ta'lim-tarbiya masalalari, ya'ni “Ular qanday o'qitadilar?” degan savol qadim davrlardanoq ko'pchilikni qiziqtirib kelgan. Ko'pgina davlatlar o'z bolalarini, yosh avlodni tarbiyalash uchun qo'shni davlatlarning tajribalarini ham qo'llaganlar. Masalan, qadimgi grek faylasufi Platon spartaliklarning tarbiya metodlarini o'z vatani Afina maktablarida qo'llash imkoniyatlarini ochib bergan. Qadimgi Rim tarixchisi Tassit esa o'zining “Nemislarning kelib chiqishi va Germaniyaning joylashgan o'rnini” deb nomlangan asarida o'sha vaqtlardagi nemis qabilalarida bolalar va yoshlar tarbiyasining o'ziga xos jihatlarini bayon etadi. Qadimgi yunon tarixchisi Gerodotning “Tarix” kitobida qadimgi forslar, saklar, massagetlarning ta'lim-tarbiyaviy qarashlariga oid muhim ma'lumotlar berilgan. Bunda forslarning eng sharaflaydigan narsasi jasurlik ekanligi, shunga ko'ra ular oilada ko'p o'g'illarning bo'lishidan faxrlanishlari va o'g'il bolalar tarbiyasiga alohida e'tibor berilishini ta'kidlaydi. Faylasuf forslarning zodagon yoshlari tarbiyasi xususiyatlarini tasvirlar ekan, yunon yoshlarini tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlarini shakllantirishda ulardan o'rnak olishni maslahat beradi.

Ammo bular qisqa va unchalik dalillanmagan kuzatishlar bo'lib, etnografik yoki tarixiy xotiralarda izini qoldirgan xolos. Shuning uchun bunday kuzatishlarni o'sha davrga xos bo'lgan ilmiy tasavvurlar doirasiga kiritish qiyin. Deyarli

dunyoning barcha faylasuflarini yosh avlod tarbiyasi qiziqtirgan va bu to'g'risidagi o'z qarashlarini ular qo'shni davlat urf-odatlarini va an'alarini taqqoslagan holda bayon etganlar. Ularning ba'zilar bevosita ta'lim-tarbiya ishiga ishtirok etganlar. Masalan, Djon Lokk (Angliya) yoki Konfustiy (Xitoy).

Sharq Uyg'onish davri yirik mutafakkiri Abu Nasr Forobiy o'zining "Fozil odamlar shahri" nomli asarida ta'lim – tarbiyaga, inson kamolotiga munosabat nuqtai nazaridan ikki xil shahar yoki mamlakat – fozil hamda johil odamlar shahrini o'zaro qiyoslaydi. Ta'lim-tarbiya borasidagi eng nodir va qimmatli tajribalarni "Fozil shahar" timsolida ko'rsatsa, ta'lim-tarbiya borasidagi eng nomaqbul va xunuk hodisalarni (didaktogeniya) "Johil odamlar shahri" misolida ko'rsatadi. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari ham komil inson tarbiyasi to'g'risidagi eng qimmatli qadriyatlarni o'zida mujassamlashtiradi. Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asarida ham ta'lim, tarbiya, mudarris, dars, komillik, ilm, kasb-hunar to'g'risi g'oyalar bayon etiladi. Bunda mudarris va shogird munosabatlari odobi to'g'risida qimmatli ma'lumotlar keltiriladi.

O'rta asrlarda G'arbiy Yevropadagi madaniy vaziyat ta'lim-tarbiya sohasining xalqaro qiyoslashga qiziqishini muvofiqlashtirmagan edi. Ming yillar davomida ta'limda ham boshqa madaniy sohalarda kabi cherkov yakka hokimligi mavjud bo'lib, o'qitishning asosiy tili hisoblangan. Buning natijasida turli mamlakatlarda o'quv muassasalari tashkil qilinishi; ta'lim maqsadi, metod va mazmuniga ko'ra o'xshash, bir-biridan deyarli farqlanmagan.

So'nggi o'rta asrlarda Yevropa millatlar shakllanish jarayonini boshdan kechirdi. XVIII asrga kelib bir qadar rivojlangan mamlakatlarda bu jarayon o'z yakuniga yetdi. Milliy birlik hayotning turli sohalarga va xalqlarning milliy o'zligiga ijobiy ta'sir qildi. O'z navbatida bu ta'sir madaniyat va ta'lim sohasida ham kuchli namoyon bo'ldi. Milliy tillar uzluksiz ravishda lotin tilini siqib chiqara boshladi. Har bir mamlakatning o'quv muassasalari o'zining milliy xususiyatlarini shakllantira boshladi va cherkovga tobeligi ancha susaydi.

O'rta asrlarda Yevropaning ko'plab mamlakatlarida qo'shni mamlakatlarda ta'lim tizimi tashkil qilinishi bilan tanishish ehtiyoji kuchaydi. Turli davlatlardagi ta'lim-tarbiya tizimi to'g'risidagi qiyosiy tahlil namunalarini Ya.A.Komenskiy va boshqa mashhur pedagoglarning asarlarida ham ko'rish mumkin. Boshlang'ich maktabdan universitetgacha bo'lgan ta'lim tizimining uzluksiz strukturasi va tamoyillarini ishlab chiqishda Ya.A.Komenskiy Chexiya, Vengriya, Gollandiya, Shvetsiya kabi mamlakatlar tajribasiga ko'p marta murojaat qiladi. Shuningdek, badiiy-falsafiy asarlarda ham qiziqarli ma'lumotlarni uchratish mumkin. M.Moten (Fransiya) yoki Chesterfeld (Angliya) shular jumlasidan. M.Monten o'zining "Tajribalar" deb nomlangan asarida Uyg'onish davrida Fransiyadagi ta'lim-tarbiyaning o'ziga xos jihatlari to'g'risida ma'lumot beradi. Uning bola shaxsini har tomonlama shakllanishida tarbiyaning va rivojlantiruvchi ta'lim muhitining roli to'g'risidagi qarashlari keyinchalik, D.Lokk va J.J.Russo singari pedagogika fanining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan mutafakkirlarning pedagogik qarashlariga o'z ta'sirini o'tkazdi.

1641 yilda ingliz milliy ta'lim tizimini shakllantirishda uning bilimlaridan foydalanish uchun Londonga taklif qilinadi. Yirik mashina sanoati yaratilish

davrida bolalarga maktab ta'limi berish keng tus oldi. Kasbiy ta'lim shakllanishiga dastlabki qadamlar qo'yildi. Qator mamlakatlarda davlat ta'lim tizimi asoslari yuzaga kela boshladi. Yevropa pedagogik tafakkuri evolyutsiya bosqichlarida XVIII asr oxiri XIX asr boshlari juda muhim davr hisoblanadi. Bu esa, xorijiy pedagogik tajriba va uni milliy ta'lim muammolariga qiyoslashga qiziqishni kuchaytirdi. Shu tarzda yangi ilmiy yo'nalish-qiyosiy pedagogika yuzaga kelishi uchun obyektiv manbalar hosil bo'la boshladi. Bu ilmiy yo'nalish ta'lim-tarbiya'ni xalqaro qiyoslab o'rganishga ixtisoslashishi ko'zda tutilgan edi.

Bu g'oyalar pedagogik fikr taraqqiyotiga katta ta'sir o'tkazgan bo'lsada, biz ularda qiyosiy pedagogikaning ilmiy asoslanganligini ko'rmaymiz. Qiyosiy pedagogika fan sifatida XIX asrda shakllana boshladiki, bunga qator ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy shart-sharoitlar ta'sir ko'rsatdi.

Qiyosiy pedagogika taraqqiyotining ikkinchi bosqichi – ilmiy qiyosiy pedagogikaning paydo bo'lishi (XIX asr oxiridan XX asr boshlarigacha). Bu davrda qiyosiy pedagogika fan sifatida ilmiy asoslandi va pedagogikaning mustaqil sohasiga aylandi. Mohiyatan olib qaraganda, bu davr qiyosiy pedagogikaning alohida fan sohasi sifatida pedagogik hodisalarni ilmiy asosda o'rgana boshlangan ilk davri edi, desak xato bo'lmaydi. Bu davrda turli davlatlarning ta'lim tizimidagi rivojlanish tendensiyalari va qonuniyatlari ajratila boshlandi, ularning ilk qiyosiy tahliliga ilmiy yondashildi.

Ayrim Yevropa pedagoglari XIX asrda ta'lim taraqqiyotining xorij tajribasini diqqat bilan o'rgandilar. Bu tajribalardan o'z mamlakatlarida maktab ishlarini yaxshilashda foydalanishga harakat qilishdi. Bu izlanishlar ta'limda statistika mavjud emasligi, maktab qonunchiligi va pedagogik hujjatlarini yuritishni tizimlashtirish, materiallarning kamchiliklari tufayli katta muammoga duch keldi. Xorijiy ta'lim bilan tanishuv asosan «pedagogik sayohat» tarzida, ya'ni pedagoglarning xorijiy mamlakatlarga tashrifi orqali amalga oshirilgan. Bunday tadbirlar ko'pincha shaxsiy tashabbus natijasida yuzaga kelgan. Lekin ba'zida hukumat topishirig'i bilan amalga oshirilgan «sayohat»lar qayd etilgan, chunki ta'lim taraqqiyoti masalalari asta-sekin davlat hokimiyati etiborini o'ziga jalb qila boshlagan.

“Vaterlo yonidagi jang Itona sport maydonlarida yutilgan edi”, “Sad yonidagi jangda pruss maktab o'qituvchisi g'olib chiqdi”. Bular ingliz qo'mondoni gersog Vellington va nemis konsleri Bismarkning mashhur iboralari bo'lib, XIX asrdayoq Yevropa davlatlarining yetakchi arboblari maktab ahamiyatini “katta siyosat”dagi dastaklardan biri sifatida tushunganligini isbotlaydi. Deyarli barcha Yevropa mamlakatlarida maktab islohoti amalga oshirildi. Bu mamlakatlarning islohotchilari quyidagi savollarga javob topishi kerak edi.

Milliy ta'lim tizimida qanday turdagi o'quv muassasalarini tashkil qilish kerak?

Ta'lim tizimini nazorat qilish vakolatini kimga berish kerak-davlatgami, cherkovgami, o'quvchilarning ota - onasigami?

Ta'lim qay yo'sinda moliyalashtiriladi? Mumkinmi?

Markaziy va mahalliy hokimiyat bog'liqligi qanday bo'ladi?

Turli shakldagi o'quv muassasalari uchun o'qituvchilar qanday tayyorlanashi kerak? Tabiiyki, hukumat va pedagogik jamiyat xorij tajribasi haqida ishonchli va batafsil ma'lumot olishga qiziqish bildiradi. Lekin ularning bari qiyosiy-pedagogik tadqiqotlar sohasidagi dastlabki urinishlar edi, xolos.

XIX asr ishlab chiqarish inqilobi hamda ishlab chiqarish mehnati va urbanizatsiya sharoitida fan va maorif yuqori sur'atlarda rivojlana boshladi. Aynan an shu davrda fan kasbiy xususiyatga ega bo'la boshladi. Dastlabki davriy ilmiy jurnallar chop etila boshlandi, bilimlarni tizimlashtirish jarayoni ham keng quloq yozdi, dunyoning ko'pgina mamlakatlarida ensiklopediyalar chop etildi.

Ishlab chiqarishning rivojlanishi bilan bolalarni maktablarga keng jalb etish va kasbiy ta'limni tashkil etish borasida ilk qadamlar qo'yildi, ko'pgina davlatlarda xalq maorifining davlat asoslari yaratildi. Aynan shu davrda ko'pgina yirik rivojlangan davlatlar – AQSH (1852), Buyuk Britaniya (1870), Fransiya (1882)da majburiy maktab ta'limiga o'tila boshlandi. Dastlabki qiyosiy pedagogika va qiyosiy ta'lim markazlari – milliy va xalqaro axborot muassasalari paydo bo'la boshladi. Bu erda turli mamlakatlardagi ta'lim tizimi to'g'risida axborotlar tanlanib, tahlil qilinardi (Vashintondagi maoriy xizmati (1866), Parijdagi pedagogika Muzeyi (1879) va b.).

XIX asrda ko'pgina milliy ta'lim tizimlarida islohotlar o'tkazila boshlanadi. Ular quyidagi shart-sharoitlar bilan bog'liq holda amalga oshiriladi: birinchidan, boshlang'ich maktab ta'limini joriy etish va takomillashtirish zarurati. Bu rivojlangan industrial davlatlarda muayyan yoshdagi bolalar uchun, ularning ijtimoiy mavqeyi va moddiy ta'minlanganlik darajasidan qat'iy nazar boshlang'ich ta'limning majburiyligi, ya'ni boshlang'ich ta'lim davlat tizimini barpo etishga olib keldi. Ikkinchidan, turli davlatlarning maktablarida mazmuniy, tashkiliy va metodik ko'lamdagi salmoqli o'zgarishlarning sodir bo'la boshlaganligi. Uchinchidan, jamiyat iqtisodiy imkoniyatlar dinamikasining o'sishi bilan bog'liq holda tez sur'atlarda kasb tayyorgarligi ta'limini rivojlantirish zaruratining vujudga kelganligi.

Bundan tashqari aynan XIX asrda Evropada pedagogik fikr taraqqiyoti gullab yashnay boshladi. Pestalotsi pedagogikasi (Shvetsariya). Russoning erkin tarbiya nazariyasi (Fransiya), Kantning axloqiy tarbiya to'g'risidagi pedagogik-falsafiy g'oyalari (Germaniya) G'arbiy Evropa va butun dunyoga o'zining ijobiy to'liqlarini tarqata boshladi. Shu tariqa yangi ilmiy soha – qiyosiy pedagogikaning paydo bo'lishi uchun obyektiv shart-sharoit vujudga keldi. Bell-Lankaster tizimi, Pestalotsi pedagogikasi, Russoning «erkin tarbiyasi», ma'naviy tarbiya haqidagi Kant fikrlari umumYevropa miqyosida tadbiiq qilina boshlandi. Qiyosiy pedagogikaning paydo bo'lishi va rivojlanishi masalalari to'g'risida olimlar turli nuqtai nazarni yo'qlab chiqdilar.

Qiyosiy pedagogika fanining asoschisi fransuz publissisti va tadqiqotchisi Mark Antuan Julen (1775-1848) bo'lib hisoblanadi. U birinchi bo'lib, qiyosiy pedagogikaning maqsadi va vazifalarini aniqlash, turli mamlakatlar bo'yicha muvofiq ashyoviy materiallarni to'plash va tizimlashtirish, ta'limni rivojlantirishda Jahon tajribasini o'rganish muammosini ilmiy tadqiqotlarning alohida mustaqil sohasi sifatida ajratish masalasini o'rtaga tashlagan edi.

Mark Antuan Julen o'zining "Qiyosiy pedagogikaga oid ishga qo'shimchalar" degan maqolasida Shvetsariya va Fransiya maktablarining pedagogik tajribasini qiyosiy tahlil qiladi. Keyinchalik uni Julen Parijskiy deb atay boshladilar. Shu nom bilan u qiyosiy pedagogika tarixiga kirdi. Uning fikricha, qiyosiy pedagogikaning asosiy va bosh masalasi – turli mamlakatlarning pedagogik tajribasini o'rganish orqali dunyo miqyosida imkon qadar ratsional ta'lim tizimini yaratish.

Shuning uchun G'arbiy Yevropa adabiyotlarida Julen «Qiyosiy pedagogikaning otasi» sifatida tilga olinadi.

Darhaqiqat, u ta'lim taraqqiyotining xalqaro tajribasini alohida ilmiy tadqiqotlar yo'nalishi sifatida o'rganish masalasini o'rtaga qo'ydi. Julen faoliyati va qiziqishlari keng miqyosga ega edi. 1792 yilda 17 yoshli o'spirin diplomatik missiya tarkibida Angliyaga jo'natiladi. U yerdan qaytgach, Fransiya departamenti tarkibidagi inqilobiy hukumat a'zosiga aylanadi. 1794 yilda Fransiya markaziy ma'muriy ta'lim siyosati natijasida tuzilgan «Xalq ta'limi ijroya qo'mitasi» faoliyatida ishtirok etadi.

XIX asr boshlarida Julen mashhur publissist sifatida yuzlab maqolalar, ijtimoiy munosabat, madaniyat va siyosatning turli masalalariga oid broshyuralar e'lon qildi.

Julen Parijskiy Robesperning tarafdori va faol publissisti bo'lganligi sababli tabiiy ravishda uning ta'lim to'g'risidagi g'oyalari va qadriyatlari Fransiya inqilobining g'oya va qadriyatlari bilan mos edi. Uning uchun qiyosiy pedagogikani rivojlantirishning asosiy g'oyasi jamiyat taraqqiyoti va shu asosda xalq farovonligini aks ettirar edi. Taraqqiyot (progress) g'oyasi fransuz ma'rifatparvarlarining asosiy va muhim postulati bo'lib, u jamiyatni bosqichma-bosqich rivojlantirib borib, eng past yashash sharoitidan yuqori yashash sharoitiga ko'tarilish. Buning uchun barcha vositalardan, shuningdek, zarur bo'lsa inqilobiy to'ntarishdan ham foydalanish lozimligi ko'rsatilgan edi. Aynan maorif, ta'lim keng ma'noda "Aql-idrok podshohlig" ijtimoiy progressni tezlashtirishning asosiy va zarur sharti hisoblangan. Shuning uchun ham turli mamlakatlardagi pedagogik voqelik birinchi navbatda, fransuz inqilobi namoyondalarini qiziqtirar edi. O'sha paytda Evropa mamlakatlari uchun umumiy bo'lgan ta'lim nazariyasini ishlab chiqish va shu orqali madaniy taraqqiyotga erishish, nisbatan yangi g'oya sanalar edi. Bu g'oya fransuz burjuaziya inqilobi bosh shiori bilan bog'liq bo'lib, bunda jamiyatni rivojlantirishning asosiy qadriyati ozodlik, tenglik va birodarlik, deb hisoblanadi. *Ozodlik, tenglik va birodarlik* (fr. *Liberte`, E`galite`, Fraternite`*) – Buyuk fransuz inqilobining shiori bugungi kunda Fransiyaning davlat shiori bo'lib hisoblanadi. O'sha paytda bu shior fransuz ta'limini isloh qilishning asosiy g'oyasi bo'lib hisoblangan. Uning tashabbusi bilan «Birlashgan millatlar fransuz jamiyati» tashkil qilindi. Bu jamiyat Yevropa tarixiy adabiyotlarida zamonaviy xalqaro tashkilotlar yuzaga kelishiga asos bo'lganligi, qayd qilinadi. Julen ta'lim va tarbiya muammolariga juda qiziqar edi. 1810 yilda Julen Pestalotsining Iverdan Shvestariyadagi tarbiya maskanini ziyorat qilgach, uning g'oyalarini jiddiy yoqlay boshladi.

Julen 1848 yilda vafot etdi. Deyarli bir asrga yaqin vaqt ichida uning publististik va ilmiy merosi esga olinmadi. Faqat 1935 yilda uning “Qiyosiy tarbiya bo’yicha tadqiqotlarga oldindan eslatmalar va ocherk” nomli (1817) kichik broshyurasining Parijdagi eski kitoblar do’koni peshtaxtasidan tasodifan topilishi, uning ismini xalq xotirasidan butunlay o’chib ketishining oldini oldi. Uning ijodiga qiziqishni qayta uyg’otdi. Aynan shu asarda «qiyosiy tarbiya» va «qiyosiy pedagogika» atamalari ilk bor qayd qilingan edi.

Julen 1817 yilda birinchi bo’lib xorij davlatlardagi ta’lim amaliyotini analitik taqqoslash natijasi sifatida ta’lim-tarbiya mazmuni, metod-vositalari va ta’lim nazariyasini o’rganish jarayonini ifodalash uchun **“qiyosiy pedagogika”** atamasini qo’lladi.

Julen fikriga ko’ra, qiyosiy pedagogikaning vazifasi Yevropada, keyinchalik esa butun dunyoda ta’lim-tarbiyaning eng oqilona tizimini yaratish maqsadida turli mamlakatlarning pedagogik tajribasini o’rganishdan iborat. Pedagogika ijobiy fanga aylanishi uchun - deb yozgan edi Julen, - turli mamlakatlarning dalillangan materiallari tahliliga asoslangan bo’lishi lozim. Turli-tuman dalillar to’planishi, tartibga keltirish va ularni tizimlashtirish usullari aniqlanishi zarur. Bu omillarsiz pedagogik faoliyat va uning natijalari subyektiv, cheklangan qarashlarga, yosh avlod ta’lim-tarbiyasi bilan shug’ullanayotgan mutaxassislar fikri va irodasiga bog’liq bo’lib qolaveradi.

Julen batafsil ma’lumot olish maqsadida, katta, so’rovnoma (250 dan ko’proq savollar) tuzdi. Bu so’rovnoma maktab faoliyatining turli jihatlariga aloqador edi. So’rovnomaning Yevropaning turli davlat hokimyatlariga yuborishni taklif qiladi. So’rovnomaning ayrim savollarida miqdoriy va daliliy ko’rsatkichlar to’plash maqsadi ko’zda tutilgan edi. (Masalan, sinf mashg’ulotlarining kunlik davomiyligi, o’quv yili necha oydan iborat, imtihon o’tkazish tartibi qanday, turli o’quv muassasalarida bitiruvchilarga qanday turdagi diplom yoki shahodatnoma beriladi kabi). Shuningdek, sezilarli darajada murakkab savollar ham mavjud bo’lib, ular bugungi kunda ham fanda muammoli masalalardan hisoblanadi. O’quvchilarning individual xususiyatlari hisobga olinishi va aniqlanishi qanday amalga oshiriladi? Mehnatsevar, itoatkor, lekin yetarli layoqatga ega bo’lmagan bolalarning dars jarayonida aytarli mashaqqatsiz saboqni o’zlashtirayotgan qobiliyatli bolalardan ortda qolishi, ularda maktabga nisbatan qoniqmaslik hissining paydo bo’lishiga sabab bo’lmaydimi? kabi savollarga javob izladi.

Julen so’rovnoma yordamida olingan ma’lumotlar qaysi davlat ta’lim taraqqiyotida yetakchilik qilmoqda, qaysilari ortda qolgan, rivojlanishga to’sqinlik qiluvchi omillar va ularni bartaraf etish yo’llari kabi muhim masalalarga oydinlik kiritishiga umid qilgan edi.

Bu g’oyalarni amalga oshirish uchun umumyevropa ilmiy-pedagogik muassasa tashkil qilinishi kerakligini ta’kidlagan. Bu muassasalarda o’qituvchilar tayyorgarligini yaxshilashga yo’naltirilgan ilmiy tadqiqotlar o’tkazilishi va tajriba yo’li orqali yangi pedagogik usullar amaliyotda sinab ko’rilishini nazarda tutgan. Bularning bari qiyosiy pedagogika yaratilishi va Yevropaning barcha mamlakatlarini ta’lim amaliyotida uzluksiz yaqinlashuv jarayoni yuzaga kelishiga asos bo’ladi, deb hisoblagan. Bu g’oyalar bir asrdan ortiq vaqt o’tgach, YUNESCO

– ta’lim bo’yicha xalqaro byuro hamda boshqa xalqaro tashkilotlar faoliyati natijasida amalga osha boshladi.

Julenning qiyosiy pedagogikaga doir tadqiqotlari o’sha davrda keng yoyilmadi. Julen Parijskiy turli Evropa davlatlaridagi ta’lim muassasalarida amal qiladigan ta’lim mazmuni va metodini o’zaro taqqoslash va tasnif etish uchun xalqaro tadqiqot markazi tuzishni taklif qiladi. Bundan tashqari u xalqaro pedagogik jurnal chop etish zarur ekanligini uqtiradi. Uning fikricha, pedagogika samarali fan bo’lishi uchun u turli mamlakatlardagi ta’lim to’g’risida manbalarni tahlil qilishga asoslanishi; turli dalil va faktlarni tizimlashtirish hamda ularni tahlil qilishi (interpretatsiya) lozim. Faqat shunday yondashilsagina ta’lim faoliyati va uning natijalari ta’lim-tarbiya ishi bilan shug’ullanuvchi kishilarning qarashlaridagi subyektivlik va pozitsiyadagi individualligidan xoli bo’ladi.

Fransiyada samarali natijaga erishgan “pedagogik sayohatchi” taniqli faylasuf, Sorbonna professori V.Kuzen (1792-1867) bo’ldi. U hukumat topshirig’i bilan 1830 yilda bir necha bor Prussiyaga sayohat qildi va pruss ta’lim tizimini o’rgandi. Bularning natijasi, pruss ta’lim muassalari, ularning tuzilishi, faoliyat usullari haqida batafsil ma’ruzalarida aks etdi. Hukumat maktab islohoti o’tkazishda bu ma’ruzalarda keltirilgan dalil va xulosalardan keng foydalandi. Keyinchalik, nemis va ingliz tiliga tarjima qilingan Kuzen ma’ruzalari boshqa mamlakatlarning pedagoglari tomonidan yakuniy hisobot tayyorlashda namuna bo’lib xizmat qildi.

XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Fransiyada xorijiy ta’limni qiyoslab o’rganish davom etdi. 1865 yilda ma’rifatparvar J.N.Boduen Belgiya, Germaniya va Shvetsariyada boshlang’ich ta’limining zamonaviy holati to’g’risida ma’ruza qildi.

Prussiya bilan bo’lgan urushdagi mag’lubiyatdan so’ng, Fransiya (1870)da nemis maktabi tajribasiga qiziqish tobora ortdi. 1880-1890 yillarda E.Dreyfus-Brissak tomonidan uch tomli “Yangi tarbiya qiyosiy-pedagogik o’rganish” asari nashr qilindi. XX asrda yaratilgan asarlar orasida Fredelning ikki asarini alohida qayd qilish mumkin. “Xorijiy mamlakatlarda muallim tayyorlash” (1903) va “Xorijiy pedagogika”(1910). Bu kitobda 9 mamlakatning majburiy ta’lim shakllanishi qiyosiy tavsiflangan. Bu G’arb mamlakatlari (Angliya, Germaniya, Italiya, AQSH) maktablari bilan bir qatorda Yaponiya va Misrda ta’lim shakllanishining xarakterli jihatlarini yoritib bergan dastlabki asar hisoblanadi. Nemis pedagogikasida pedagogik qiyoslash elementlarini aks ettirishga uringan dastlabki asarlar XVIII asrda paydo bo’ldi. 1784 yilda I.Brinkmanning “Qadimgi va zamonaviy tarbiyani qiyoslash va ulardan qaysi biri tabiatga ko’proq muvofiqligini ajratish” asari chop etildi. 1790 yilda Frayburg gimnaziyasi direktori F.Xekt “Angliya va Germaniya maktab tizimlari qiyosi” nomi ostida ma’ruzalar to’plamini lotin tilida nashr qildi.

XIX asrda Germaniyada eng yirik xorijiy pedagogik muammolar tadqiqotchisi Myunxen universiteti professori F.Trish (1774-1860) edi. O’zining xorijiy sayohatlari natijasida maktab rahbariyati topshirig’iga ko’ra, pedagogik hujjatlarni batafsil tahlil qilish asosida 3 tomlik “Germaniya, Gollandiya, Belgiya va Fransiyada zamonaviy umumiy ta’lim holati” asarini yaratdi. Bu asarda

qiyoslanayotgan unsurlar juda aniq ifodalangan. Trish nemis ta'limiga o'xshash Gollandiya ta'limini tavsiflab, uni o'z belgilariga ko'ra qiyoslaydi. Fransuz va golland ta'lim tizimlari mo'tadil bo'lgan Belgiya ta'limini tahlil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Fransiya, Angliya yoki Germaniya maktablarining o'ziga xos milliy belgiga egaligiga qaramasdan, xristian sivilizatsiyasi va yevromadaniyat tamoyillariga asoslangan "umumiy ruh" ularning barchasiga aloqador "Yevropa tarbiyasi" masalasini ko'tarib chiqdi. Bu Yevropa xalqlari va mamlakatlarining yaqinlashuvida zaruriy manba ekanligini ta'kidlaydi.

XIX asrda yaratilgan asarlar sirasiga L.Shteynning "Angliya, Germaniya, Fransiya va boshqa mamlakatlarda boshlang'ich va kasbiy ta'lim" (1868) asari va A.Baumeysterning "Yevropa va Shimoliy Amerikada Oliy ta'lim shakllanishi" (1897) kabilarni keltirish mumkin.

AQSHda xorijiy tajribaga qiziqish, Yevropa pedagogik an'analarga tayanuvchi milliy ta'lim tizimi shakllanish davrida kuzatildi. K.Stou o'zining "Yevropada boshlang'ich umumiy ta'lim to'g'risida hisobot" nomli asarida turli mamlakatlarning maktablari rivojlanishi muammosini siyosiy tizim va ijtimoiy strukturaga bog'lab o'rganishga harakat qildi. AQSHda ta'limning xorij tajribasini o'rganishga intilgan marifatparvarlardan G.Mann (1796-1859) va G.Bernard (1811-1900) larning hissasi katta. G.Mann AQSHda davlat byudjetidan moliyalashtiruvchi bepul majburiy boshlang'ich ta'lim joriy qilinishi tashabbuskori bo'ldi. Bu masalaning samarali hal qilinishi uchun Yevropa mamlakatlari tajribasidan foydalanish zarurligini ta'kidladi. U nemis maktablarida Pestalotsi metodlarining amaliy qo'llanishiga katta qiziqish bilan qaradi. Yevropaning yetti mamlakatida bo'lib, maktab ta'lim tizimi bilan batafsil tanishib, ular asosida ma'ruza tayyorladi. Uning ma'ruzalari jamiyatda yaxshi qabul qilindi va maktab ta'limining kelgusi istiqboli to'g'risida hukumat qarori qabul qilinishiga muayyan ta'sir ko'rsatdi. Mann Massachusets shtatida ta'lim ishlari bo'yicha kengashini boshqardi. Aynan shu shtatda AQSHda birinchi bo'lib majburiy ta'lim haqida qonun qabul qilindi. 1853 yilda Mann tomonidan «Amerika ta'lim jurnali»ga asos solindi. Bu jurnalda milliy muammolar xorij tajribasiga qiyoslanib talqin qilindi. Shuningdek, taniqli olim G.Bernard Yevropa davlatlariga «pedagogik sayohat» uyushtirib, ta'limning xorijiy tajribalarini batafsil o'rgandi. U maktab siyosati, ta'limning markaziy va mahalliy boshqaruv organlari faoliyati va tashkillashtirilishi kabi masalalarga alohida e'tibor qaratdi. Pedagogik doirada "Turli mamlakatlardagi xalq ta'limi tizimi, statistikasi va ro'yxatga olinishi" nomli ikki tomlik monografiyasi shuhrat qozondi. 1867 yilda AQSHda marifatparvarlik federal byurosi tashkil qilindi. Bernard bu byuroning birinchi rahbari sifatida faoliyat yuritib, amerikalik pedagoglarni Yevropaga ingliz, nemis, fransuz maktablari faoliyati bilan tanishshish maqsadida safar qilishini tashkillashtirga yordam berdi. 1898-1899 yilda Dj.Rassel qiyosiy pedagogika bo'yicha Kolumbiya universitetida ma'ruza o'qidi. Keyinchalik, qilingan qator tadqiqotlarda nafaqat maktab, balki ma'orif tizimining boshqa bo'g'inlari ham tadqiqot obyektiga aylandi.

Turli mamlakatlarda ta'lim taraqqiyotiga ta'sir qiluvchi omillar tahlilini M.Sedler davom ettirdi va chuqurlashtirdi. U maktab ta'limining barqaror

rivojlanishi uchun maktab tashqarisidagi omillar iqtisodiyot, davlat tizimi, cherkov va oila ta'sir ko'rsatishini, aynan shu omillar nuqtai nazaridan ingliz grammatik maktabi, fransuz litseyi va nemis gimnaziyalari o'rtasidagi o'xshash va farqli jihatlarni tavsiflaydi.

Uning 1900 yilda "Xalq ta'limi xorijiy ta'lim tizimi bilan tanishuv qanday amaliy qiymatga ega" kitobi nashr etildi:

Sedler tashabbusi bilan 1894 yili Londonda ingliz va xorijiy maktablar taraqqiyoti to'g'risida axborot to'plash, yangi maqola va kitoblar kattaligini tuzish mos ravishda analitik dokladlar tayyorlash kabi vazifalarni bajaruvchi maxsus muassasa tuzildi. Bu hujjat va materiallar 1902 yilda qabul qilingan va mamlakatning o'rta ta'limining bir necha o'n yillik sturukturasini belgilab bergan Parlament akti mazmuniga sezilarli tasir o'tkazdi.

M.L.Rodionov Rossiyada qiyosiy pedagogikaga oid dastlabki tadqiqotlar XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida paydo bo'lganligini ko'rsatadi. Ularga K.D.Ushinskiy va L.N.Tolstoyning ba'zi ishlarini kiritish mumkin. Ularning har ikkalasi ham Evropa ta'lim tizimini tahlil qilib, uni rus ta'lim tajribasiga qo'llashga tanqidiy yondashadilar. Ushinskiy rus milliy ta'lim tarbiya tizimining ustivor yo'nalishlarini ajratib ko'rsatadi va Evropa ta'lim tizimidagi alohida olingan ayrim elementlarnigina rus maktablari tajribasida qo'llash mumkinlini taklif etadi. Tolstoy esa, xalq maktabining qat'iy tarafdori sifatida Evropa ta'lim-tarbiya tizimidan to'liq foydalanishga qarshi chiqadi. Ulardan rus ta'lim tizimi uchun yaroqli bo'lgan ayrim elementlarni olish mumkinligini ko'rsatib o'tadi.

Ushinskiy qator asarlarida "Shvestariya bo'ylab pedagogik sayohat", "Xorijga mehnat safari bo'yicha hisobot", "Shimoliy Amerikada maktab islohotlari" xususan "Umumiy tarbiyaning xalqchilligi haqida" Fransiya, Angliya, Germaniya, Shvetsariya, Shimoliy Amerikadagi xalq ta'limi, ularning o'quv muassasalari faoliyati va tashkil qilinishi usullarining o'ziga xos jihatlarni batafsil yoritishga harakat qildi.

Ushinskiy fransuz ta'lim tizimini o'rganib, unga tanqidiy baho berdi. Markazlashuv va ma'muriy bir xillik xarakterida ekanligini qayd etdi. Fransiya'ning o'quv muassasalari markazlashuvi, - deb yozgan edi u, - eng so'nggi nuqtagacha olib borilgan. Nafaqat bir bilim yurti boshqasini takrorlaydi, balki ularning bari intizomlashgan harbiy qism singari yagona buyruqqa amal qiladi. Fransuz xalq ta'limi vazirligi har yili tasarrufida bo'lgan o'quv muassalariga o'quv fanlari dasturini taqdim qiladi. Unda nafaqat joriy yilda o'qilishi lozim bo'lgan yozuv belgilanadi, balki qaysi betlar tarjima qilinishi, qaysisi yod olinishigacha qayd etiladi...Vazirlikning ixtiyoriy amaldori soatiga qarab aynan shu soatda Fransiyaning barcha gimnaziyalarida Seseron asarining aynan shu betlari tarjima qilinadi yoki aynan bir xil sharh asosida o'qilatiladi (sharhlar ham vazirlik tomonidan tasdiqlanadi). Yoyinki, o'n minglab o'quvchi aynan shu mavzuda insho yozyapti, deb ishonch bilan aytishi mumkin. Bu Fransiyada tarixiy merosga aylangan xalq ta'limi tizimiga Ushinskiy tomonidan berilgan baho edi. Ushinskiy Fransuz pedagogikasining ma'naviy tarbiyaga daxldor jihatlarni tanqidiy baholaydi. Maktab hayotini tashkil qilishda shuhratparastlik qo'llab-quvvatlanadi.

O'quvchilar orasidagi nosog'lom raqobat hamda man-manlikni fransuz pedagogikasi kuchli richag deb bildi va u bilan birga faoliyat yuritdi.

Bu maqsadda fransuz allomalari ko'plab qoyilmaqom vositalar o'ylab topdilar: tarbiyalanuvchilarga orden taqdim qiladi, ularga mansab beradi, ularning ismini gazetada chop etadi.

Shunday qilib, XIX asr va XX asr boshida xorijdagi va milliy ta'lim tizimi ahvoli to'g'risida dalillar yig'ish tasniflash yoki birlamchi tahlilga tortishga qaratilgan g'arb mamlakatlari va rus pedagoglarining tadqiqotlari hajmi kengayib bordi. Ammo bu muammo bilan shug'ullangan mualliflarning aksariyati buni yo'l-yo'lakay hisoblab, asosiy ish faoliyati sifatida ko'rib chiqmagan.

XIX asrning ikkinchi yarmida (1870-1900) jahondagi bir qator mamlakatlarda majburiy ta'lim haqida hukumat qarori chiqdi.

Maqsad ta'lim mazmuniga ko'ra butun G'arbda bir xil bo'lgan maktablar bilan birga mamlakatning milliy xususiyatlarini ko'qroq aks ettiradigan davlat munisipal xalq maktablari yuzaga kela boshlaydi.

Jahonning turli mamlakatlarida maorif sistemasini muammolariga qiziqish va maktabni qiyosiy o'rganish zaruriyati ortadi. XIX asrning oxiriga kelib qiyosiy pedagogikaning ayrim nazariy asoslari va amaliy vazifalari, xususan chet eldagi pedagogika tajribalari materiallarini to'plash va ishlab chiqish, nashr etishda o'z mamlakatidagi ta'lim-tarbiya sistemasini takomillashtirish uchun foydali tajriba olish maqsadida, turli ta'lim sistemalarining ijobiy tomonlarini qayd etish vazifalari belgilaydi. XIX asrning ikkinchi yarmida Yevropada xalqaro tadqiqot markazlari, muzeylari yoki institutlari vujudga kelib, ular o'z mamlakatlari va chet eldagi ta'lim va tarbiyaga oid axborot materiallari va statistik ma'lumotlarni to'plab, ishlab chiqadilar va tarqatadilar. XIX asrning oxirida Turkiya va Avstro-Vengriya imperiyasi guruhiga kirgan Slavyan xalq vakillari bo'lgan pedagoglarning tadqiqotlari o'ziga xos xarakterga ega edi. Bu pedagoglar maktab orqali Slavyan xalqlarini birlashtirish va milliy ozod qilishga yordam bermochi bo'ldilar.

Qiyosiy pedagogika taraqqiyotining uchinchi bosqichi-rivojlanish bosqichi. XX asr boshlaridan XX asrning 60-yillarigacha.

Bu davrda xorij qiyosiy pedagogikasi juda tez rivojlana boshladi. Qiyosiy pedagogika turli ijtimoiy tuzumdagi mamlakatlar o'rtasidagi sotsial iqtisodiy va siyosiy ziddiyatlarni aks ettirdi. Chet el mamlakatiarining pedagoglari mamlakatlarda maktabning rivojlanishini tobora sinchkovlik bilan kuzata boshladilar.

Ularning ko'pchiligi qiyosiy pedagogikani o'zlarining sohalari qilib oldilar. Umumiy ta'limning rivojlanishi va majburiy ta'lim muddatlarining uzayishi va darajasining oshishi, turli yo'nalishi, tipi, darajasi, maktablarning rivojlanishi, ta'lim-tarbiya metodlarini takomillashtirish zaruriyati Yevropa va Amerikadagi ko'pgina mamlakatlar uchun bir qator umumiy muammolarni ilgari surdi.

Qiyosiy pedagogika bo'yicha tadqiqotlar olib borgan Amerikalik olim Pol Monro dunyoning turli mamlakatlar va hududlaridagi ta'lim va pedagogik nazariyani tarixiy aspektda o'rganadi va milliy ta'lim tizimlariga ijtimoiylashtirish ta'lim va tarbiyaning o'ziga xos jihatlari alohida e'tibor qaratadi. Monroning

xizmati shundaki, ta'lim va tarbiyaga turli xil yondashuvlardagi yutuq va kamchiliklarni qiyosiy-tahliliy o'rganib, ta'lim maqsadi va qadriyatlarini ajratadi. Aynan u 1911-1913-yillarda AQSHda birinchi bo'lib, yaratilgan ta'lim to'g'risidagi ensiklopediyaning ilmiy redaktori bo'ldi.

Komparativistikaning rivojlanishi turli ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy tizimlardagi qizg'in o'zgarishlar, ziddiyatlarga to'g'ri keldi. Bu davrda qiyosiy pedagogikaga oid tadqiqotlar bilan shug'ullanadigan tashkilot tarmoqlari ancha kengaydi. Binobarin, *xalqaro ta'lim byurosi* tashkil etilib, u qiyosiy pedagogikaga oid tadqiqotlarni munofiqlashtiruvchi markaz sifatida faoliyat ko'rsata boshladi. Shuningdek, maxsus xalqaro davriy nashrlar: "Ta'lim va tarbiyaning xalqaro yillik nashri" "Ta'lim yillik nashri" (AQSh), "Xalqaro pedagogik jurnal" (Germaniya) va b. Qiyosiy pedagogika metodologiyasi va aniq tadqiqotlar bilan I.Kendel, P.Monro, V.Rassel (AQSh), N.Xens (Angliya), F.Shnayder (Germaniya), P.Rosselo (Shvetsariya) kabilar jiddiy shug'ullandilar.

1917 yildagi rus inqilobidan keyin qiyosiy pedagogika Rossiya u bosib olgan davlatlarda rivojlana boshladi. Maorif xalq *maorif Xalq kommissariyati* tizimida faoliyat ko'rsatgan bir guruh pedagoglar xorij pedagogik nazariyasi va maktab amaliyotini o'rganish bilan shug'ullana boshladilar. Bu tahlilning ustivor yo'nalishi xorij davlatlaridagi ta'limning aynan maktab tizimi edi. Bu davrga kelib, pedagoglar va keng jamoatchilik uchun turli pedagogik jurnallar chop etila boshlandi. "Boshlang'ich ta'lim" ("Nachalnaya shkola"), "O'qituvchi" ("Uchitel"), "Tarbiya uchun jurnal" ("Jurnal dlya vospitaniya") va boshqalar shular jumlasidandir. "Yangi maktab sari yo'l" ("Naputyax novogo shkole") jurnalida xorij ta'lim tizimi tahliliga oid maqolalar doimiy ravishda chop etib borildi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, o'sha davrda pedagoglar "maorif" so'zini juda ko'p va tez-tez qo'llaganlar. Zamonaviy pedagogik leksikonda esa, bu so'z kamdan-kam qo'llanadi. Maorif tushunchasi ta'lim va bilimni tarqatish ma'nosida qo'llanilib, o'sha paytda yangi ijtimoiy formastiyaga ko'tarilgan davlat uchun juda zarur edi. Chunki o'sha davrda aholining ko'p qismi, shuningdek, kattalar orasida ham savodsizlik ko'rsatkichi yuqori bo'lgan. Shuning uchun ham ta'lim boshqaruvi bilan shug'ullanuvchi komissariyat (hozirgi sinonimi vazirlik) Xalq maorifi komissariyati deb nomlangan.

Ular XIX asrning II yarmida maydonga kelgan ma'rifatchilik harakatining merosxo'rlari sifatida butun o'lkada katta obro'ga ega bo'lib, rus, ozarbayjon, tatar va boshqa qardosh xalq pedagoglarining ta'lim-tarbiya haqidagi fikrlarini hamda darsliklarini o'rganib o'lka maktablarida keng yoyishda jonbozlik ko'rsatdilar. Turkistonda ochilgan rus va tatar muallimlari boshchilik qilgan o'zbek maktablarida qo'llangan usullardan foydalanib o'zlari tashkil qilgan maktablarda uzoq vaqt davom etgan "Hijo" usuli o'rniga "usuli savtiya"da ta'limni tashkil qildilar va darsliklar yaratdilar.

Mamlakatimizda 20 asrning boshlarida yangi ta'lim tizimi jadallashdi, o'zbek ma'rifatparvarlari tomonidan chet el pedagogik tajribasini o'rganishga katta e'tibor qaratildi. Davlatning qiyin iqtisodiy ahvoliga qaramay, pedagoglar va maorif arboblari ta'lim sohasidagi yangi konsepsiyalar va haqiqiy o'zgarishlar bilan tanishtirish maqsadida talabalarning chet el safarlari uchun mablag' topar

edilar. O'zbek maktabi amaliyotiga ba'zi g'arbiy didaktik yangiliklarni kiritishga urinishlar bo'ldi. Bu urinishlar har doim ham samarali bo'lavermas edi, ammo ular ta'limni abstrakt xarakterini yengish uchun va o'z maktablarida o'quv jarayonini faollashtirish uchun chet el tajribasidan foydalanishga intilishni aks ettirar edi.

Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar Qori, Sadriddin Ayniy, Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Hamza, G'ozi Yunus, Xurshid va boshqa ziyolilar madaniyat, maorif sohalarida jonbozlik ko'rsatdilar va yangi usuldagi maktablarning keng tarmoqlarini yaratish sohasida faoliyat olib bordilar.

Ma'rifatparvarlar 1906 yildayoq "Taraqqiy" deb nomlangan gazeta nashr ettirib, o'z g'oyalarini tarqata boshladilar, oradan ko'p o'tmay, "Xurshid", "Shuhrat" singari yangi gazetalar dunyo yuzini ko'rdi. 1922—1923 yillarda Fitrat Buxoro Xalq Respublikasining maorif noziri sifatida barcha o'zbek, tojik va boshqa millatlarning bolalari uchun maktablar ochish, o'quvchilarga metodik qo'llanmalar tayyorlash sohasida katta ishlar olib bordi. Xotin-qizlar maktablarini ko'paytirishga, xotin-qizlarni ma'rifatga tortishga alohida e'tibor berdi.

Fitrat o'sha yillarda Buxoro Xalq Respublikasidan Germaniyaga, Turkiyaga talabalar yuborish, u yerdagi ilg'or Evropa ta'lim-tarbiyasi, ilm-fan, texnika sirlarini o'rganish, yangi Buxoro Xalq Respublikasi va Turkistonda maorif va madaniyatni rivojlantiruvchi mahalliy milliy kadrlar tayyorlash tashabbuskorlaridan biri bo'ldi. Ayni chog'da Buxoro Xalq Respublikasi raisi Fayzulla Xo'jaev ham Turkiston Sho'rolar Respublikasi rahbarlari Turar Risqulov, Abdullo Rahimboev, Nazir To'raqulovlar bilan birga Buxoro va Toshkent, Samarqand va Farg'ona, Xo'jand va Xivadan Sattor Jabbor, Sayidali Xo'ja, Maryam Sultonmurodova, Hayriniso Majidxonova, Saida Sherahmad qizi Ahmad Shukriy, Ahmadjon Ibrohimov kabi o'nlab mahalliy millat o'g'il va qizlarini Germaniyaga o'qishga yuboradi. Ularning ahvoli, moddiy va ma'naviy, tarbiyaviy ishlaridan xabardor bo'lib turadi. Germaniyadagi o'zbek talabalari "Ko'mak" nomli o'zbekcha jurnal chiqarishadi.

O'lkada olib borilgan siyosat tufayli o'zbek xalqi o'z tarixi, milliy urf-odatu an'ana, umuminsoniy qadriyatlarini bilish va o'rganish imkoniyatlaridan mahrum bo'ldi. Millat taqdiri, maorif ravnaqi uchun jon fido qilgan, erkin, hur fikrli alloma ma'rifatparvarlar — Abdurauf Fitrat, Munavvar Qori Abdurashidxonov, Elbek, Otajon Hoshimov, Shokir Sulaymon, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy qatl etildi. Usmon Nosir, Botu va boshqalar Sibirga surgun qilindi.

Turkiston o'lkasida yuz bergan to'ntarish ma'rifatning, ijtimoiy tuzumning, ishlab chiqarishning sezilarli darajada rivojlanishida muhim rol o'ynadi. O'lkada juda ko'plab ziyolilar etishib chiqdi, savodsizlikka barham berildi. Lekin kezi kelganda shu narsani ham qayd etish kerakki, Oktabr to'ntarishi o'lkada, sobiq sovet ishlarini amalga oshirishda katta ahamiyat kasb etishi bilan birga, o'zbek milliy qadriyatlariga putur yetkazishga, milliy xalqni ruslashtirishga harakat qilingani, ma'naviyatimizning yo'qolayotganligiga, tariximizning toptalishiga urinishlar bo'lganligini hech kim inkor etolmaydi, albatta. Chunki har qanday xalq o'z milliyligi, qadriyatlari va madaniyati bilan buyukdir. O'zbek xalqining ana shu buyukligi ruslar istilosi ostida ko'p yillar davomida toptalib, oyoq osti qilindi.

Endilikda shukrlar bo'lsinki, mustaqillik sharofati bilan yo'qotayozgan barcha milliy va ma'naviy boyliklarimiz, qadriyatlarimiz tiklanmoqda.

Xorij davlatlari maktab tajribasi va pedagogik nazariyasi bilan yaqindan tanishish uchun chet el pedagoglari va olimlarining sobiq sovet ittifoqiga va sovet pedagoglarining xorij davlatlariga safari katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu o'sha davrda sovet pedagogikasining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. XX asrning 30-yillarida sobiq sovet ittifoqiga dunyoning turli davlatlaridan ko'pgina pedagog va psixologlar tashrif buyurardi. Ular orasida mashhur amerikalik olim, pedagog, psixolog, nazariyotchi va amaliyotchi, zamonaviy Amerika ta'limining nazariy asosini yaratgan Djon Dyu ham bor edi. Uning jahon hamjamiyati ta'lim tizimini takomillashtirish va modernizatsiya qilish uchun bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan qator asarlari va maqolalari rus tiliga tarjima qilindi.

O'sha davrda xorij pedagogik tajribasini tahlil va tadqiq qilishga oid izlanishlar bilan P.F. Kapterev, P.G.Mijuev, A.P.Pinkevich va boshqa qator rus olimlari shug'ullandilar. Shuningdek, A.P.Pinkevich redaktorligida "Xorij pedagogikasi Byulleteni" chop etila boshlandi. A.P.Pinkevich rus ta'limi muammolarini Amerika, Fransiya, Germaniya, Avstriya va boshqa davlatlar pedagogik muammolarini qiyosiy tahlil qilish barobarida o'rgandi. Shu bilan bir qatorda ijtimoiy muhit va undagi o'zgarishlarning o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasiga ta'siri muammolariga alohida e'tibor qaratdi. P.F.Kapterev esa, umuminsoniy qadriyatlar xalq va milliy qadriyatlarni umumlashtirgan bo'lib, ular tabiiy ravishda istalgan jamiyatning ijtimoiy mavqeiga ko'ra farqlanishini ta'kidlaydi. Shuning uchun ham uning fikricha, turli davlatlardagi ta'lim tizimining umumiy, universal jihatlarini o'rganib, ularni boshqa xalqlarning mental xususiyatidan qat'iy nazar qo'llash mumkin bo'lsin. Shu ma'noda uning pedagogik qarashlari kosmopolitik xarakterga ega edi. P.D.Mijuev – G'arbiy Evropa, Amerika va Osiyo ta'limi to'g'risidagi ko'plab asarlarning muallifidir. U keng ko'lamdagi tadqiqotlar olib borgan pedagog bo'lib hisoblanadi. P.D.Mijuev taniqli chet el pedagoglarining faoliyatini tahlil qildi va umumlashtirdi, chet el ta'limi muammolariga oid qator maqola kitoblar chop etdi. P.D.Mijuevning qiziqishlari sohasiga Germaniya, Fransiya, Shvetsiya, AQSh, Angliya, Norvegiya va boshqa mamlakatlarning ta'lim tizimi ham kiradi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, qiyosiy pedagogika taraqqiyotining bu bosqichida o'ziga xos jihat – bu ikki siyosiy tuzumning (sotsialistik va kapitalistik) g'oyaviy qarama-qarshiligi yaqqol aks etib turar edi. Bu esa o'z navbatida ta'lim tizimlari mazmun-mohiyatiga o'z ta'sirini o'tkazdi. Bu qarama-qarshilik ayniqsa, 1929 yildan boshlab keskin tus oldi. Shundan so'ng qattiq senzurali taqiqlar xorij davlatlari ta'limi to'g'risidagi obyektiv ma'lumotlarni tadqiq qilish va nashr etishga yo'l qo'ymadi. Hatto xorij ta'limini tadqiq qilgan ba'zi olimlar repressiyaga uchragan edilar (A.P.Pinkevich).

Pedagog olimlarning xalqaro miqyosda zarurligi turli xil region va xalqaro ilmiy tadqiqot tashkilotlari tashkil topishiga olib keldi. Kolumbiya universitetining pedagogika kolleji qoshida xalqaro institut (AQSH), 1925 yildan boshlab Berlindagi ta'lim-tarbiya markaziy institutning chet el pedagogikasi va maktabi bo'limi o'zining ilmiy tadqiqot va amaliy faoliyatini kuchaytirdi. Qator vaqtli

nashrlar chop qilindi. Kolumbiya institutining AQSh “Maorif yilnomasi” 1934 yilgacha nemis, ingliz va fransuz tillarida chop etilgan. “Xalqaro pedagogik jurnal” (Germaniya) va boshqalar. Yevropa va Amerikada ilmiy konferensiya va seminarlar tashkil qilindi. Turli mamlakatlarda ta’lim sistemasi bilan tanishish maqsadida chet ellarga borish, xalqaro uchrashuvlar va chet el maktabini o’rganishning boshqa turlari keng rivojlandi.

Qiyosiy pedagogik tadqiqotlarning amaliy vazifasi kengaydi. Qiyosiy tadqiqot ishlari ancha chuqurlashib, maqsadga yo’naldi. Mamlakatlarning madaniy-tarixiy va sotsial-iqtisodiy sharoiti tufayli XX asrda qiyosiy pedagogika – pedagogikaning mustaqil sohasi bo’lib ajralib chiqdi. Qiyosiy pedagogika nazariyasi masalalariga bag’ishlangan bir qator ishlar e’lon qilindi. Yevropa va Osiyo mamlakatlarida xalq revolyutsiyalari g’alaba qozonishi, sotsialistik mamlakatlarning o’z mustaqilligini e’lon qilishi, xalq maorifi sistemasiga ta’sir ko’rsatdi.

1945 yili Parijda BMT tashkiloti (YUNESKO) tuzildi. Xalqaro pedagogika sohasidagi tadqiqotlar uchun kerakli ma’lumotlar ko’paydi. Jahon mamlakatlarida maorifning ahvoli haqida yilnoma nashr qilina boshladi. Qiyosiy pedagogika muammolari bo’yicha xalqaro anjuman uyushtirildi. 1956 yillarda AQSH qiyosiy pedagogika jamiyati yuzaga keldi. Londonda Yevropa Qiyosiy pedagogika jamiyati tashkil qilinib, vazifalari belgilab olindi.

Ikkinchi jahon urushidan so’ng AQShdagi Qiyosiy pedagogika Jamiyati sohaga oid muammolarni o’rganishga kirishdi. Shunday tashkilotlar jumlasiga: Buyuk Britaniya, GFR, Belgiya, Ispaniyada bo’limlari bo’lgan Londondagi Evropa Qiyosiy pedagogika Jamiyati, Avstriya, Kanada va Yaponiya jamiyati, Gamburgdagi pedagogika instituti, Zalsburg (Avstriya) dagi qiyosiy pedagogika instituti, Kyusyu universiteti qoshidagi qiyosiy pedagogika instituti hamda pedagogik tadqiqotlar davlat instituti (Yaponiya) va boshqalar ham kiradi. Bu davrda evropa qiyosiy pedagogika jamiyati hamda Butundunyo qiyosiy pedagogika jamiyati kengashi faol ish olib boradi, kongresslar tashkil etadi. Qator xalqaro jurnallar: “Qiyosiy pedagogika”, “Qiyosiy pedagogika bo’yicha axborot”, “Ta’lim dunyosi” kabilar chop etila boshlandi.

Qiyosiy pedagogika taraqqiyotining to’rtinchi bosqichi – krizisli bosqich (XX asrning 60-yillaridan 80-yillarigacha).

Komparativistikaning ushbu rivojlanish bosqichi jamiyat ehtiyojlari bilan ta’lim natijalari o’rtasidagi qarama-qarshiliklar pedagogika fani va amaliyotida anglanganligi davriga to’g’ri keladi. YUNESKOning xalqaro ta’limni rejalashtirish instituti direktori Filipp Kumbs 1968 yilda “Ta’lim inqirozi” deb nomlangan asarini yozdi. Bu asar jahon hamjamiyati va soha mutaxassislari tomonidan e’tirof etildi. Bu kitobda muallif dunyo ta’limi inqirozi mohiyatini ochib berdi. Uning fikricha, bu asar ko’pgina rivojlangan davlatlarga daxldor edi. Asarning mashhurligi shu bilan belgilanadiki, Kumbs unda ijtimoiy hayotda ma’lum bo’lgan muammolarni aniq ko’rsatib bergan. Bu muammolarni “xippi” deb nomlangan yoshlar harakatining kengayishida, “jinsiy revolyutsiya”, “ayollar harakati” va boshqa ijtimoiy voqealarda kuzatish mumkin edi. Bularning barchasi yosh avlodning amaldagi qoida, an’ana va urf-odatlariga nisbatan qarshili namunasi edi.

Yoshlar o'z ota - onalarining ijtimoiy tajriba va qadriyatlarini o'rganishdan bosh tortadilar. Bu holat ta'lim va tarbiya sohasida qiyosiy taqqoslovchi xarakterga ega bo'lgan izlanishlar sonining sezilarli darajada oshishiga turtki bo'ldi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, sobiq SSSR davlati hududidagi respublikalar ta'lim tizimi uchun bu davr boshida yuqoridagi holatlar kuzatilmadi. Ammo "qayta qurish"ning boshlanishi bilan sovet ta'lim tizimi inqirozga uchrab, Evropaga yaqin bo'lgan yangi davlatlarda yuqoridagi holatning ba'zi elementlari ko'rina boshladi.

O'tgan asrning 60-70 yillarida O'zbekistonda ham ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish, fan-texnika sohasida yutuqlarga erishish maqsadida iste'dodli kadrlar tanlab olinib, yetakchi ilm dargohlari hamda ta'lim muassasalarida o'z tajribalarini oshirishlari borasida ham bir qator ijobiy ishlar amalga oshirildi. Buning natijasida yadro fizikasi, biotexnologiya, alkaloidlar kimyosi, paxtachilikni rivojlantirish kabi bir qator sohalarda o'zbek olimlari sezilarli yutuqlarga erishib, tegishli ravishda o'z ilmiy maktablarini yaratdilar.

Qiyosiy pedagogika rivojlanishining beshinchi bosqichi – integratsion bosqich (XX asrning 80-yillaridan hozirgi kungacha). "Integratsiya" turli qismlar, bo'laklarning bir tizimga birlashish, uyg'unlashish jarayonidir. Agar ushbu tushunchani madaniyatlararo aloqalarga tatbiq etsak, turli milliy madaniyatlarning umuminsoniy madaniyat atrofida birlashish jarayonidir desak bo'ladi.

Integratsion bosqichning o'ziga xosligi globallashuv va uning zamonaviy ta'lim rivojlanishiga ta'siri bilan xarakterlanadi. **Globallashuv** – bu avvalo hayot sur'atlarining beqiyos darajada tezlashuvi demakdir. Bugungi kunda zamonaviy axborot maydonidagi harakatlar shu qadar tig'iz, shu qadar tezkorki, endi ilgarigidek: ha, bu voqea bizdan juda olisda yuz beribdi, uning bizga aloqasi yo'q, -deb beparvo qarab bo'lmaydi. Ana shunday kayfiyatga berilgan xalq yoki millat taraqqiyotdan yuz yillar orqada qolib ketishi hech gap emas. Bugungi zamonda mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham ko'proq kuchga ega. Masalaning kishini doimo ogoh bo'lishga undovchi tomoni shundaki, agar harbiy, iqtisodiy, siyosiy tazyiq bo'lsa, buni sezish, ko'rish, oldini olish mumkin, ammo mafkuraviy tazyiqni, uning ta'siri va oqibatlarini tezda ilg'ab etish nihoyatda qiyin. Globallashuv jarayonining tezlashish omillaridan biri **internet**dir. Ta'lim sohasida samarali faoliyat olib borish, raqobatbardosh kadrlarni voyaga etkazish, zamonaviy texnika jihozlarini amalda qo'llay olish uchun turli rivojlangan davlatlar ta'lim sohasidagi yangiliklardan doimo xabardor bo'lib, shunindek, axborotlarni qisqa muddatda almashish borasida internetning ahamiyati beqiyosdir.

Hozirgi ommaviy globallashuv sharoitida nafaqat ta'limni, balki madaniyat, kinomatografiya, musiqa, san'at kabi inson ma'naviyatini shakllantirish hamda rivojlantirishga yordam beradigan sohalarni milliy mentalitetni saqlagan holda qiyosiy tahlil etish har tomonlama rivojlangan yoshlarni voyaga etkazish imkoniyatini beradi. Buni G'arb va Sharq hududlaridagi hozirgi kunda rivojlangan ikki davlat – Germaniya va Yaponiya misolida yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Nemis xalqinnng o'ziga xos qadriyatlari va o'zigagina xos dunyoni anglash tajribasi – insoniyatning mushtarak manfaatlarini mujassamlashtira olganligi va bu

tajribalarni millat taraqqiyotining asosiga qo'ya olganligi sababli XIX asrning birinchi yarmida qoloq mamlakatdan, asr oxirida Evropa taraqqiyotining avangardiga aylangan edi. Nemis xalqiga xos yana bir fazilat o'z faoliyatlarini maqsadga muvofiqligi tomon yo'naltira olish va o'ta mehnatkashlik hisobidan bunday yuksak taraqqiyotga erisha olgan edi.

Yaponiya XIX asrning so'nggi choragida dunyoviy taraqqiyot yo'liga kirgan bo'lsa ham, lekin ularning davlat mafkurasida sharqona mustabidchilikka xos elementlar kuchli tarzda saqlanib qolgan edi, bularni biz sintoizmni umumyapon millatining manfaatlarini ifoda etuvchi yagona mafkuraga aylantirilganligi va imperator shaxsini ilohiylashtirilishi natijasida o'ta markazlashgan hokimiyat tizimining shakllanishida ko'ramiz va bu Yaponiyaning XX asr o'rtalarigacha dunyoviy, demokratik davlat bo'lib shakllanishiga xalal beradi.

Yaponiyaning dunyo taraqqiyotidagi hozirgi mavqeiga ega bo'lishi uchun zarur eng muhim omil ularning milliy ruhida, milliy an'anasida o'z aksini topganligidadir.

Milliy ong va tafakkurning kanday mazmunda ekanligiga va uning dunyoviy taraqqiyotiga mos kelishi darajasiga qarab millatning shu bugungi xolatini aniqlash mumkin.

Demak, millatga xos belgilar, an'analar, urf-odat va marosimlar qay darajada dunyoviy taraqqiyot mezonlariga mos kelishi yoki kelmasligi saralab olinadi va millat taraqqiyotining asosiga quyiladi. Shuning uchun ham har qanday millatga xos bulgan an'ana, urf-odatlar muqarrar tarzda milliy meros tushunchasi ostiga kiradi. Lekin ana shu milliy merosning millatning keyingi dunyoviy taraqqiyotiga xizmat qila oladigan qismi *milliy qadriyatlar* sifatida e'zozlanishi zarur.

O'zbek xalqi xam Germaniya va Yaponiya tajribalarini umumlashtirib olgan holda dunyoviy taraqqiyot asoslarini yaratishdek buyuk maqsadni o'z oldiga qo'yar ekan, butun odamlar bir tanu bir jon bo'lib ishlashi, harakat qilishi zarur.

Ko'rinib turibdiki, ta'limni isloh qilish va rivojlantirish asosidagi milliy istiqlol g'oyasi biqiq hodisa emas, balki ajdodlarimiz va insoniyat erishgan eng namunali yutuqlardan oziq oladigan hayotbaxsh hodisadir.

Maktab va pedagogik muammolarni mamlakatimizda, shuningdek, butun dunyoda ro'y berayotgan voqealardan ajratgan holda muhokama qilib bo'lmaydi. Evropa va Sharq, Yaqin va O'rta Sharqning bozor iqtisodiyotiga o'tishi, amalga oshirilayotgan demokratik o'zgarishlar, yangi siyosiy fikrlashning vujudga kelishi, davlatlarda ichki va tashqi ziddiyatlarni muzokara va bitimlar yo'li bilan bartaraf etishga intilish, sayyoramizda ijtimoiy moddiy madaniyatning rivojlanishi yangi bosqichga kirganini ko'rsatmoqda. Insoniyatning ijtimoiy va tabiiy muhitdagi yashash muvozanati beqarorligi, uning tabiatga tushadigan og'irligi nihoyat darajada kengayotgani va tabiatga munosabat shunday davom etsa butun yer biosferasida halokatli o'zgarishlar sodir bo'lishini anglatmoqda.

Mana shu umumlashtiruvchi ijtimoiy tadqiqotlar orqali tabiat va jamiyatining o'zaro bog'liqligini, mufassal o'rganish zarur.

Hozirgi kunda qator xalqaro muammolarning yechimini topish uchun maktab va pedagogika fani yangicha yondashishi, butun dunyoda inson huquqlarining yuksak darajada ustunligini tan olishi, xalqlarning intellektual boyliklari jahon

ijtimoiy fan texnika taraqqiyotining qudratli omili bo'lishi, ta'limga innovatsion yondashuv rivojlanishi lozim. Jamiyat yangilanishining hozirgi bosqichida maktab ta'limini demokratlashtirish, insonparvarlashtirish va tabaqalashtirish sohasida qator islohotlar amalga oshirilmoqda.

Maktabni qayta qurish prinsiplarini amalga oshirish har doim istalgan natijani bermaydi, ba'zan o'ziga xos ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. Demokratlashtirish o'rniga o'zboshimchalik, intizomning bo'shashib ketishi, ta'lim sifatining pasayib ketishi, tabaqalanish o'rniga tor yo'nalishdagi mashqlarga alohida e'tibor berish, ayrim fanlarni afzal ko'rish va boshqa fanlarni pisand qilmaslik hollari kuzatilishi mumkin. Natijada o'qitish va tarbiyalash ishlarida tartibsizliklar sodir bo'lishi, umumiy ta'lim saviyasining pasayishi yuzaga kelishi mumkin.

Amaliyotdan ma'lumki, ta'limning dolzarb muammolarini hal qilish uchun xalqimizning madaniy me'rosini o'rganish, chet el tajribalarini o'zlashtirish talab etiladi. Shuning uchun oliy o'quv yurtida pedagogika fanining strategik yo'nalishlari: ta'lim-tarbiyada pedagogik merosni o'rganish va uni hozirgi bosqichdagi ta'lim bilan taqqoslash; o'qituvchilarning amaliy tayyorgarlik saviyasini oshirish; qobiliyatli, iste'dodli o'qituvchilarni aniqlash; umumiy yo'nalishlar va kasb-hunar ta'limini innovatsion texnologiyalar bilan boyitish zarur. Ta'lim tizimimiz va boshqa milliy ta'lim tizimlari shakllanish tarixi baynalminallikdir. Bu baynalminallik faqat pedagogik hamkorlikka emas, balki o'xshash jarayonlarga iqtisodiy, ijtimoiy voqealarga, yangi axborot texnologiyasi va ta'limning qudratli infrastrukturasiga bog'liqdir.

Hozirgi pedagogika fani hamda ta'lim muassasalari oldida o'rganish, taqqoslash, xulosalash zarur bo'lgan qator muammolar turibdi. Ularni hal qilish, samaradorligini oshirish va xalq ta'limi tizimiga joriy qilish muhimdir:

1. Ta'lim tizimi rivojlanishini rag'batlantiradigan qonunlar qanday bo'lishi kerak?
2. Ta'lim va tarbiya vositalarining samaradorligini oshirish uchun nima qilish zarur?
3. Kelajakni ta'minlash va erishilgan yutuqlarni yo'qotmaslik uchun ta'lim mazmuni qanday bo'lishi kerak?
4. Yetarli darajada yuqori saviyali ilmiy bilim berish uchun nima qilish kerak?
5. O'qitish jarayoniga innovatsiyani joriy etish, turli xalqlarning madaniyatini o'rganish, ta'limda ulkan amaliy tajribalarni umumlashtirish zarur.

Zamonaviy ta'lim mazmunini yoritish, jahon ta'lim tizimiga integratsiyalash, ta'lim sohasidagi innovatsiyalar va yangiliklarni qo'llagan holda jamiyatning rivojlanishini ta'minlaydigan yoshlarni voyaga etkazish va tarbiyalash borasida mustaqillik yillarida bir qator o'zbek olimlari faoliyat olib borishdi. Bular qatoriga: M.Ochilov, K.Hoshimov, A.Munavvarov, R.Mavlonova, S.Nishonova, O.Musulmonova, K.Zaripov, O.Roziqov, X.Ibragimov, **TERDU rektori?** va hokazolarni kiritish mumkin.

1.4. “Qiyosiy pedagogika” jamiyati va uning faoliyati

Qiyosiy pedagogika ilmiy bilimning, mustaqil tarmog'i statusini olish jarayoni 1920-yillardan boshlandi. Bu davrda qiyosiy pedagogikaning

funksiyalari, jahonning turli mamlakatlarida ta'lim nazariyasi va amaliyoti rivojini aks ettiruvchi dalil va faktlarni to'plash va tizimlashtirish va umumlashtirishni o'zining asosiy vazifasi deb bilgan birinchi xalqaro va milliy, ilmiy va axborot muassasalari tashkil qilina boshladi. Shu jumladan, xalqaro ko'rgazmalarda madaniyat va maorif xolatini aks ettiruvchi milliy stendlar paydo bo'ldi.

1919 yilda Nyu-Yorkda xalqaro ta'lim assosiatsiyasiga asos solindi, 1923 yilda Kolumbiya universiteti pedagogika kolleji qoshida xalqaro institut, 1925 yilda markaziy German institutining chet el pedagogikasi bo'limi tashkil qilindi. 1922 yilda millatlar ligasi intellektual hamkorlik bo'yicha xalqaro komissiyani tasdiqladi. Uning ish faoliyatida A.Eyniyeyn, M.S.Sklodovska – Kyuri, A.Bergson kabi etuk olimlar va faylasuflar ishtirok etganlar. Ular yer yuzida tinchlikni saqlashning asosiy sharti – ta'limni kengaytirish, deb hisoblaydilar. Komissiya tashabbusi bilan 1926 yilda millatlar ligasi assambliyasi qarori bilan Parijda ta'lim sohasida xalqaro muloqotlar rivojlanishida alohida rol o'ynagan, xalqaro intellektual hamkorlik instituti tashkil qilindi. Shu kabi muassasalar orasida xalqaro maorif byurosi (XMB) katta ahamiyatga ega.

U 1925 yilda Jenevada taniqli shvedsar pedagogi E.Klapared tashabbusi bilan xususiy assosiatsiya tashkil qilingan edi, ammo tezda o'z faoliyati masshtablarini sezilarli kengaytirishga imkon beruvchi – ta'sir ko'rsatuvchi hukumatlararo tashkilotga aylandi. Taniqli psixolog J.Piaje uzoq vaqt XMB rahbari bo'lib faoliyat olib bordi. Uning o'rinosari bo'lib komparativist P.Rosselo xizmat qiladi hamda “Julen Parijskiy – qiyosiy pedagogika otasi va xalqaro Maorif Byurosining yo'lboshchisidir” deb nomlangan doktorlik dissertatsiyasini tayyorlaydi. XMB ilmiy–pedagogik muassasalar va turli mamlakatlar, maorif boshqarmalari orasida aloqa o'rnatadi. Xalqaro pedagogik konferensiyalar, pedagoglar va maorif arboblarning chet el safarlarini uyushtiradi. XMB faoliyatida nashr ishiga alohida o'rin ajratadi. Ta'lim va tarbiya masalalariga bag'ishlangan turli xil adabiyotlar chop etildi. 1927 yildan har kvartalda chiqariladigan “Pedagogik hujjatlar va axborotlar” davriy nashri va “Qiyosiy pedagogika bo'yicha izlanishlar va sharhlar” seriyasi, 1933 yildan – “Ta'lim bo'yicha xalqaro yilnoma”lar shular jumlasidandir. Bu faoliyatni “amaliy qiyosiy pedagogika” deb atash mumkin.

Ikkinchi jahon urushi yillarida xalqaro pedagogik aloqalar uzildi, ammo tezda qayta tiklandi. XX asr o'rtalarida yoyilgan ilmiy-texnika revolyutsiyasi jamiyat hayotida turli sohalarni internatsionallashtirish, shu jumladan, ta'lim jarayonini jadal rivojlanishiga sharoit yaratdi. Maorif sohasida xalqaro hamkorlik yanada kengaydi. Shunga xos institutsion baza yaratila boshlandi.

1946 yilda ta'lim masalasi doimo ustun bo'lgani uchun, ta'lim Fan va madaniyat masalalari bo'yicha (YUNESKO) Birlashgan Millatlar Tashkiloti tuzildi. Bu katta obro'ga ega bo'lgan tashkilot bilan 1969 yildan rasman YUNESKOning tarkibiy qismi hisoblangan XMB faol hamkorlik qilar edi. Jahondagi ta'lim ahvoli haqidagi turli materiallarni to'plash, tizimlashtirish va nashr ettirishni amalga oshirayotgan YUNESKO organlari qiyosiy – pedagogik izlanishlarda zaruriy-doimiy baza yaratdilar.

1977 yilda YUNESKO nashriyotida “Ta’limda xalqaro sinflash” nashr qilindi, unda shakllangan prinsiplar, hozirgi kunda ham chiqarilayotgan ta’lim bo’yicha yilnomaga asos bo’lib xizmat qilgan. YUNESKO tomonidan qiyosiy pedagogikaning rivojlanishi, ta’lim sohasidagi milliy qonuniy aktlar, rejalar va reformalarni taqqoslash prinsiplari va uslublarini ishlab chiqish masalalariga maxsus bag’ishlangan ilmiy konferensiyalar hamda seminarlar o’tkazildi.

1950 yillardan boshlab, qator mamlakatlarda, yirik izlanish markazlari faoliyat ko’rsata boshladi. Frankfurt – na – Mayn (GFR)da xalqaro pedagogik izlanishlar instituti, Sevra (Fransiya)dagi xalqaro pedagogik izlanishlar markazi, Zalsburgdagi (Avstriya) qiyosiy pedagogika instituti va boshqalar. AQSh, Angliya, Germaniya, Yaponiya universitetlarida qiyosiy pedagogika kafedralari tashkil qilindi. Uning a’zolari izlanish ishlarini ma’ruzalar o’qish, seminar mashg’ulotlar o’tkazish bilan shug’ullanar edi.

Dunyo ta’limini rivojlantirish masalalari bilan qiziquvchi alohida mamlakat masshtabidagi nazariyotchilar hamda amaliyotchi pedagoglarni birlashtiruvchi qiyosiy pedagogikaning milliy jamiyatlari vujudga keldi. Dastlabki jamiyat **1956 yil AQShda** tashkil qilindi. U o’z oldiga: ilmiy izlanishlarni kengaytirish, davriy nashrlar va kitoblarni nashr ettirish, Amerika pedagoglarining chet ellik hamkasblari bilan hamkorligini rivojlantirish, ilmning boshqa soha olimlarini qiyosiy – pedagogik izlanishlar o’tkazishga jalb qilishni maqsad qilib qo’ydi.

Shu kabi jamiyatlar G’arbiy Evropaning ko’pgina mamlakatlarida, Kanada, Yaponiya, Hindiston, Janubiy Koreyada ham paydo bo’ldi. **1961 yilda** tashkil qilingan qiyosiy pedagogika **Yevropa jamiyati** yirik regional birlashma hisoblangan. **1973 yilda** qator Afrika davlatlari vakillari ham kirgan, *fransyazichnix* mamlakatlarining **qiyosiy pedagogika asossiyatsiyasi** barpo qilindi. 1974 yilda xalqaro kongresslarni tashkil qiluvchi, qiyosiy pedagogika jamiyatlarining butunjaxon kengashi tuzildi. Uzoq yillar davomida uning raisi pedagogik komparativistikaning taniqli nazariyotchisi E.King edi.

Qiyosiy pedagogika ilmiy markazlari, kafedra va assossiyatsiyalari nashr qilgan dastur va qo’llanmalar dunyoning turli davlatlarida ta’lim siyosatining shakllanishiga ma’lum darajada ta’sir ko’rsatdi.

Qiyosiy pedagogikaning uslubiy va nazariy muammolarini tizimli ishlab chiqish 1920-30-yillardan boshlandi. Aynan shu davrda bu muammoni o’z izlanishlarining asosiy predmetiga aylantirgan nazariyotchi - pedagoglar – I.Kendl, P.Monro, G.Beredey (AQSH), F.Shnayder, F.Xilker (Germaniya), P.Rosselo (Shvetsariya) va boshqalar chiqdi. Ularning ba’zi monografiyalari 1950-60 yillardagina nashr qilindi. Ammo uslubiy prinsiplar ular tomonidan urushdan avvalroq ishlab chiqilgan edi.

Bu olimlarning dunyoqarashlari turlicha edi, ammo ularni ta’lim jarayonini rivojlantirishga birinchi darajali ta’sir ko’rsatadigan sabablarni aniqlash va tavsiflash, turli mamlakatlardagi o’xshashliklar va farqlarni o’rganishga intilish g’oyasi yaqinlashtirar edi.

“Qiyosiy pedagogika sohasidagi izlanishlar” (1933), “Ta’limda yangi davr – qiyosiy izlanish” (1955), “Qiyosiy pedagogika uslubiyoti” (1959) kabi yirik ishlar muallifi amerikalik nazariyotchi – pedagog I.Kendldir. 1925 yildan 1944 yilgacha

u Kolumbiya universiteti tomonidan nashr qilingan “Xalqaro ta’lim yilnomasi”ning bosh muharriri bo’lib faoliyat olib bordi.

Kendl 1933 yilda olti mamlakat: AQSH, Angliya, Fransiya, Germaniya, Italiya va sobiq SSSR ta’lim tizimini xalqaro pedagogik laboratoriya deb atab, ta’lim holatini qiyosiy analiz qildi. Kendlning yozishicha, bu davlatlardagi ta’lim muammolarining ildizlari ko’p jihatdan o’xshash, ba’zida hatto bir xil, ammo ularni yechish va erishilgan natijalarni ko’pincha ushbu davlatning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy sharoitiga bog’liq. Xususan, Kendl u yoki bu davlatning iqtisodiy rivojlanishi va aholisining savodlilik darajasi orasida mavjud bo’lgan korrelyatsiyani ishonchli ko’rsatib berdi.

Qiyosiy pedagogika uslubiy muammolari germaniyalik professor F.Shnayder tomonidan ham ishlab chiqilgan. U qator Germaniya universitetlarida pedagogika kurslarini o’qir, doimiy pedagogik davriy nashrlarda ma’ruzalari bosilib chiqar edi. Kelnda xalqaro pedagogik jurnalga asos soldi va 1931 yildan 1934 yilgacha, uni boshqardi, keyinchalik bu jurnal Gamburgda YUNESKO ta’lim instituti rahnamoligida chiqa boshladi. Shnayderning “Xalqlar pedagogikasini harakatga keltiruvchi kuchlari, qiyosiy pedagogikaga kirish” (1947), “Qiyosiy pedagogikadagi konsepsiyalar” (1955), “Yevropacha tarbiya” (1959) singari asarlari bugungi kunda ham o’z ahamiyatini yo’qotmagan.

Shuningdek, Shnayder ta’lim rivojlanishiga ta’sir ko’rsatadigan 10 ta sababni ajratib ko’rsatadi:

1. Milliy xarakter.
2. Davlatning geografik o’rni.
3. Madaniyat.
4. Ilm va falsafa.
5. Ijtimoiy va siyosiy stratifikatsiya.
6. Iqtisod.
7. Din.
8. Tarix.
9. Chet el ta’siri.
10. Ta’lim institutlari faoliyatining ichki mantig’i.

Bu sabablarni u endogen, ya’ni ta’lim ichidagi va ekzogen uning sohasidan tashqarida yotuvchilarga ajratadi. Shnayderning taxminicha endogen va ekzogen sabablarning mosligi va bir-biriga ta’sirini analiz qilish, ta’limning milliy tizimi xarakterini, uning boshqa mamlakatlar ta’lim tizimi bilan o’xshashliklari va farqini belgilovchi ”Kuchlar parallelogrammasini” aniqlash imkonini beradi. O’z navbatida, u yoki bu davlatda yillar davomida bunyodga kelgan ta’lim tizimi, ushbu xalqning milliy xarakteri shakllanishida muhim rol o’ynaydi.

Urushdan keyingi 10 yillikda g’arbda komparativist pedagoglarning yangi avlodi shakllandi. Uning taniqli vakillaridan biri London universiteti professori B.Xolms (1920-1993) edi. U o’zining ”Ta’limdagi muammolar: qiyosiy yondashuv” (1965), ”Qiyosiy pedagogika: uslubning ba’zi masalalari” (1981) va boshqa ishlarida qiyosiy pedagogika prinsiplarini shakllantiradi va tushuntirib beradi. Uning tasdiqlashicha, turli davlatlar ta’lim tizimini taqqoslash zaruriy,

ammo faqatgina informatsion xarakterga ega komparativistlar ishining birinchi bosqichidir.

Izlanuvchi bir nechta asosiy muammolarni tanlab, daliliy materialni keyingi o'rganishlar asosida chuqur qiyosiy analiz qilib, turli mamlakatlarda qanday hal qilinishini ko'rsatib bersagina, bunday uslub yanada samaraliroq bo'ladi. Xususan, bunday muammolarga o'rta ta'limni demokratlashtirish, umumiy va professional ta'lim orasidagi mutanosiblik, o'qituvchilar tayyorlash prinsiplari, individual erkinlik va ijtimoiy javobgarlik mutanosibligi muammolarining pedagogik aspektlari kiradi. Bu kabi izlanishlar natijalari, Xolmsning ta'kidlashicha, katta amaliy ahamiyat kasb etadi, ular ta'limni rivojlantirishni analiz qilish, rejalar tuzish va yangi pedagogik texnologiyalar tuzishda ishlatiladi.

Fransiyada XX asrning birinchi o'n yilliklarida qiyosiy pedagogika sohasidagi ishlar birmuncha sustlashdi. Bu davrda bu erda Angliyadagi M.Sedler yoki Germaniyadagi F.Shnayder kabi taniqli komparativistlar yo'q edi. Chet eldagi muammolar bo'yicha ishlar nashr qilinardi, ammo ularning ko'pchiligi ta'lim tizimini tasvirlashdan nariga o'tmas edi. 1960 yilga kelib ahvol o'zgara boshladi. 1962 yilda pedagogik izlanishlar milliy institutida mamlakatning asosiy ilmiy pedagogik markazida, ushbu izlanishlar rivojiga yordam bergan qiyosiy pedagogika bo'limi tashkil qilindi.

Bu davrning taniqli komparativisti Sorbonna professori M.Debess edi. Debess va G.Mialare redaktorligi ostida, fransuzlar bilan bir qatorda, qator chet el mualliflari ham ishtirok qilgan yirik monografiya "Qiyosiy pedagogika" (ko'p boblik nashr), "Pedagogik fanlar"ning uch bobi nashr qilindi. Bu kitobda Debess o'z konsepsiyasini batafsil bayon etdi. Uning fikricha, qiyosiy izlanishlarda tarixiy yondashuv birinchi darajali ahamiyat kasb etishi kerak. Ixtiyoriy – zamonaviy muammoni ko'rib chiqishda, uning uzoq o'tmish ildizlariga nazar solish zarur. Fransuz pedagogik adabiyotida A.Veksliarning "Qiyosiy pedagogika. Uslublar va muammolar" (1967) kitobi alohida o'rin egallaydi. Unda qiyosiy pedagogika rivojlanishining holati haqida tarixiy ocherk yozilgan, uning uslubiy manolari ko'rib chiqilgan, qator yirik davlatlar shu jumladan sobiq SSSR materiallariga tayanib, ikki muammoni qiyoslash orqali batafsil analiz qilingan:

1. Ta'limni demokratlashtirish.
2. Ta'lim sohasida rejalashtirish va tahlil qilish nazariyasi va amaliyoti.

Qiyosiy pedagogika GFRda ham rivojlandi. 1957 yilda Markaziy pedagogika instituti qoshida, keyinchalik GFR pedagogika fanlari Akademiyasi tarkibida chet ellarda maktab pedagogikasi institutiga aylangan, qiyosiy pedagogika bo'limi tashkil qilindi.

Dunyoda ta'limni rivojlantirish muammolari haqida katta daliliy material va nazariy maqolalarni bosib chiqaruvchi "Qiyosiy pedagogika" jurnali doimiy chop qilinardi.

1960-80 yillarda GFRda pedagogik komparativistika namoyondalari Sharqiy Evropa davlatlarida va rus Ittifoqida ta'lim nazariyasi va amaliyotiga katta ahamiyat qaratdi. Bu masalalarni ishlab chiqish uchun maxsus markazlar va laboratoriyalar tashkil qilindi. Ular yirik G'arbiy Germaniya universitetlari qiyosiy pedagogika kafedralarida o'tkaziladigan izlanishlarda muhim o'rin egallardi.

Qator kitoblar hamda maqolalar chop qilindi. Bu yo'nalishning taniqli namoyondalari O.Anvayler, V.Mitter izlanish olib bordi. Pedagogik komparativistika rivojlanishiga, bolaligi va yoshligi rus Ittifoqida o'tgan L.Freze katta hissa qo'shdi. Uning "Rus va rus pedagogikasining g'oyaviy-tarixiy harakatga keltiruvchi kuchlari" (1956) kitobi konsepsiyasi G'arbiy germaniyalik pedagoglarning qator rusalogik izlanishlariga asos bo'ldi. Uzoq yillar davomida, Freze Marburg universitetining qiyosiy pedagogika kafedrasiga rahbarlik qildi. Aynan o'sha yerda 1960 yillar o'rtalarida xalqaro miqyosda mashhur bo'lgan A.S.Makarenkoning biografiyasi va pedagogik merosini o'rganish laboratoriyasiga asos solindi.

Sharqiy Evropa mamlakatlari orasida qiyosiy pedagogika rivojlanish masshtabi bo'yicha Polsha yetakchi o'rinda edi. Ilmiy bilimning bu tarmog'i uslubiy muammolarini Polsha qiyosiy pedagogika asoschisi B.Navrochinskiy, shuningdek, B.Suxodolskiy, T.Vilex, T.Penxerskiylar ishlab chiqdilar. Ularning ishlarida qiyosiy pedagogika predmeti, maqsad va vazifalari aniqlab beriladi. Qiyosiy pedagogika va davlat ta'lim siyosati orasidagi aloqaning o'ziga xosligi tavsiflanadi, qiyosiy izlanishlar uslubiy masalalari ishlab chiqiladi.

1911 yilda Xitoyda yuz bergan revolyutsiya monarxiyani ag'dardi. Bu esa o'z navbatida chet el pedagogikasi tajribasiga e'tiborni sezilarli kuchaytirib, ta'limni jadal reformatlash davrini ochib berdi. Davlatning avvalgi izolyatsiyalanganligi ortda qoldi. Xitoy pedagoglari AQSh, Evropa davlatlari, Yaponiyada ijodiy safarda bo'lib, Amerika maktablari ularda katta qiziqish uyg'otdi. Xitoyda o'sha davrda vujudga kelgan ta'lim tizimida Amerika ta'sirining izi bor edi.

Xitoy xalq Respublikasi tashkil qilingandan so'ng (1949) Rus pedagogikasi nazariyasi va amaliyotini mukammal o'rganish boshlandi. "Madaniy revolyutsiya" yillarida (1966-1976) chet el pedagogik tajribasini o'rganish butunlay to'xtadi, ammo 1970 yillar oxiridan yangilandi va keng tarqaldi. Ilmiy izlanishlar markaziy institutida qiyosiy pedagogika sektori tuzildi, qiyosiy pedagogika assotsiyatsiyasi barpo etildi, chet el pedagogikasini o'rganish bo'yicha Oliy o'quv yurtlararo markaz faoliyat ko'rsatdi. "Chet el pedagogikasi" jurnali va monografik materiallar, masalan: "Jahonda ta'limni rivojlantirish kelajagi" (1983), "Jahonda ilmni rivojlantirish yo'nalishlari" (1986) chop etildi. Xitoy pedagogik ensiklopediyasining (1992) 12-bobi butunlay qiyosiy pedagogikaga bag'ishlandi.

O'sha davrning pedagogik adabiyotida chet el muammosi keng namoyon qilingan pedagogik bibliografiya ma'lumotlariga ko'ra, 1924 yildan 1930 yilgacha 800 dan ortiq nashr hisobga olingan. Yirik Evropa davlatlarida ta'lim nazariyasi va amaliyoti haqidagi yirik ishlardan tashqari Avstriya, Belgiya, Vengriya, Gollandiya, Daniya, Polsha, Ruminiya, Shvetsariya, Shvetsiya, shuningdek, sharq mamlakatlari Yaponiya, Xitoy, Turkiya, Afg'oniston kabi davlatlardagi ta'limning u yoki bu masalalarini yorituvchi maqolalar bosilib chiqar edi. Amerika maktabi katta qiziqish uyg'otdi, chunki u sinovlar va xatolar uslubi bilan tuzilgan va hayotda tekshiruvdan o'tgan, uning tarkibi, ta'lim mazmuni va uslublarining jiddiy bir o'zgarishlarini hisobga olganligi uchun g'arbning asosiy pedagogik laboratoriyasi vazifasini bajarar edi. 1920 yillar oxirida Amerikada bo'lgan rus

pedagogi M.S.Bernshteyn “Aynan Amerika pedagogikasi biz uchun katta qiziqish va ahamiyat kasb etadi. Bu boy mamlakatning nisbatan yoshligi, boshqaruvchi aholi guruhining ishbilarmonligi, asosan ulkan material resurslari va imkoniyatlari, natijalarni amaliyotga ijobiy qo'llash, eksperimentlarda ochiq beriladigan prinsipial uslublar, ba'zida esa Amaliy xatolar nuqtai-nazaridan katta nazariy va amaliy qiziqish uyg'otuvchi pedagogik eksperimentlar va tadbirlar uchun juda yaxshi imkoniyatlar yaratadi” deb yozadi.

1920 yillarda chiqqan E.Yanjul, N.Ilin, E.Gura, I.Svadkovskiy, B.Kamarovskiy, M.Shteyngauzlarning mazmunli ishlari AQSH maktabi va pedagogikasiga bag'ishlangan. Ularning ishlarida u yoki bu meyorda o'sha vaqtda shakllangan g'oyaviy fikrlar ishlatilgan, ammo shu bilan birga Amerika maktablarida o'quv jarayonini tashkillashtirish, uni yangilash yo'llarini izlash, “maktab va mehnat hayoti” muammosini hal qilishga bo'lgan qiziqarli urinishlarni batafsil tavsiflab berdilar.

Chet el pedagogik tajribasini analiz qila turib, izlanuvchilar turli mamlakatlardagi ta'lim holatini bir necha marta taqqoslashdi, o'z oldilariga maktablar, uni tashkillashtirish xususiyatlari, uning oldida turgan ijtimoiy masalalarni hisobga olgan holda, nimalarni qo'llash mumkinligini maqsad qilib qo'ygan mamlakat muammolariga doimiy murojaat qilishardi. Shunday qilib, o'sha davrda bu termin ishlatilmasa ham qiyosiy pedagogika bunyodga kelish va rivojlanish jarayoni davom etar edi.

Ammo tez orada bu yo'nalishning izlanish ishlari ancha yilga uzilib qoldi. 1920-30 yillarda mamlakatda siyosiy rejim va g'oyaviy hukumatning qat'iy yangi davri boshlandi. Hukumat o'zgacha fikrlashining eng kichik ko'rinishlariga ham keskin chora ko'rar edi, cheksiz g'oyalashtirish jamiyat hayotining deyarli barcha tarmoqlarini qamrab oldi. Pedagogik fonda vaziyat chidab bo'lmas darajada keskinlashdi. Polemika o'sha zahotiyoq o'zaro siyosiy ayblovlar, ba'zida to'g'ridan – to'g'ri chaqimchilik xarakteriga ega bo'ldi. Tez orada ularni ketidan qatag'onlar boshlandi. Yuzlab pedagoglar, psixologlar, maorif arboblari uning qurboniga aylandi. Aynan shu yillarda bu mamlakat – butun insoniyatning avangardi va ziyosi degan fikr shakllandi, hamda uzoq yillar saqlanib qoldi. Rus ta'lim tizimi, ko'p joylarda sotsializm g'alaba qozongandan so'ng, butun dunyo uning prinsiplariga tayanuvchi yagona ilg'ordir, deb e'lon qilindi. Tabiiyki, bunday tasdiqlar xalqaro pedagogik tajribani obyektiv o'rganishga yordam bermas edi, bunga salbiy va qo'pol munosabatda bo'lishga yo'naltirar edi.

1930 yillarda qabul qilingan VKP (b), MKning maktab haqidagi qarori ko'p yillar maktab siyosatining yangi kursini, uning o'zgargan rahnamolarini belgilab berdi. Bu qarorlar ahamiyatini turlicha baholash mumkin. Yangi siyosat qat'iy avtoritarizm, administrativ bir xillikni maktab faoliyatida demokratik qadamlarni cheklashni talab qilar edi. Ammo «uslubiy yoritgich»ni butunlay qoralash pedagogik eksperimentlar, o'quv jarayoni samaradorligini oshirish, shu jumladan chet el tajribasiga, murojaat qilish, yangi yo'llarini qidirish, imkoniyatlarini cheklab qo'yar edi.

O'sha davrda keng tarqalgan Dyuning original konsepsiyasi ba'zi pedagoglarni qiziqtirib qo'ydi. Uning qator g'oya va takliflari o'sha davrda

maorifni boshqaruvchi arboblardan tomonidan qo'llab-quvvatlanar edi. N.K.Krupskaya Dyuning didaktik konsepsiyasiga bir necha marta ijobiy baho beradi, ayniqsa yangi shakllarni rivojlantirishga va maktab o'quvchilarining mehnat ta'limi rolini oshirishga yo'naltirilgan holatlarni alohida ko'rsatadi. A.V.Lunacharskiy Dyuni, "asrimizning eng yirik pedagoglaridan biri" deb ataydi va uning faoliyati an'anaviy maktabning abstrak – sxolastik amaliyotiga qarshi kurashga yordam beradi, deb ta'kidlaydi. Dyuni g'oyalariga asoslangan g'arbiy didaktik yangiliklar proektlar uslubi dalton – plan 1920 yillarda ko'pgina rus maktablari ishlari amaliyotida qo'llaniladi. Dyuni katta e'tibor va qiziqish bilan chet el ta'lim rivojlanishini kuzatib bordi. Maorif sohasida katta yutuqlarga erishish uchun xalqning madaniyati, intilishi muhim rol o'ynashini ta'kidladi.

1940-50-yillar boshlarida g'arbnin oldiga g'oyaviy kompaniyalar kuchli kurashlar oqibatida kapitalistik davlatlar maktab siyosati va pedagogikasini tanqid qilish kuchaydi. Rus pedagoglarining bu muammoga e'tibor qaratishlari ilmiy va targ'ibot maqsadida qilinardi. Biron-bir g'arbiy tajribaning pozitiv aspektlarini yuzaga chiqarish haqida endi so'z ham bo'lmas edi. Aynan pedagogik analizlar o'rmini keskin siyosiy-g'oyaviy qarashlar egalladi. 1952 yilning o'zidayoq chiqarilgan kitoblar nomi "AQSH maktabi imperialistik reaksiya xizmatida", "Dyun pedagogikasi zamonaviy Amerika reaksiyasi xizmatida". Bu kitoblar bilan bir qatorda shunday sarlavhali o'nlab maqolalar chiqdi. Ularning ba'zilari kulgili tuyulardi. Masalan: "Kar soqov bolalarni tarbiyalash va o'qitishdagi reaksion burjua nazariyasini tanqid qilish". Asosiy nishon AQSh maktabi va pedagogikasi edi, ammo boshqa mamlakatlar pedagoglari ham olovga tushib qolar edi. 1952 yilda 82 yoshida butun dunyo hurmatiga ega, maktabgacha tarbiya insonparvar konsepsiyasini yaratgan Italyan pedagogi M.Montessori vafot etdi. Aynan shu yili "Maktabgacha tarbiya" jurnali "Montessori Amerika, Angliya imperializmi xizmatida" deb nomlangan maqola bosib chiqardi.

1960 yillarga kelib ahvol o'zgara boshladi. Chet el muammosini o'rganish bo'yicha ishlar kengaydi.

1957 yilda sobiq SSSR, UFA pedagogika nazariya va tarixi institutida tashkil qilingan, chet elda zamonaviy maktab va pedagogika bo'limi (keyinchalik laboratoriya deb atalgan) o'ziga xos axborot ishlaridan analitik xarakterdagi izlanishlarga o'ta boshladi va u chet el ta'limi zamonaviy nazariyasi va amaliyotini o'rganish bo'yicha yetakchi markazga aylandi. Keng kompleks mavzular ishlab chiqildi. "Chet ellarda ta'lim tizimi", "Chet ellarda mehnat ta'limi nazariyasi va amaliyoti", "Kapitalistik davlatlarda pedagogik izlanishlarni tashkil qilinishi va yo'nalishi" va boshqalar. Ularning mazmunlari ko'pgina turli nashrlarda aks etdi. Laboratoriya tashabbusi bilan 1974 yilgacha doimiy chiqib turgan "Chet elda xalq ta'limi va pedagogika" referativ jurnali paydo bo'ldi. Hammasi bo'lib 30 ta soni chiqdi: ularning har birida eng yangi chet el kitoblari va maqolalariga laboratoriya xizmatlari tomonidan yozilgan taqrizlar o'rin olgan edi. Jurnal pedagogik jamoatchilikka chet eldagi ta'lim va tarbiya nazariyasi va amaliyotining holati va dolzarb muammolari bilan tanishishga yordam berdi. Qator dissertatsiyalar yozildi.

1966 yilda Moskva davlat pedagogika institutida qiyosiy pedagogika laboratoriyasi tuzildi. U bir nechta maqolalar to'plami, 1977 yilda esa qiyosiy

pedagogika bo'yicha o'quv qo'llanma (mualliflar – M.S.Sokolova, E.N.Kuzmina, M.L.Radionov) tayyorladi. Rus pedagog komparativistlari GDR, Polsha, Vengriya, Chexoslovakiya, Bolgariya mutaxasislari bilan hamkorligi ancha rivojlandi.

1970-80-yillarda chet el muammosiga bag'ishlangan rus olimlaridan V.P.Borisenkov, B.L.Vulfson, A.N.Djurinskiy, V.P.Lopchinskiy, Z.A.Molkova, I.B.Martinkovski, N.D.Nikondrov, O.I.Solimova, S.A.Tangyan, L.D.Filippova, T.F.Yarkinalarning monografiyalari dunyo yuzini ko'rdi. Ilmiy ishlar to'plamlari va jurnal maqolalarida qiziqarli yangi materiallar o'rin olgan edi. Bu davrning ishlarida g'oyaviy oqimlar ta'siri yo'qolmagan edi. Kapitalistik va sotsialistik davlatlardagi ta'lim tizimidagi qarama-qarshiliklar ajratib ko'rsatilar edi. Bunday oshkora tasvir haqiqatdan yiroq edi. Chet el sotsialistik davlatlardagi maktab va pedagogikaning rivojlanishi bir tomonlama yoritilar edi. Qiyinchilik va qarama-qarshiliklarni ko'rsatmay, faqatgina yutuqlar haqida so'z yuritilar edi.

Shunga qaramay mavjud o'zgarishlarni sezmaslik mumkin emas edi. Agar 1930-1950 yillarda deyarli barcha rus ishlarida g'arbdagi ta'lim obyekti, mazmunli axborot yo'qligi yaqqol ko'rinsada, keyinchalik chet el pedagogikasi bo'yicha turli ishlarda g'oyaviy formulalar va aynan pedagogik analiz orasidagi taqqoslash muallifning individual qarashlari bilan belgilana boshladi. Bir qator ishlarda g'oyaviy yondashuv faqatgina o'quvchilarni "tepalik ortidagi" ta'limning haqiqiy holati bilan tanishtirish ularga u yoki bu darajada o'zimizda mavjud va chet el muammolari bilan solishtirish va ularni hal qilish yo'llarini qidirishga intilishning bir pardasi edi.

1980-90 yillar Rossiya jamiyatshunosligida, shu jumladan qiyosiy pedagogikada ham konfrantatsion ritorika va g'oyaviy majburiyatdan chetlanishga imkon beruvchi yangi vaziyat yuzaga keldi. Bu davrdagi ishlarda o'rganilayotgan muammolar diapazoni kengaydi. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlardagi maktab reformasining asosiy yo'nalishlarini aniqlashga harakat qilindi. Ta'lim mazmuni va uslublarini yangilash jarayonlari o'rganilardi. Ta'limni rivojlantirishdagi asosiy yo'nalishlar va milliy xususiyatlarga mosligi to'g'risidagi masala qo'yilar edi. Chet el pedagogik fikrlarining turli oqimlari tasvirlanar edi. Ta'limni regional va global mashtabda rivojlanish jarayonlari koordinatsiyasi bo'yicha xalqaro tashkilotlar faoliyati yoritilar edi. Universitetlar, pedagogika institutlari va xalq ta'limi xodimlari malakasini oshirish tizimi muassasalari uchun o'quv qo'llanmalar yaratildi. Buning barchasi pedagogik ta'limning zamonaviy tizimda Qiyosiy pedagogika, uning ilmiy pedagogik, umum madaniy va amaliy ahamiyati bilan belgilanadigan o'z o'rnini topishi uchun yordam berishi kerak edi.

Savol va topshiriqlar:

1. Qiyosiy pedagogika fanining maqsadini ayting?
2. Qiyosiy pedagogika fani pedagogik hodisalarni pedagogik tahlil qilishda qaysi ijtimoiy fanlarning ilmiy komplekslari va metodlaridan foydalanadi?
3. Qiyosiy pedagogika fanining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
4. Qiyosiy pedagogika fanining tadqiqot metodlarini izohlang.
5. Qiyosiy pedagogika fanining taraqqiyot bosqichlarini tahlil qiling.

II BOB. QIYOSIY PEDAGOGIKA FANI RIVOJLANISHIDA XALQARO TASHKILOTLAR VA ULARNING FAOLIYATI

2.1. YUNESKO tashkilotining ta'lim sohasidagi faoliyati

YUNESKO – bu tashkilot Birlashgan Millatlar Tashkilotining ta'lim, fan, madaniyat masalalarini rivojlantirishga ixtisoslashtirilgan tashkiloti bo'lib, u 1946 yilda tashkil etilgan.

1992 yilgi ma'lumotlarga qaraganda, bu xalqaro tashkilotga jahonning 171 davlati, shu jumladan, O'zbekiston ham a'zodir.

Bu tashkilotning qarorgohi Fransiyaning poytaxti Parij shahrida bo'lib, uning oliy boshqaruv organi — Bosh direktordir.

Bu xalqaro tashkilotga a'zo bo'lgan mamlakatlarning vakillari 2 yilda bir marta o'zlarining Bosh konferensiyalariga to'planadilar. Bu anjumanda ular YUNESKOning keyingi 2 yillik faoliyatining dasturini qabul qiladilar. Ushbu dasturni amalga oshirish uchun unga a'zo bo'lgan davlatlar mablag' — byudjet ajratadilar.

YUNESKO faoliyatida xalqaro hamkorlik, tinchlikni saqlash masalalari asosiy o'rinni egallaydi. Shu tufayli ham uning Nizomida “Urush haqidagi fikrlar odamlar aqlida paydo bo'ladi, binobarin, urush vasvasasini ularning ongidan chiqarib, tinchlikni himoya qilish g'oyasini tarbiyalamoq kerak”- deb yozib qo'yilgan.

YUNESKO faoliyati o'ta xilma-xil va ko'p qirralidir. Loaqal uning ta'lim bo'yicha faoliyatiga nazar tashlaylik. Bu boradagi ishlar juda ko'p yo'nalishlarda olib boriladi va bu yo'nalishlar bir-biridan muhimdir. By rivojlanayotgan mamlakatlarda savodsizlikni tugatish, jahon ta'limi rivojlanishidagi tendensiyalarni tahlil qilish va uni ommalashtirish, u yoki bu mamlakatda ta'lim bo'yicha olib borilayotgan siyosatni ham moddiy ham ma'naviy rag'batlantirish va hokazolar.

YUNESKO mazmunli ta'limining hamma uchun birday imkoniyat doirasida bo'lishini ta'minlash, uning uzluksizligini qaror toptirish, ta'limni va uning shaklini kelajakda rivojlanishi tamoyillaridan kelib chiqadi.

O'qituvchi kadrlar tayyorlash, ularni nazariy-metodik saviyasini muttasil oshirib borish, jahonning ba'zi mamlakatlarida muammo bo'lib hisoblangan xotin-qizlarning erkaklar bilan bab-barobar bilim olish haq-huquqlarini ta'minlash, ekologik ta'limni yo'lga qo'yish darslik va dasturlarni takomillashtirish, mamlakatlar o'rtasida ta'lim bo'yicha hamkorlikni rivojlantirish va boshqa masalalarni hal etadi.

Bu saxovatli faoliyatning barchasi yoshlarga jahon talablari ruhida ta'lim berish, ularni xalqaro hamkorlik, o'zaro ishonch, do'stlik, birodarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan.

Fan va texnologiyani rivojlantirish borasida YUNESKO bir qator davlatlararo dasturni amalga oshirdi. Bu dastur asosan ekologik muhitni yaxshilash, atrof-muhitni muhofaza etish bilan bog'liqdir. Shuningdek, mazkur yo'nalishda muvofiqlashtirilgan, birgalikdagi ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish, jahon ilmiy

markazlari, universitetlar, olimlar hamkorligini rivojlantirish bilan bog'liq muhim ishlar yo'lga qo'yiladi.

Ma'lumki, hozirgi dunyoda millatlar va xalqlarning madaniy, tarixiy meroslarini, osori-atiqalarini asrash, avaylash, kelajak avlodlar uchun uni saqlash, ta'mirlash ishlari katta ahamiyatga molikdir.

Bu jahonshumul masalada YUNESKO asosiy o'rinni egallaydi. Uning ro'yxatiga jahon tarixiy yodgorliklarining iftixori hisoblangan buyuk Xitoy devori, London Taueri, Klimenjarodagi milliy park va boshqa minglab obyektlar kiradi.

Shuni alohida qayd etish kerakki, 1993 yildan boshlab O'zbekistonning Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo'qon, Toshkent va boshqa joylaridagi ko'plab tarixiy obidalar ana shu ro'yxatga kiritildi.

Har yili bu ro'yxatga yangi - yangi tarixiy obidalar, yodgorliklar nomi qayd etib boriladi.

YUNESKO faoliyati tarkibiga yana xalq og'zaki ijodiyoti, folklor, o'lanlar, aytishuvlar, maqomlar, xalq kuylari, laparlarni saqlash ham kiradi.

Ayniqsa, YUNESKOning adabiyot bo'yicha roli salmoqlidir. Jahon adabiyoti, uning shoh asarlari, adabiy meros u tomonidan e'zozlanib, to'planadi va jahonning turli tillariga tarjima qilinib, bosmadan chiqariladi va tarqatiladi. Shuningdek, YUNESKO ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish, jahon ahlini voqea va hodisalardan voqif qilish masalalariga ham faol qatnashib uning rivojlanishiga ko'maklashadi.

Bu xalqaro muassasa ko'plab vaqtli matbuot va nashrlarga homiylik qiladi.

1992 yil 2 martda O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo qilib qabul qilingach, BMTning barcha tashkilotlariga a'zo bo'lish huquqiga ega bo'ladi. Shu bois Respublikamiz **1993 yil 26 oktabridan** boshlab **YUNESKOga** a'zo bo'ldi.

Yuqoridagi sanalardan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston YUNESKOga a'zo bo'lganiga ikki yildan ko'proq vaqt o'tdi. Lekin shu qisqa vaqt ichida ko'p ishlar amalga oshirildi.

1993 yilning yuqorida YUNESKOning ko'zga ko'ringan ekspertlari yurtimizga tashrif buyurib, Samarqand, Buxoro Xiva shaharlarining tarixiy obidalarini borib ko'rdilar va o'rgandilar. Ularda bu shahardagi betakror tarixiy obidalar katta taassurot qoldirdi. Natijada, xalqimizning o'chmas yodgorliklari qayta tiklanib, ta'mirlash dasturi tuzildi va bu dasturni amalga oshirish 1995 yining boshidan boshlandi.

1994 yilning aprel oyida YUNESKOning barcha bo'limlari vakillari Toshkentga kelishdi. Ularning bu tashrifidan maqsad Markaziy Osiyo respublikalarida YUNESKOning vazifalarini aniqlab olishdan iborat edi.

Shu yilning oktabr oyida Samarqand shahrida Markaziy Osiyo va jahon olimlari uchrashib, bu shaharda YUNESKO tasarrufidagi Markaziy Osiyo respublikalarini o'rganish instituti tashkil etishga qaror qilindi.

Bu institut jahonda mintaqani o'rganish bo'yicha eng yirik markaz bo'lib qoldi. Binobarin, Samarqand o'rta asrlarda bo'lganidek, hozir ham jahonning eng ko'zga ko'ringan ilmiy markazlaridan biri bo'lib qoladi.

YUNECKO tashabbusi bilan Fransiyaning Parij shahrida, Samarqandlik olim, davlat arbobi Muhammad Tarag'ay Ulug'bek tavalludining 600 yillik yubiley tantanalari bo'lib o'tdi. Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlarining butun jahon tarixiy obidalar ro'yxatiga kiritish bo'yicha ko'pgina ishlar qilindi.

YUNESKO Markaziy Osiyoda ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish istiqbollarini o'rganish ishida ham katta amaliy yordam ko'rsatmoqda. Bu ish shunisi bilan katta ahamiyatga molikki, butun Markaziy Osiyo Respublikalari Orol dengizining qurib borayotganligi munosabati bilan jiddiy ekologik tanglikka, sanoat chiqindilaridan atrof-muhitni ifloslanishi kabi muammolarga duch kelmoqdalar.

YUNESKO ana shu muammolarni, boshqa xalqaro va hududiy hamjamiyat tashkilotlari bilan hamkorlikda bartaraf etish yo'lida ishlashga o'zining tayyor ekanligini izhor etdi.

Ma'lumki, Birlashgan Millatlar Tashkiloti jahon madaniyati va ma'rifatini rivojlantirish o'n yilligini (1988- 1997) o'tkazishga qaror qilgan edi.

YUNESKO ham shu doirada faoliyat ko'rsatib, jahon iqtisodiy, madaniy va ma'rifiy rivojlanishida muhim o'rin tutgan «Buyuk Ipak Yo'li»ni kompleks o'rganish dasturini qabul qildi. Bu dasturning maqsadi Sharq bilan G'arb o'rtasidagi, quruqlikdagi va dengizdagi savdo yo'li salohiyatini aniqlash, tiklashdan iborat bo'lsa, ikkinchi tomondan bu yo'l Sharq bilan G'arbning madaniy va ma'rifiy hamkorligini bir-biriga bog'lovchi muhim ko'prik ekanligini ochib berish, uni tiklashdan iboratdir.

Endilikda bu ulkan tadqiqotlar to'rt asosiy yo'nalishda olib borilmoqda:

1. Ipak yo'li mamlakatlariga kiruvchi xalqlarning tili va yozuvini o'rganish;
2. Karvonsaroylar o'rnini aniqlash va ularni qayta tiklash, pochta aloqalarini yo'lga qo'yish;
3. Kosmik arxeologiya'ni qayta jonlantirish;
4. Jahon turistik tashkiloti bilan hamkorlikda ipak yo'li bo'ylab turistik yo'nalishlarni ochish va uni harakatga keltirishdan iborat.

Hozirgi kunda Respublikada YUNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy komissiyasi tashkil etildi. Bu komissiya tarkibiga davlat arboblari, olimlar, taniqli madaniyat xodimlari bilan bir qatorda ta'lim muassasalarining ham vakillari kiritildi.

2.2. YUNISEF, MOT(XMT) xalqaro tashkilotlarining vazifalari va ta'lim-tarbiya jarayonlari yuksalishidagi o'rne

YUNISEF 1946 yilning 11 dekabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining birinchi sessiyasidayoq bir ovozdan YUNISEF — BMTning Favqulodda Bolalar Fondi nomi bilan tarkib topdi.

YUNISEF tashkil topgan dastlabki yillarda uning mablag'i urushdan qattiq jabrlangan Yevropa va Xitoy bolalariga oziq-ovqat, dori-darmonlar uchun sarf qila boshladi. 1950 yil dekabrda BMT Bosh Assambleyasi YUNISEF vakolatini yanada kengaytirdi. Uning mablag'lari rivojlanayotgan davlatlardagi son-sanoqsiz bolalar uchun sarflana boshladi.

1953 yilning oktabridan BMT Bosh Assambleyasi YUNISEFni o'zining doimiy organiga aylantirdi. Endi u Birlashgan Millatlar Tashkilotining bolalar fondiga aylandi. Lekin uning kafolatlari va vazifalari to'raligicha saqlab qolindi. 1960 yillardan boshlab YUNISEF bolalar manfaatlarini global himoya qiluvchi zabardast organga aylandi.

1965 yilda YUNISEFning Nobel mukofotiga sazovor bo'lishi, xalqaro bolalar hayotida naqadar xayriya va saxovat manbai bo'lib shakllanganligini to'la e'tirof etilishi bo'ldi.

Hozirgi kunda ham YUNISEF bolalar manfaatlarini himoya qilishga, ularni sog'lom, o'qimishli bo'lib o'sishlariga ko'maklashish, bolalar o'limini oldini olish, ommaviy qirg'in keltiruvchi va boshqa xavfli kasalliklardan muhofaza qilish, onalik va bolalikni himoya qilish, loaqal qizlar hamda o'g'il bolalarga bepul boshlang'ich ma'lumot berish, ular farovonligini ta'minlash ishlariga asosiy e'tiborni qaratmoqda.

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach, bu saxovatli tashkilot bizning mamlakatimizda ham insonparvarlik faoliyatini boshlab yubordi.

Respublikamizda YUNISEF faoliyatining asosiy yo'nalishlari onalik va bolalikni himoya qilish, ularga kerak tibbiy yordam ko'rsatish, to'laqonli ta'lim berish, turmush sharoitini yaxshilashning ijtimoiy kafolatini himoya qilishdan iborat. Shuningdek, YUNISEF respublikamizda onalar va bolalar kasalliklarini oldini olish, ularni 100 foiz immunizatsiya qilish, bolalarni chechak, ich terlama, difteriya, poliomilit, ko'k yo'tal, quturish kabi kasalliklardan himoya qilish kabi amaliy ishlarni bajarmoqda. Xuddi shu maqsadda so'nggi yillarda o'zbekistonlik bolalarga vaksina keltirilmoqda. YUNISEF dasturiga asosan dori-darmonlar, tibbiyot anjomlari va boshqa zarur narsalar olib kelinmoqda, ommaviy tushuntirish ishlari olib borilmoqda, turli plakatlar, yo'riqnomalar, qo'llanmalar nashr qilinmoqda.

YUNISEF ta'limni amalga oshirishga ko'maklashishda ham faol qatnashmoqda. Ayniqsa, bu tashkilot maktabgacha tarbiya va boshlang'ich ta'limga ko'proq yo'naltirilgan. Albatta, YUNISEFning ta'lim bo'yicha dasturida ko'zda tutilgan bir qator ishlar ham loyiha bosqichida turibdi.

1990 yilda jahonning 71 davlati rahbarlarining oliy darajadagi tarixiy uchrashuvi bo'lib o'tdi. Bu uchrashuvda bolalar manfaatlarini himoya qilish masalasi ko'rib chiqildi. Bolalar sog'lig'ini ta'minlash, ularga bilim berish, ular huquqlarini himoya qilish, to'q va farovon bolalikni ta'minlash bo'yicha 27 aniq maqsadni ko'zlovchi qaror qabul qilingan edi. Bugungi kungacha bu qaror 153 mamlakatda amalga oshirib kelinmoqda. Bizning Respublikamizda ham bu xalqaro hujjatni amalga oshirish bo'yicha "Milliy harakat dasturi" ishlab chiqilgan.

MOT (XMT) Inson huquqlarini hurmat qilish, ularning mehnat turmush sharoitini yaxshilash, ish bilan ta'minlashni yo'lga qo'yish, mehnatkashlarning jamiyat talablariga mos kasb bilan ta'minlash ularning kasb mahoratlarini oshirish, iqtisodiy ahvolini yaxshilash kabi ijtimoiy adolat tamoyillarini amalga oshiruvchi xalqaro tashkilot — MOT (xalqaro mehnat tashkiloti) birinchi jahon urushidan keyin tashkil qilingan edi.

Uning tashkil etilishiga birinchi jahon urushi oqibati, jahonda yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy holat sabab bo'ldi. Chunki, jahonda ro'y berayotgan barcha ijtimoiy iqtisodiy islohotlar jahon miqyosida aks etmog'i ko'zda tutilgan edi.

XMTning eng noyob xususiyati shundaki, unda ish beruvchilar va mehnatkashlar iqtisodiyotda ijtimoiy hamkorligini shakllantiradi, davlat muassasalari bilan teng huquq, tashkilotning siyosati va faoliyati dasturini ishlab chiqishda ishtirok etadi.

Oradan 25 yil o'tgandan keyin XMTning Filadelfiya Konferensiyasida uning maqsad va vazifalari kengaytirildi, jahonning rivojlangan, rivojlanayotgan davlatlari o'rtasida aholini mehnat va mehnatga tayyorlash bo'yicha hamkorligini yo'lga qo'yish masalalari eng dolzarb masala sifatida qabul qilindi.

1946 yildan XMT Birlashgan Millatlar Tashkilotining birinchi ixtisoslashtirilgan muassasasiga aylantirildi. 1969 yilda uning faoliyati Nobel mukofoti bilan taqdirlashga loyiq deb topildi.

XMT hozir quyidagi vazifalarni bajarmoqda:

1. Mehnatkashlarning ish sharoitini va turmush tarzini yaxshilash, ishga joylasha olish qobiliyatini oshirish;

2. Xalqaro mehnat normativlarini joriy etish, uni qo'llanishini nazorat qilish;

3. Keng ko'lamda xalqaro texnik-texnologik hamkorlikni yo'lga qo'yish, bu sohada davlatlar o'rtasida faol hamkorlikni va bu siyosatni samarali amalga oshirishni yo'lga qo'yish;

4. Professional tayyorgarlik, hunar-texnika ta'limi umumiy tadqiqotlar, nashriyotlar sohasida faoliyat ko'rsatish va hokazolar.

Bundan tashqari XMT o'zining qudratli o'quv markaziga ham ega. Bu o'quv markazi Italiyaning Turin shahrida bo'lib, yiliga unda 170 mamlakatdan 60 mingga yaqin kishilar mehnatga tayyorlash, ta'limni tashkil etish kabi eng zamonaviy va dolzarb sohalarda o'qitiladi.

Shuningdek, XMT tasarrufida Jeneva shahrida ijtimoiy mehnat bo'yicha tadqiqotlar olib boruvchi xalqaro institut ishlab turibdi.

XMTning oliy organi – har yili o'tkaziladigan xalqaro *Konferensiyadir*. Unda mehnatni tashkil qilish, uning xalqaro huquqiy asoslarini takomillashtirish, mehnat ta'limini amalga oshirish va boshqa dolzarb masalalar ko'rib chiqiladi. Konferensiya ishiga ma'muriy kengash rahbarlik qiladi. Bu kengash tarkibida 28 hukumat, 14 mehnatkashlar, 14 ish bilan ta'minlovchi vakillar bor. Unga doimiy rahbarlikni xalqaro mehnat byurosi amalga oshiradi. Byuroga esa Bosh direktor rahbarlik qiladi.

O'zbekiston Respublikasi XMTga 1992 yil 13 iyulda a'zo bo'lib, o'zaro munosabatlar yaxshi rivojlanmoqda. Bu hamkorlik:

a) O'zbekiston fuqarolarini ish bilan ta'minlash;

b) mehnat taqsimoti, ish bilan ta'minlash, kasblarga o'qitish masalalarida chet ellarda malaka oshirish;

v) aholini kam ta'minlangan qismini ijtimoiy himoya qilish;

g) kasb ta'limini yo'lga qo'yish yo'nalishlarida rivojlanmoqda.

Respublika ishchi kuchlarini xalqaro meyorga olib chiqish, kasb ta'limini takomillashtirishga bag'ishlangan bir qator seminar-kengashlar XMT, Respublika

xalq ta'limi va mehnat vazirliklari bilan hamkorlikda o'tkazilib kelinadi. XMT bilan hamkorlikning yangi bosqich va yo'nalishlarda rivojlantirish choralari ko'rilmogda.

2.3. AQSH ning “Tinchlik korpusi” va uning ish faoliyati

Prezident Jon F. Kennedi 1961 yilning 1 martida o'zining maxsus farmoni bilan *Tinchlik korpusini* tashkil etdi. Uning vazifas, bir-birini o'zaro tushunish orqali har xil millat kishilari o'rtasida tinch-totuvlikni mustahkamlashdir. Tinchlik Korpusi — Amerika Qo'shma Shtatlarining mustaqil hukumat muassasasi, Prezident Ijroiya komitetiga hisob beruvchi hukumat tashkilotidir.

Bu tashkilot siyosiy tashkilot emas. Uni mablag' bilan AQSH Kongressi ta'minlaydi. Tinchlik Korpusining rahbari Prezident tomonidan tayinlanadi, uning ko'rsatmalariga muvofiq ishlaydi, unga hisob berib boradi.

Tinchlik korpusining uch maqsadi:

1. Muhtoj mamlakatlar va ularning fuqarolariga yuqori malakali mutaxassislar bilan yordam berish;
2. Jahondagi boshqa mamlakatlar va odamlarning AQSH va uning odamlarini yaxshiroq tushunib olishiga ko'maklashish;
3. Amerikaliklarga ba'zi mamlakatlar va uning kishilarini yaqindan tanishtirish. Shu asosda insonlarning bir-biriga yaqinlashuvini ta'minlashdan iboratdir.

Tinchlik korpusining ish faoliyati.

Chet ellarda ko'ngillilarni qo'llab-quvvatlash maqsadida ofislar tuzilib, unga vakolatli rahbar tayinlanadi. Ko'ngillilarga shaxsiy yordam, nazoratchi, rahbarning bir nechta texnik jihatdan assistentlari xizmat qiladi, o'sha hududda profilaktik va tibbiy yordam ko'rsatiladi.

Ko'p mamlakatlarda Tinchlik Korpusi ikki tomonlama bitim asosida ishlaydi. Bitimning asosiy punktlari huquqiy holatga tegishli ko'ngillilarni, Amerika Qo'shma Shtatlari xodimini, shuningdek, faoliyat ko'rsatayotgan mamlakat munosabatlarini qamrab oladi.

Qabul qilayotgan mamlakatning rasmiy shaxslar bilan muzokaralari, kutilayotgan dasturlar, ko'ngillilarni taqsimlash, uy-joy va boshqa narsalar bilan ta'minlashga oid masalalar Tinchlik Korpusi dasturining bajarilishiga yordam beradi.

1992 yilning 4 noyabrida Toshkent shahrida O'zbekiston Respublikasi va Qo'shma shtatlar Tinchlik Korpusi davlatlararo shartnomasiga imzo chekdilar. Shu yili respublikamiz hukumati Tinchlik Korpusi ko'ngillilarni oliy va o'rta o'quv-yurtlarida ingliz tilidan dars berishga, shuningdek, kichik biznesni rivojlantirishda yordam berishga taklif qildi.

1992 yilning 20 dekabrida Toshkentga boshlang'ich uch oylik o'qish uchun 54 nafar ko'ngilli xizmatchilar kelishdi. Bu davr mobaynida ular rus va o'zbek tillarini, o'zbek madaniyati, o'z sohasi dasturini o'rganishdi. Umumiy tabbiy tayyorgarlik bo'yicha mashg'ulotlarga qatnashishdi. Tayyorgarlikni muvaffaqiyatli o'tagach, 1993 yil mart oyida viloyatlardagi ish joylariga kelishdi.

Tinchlik Korpusining bapcha ko'ngillilari oliy ma'lumotlidir. Ko'pchiligi boy ish tajribasiga ega, asosiy maqsadi — o'zbek xalqiga yordam ko'rsatishdir. Ko'ngillilarni qabul qilgan tashkilot va muassasalar har bir xizmatchini uy-joy, ish va ijtimoiy va kasbiy qulayliklar bilan ta'minlaydi. Ular shu mamlakatdagi hamkasblari bilan turli masalalar ustida birgalikda ish olib borishadi. Ko'ngillilar mazkur mamlakat pulida maosh olishadi. Bu maosh oziq-ovqat, transport va boshqa zarur xarajatlarga sarflanadi. Nafaqa miqdori mahalliy hamkasblarining maoshiga teng bo'ladi.

Tinchlik Korpusi O'zbekistonda *ikkita dasturni* amalga oshira boshladi. Bular: *kichik biznes va metodik manbalar asosida ingliz tilini o'qitishni* takomillashtirishdir. Kichik biznesni rivojlantirish dasturining asosiy vazifasi erkin bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida mamlakat ish kuchlarini qo'llab-quvvatlashdan iborat. Bu soha maslahatchilari marketing, bozor tahlili, moliyaviy rejalashtirish, byudjet, buxgalteriya hisobi, bank va axborot tizimlari bo'yicha ish tarjibalariga egalar. Tuzilgan shartnomaga muvofiq, maslahatchilar bepul xizmat ko'rsatishadi. Bu dastur ikkita sohada — xususiylashtirish va xotin-qizlarni biznesda jalb etishdan iborat.

Metodik manbalar asosida ingliz tilini o'qitish dasturining asosiy maqsadi esa quyidagicha:

Birinchidan, zamonaviy usul bo'yicha tayyorgarlikni o'tagan amerikalik o'qituvchining maktab o'qituvchilari va oliy o'quv yurti talabalariga yuqori saviyada dars berishiga erishish;

Ikkinchidan, ingliz tili o'qituvchilarining nutq va texnik malakasini oshirish, pedagogik materiallarni puxta egallashda oliy va o'rta maxsus ta'lim hamda xalq ta'limi vazirliklariga yordam berish;

Uchinchidan, ko'ngilli ingliz tili o'qituvchilari o'z mahalliy hamkasblariga kasb bo'yicha axborot almashish birlashmasini tashkil etishga qaror qildilar.

Savol va topshiriqlar:

1. YUNESKO tashkilotining faoliyati nimalardan iborat?
2. Qiyosiy pedagogika fani taraqqiyotida xalqaro tashkilotlarning o'rnini qanday?
3. YUNISEF tashkilotining ta'lim sohasidagi vakolatlarini nimalardan iborat?
4. Xalqaro mehnat tashkiloti kadrlar va ularni ish bilan ta'minlash masalasi doirasidagi vazifalarni qanday amalga oshiradi?
5. O'zbekiston Respublikasining xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligi qanday imkoniyatlarni yaratib beradi?

III BOB. JAHON MAMLAKATLARIDA TA'LIM TARAQQIYOTINING AYRIM MASALALARI

3.1. Ta'limni isloh qilishda o'quv dasturlarining ahamiyati

Vatanimizda ta'lim tizimi keng qamrovli islohotlarni hamda texnologiyalashtirish ishlarini amalga oshirishdek murakkab jarayonni boshidan kechirmoqda. Ulardan ko'zda tutilgan maqsad – maktab faoliyatini demokratlashtirish, uning insonparvarlik tamoyillarini rivojlantirish, shu asosda o'quv-tarbiya ishlari mazmunini, uning shakl va uslubini kompleks yangilash va yanada takomillashtirishdan iboratdir. Bu vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilishning muhim shartlaridan biri chet el maktabi va pedagogikasi tajribalariga munosabatni tubdan o'zgartirishdan iborat ekanligini hayotning o'zi taqozo qilmoqda.

Bu tajribalarni sinchkovlik va qunt bilan o'rganish orqali biz ta'limda xato va yanglishishlardan, shubhali xulosalardan o'zimizni saqlashimizdan tashqari, ta'lim-tarbiyada qotib qolgan, eskirgan, o'z dolzarbligini yo'qotib borayotgan ish shaklli va uslublaridan tezroq xalos bo'lish bilan birga, uni munosib tarzda yangilashda qo'shimcha boy manbalarga ham ega bo'lamiz.

Shuni e'tirof etish kerakki, rivojlangan mamlakatlarda ta'lim sohasida ulkan o'zgarishlar sodir bo'layotgan bir davrda, bizda ta'lim mazmunini yangilash, uni boshqarish, innovasion texnologiyalarni maktab hayotiga tatbiq etishda qator muammolar mavjud.

Ta'lim-tarbiyada samarali islohotlarni amalga oshirish talab etilayotgan hozirgi davrda ilmiy-texnika taraqqiyoti, yangi pedagogik texnologiyalarni joriy qilish sharoitida muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsata oladigan, jamiyat a'zolarini yetishtirib berish, yosh avlodni kasb-hunarga yo'naltirishda davlat xizmatini hamda o'rta ta'limning ko'p variantli uchinchi bosqichini joriy etish, ta'lim mazmunini yaxshilashda pedagogik vositalarni qo'llash, ta'limda tashabbuskorlik va ijodkorlikka keng yo'l ochish, uning muhim tizimlarini yaratish kabi chet el tajribalarini o'rganish ayni muddaodir.

Rivojlangan xorijiy davlatlarda ta'limniig, mamlakat ichki siyosatiga faol ta'sir etadigan ijtimoiy jarayon ekanligi, e'tirof qilingan haqiqatdir. Shu tufayli chet mamlakatlarda maktab ehtiyojini iqtisodiy ta'minlashga ajratilayotgan mablag' miqdori yildan-yilga oshib bormoqda.

Jumladan, yaponlarda, “maktab muvaffaqiyat va farovonlik timsoli”gina bo'lib qolmay, “u insonlarni yaxshilaydi”, degan fikr – ishonch va e'tiqodga aylangan.

Ta'lim to'g'risidagi g'amxo'rlik taniqli siyosatchilarning ham hamisha diqqat-e'tiborida bo'lgan. Shuning uchun AQSHning sobiq Prezidenti R. Reyganni, Buyuk Britaniya Bosh vaziri M. Tichcherni, Fransiya Prezidenti F. Mitteranlarni maktab islohotining tashabbuskorlari deb, bejiz aytishmaydi. F. Mitteran maktabni “Jamiyatni harakatlantiruvchi kuchi” deb hisoblagan.

Rivojlangan mamlakatlarda pedagogik tadqiqotlarni amalga oshiradigan ko'p sonli ilmiy muassasalar ishlab turibdi. Germaniyada ularning soni 2 mingdan ortiq. Fransiya, AQSH, Yaponiyada ta'lim-tarbiya nazariyasi muammolari bilan yuzlab davlat va xususiy tashkilotlar, universitet va pedagogik tadqiqot markazlari shug'ullanmoqda. Ular faoliyatini esa xalqaro ta'lim markazlari, masalan, AQSHda xalqaro ta'lim instituti muvofiqlashtirib boradi. Ko'pchiligining faoliyati o'quv dasturini takomillashtirish va qayta ko'rishga qaratilgan.

Maktab dasturlarini o'zgartirish ikki asosiy yo'nalishda: ekstensiv va intensiv usul bilan amalga oshiriladi. *Birinchi* holatda o'quv muddati uzaytiriladi, o'quv materiallari hajmi ko'paytiriladi; *ikkinchi* holda esa mutlaqo yangi dastur yaratiladi. Bu o'rinda ikkinchi yo'l, ko'pchilik mutaxassislarning e'tiroficha, maqbul hisoblanadi.

1961 yilda "Bosh yangi bazi"» tamoyillari asosida AQSH o'rta maktablarini isloh qilish boshlangan edi. Buning mohiyati shundaki, ingliz tili va adabiyoti (to'rt yil), matematika (to'rt yil), tabiiy bilimlar (uch yil), ijtimoiy fanlar (uch yil), kompyuter texnikasi (yarim yil) kabildan iborat besh yo'nalishdagi majburiy ta'lim joriy qilindi.

Har bir yo'nalish o'z navbatida bir necha qismga bo'linadi. Masalan, matematika, algebra, trigonometriya, ish yuritish, kompyuter texnikasini qo'llashdan iborat. Barcha majburiy predmetlar tarkibiga yangi kurslar kiritildi. 1985 yildan e'tiboran barcha yuqori bosqich kollejlarning 90 foizi shu besh bazisli tamoyil asosidagi dastur bilan ish olib boradi. Natija: majburiy tayyorgarlik bo'yicha ta'lim hajmi qisqardi, shu bilan bir qatorda dastur chuqurlashtirilib o'rganiladigan kurslar hisobiga tig'izlashdi.

XX asrning 80-yillarida majburiy ta'lim hajmini qisqartirish jarayoni yanada chuqurlashtirildi. Hatto, ayrim kollejlarda bu sohada uch yangi: ingliz tili va adabiyoti, matematika, ijtimoiy bilimlar bazislari asosida ish olib borilmoqda. Ta'limning boshqa turlari esa ixtisoslashtirish davrigacha amalga oshiriladigan bo'ldi.

Amerikadagi ko'zga ko'ringan "Found Karnegi" pedagogik markazi bu dasturni XXI asr dasturi deb baholadi. O'quv dasturlarini qayta qurish jarayoni G'arbiy Yevropa davlatlarida ham amalga oshirildi. Masalan, Buyuk Britaniyada ta'lim vazirligining tavsiyasiga muvofiq o'quv rejasi va dasturini ta'lim muassasasining o'zi belgilaydi.

Mazkur tavsiyalarga muvofiq 50 foiz o'quv soatlari o'qitilishi shart bo'lgan "yadro" predmetlar: ingliz tili va adabiyoti, matematika, din darsi, jismoniy tarbiyaga ajratiladi. O'quv soatlarining boshqa qismi esa o'qitilishi shart hisoblanib, tanlab olingan predmetlarga (gumanitar, tabiiy, matematik mazmundagi) ajratiladi.

XX asrning 80-yillardan boshlab Buyuk Britaniyada ham AQSHdagi singari o'rganilishi majburiy bo'lgan fanlar doirasi kengaytirildi. Ingliz tili va adabiyoti, matematika va tabiiy fanlar o'quv setkasining yadrosini tashkil etadigan bo'ldi. Qolgan predmetlarni tanlab olish o'quvchilar va ota-onalar ixtiyoridadir.

"Yangi dunyo"ning pedagogik g'oyalari Fransiya va Germaniya ta'limiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Germaniya to'liqsiz o'rta maktablarida asosiy predmetlar bilan bir qatorda tanlab olinadigan ximiya, fizika, chet tillari kiritilgan o'quv dasturlari ham amalga oshirilyapti. Bu o'quv dasturi tobora to'liqsiz o'rta maktab doirasidan chiqib, o'rta maktablar va gimnaziyalarni ham qamrab olmoqda.

Fransiya boshlang'ich maktablarida ta'lim mazmuni ona tili va adabiyoti hamda matematikadan iborat asosiy, tarix, geografiya, aholishunoslik, tabiiy fanlar, mehnat ta'limi, jismoniy va estetik tarbiya kabi yordamchi predmetlarga bo'linadi.

Yaponiya maktablari ikkinchi jahon urushidan keyin Amerika ta'limi yo'lidan bordi. Shunga qaramay, bu ikki mamlakat o'quv dasturida bir qator farqli jihatlar ko'zga tashlanadi. Yaponiyada o'quv dasturlari jiddiy murakkablashtirilgan, asosiy fanlar majmui ancha keng, bir qator yangi maxsus va fakultativ kurslar kiritilgan. Masalan, umumiy ta'lim maktablarining yangi musiqa ta'limi o'quv dasturiga milliy va jahon mumtoz musiqasini o'rganish ham kiritilgan. Yapon xalqida "Hamma narsa unitilganda ham ta'lim esda qoladi" degan hikmatli gap bor. Bundan ko'rinadiki, rivojlangan davlatlarda o'quv dasturining rivojlanishi mana shu yo'nalish asosida qurilgan.

Asosiy o'quv dasturlariga ma'lum cheklanishlarni kiritish, alohida predmetlarni o'rganishni kuchaytirib, ularni chuqur o'zlashtiradi va o'quvchilarni ortiqcha "yuk"dan xalos qiladi. Bu masalani ijobiy hal etishda o'quv kurslari integratsiyasini amalga oshirish yordam beradi.

Bunga yorqin misol: o'tgan asrning 60-80 yillarida tabiiy-ilmiy ta'lim dasturi tarkibiga fizika, ximiya, biologiya, ba'zi hollarda astronomiya, geologiya, mineralogiya, fiziologiya, ekologiya elementlari kiritilib, u AQSH va Fransiyada 4 yil, Buyuk Britaniyada 6 yil, Germaniyada 2 yil o'qitildi. O'quv predmetlarini integratsiyalashtirish jarayonida yangi-yangi kurslar paydo bo'la boshladi. Fransiyada XX asrning 70-80 yillarida to'liqsiz o'rta maktablar o'quv dasturidagi tabiiy-ilmiy va gumanitar siklga eksperimental, iqtisodiy, iqtisodiy gumanitar kurslar kiritildi.

Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlar o'quv dasturiga integratsiyalashtirilgan kurslarni kiritish to'la amalga oshirildi. Fransiya maktablarida ularga 6-10 foiz, Buyuk Britaniya maktablarida 15 foiz o'quv soatlari ajratildi.

3.2. Jahon mamlakatlarida ta'limni integratsiyalashtirish va kasbga yo'naltirish masalalari

Integratsiyalashtirilgan o'quv dasturlarining mualliflari barcha yondosh o'quv kurslarini o'zak predmet va g'oya, atrofiga jipslashtirishga harakat qiladi, bu o'quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishga yordam beradi. Ammo bunday uslub hamma vaqt ham ko'zlangan natijani bermaydi. Chunki, integratsiyalashtirilgan o'quv kurslari mutlaq ko'pchilik o'quvchilarga mo'ljallangan bo'lib, u kimgadir zarur, kimgadir keraksiz.

Bu muammoni to'ldirish, o'quvchilarning u yoki by kursga bo'lgan ehtiyojini to'la qondirish uchun maktablar alohida predmetlardan chuqurlashtirilgan kurslarni tavsiya etmoqda. Masalan, G'arbiy Yevropa maktablarida 15 foiz o'quvchilar fizika fanini chuqurlashtirib o'rganishmoqda. So'nggi yillarda AQSHda ilmiy bilimlarni chuqurlashtirib, o'rgatishni ta'minlash maqsadida integratsiyalashtirilgan kurslarning turli variantlari ishlab chiqildi.

Chet el tajribasi shuni ko'rsatadiki, ta'lim mazmunini qayta qurish ishida shoshma-shosharlikka yo'l qo'yib bo'lmaydi. Fikrimizcha, bu sohadagi samarali yo'l integratsiya va ixtisoslashtirishga asoslangan o'quv dasturlarini yaratishdir.

Iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarda mehnat ta'limi hamda kasbga yo'naltirish borasida amalga oshirilayotgan ishlarning eng e'tiborga moligi, shu

ta'lim sohasi bo'yicha o'quv dasturlarini kengaytirish, professional kadrlarga etibor qaratish, kuchli moddiy bazani barpo etish yo'lidir. 1977 yilda AQSHda qabul qilingan "Mehnat faoliyatiga tayyorlash akti"ning asosiy g'oyasi ham shunga qaratilgan. Umuman olganda, AQSHda bu masalaga munosabat jiddiy. Kollejlarda kotejlar qurish, avtomobillarni ta'mirlash, kompyuterlarni terish kabi amaliy faoliyat, mavjudki, ular o'quv muassasalariga ma'lum miqdorda daromad ham keltiradi.

G'arbiy Yevropada ham bu sohada o'ziga xos yangi yo'nalishlar paydo bo'ldi. Masalan, Fransiyada mehnat ta'limiga ajratilgan o'quv soatlari 1,5 barobar oshirildi. Buyuk Britaniyada «Mehnat ta'limi va kasbga tayyorlash» aktiga (1973 yil) muvofiq maktablar bir qancha faoliyat sohasi bo'yicha majburiy kasb-kor dasturini o'zlashtirmoqda.

Mehnat ta'limida stajirovka asosiy o'rinda turadi. Stajirovka dasturi va u amalga oshiriladigan korxonani tanlashda ota - onalar bilan kelishib olinadi. Stajirovkalarni tashkil qilish va amalga oshirishga ketadigan sarf-xarajatlarning katta qismini sanoatchilar va finansistlar to'laydi. Masalan, Germaniyada mehnat ta'limi stajirovkasini amalga oshirishga 450 ming kompaniya va korxonalar yordam beradi. Ular ichida kichik ustaxonalardan tortib "Mercedes Bens" kabi ulkan korxonalar ham bor.

Mehnat ta'limi bilan bir qatorda kasbga yo'naltirish ishlari ham zamon talablariga hamohang takomillashib bormoqda.

Kasbga yo'naltirish darslari barcha rivojlangan davlatlarda mavjud. Bunday darslarda mehnat olamidagi o'zgarishlar va tendensiyalar bilan bir qatorda kasb-kor sohibi bo'lish imkoniyatlari ham o'rgatiladi. Kasbga yo'naltirish darslarini fan o'qituvchilari hamda maxsus kasbga yo'naltirish ishlari bo'yicha maslahatchilar olib boradi. Bundan tashqari kasbga yo'naltirish konsultatsiya punktlari ham mavjud bo'lib, ular yuqori sinf o'quvchilari va ota - onalarga shu soha bo'yicha konsultatsiyalar tashkil etadir. Bunday konsultatsiya punktlari maktablar tarkibiga kirmaydi. Ular xususiy yoki mehnat birjalari tasarrufida bo'ladi.

Kasbga yo'naltirish ishlarini tashkil etishda korxonalar amalga oshirayotgan ishlar ham e'tiborga molikdir. Ularning shtatli konsultantlari maktablarda kasbga yo'naltirish bo'yicha keng qamrovli tushuntirish ishlarini olib boradilar.

3.3. Ta'limni differensiyalashtirish muammolari va maxsus maktablar faoliyati

Maktablarda amalga oshirilayotgan islohotlar ta'lim ishini tabaqalashtirish muammolarini keltirib chiqardi.

Ammo bu masala atrofida qarama-qarshi fikrlar mavjud. Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyatining e'tirof etishicha, ta'limda ijtimoiy tengsizlik kayfiyati hukm surmoqda. Bunga pul to'lab o'qish, sinfda yoki kursda o'quv kursini o'zlashtira olmay ikkinchi yilga qolib ketish, imtihonlarni o'ta talabchanlik asosida o'tkazish sabab bo'lmoqda.

Masalan, Fransiya boshlang'ich maktablari o'quvchilari hamda litsey o'quvchilarining ko'pchiligi fanlarni o'zlashtira olmay, takroriy o'quv yiliga qolib ketmoqda.

Ikkinchi yili o'qishga ko'p sonli imtihonlar ham sabab bo'lmoqda. Bu mamlakatning boshlang'ich va o'rta maktablarida bolalar 650 ta imtihon va topshiradi. Imtihonni topshira olmaslik o'quvchilarning asab va ruhiy holatiga qattiq ta'sir o'tkazadi. Bu noxush vaziyatlarni, hatto fojiali voqealar ro'y berishiga sabab bo'lish hollari uchraydi. Bunday vaziyat shubhasiz, faqat ota - onalar ichidagina emas, o'qituvchilar orasida ham keskin noroziliklarga sabab bo'lada.

Bunday sharoitda ta'limni tabaqalashtirish eng dolzarb masalaga aylangan.

Ularning "ta'limni tabaqalashtirish — kelajak strategiyasidir" shiori biz uchun ham foydadan xoli emas.

Odatda o'quvchilarni tabaqalashtirish chet davlatlar amaliyotida boshlang'ich ta'lim kursidan keyin amalga oshiriladi.

Fransuz pedagoglari esa sinf o'quvchilarini uch tabaqaga ajratadi:

1. Gomogenlar — matematika va gumanitar yo'nalishda ish olib borsa bo'ladigan o'quvchilar;

2. Yarim gomogen — tabiiy sikldagi fanlarni o'zlashtira olishga moyil o'quvchilar;

3. Gegeron — barcha predmetlardan har xil saviyada o'zlashtiriladigan o'quvchilar va hokazo.

Tabaqalashtirish jarayonining yangi muhim yo'nalishi to'ldiruvchi ta'limni rivojlantirish bo'lib qolmoqda.

To'ldiruvchi maktablar paydo bo'lishining sababi, AQSH va G'arbiy Yevropada o'zlashtirmovchi hamda ulgurmovchi o'quvchilarning ko'payib borayotganligi, ta'lim sifatining tobora tushib borayotganligidadir.

AQSH davlat dalolatnomalaridan biri to'g'ridan-to'g'ri "mamlakat xavf ostida" deb nomlangan (1983 yil). Unda o'quvchilar o'zlashtirishdagi "o'rtamiyonachilik" 70-80 foizni tashkil etayotganligi, funksional savodsizlik avj olayotganligi bayon etilgan. Oily o'quv yurtiga tayyorgarlik ko'rish hamda o'qishga kirish uchun o'quvchilar xotirani kuchaytiruvchi turli dori vositalaridan foydalanayotganligi pedagoglarni tashvishga solmoqda. O'quvchilarining reyting ko'rsatkichi nisbatan tushib bormoqda. Fransiyada har uch litseychidan biri muvaffaqiyatsizlikka uchramoqda. Ta'limda ro'y berayotgan buday salbiy holatlarni bartaraf etish to'ldiruvchi ta'lim zimmasiga tushadi.

To'ldiruvchi ta'lim maktabgacha tarbiya muassasalarida, maktab va litseylarda amalga oshirilmoqda. AQSHda bu xizmatga ommaviy axborot vositalarining imkoniyatlari ham safarbar etilgan, milliy telekompaniya maxsus o'quv kanali orqali 130 soatlik o'quv ko'rsatuvlari tashkil etadi.

O'quv jarayonlarini tabaqalashtirib olib borish bo'yicha chet mamlakatlarning ko'pchiligida tadqiqotlar davom ettirilmoqda.

Rivojlangan davlatlarda iqtidorli bolalarga e'tibor tobora ortib bormoqda. Keyingi davrlarda o'z tengdoshlariga nisbatan qobiliyatda bir necha barobar ilgarilab ketgan bolalar ko'plab uchraydi. Ular o'quvni juda erta boshlab, ta'lim

kurslarini o'zlashtirishda katta shov-shuvlarga sabab bo'ladigan darajada muvaffaqiyatlarga erishmoqda.

Shunday iqtidorli o'quvchilar maktabi G'arbda XX asrning 60-yillarida paydo bo'lgan edi. Bunday maktablarning o'quv dasturlari bolalarning qobiliyat va imkoniyatini to'la ro'yobga chiqarishni ta'minlab berish darajasida murakkab tuzilgan.

Qobiliyatli bolalar bilan ishlash dasturi AQSHda keng quloch yoygan. Ayrim shaharlarda oliy toifali bolalar bog'chalari ochilgan bo'lib, ularda 4-5 yoshli o'quvchilar maktab dasturi asosida o'qitiladi. Talantlarni izlab topish davom etmoqda. AQSHda "Merit" dasturi asosida har yili yuqori sinf va kollejlardan eng qobiliyatli bolalar (600 ming) tanlab olinadi. Ular o'rtasida test sinovlari o'tkazilib eng qobiliyatli 35 ming o'quvchi tanlab olinadi va o'qitiladi. Ularga turli imtiyozlar stipendiyalar, yaxshi shart-sharoitga ega bo'lgan turarjoy, eng oliy darajadagi universitetlarga qabul va boshqalar amalga oshiriladi.

Ammo iqtidorli bolalarga qarama-qarshi qutbda turgan aqli zaif o'quvchilarning taqdiri ham chet ellik pedagoglarni tobora tashvishlantirmoqda, bunday holatlarni kelib chiqish sabablarini o'rganish, oldini olish bo'yicha ko'pgina profilaktik ishlar olib borilmoqda. Ular uchun maxsus maktablar ochilmoqda. Afsuski, statistik ma'lumotlar bunday bolalar soni tobora oshib borayotganligini ko'rsatmoqda.

So'nggi yillarda Fransiyada aqliy va jismoniy nuqsoni bor bolalar uchun ochilgan maktablar soni 16 marta o'sdi. Bu muammoni hal etish bo'yicha barcha ilg'or mamlakatlarda izchil izlanishlar jarayoni ketmoqda.

AQSHda kelajak maktabi – umummilliy loyihasini amalga oshirishga kirishildi. Bu eksperiment mazmunini o'qituvchi buyrug'i bilan ish tutish, ko'proq o'quvchilarga mustaqil ishlash imkoniyatini berishdan iborat. Ta'lim tarkibi sinfda ishlash, mustaqil mashg'ulot, o'qituvchi konsultatsiyasini o'z ichiga oladi.

Germaniya maktablarida sinfda o'quvchilar sonini qisqartirish yo'li tutilgan. Bunda o'quvchilarning har biriga individual paketlar (topshiriqlar) tarqatiladi. Topshiriqlarni o'quvchi mustaqil bajaradi, lozim bo'lganda o'qituvchidan konsultatsiya oladi. Bundan ko'zda tutilgan maqsad:

- maktablarning insonparvarlik, umuminsoniylik yo'nalishlarini kuchaytirish;

- o'quvchi shaxsini shakllantirishning eng samarali yo'llarini qidirib topish;

- tarbiya'ning yangi formalarida — o'quvchilar kengashi, maktab kengashlaridan, tarbiyaviy o'yinlardan foydalanish;

- maktab o'quv dasturlarini ixtisoslashtirish, fanlarning o'zaro aloqasini mustahkamlash, takomillashtirish;

- maktabni mehnat, insoniy faoliyat bilan yaqinlashtirish, kasbga yo'naltirish ishlarini qayta tashkil etish;

- tabaqalashtirib o'qitishni kuchaytirish, maxsus o'quv muassasalari (ham talantli, ham aqliy, jismoniy nuqsonli o'quvchilar uchun) faoliyatini rivojlantirish;

- yangi-yangi o'quv texnik vositalarining ta'limdagi salmog'ini oshirish, o'qituvchilarning kompyuter savodxonligini oshirish;

— sinf-dars tizimini zamonaviylashtirish, o'quvchilarning mustaqil ishlashini yo'lga qo'yish;

— pedagogik g'oyalarini amalga oshirishda keng qamrovli eksperiment-tadqiqotlarni amalga oshirishdan iboratdir.

Chet el ta'lim tizimidagi bunday ibratli jihatlarni Vatanimiz ta'lim tizimida qo'llash yosh, mustaqil Respublikamizda o'quv-tarbiya ishlarini isloh qilish jarayonini tezlashtiradi.

3.4. O'quvchilar bilimini baholash mezonlari

Har bir mamlakat ta'lim tizimi o'quvchilar bilimini baholash tizimini qo'llashdan manfaatdor. Jahon mamlakatlarida o'quvchilar bilim, ko'nikma, malakalarini turlicha baholash tizimi amal qiladi. Avstraliyada o'quvchilarning bilimi so'zlar yordamida baholanib, bu baho o'quvchilardan sir tutiladi va o'qituvchilargagina ma'lum bo'ladi. O'qituvchi o'quvchilarni o'zaro qiyoslagan holda ular iqtidorining o'ziga xos jihatlarni aniqlaydi. Gretsiya ta'lim tizimida esa, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi harflar yordamida baholanadi. M., D (1-4) (10-12,5) – “yetarli yaxshi”, C (5-6) (12,5-15,5) – “yaxshi”, B (7-8) (15,5-18,5) – “juda yaxshi”, A (9-10) (18,5-20) – “a'lo” ni anglatadi. Demak, Gretsiyada harflar yordamida ifodalanadigan 20 balli baholash tizimi mavjud. Italiya, Ispaniya, Portugaliya kabi davlatlarda besh balli baholash tizimi mavjud bo'lib, 5 (topshirmadi) salbiy, 1 esa (a'lo)ni anglatadi. Norvegiya ta'limida 6 balli baholash tizimi amal qilib, 0-2 o'rtadan past: 3-4 o'rta, 5-6 o'rtadan yuqori demakdir. Finlyandiya ta'lim tizimida 7 bosqichli baholash tizimi amal qiladi va 4 (“yomon”) salbiy, 10 esa (“a'lo”) bahoni anglatadi. Islandiya, Niderlandiya mamlakatlarida 10 balli baholash tizimi qo'llanilib, 1 (“yomon”) salbiy, 10 esa (“a'lo”) bahoni ifodalaydi.

O'quv jarayonida o'quvchilar o'zlashtirgan bilim, ko'nikma, malakalarni baholashga oid xalqaro tajribalarni o'rganish muhim ahamiyatga ega. O'quvchilar bilimini baholash ta'lim maqsadlari, tizimiga ko'ra xorijiy davlatlarda, asosan 3 balldan 100 ballgacha bo'lgan shkalalar orqali ifodalanadi. Ayrim mamlakatlarda baholash raqamlar o'rniga lotin harflari yordamida amalga oshiriladi.

Bunday tajribani Buyuk Britaniya va Gretsiya ta'lim tizimlari misolida ko'rish mumkin. Sonlar ortib borishi bilan o'zgartirish “yomon” dan “a'lo” darajagacha ko'tariladigan baholar bilan bir qatorda Italiya, Portugaliya, Shvetsiya, Finlyandiya, Islandiya, Ispaniya, Bolgariya kabi bir qator mamlakatlarda sonlar kamayib borish tartibida juda “yomon” dan “a'lo” darajagacha ko'tariladigan baholar bilan tavsiflanadigan tizimlari ham mavjud. Masalan “topshirmadi”, “topshirdi”, “a'lo darajada topshirdi” kabi. Baholash foizlarda ifodalanadigan ta'lim tizimlari ham mavjud. Ular jumlasiga Kanada va Ispaniya davlatlari baholash tizimini kiritish mumkin.

Ularning har birida nazorat turlari imtihon, sinfdan sinfga ko'chirish va yakuniy attestatiyalar o'tkazish o'ziga xos tarzda amalga oshiriladi. Amerika qo'shma shtatlari (AQSH) ta'lim tizimida dunyoning barcha mamlakatlariga nisbatan eng ko'p maktab, kollej va universitet mavjud. Ko'pgina universitet va

kollejlarda o'qishga kirishda quyidagi ko'rsatkichlar hisobga olinadi: katta umumiy o'rta maktabda o'quv predmetlaridan olingan baholar miqdori; maktabda o'qigan ayrim o'quv kurslari bo'yicha olingan baholar; xususiy kompaniyalar tomonidan o'tkazilgan imtihonlar natijalari va boshqalar. O'quvchilarning insho, bergan intervyu va maktabdan tashqari tadbirlardagi ishtiroki ham hisobga olinadi. Mamlakatning 30 foizdan ortiqroq oliy o'quv yurtlarida talabalar imtihonsiz o'qishga qabul qilinadi. O'qishning bir bosqichidan ikkinchisiga o'tishda hech qanday imtihon yoki sinov bo'lmaydi. Lekin o'qish davrida turli tashkilotlar tomonidan standartlashtirilgan son-sanoqsiz testlar o'tkaziladi. Ularda yagona milliy imtihon va o'qitish dasturi mavjud emas. Katta o'rta maktab bitiruvchilarining egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini baholovchi yagona o'lchov karnegi birligi 1 kreditdir. 1 kredit deyilganda universitetga kirish uchun yo'naltirilgan 120 soatlik bitta o'qish tushuniladi. O'rta maktabni bitirgan o'quvchi oliy o'quv yurtiga kirish uchun kamida 14-16 kredit to'plashi kerak. Biroq bu bitiruvchining tayyorgarlik darajasini aks ettirmaydi. AQSh ta'lim tizimida baholash harflar yordamida ifodalangan 4 balli baholash tizimi mavjud. Bunda "A"-4, "V"-3, "S"-2, "D"-1 yoki "F"-0. O'quvchi o'qishni davom ettirishi uchun uning bahosi "V"dan kam bo'lmasligi kerak.

Buyuk Britaniya umumiy o'rta maktablari o'quvchilarga 10 ta asosiy (Jounation subjects) predmetdan ta'lim beriladi. Ulardan 3 tasi asosiy ("Yadro" (core subjects)) o'quv fanidir. Bularga ona tili (ingliz tili), matematika va tabiiy ilmiy turkumdagi o'quv predmetlari kiradi. Asosiy predmetlarga tarix, geografiya, axborot texnologiyalari, musiqa, san'at, jismoniy tarbiya va chet tillari kiradi. Buyuk Britaniya maktablari va boshqa Evropa mamlakatlarida AQSh dagidek o'quvchilar tomonidan mustaqil tarzda tanlanadigan o'quv predmetlari mavjud. Lekin o'quvchiga taqdim qilinadigan o'quv yuklamasining qat'iy me'yorlari doirasida mazkur tanlovni amalga oshirish nazorat qilinadi.

O'quvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini baholash harflar yordamida amalga oshiriladi. Jumladan, ("yomon") F,E,B,C,A ("a'lo"). Bitirish imtihonlari ikki bosqichda o'tkaziladi: a) ta'lim oluvchilar 16 yoshga to'lganda, b) 18 yoshda. Bunda ularning majburiy minimumni bajarganligi hisobga olinadi. Imtihonlar tashqi nazoratchilar tomonidan yozma tarzda tashkil etiladi va qabul qilinadi. Imtihonlarning murakkablik darajasini o'quvchilarning o'zi belgilaydi.

Ingliz yoshlari kollej va universitetga kirish uchun 16 yoshda o'qishni tugatib, tanlagan yo'nalishlari bo'yicha qo'shimcha chuqurlashagan tayyorgarlikdan o'tadilar. Umumiy o'rta ta'lim – GCSE (General Certificate of Secondary Education)ni tugatganligi haqidagi hujjatni olish uchun bitiruvchilar sakkizta o'quv predmeti bo'yicha imtihon topshiradi. Bunda etti balli A – shkala bo'yicha, eng kamida beshta predmetdan uchta yuqori A, V va S ballarini olsa, universitetga imtihon topshirishga tayyorlovchi ikki yillik maxsus sinfda o'qish huquqini qo'lga kiritadi.

Universitetga kirishga tayyorgarlik, asosan, uchta o'quv predmeti bo'yicha amalga oshiriladi. Ularning har biriga taxminan bir xil vaqt sarflanadi. O'quvchilar mazkur o'quv predmetlarini erkin tanlash huquqiga ega. Odatda ular yagona yoki

o'zaro yaqin sohadagi bilimlarni o'z ichiga oladi. Ikki yillik o'qishni tugatgan o'quvchilar tanlangan o'quv predmetlari bo'yicha yuqori murakkablik darajasiga ega bo'lgan o'quv topshiriqlarini bajara oladilar. Shunga ko'ra mazkur yo'nalishlarda (A – Level examinations) imtihon topshiradilar. Ular mamlakatning oliy o'quv yurtlariga kirish uchun 3 ta o'quv predmeti bo'yicha yuqori murakkablik darajasiga ega bo'lgan imtihonni topshirishlari lozim.

Angliyada oliy o'quv yurtiga kirishga asos bo'ladigan imtihonlar ettita mustaqil imtihon oluvchi qo'mita tomonidan o'tkaziladi. Har bir qo'mitaga kirgan maktab o'quvchilari tomonidan imtihon savollari tanlanadi, har bir qo'mita, ikki yil davomida tayyorlanib o'qitiladigan dastur bo'yicha imtihon topshirish tartibini ishlab chiqadi.

Alohida qo'mitalar tomonidan ishlab chiqilgan imtihon materiallari va dasturlari bir-biridan farqlansa-da, imtihonlarni mamlakat bo'yicha yagona va teng sharoitlarda o'qitishni ta'minlash maqsadida erishilgan o'quv darajasini baholash va dasturlar bo'yicha ta'lim vazirligida tuzilgan Kengash SCAA (SCHOOL Curriculum and Assessment Authority) tomonidan tasdiqlangan.

Fransiya yoshlari ta'lim tizimida makgabgacha ta'lim (2 yoshdan 6 yoshgacha), boshlang'ich maktab (6 yoshdan 11 yoshgacha), kollej ta'limi (11 yoshdan 15 yoshgacha) va litsey ta'limi (15 yoshdan 18 yoshgacha) amal qiladi. Mazkur mamlakatda o'quv jarayoni o'ziga xos tarzda tashkil etilgan bo'lib, 12-sinf dan 1-sinf ga qarar boriladi.

Mamlakat maktablarida 20 ballik baholash tizimi qo'llaniladi. Eng yaxshi baho "20", lekin bunday natijaga o'quvchilar kamdan-kam holatlarda erishadilar. Odatda eng yaxshi javob 17-18 ball bilan baholanadi. 15-16 ball orqali esa nisbatan pastroq baho ifodalanadi. Uch bahoda o'qiydigan o'quvchilar 10-13 balli ko'rsatkichga ega bo'ladi. 9 va undan past ballar esa o'quvchining juda yomon o'zlashtirish ko'rsatkichini ifodalaydi. Ko'plab litsey, kollejlarda o'quvchilar chorak so'ngida baholanmaydi, sinfda birinchi va so'nggi o'rinlar bo'yicha ketma-ketlikda raqamlab chiqiladi. Fransiya ta'lim tizimida keskin noaniq baholar mavjud emas. Baholarda ijobiy va salbiy ko'rsatkichlarning o'zi bir necha darajani ifodalaydi. Masalan, ijobiy baho olgan bolalar bon – yaxshi, tres beines bien – juda yaxshi, assez bon (bien) – etarli darajada yaxshi (yaxshi), pas mal – yomon emas tarzida so'zlar yordamida baholanadi. Past baho olgan o'quvchilarga esa mal – yomon, mauvais – yomonroq, treses mal (mauvais) – juda yomon, assez mal (mauvais) – etarli darajada yomon kabi so'zlar yordamida baho beriladi.

Maktab o'quvchilarining o'n yillik ta'limi maktab, kollejni bitirganlik haqidagi diplom olishi bilan tugaydi. Bitirish vaqtida o'quvchilar uchta fan (fransuz tili, matematika, tarix yoki geografiya)dan test topshiradi. Qolgan fanlardan esa yakuniy baho chiqariladi. Fransuz o'quvchilari majburiy 10 yillik ta'limni yakunlaganida kollej diplomiga ega bo'ladi. Diplom uchta o'quv predmetidan olingan yakuniy natijaga ko'ra beriladi. Kollej bitiruvchilarining taxminan 85 foizi o'rta ta'limni yakunlash maqsadida bakalavr diplomi yoki attestat olishi uchun uch yillik akademik litseylarda o'qishni davom ettiradi. Bakalavr diplomi o'quvchilarga mamlakatdagi oliy o'quv yurtlariga kirib o'qish huquqini beradi. Har yili mamlakat yoshlarining yarmi shunday diplom yoki

attestatga ega bo'ladilar. Bakalavr diplomini olish uchun ta'lim oluvchilar yozma yoki og'zaki imtihon topshiradilar. Imtihonlar litsey yo'nalishlariga tegishli bo'lib, ulardan bittasi fransuz adabiyotidan bo'ladi. Yozma testlar o'rtacha to'rt kun davomida o'tkazilib, 25 soat vaqt sarflanadi. Bakalavr diplomida har bir o'quv predmetining mavqei hisobga olingan holda barcha o'quv predmetlari bo'yicha umumlashtirilgan bakalavr bali qo'yiladi. O'quvchi 10 va undan ortiq ball to'plagan taqdirda imtihonlarni topshirgan hisoblanadi.

Yaponiya ta'limi o'zining samaradorligi bilan butun dunyo pedagoglarini o'ziga jalb etib keladi. Yapon o'quvchilari to'qqiz yillik tayanch maktabni bitirganlaridan so'ng tabaqalashtirilgan holda katta bo'g'indagi o'rta maktabga o'qishga kiradilar. Mazkur maktablarga qabul o'quvchining baholari va kirish testlari natijalariga amalga oshiriladi. Shuni ta'kidlash kerakki, kirish testlari milliy dastur asosida bo'lsa-da, har bir hudud uchun alohida-alohida tuziladi. Test natijalari o'quvchilarga e'lon qilinmaydi. Natijalar o'quvchilar qabul qilinadigan maktablarga yuboriladi. Har yili 9 yillik tayanch maktablarning 95 foiz bitiruvchisi katta o'rta ta'lim maktablariga o'qishga qabul qilinadi. 5 foiz o'quvchi esa kasbiy maktablarda o'qishlarini davom ettiradi. Biroq katta o'rta maktab va universitetlarga kirishda imtihonlar muhim ahamiyat kasb etganligi uchun ham o'quvchilarning o'zi va ota-onalari ularga jiddiy e'tibor qaratadi. 7-sinf dan 9-sinf gacha o'rtacha 50 foiz o'quvchi o'z tanloviga ko'ra qo'shimcha o'quv predmetlari bilan shug'ullanadi.

Universitetga kiruvchi bitiruvchilar ikki turda imtihon topshiradi. Birinchi turdagi imtihonlar (University Entrance Center Examination – UECEL) butun mamlakat bo'yicha yagona bo'lib, uni o'quvchilar oliy o'quv yurtiga kirishdan yarim yil avval topshiradilar. Bunday imtihonlarni topshirish ham davlat, ham xususiy universitetlarga kiruvchilar uchun majburiydir. O'quvchilar 12 ta o'quv predmetining bir nechtasidan test topshiradilar. Qaysi fandan test imtihoni topshirishni universitetlarning o'zi belgilaydi. Masalan, Tokioning eng nufuzli universitetlari eng kamida 5 ta milliy imtihon (VECE)ni, qolganlari 2-3 ta imtihonni topshirgan abituriyentlarning hujjatini qabul qiladi.

Ikkinchi tur imtihonlar universitetlarning o'zida o'tkaziladi. Ular milliy imtihonlarga nisbatan murakkab bo'lib, turli universitetlarning o'zida o'tkaziladi, shuningdek, fakultetlarda bir-biridan farqlanadi. Odatda abituriyent 2 tagacha universitet imtihonlarini topshirib, o'zini sinab ko'radi. Universitetlarda tanlov bali juda yuqori, shuning uchun ham, ayrim o'quvchilar mazkur imtihonlarga 2 yilgacha tayyorgarlik ko'radi. Imtihonlarni qayta topshiruvchi abituriyentlar 30 foizni tashkil etadi.

Yaponiyada ta'lim, fan va madaniyat vazirligi qoshida universitetlarga kirish imtihonlari bo'yicha milliy markaz mavjud (National Center for university entrance examinations) bo'lib, imtihonlarning birinchi turini o'tkazish bo'yicha barcha ishlarni tashkil qiladi. Jumladan, imtihon topshiruvchilarni ro'yxatdan o'tkazish, imtihonlarni topshirish va h.k. Imtihon materiallari 20 ta o'quv predmeti bo'yicha qo'mitalar tomonidan tuziladi. Bunday qo'mitalarga o'quvchilar universitetlar tomonidan tavsiya etiladi. Qo'mitaning vazifalaridan biri – imtihon mazmunining milliy dasturlarga mosligi va barcha predmetlar bo'yicha bir xil

bo'lishiga erishishdan iboratdir. O'qituvchilar va kasaba uyushmalari vakillari har yili qo'mita a'zolari bilan uchrashib, imtihonlar haqida fikrlashadi. Yaponiyada "3", "4", "5" baholari qo'llanilib, 2 baho umuman mavjud emas. Imtihonlar birinchi va ikkinchi semestrlarda 2 martadan, 3-semestrda esa bir marta tashkil etiladi.

Olmoniya ta'lim tizimi o'ziga xos jihatlarga ega. U erda umumiy o'rta ta'lim 13 yil davom etadi. Mazkur ta'lim tizimida tabaqalashtirilgan yondashuv keng tatbiq etilgan. Olmoniyada o'quvchilarning bilimi quyidagicha baholanadi. Jumladan, 6(0) (juda yomon), 4 (6-4) ("DTSga to'g'ri keladi"), 3 (9-7) ("qoniqarli"), 2 (12-10) ("yaxshi"), 1 (15-13) ("a'lo").

Boshlang'ich ta'limni tugatgan bolalar qobiliyatiga qarab uch yo'nalishda o'qitiladi. Ulardan bir qismi 9 yillik tayanch maktabga borib, umumiy va boshlang'ich kasbiy ta'lim oladi. Ikkinchi qismi 10 yillik real maktabda o'qiydi. Unda o'rta darajada tayyorgarlikka ega bo'lib, gimnaziyaning birinchi va ikkinchi bosqichida o'qishni davom ettiradi.

Olmon o'quvchilari abituriyent attestatini olish uchun to'rtta bitirish imtihonini topshirishi lozim. O'quvchilar imtihongacha 28 o'quv predmetidan tahsil olgan bo'lishi, ulardan 22 tasi tayanch bilimlarni beradigan, 6 tasi chuqurlashtirilgan bo'lishi lozim. O'quvchilar ulardan quyidagi 3 tasini tanlab oladi:

- 1) tillar, adabiyot va san'at;
- 2) ijtimoiy bilimlar;
- 3) matematika, tabiatshunoslik va texnologiyalar.

Tanlab olingan 3 ta fanning 2 tasida chuqurlashtirilgan yozma, 1 tasida og'zaki imtihon topshiradilar. Attestatda oxirgi 2 yillik o'qish va imtihon natijalarini hisobga oluvchi umumiy ball ko'rsatiladi. Masalan: attestatga qo'yilishi mumkin bo'lgan maksimal 840 balldan 540 tasi o'quvchining o'quv predmetlarini o'zlashtirish bo'yicha erishgan natijalari (330 ball 22 ta asosiy kurs va 210 ball 6 ta chuqurlashtirilgan) va 300 ball esa imtihonlar davomida olingan bo'lishi kerak. O'quvchi attestat olishi uchun kamida 280 ball to'plashi lozim.

Bir xil yoshdagi o'quvchilarning 40% har yili imtihonlarni topshiradi. Ularning 95% muvaffaqiyatga erishadi. Attestat olgan aksariyat o'quvchilar (85%) ikki yil davomida universitetga kirishga muvaffaq bo'ladi. Oliy o'quv yurtlariga kirish jarayonida attestatdagi ballar muhim ahamiyatga ega. Attestat oluvchilar soni ko'payib ketganligidan nufuzli fakultetlarga qabul qilishda qo'shimcha test va suhbatlar joriy etilgan.

Yuqoridagi tahlillardan shu narsa ma'lum bo'ldiki, ko'rib o'tilgan mamlakatlar ta'limi sohasida baholash tizimining obyektiv bo'lishi uchun harakat qilinganligi, bunda turlicha usul va vositalardan foydalanishi o'z ifodasini topgan. Bularning barchasi o'quvchilarning bilimi va o'ziga xos jihatlarni haqqoniy baholash yo'lida olim, pedagoglar va keng jamoatchilik, barcha davrlar va mamlakatlarda tinmay izlanganidan guvohlik beradi. Chunki, o'quvchi bilimni baholash barcha zamonlarda o'z echimini kutayotgan dolzarb pedagogik muammo ekanligi o'z ilmiy isbotini topmoqda.

Savol va topshiriqlar:

1. Ta'limni isloh qilishda o'quv dasturlarining ahamiyati qanday?
2. Jahon mamlakatlarida ta'limni integratsiyalashtirish va kasbga yo'naltirish masalalarini izohlang.
3. Ta'limni differensiyalashtirish muammolari va maxsus maktablar faoliyati haqida so'zlab bering.
4. O'quvchilar bilimini baholash mezonlarini ayting.
5. Yaponiyada baholash tizimining o'ziga xosligi nimada?
6. Fransiyada o'quvchilarni baholash qanday ko'rinishda tashkil etilgan?
7. Germaniyada o'quvchilarni baholash qanday tashkil etilgan?

IV BOB. YEVROPA MAMLAKATLARIDA TA'LIM-TARBIYA MASALALARINING OLIB BORILISHI VA UNING QIYOSIY TAHLILI

4.1. Germaniyada ta'lim-tarbiya jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari

Germaniyada mavjud bo'lgan asosiy qonun har bir fuqaroga o'z shaxsini erkin kamol toptirish, qobiliyatlari va qiziqishiga qarab maktab, o'quv yurti va kasb tanlash xuquqini beradi. Ta'lim sohasidagi siyosatning maqsadi shundan iboratki, u har bir insonni optimal darajada qo'llab-quvvatlash, uning manfaatlariga javob beradigan malakaviy tayyorgarlikdan o'tish imkoniyatini yaratadi. Har bir fuqaro hayoti davomida umumiy, kasbiy va siyosiy ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim. Ta'lim sohasidagi siyosatning asosiy yo'nalishlaridan biri yosh avlodni demokratik mamlakatda mas'uliyat hissiga ega mustaqil fuqarolar etib tarbiyalashdir.

Germaniya sanoatlashgan davlat. Xom ashyo jihatdan zaif mamlakat sifatida yaxshi tayyorlangan mutaxassisiz rivojlana olmaydi. Buning uchun Germaniya ta'lim sohasiga katta mablag' ajratadi.

Huquqiy asoslar. Asosiy qonunning 7-moddasiga muvofiq butun maktab ta'limi tizimi davlat nazorati ostidadir.

Federativ qurilishga muvofiq ta'lim sohasidagi vakolatlar federatsiya va yerlar o'rtasida bo'linadi. Jumladan, Germaniyadagi mavjud 16 ta yerlarning hammasida ham o'zlarining ta'lim to'g'risidagi qonunlari mavjud.

Ta'lim sohasidagi qonunchilik va boshqaruv, asosan, yerlarning vakolatiga kiradi. Bu, avvalombor, o'rta va oliy ta'lim tizimi, kattalarni o'qitish tizimi va ta'lim darajasini oshirish tizimiga tegishlidir.

“Maktab ta'limi tizimini muvofiqlashtirish” to'g'risidagi yerlararo bitim (1971 y. 14 sentabrda qabul qilingan Gamburg bitimi) ushbu tizimning umumiy va qiyosiy tuzilmasini belgilaydi. Ushbu bitimga asosan yerlar qonunchilik organlari tomonidan maktabda ta'lim olishning majburiyligi, tashkiliy shakllar, imtihon natijalarini e'tirof etishga tegishli bo'lgan majburiy qoidalar qabul qilindi. Bundan tashqari qo'shimcha qarorlar qabul qilinib, yerlar Madaniyat va ta'lim vazirligining Doimiy anjumani (KMK) barcha yerlarda umumta'lim va kasb-hunar maktablarini

tamomlaganlik haqidagi guvohnomalarni tan olish uchun ham umumiy asoslarni yaratadi.

Bular, xususan, gimnaziyalarning yuqori bosqichlarini qaytadan tashkil qilish to'g'risidagi, yetuklik shahodatnomasi uchun imtihonlarga qo'yiladigan yagona talablar to'g'risidagi va maktab ta'limi tizimida yakdillik va qiyoslashning zarur darajasini ta'minlaydigan birlashgan maktablarni tamomlaganlik to'g'risidagi guvohnomalarni o'zaro e'tirof etish haqidagi qarorlardir.

Germaniya'ning birlashuvidan so'ng KMK doirasidagi bitimlarga asosan yangi yerlarning ta'lim tizimini tuzilmaviy qayta qurish markaziy vazifaga aylandi. Landtaglar tomonidan maktab to'g'risidagi qonunlar qabul qilingandan so'ng yangi yerlarning beshtasida 1992-1993 o'quv yilidan boshlab maktab ta'limining ko'proq onali tizimi joriy etildi.

Majburiy maktab ta'limi. Majburiy maktab ta'limi 6 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan bolalarga yo'naltirilgan bo'lib, u 12 yilga mo'ljallangan. Majburiy maktab ta'limi to'g'risidagi nizomni bajarish uchun 9 yil mobaynida (ba'zi yerlarda 10 yil mobaynida) maktabga to'liq o'quv haftasi davomida borish, shundan so'ng majburiy kasb-hunar maktabiga to'liq bo'lmagan o'quv haftasi davomida qatnashish lozim (agar o'smir umumta'lim maktabining yuqori bosqichiga yoki kasb-hunar maktabiga to'liq o'quv haftasi davomida qatnashayotgan bo'lsa). Davlat maktablarining barchasida o'qish bepuldir. O'quv qo'llanmalar ham, asosan darsliklar, qisman bepul beriladi. Ba'zida o'quv qo'llanmalar va darsliklar vaqtincha foydalanish uchun berib turiladi. Ba'zida o'quv qo'llanma narxining bir qismi ota - onaning daromadiga bog'liq holda to'lanadi.

Diniy ta'lim asosiy qonunga muvofiq — oddiy fan sifatida o'qitiladi, lekin nokonfessional maktablar bundan mustasnodir.

Asosiy qonunga muvofiq ushbu fanni o'qitish yoki o'qitmaslik to'g'risidagi qarorni ota - ona qabul qiladi. 12 yoshdan boshlab, bolalarning diniy tarbiyasi haqidagi qonunga binoan ota - onaning qarori farzandning roziligi bilan tasdiqlanishi lozim. 14 yoshdan o'quvchi ushbu fanni o'qish yoki o'qitmaslik haqida o'zi qaror qiladi, agar bunda yerlar huquqi boshqa bir muvofiqlashtiruvchi vositani ko'zda tutmagan bo'lsa.

Asosiy qonunda mustaqil ta'sisчилarga ega bo'lgan xususiy maktablarni tashkil etish va saqlash kafolatlanadi. Agar bunday xususiy maktablar davlat maktablari o'rniga tashkil qilinsa, ularning ta'sis etilishi uchun davlat ruxsat berishi zarur. Mustaqil ta'sisчилarga ega bo'lgan maktablar ta'lim sohasidagi davlat xizmatlarining mutanosibligini boyitadi va shuning uchun yerlar tomonidan moddiy yordam olishadi. Germaniyada, bunday maktablarda o'qiydigan o'quvchilar soni yildan-yilga ortib bormoqda.

Bolalar bog'chasi. Bolalar bog'chasi — olmonlar boshlab bergan va ko'pgina xorijiy mamlakatlar tomonidan o'rganib, qabul qilingan muassasadir. U davlat ta'lim tizimiga emas, balki yosh avlodni qo'llab-quvvatlash muassasalari tizimiga kiradi. Bolalar bog'chasi ta'sisчилari cherkov, xayriya uyushmalari va jamoalar, ba'zida — korxonalar va ittifoqchilardir.

Bolalar bog'chalariga bolalar 3 yoshdan maktabga borgunlariga qadar kun bo'yi yoki kunning ma'lum qismida qatnaydilar. Bog'chaga borish ixtiyoriy.

Bolalar bog'chalarining *vazifasi* bolalarga g'amxo'rlik qilish, ta'lim va tarbiya berish. Bolada javobgarlikni his qiladigan va jamiyatga foyda keltiradigan komil shaxs shakllantirilishi kerak. Ba'zi mamlakatlarda maktabgacha ta'lim muassasalari turli shaklda bo'ladi, dastlabki sinflar yoki maktab – bog'cha.

Tarbiyaviy ishlarning eng muhim jihati — jamiyatda yashashga qobiliyatli, mustaqil insonni kamol toptirish maqsadida guruhda o'qishdir. Bolalar bog'chalari oiladagi tarbiya'ni qo'llab-quvvatlashga, shuningdek, boshqa keyingi hayoti va ta'lim olishi uchun eng yaxshi imkoniyatlarni yaratish uchun uning rivojlanishidagi kamchiliklarning o'rnini to'ldirishga qaratilgan. Odatda, bolalar bog'chasida bolalar tushlikka qadar bo'ladilar. Faqat ba'zi birlarida ular kun bo'yi bo'lishlari mumkin.

1996 yildan boshlab *bolalar bog'chasiga qatnash uchun huquqiy me'yorlar* ishlab chiqildi. Bolalar bog'chasiga farzandlarni berish ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi. Bolalar bog'chasiga qatnash uchun ota - onalardan ularning daromadiga qarab ma'lum miqdorda to'lov olinadi.

Maktab ta'limi tizimi. Boshlang'ich maktablar. Boshlang'ich maktabga bolalar 6 yoshdan keladilar. Boshlang'ich maktablar maktabning dastlabki to'rt yilini o'z ichiga oladi, Berlin va Brandenburg federal yerlarida boshlang'ich maktablar olti yillik. Boshlang'ich maktablarga barcha bolalar borishadi va u erda asosiy boshlang'ich bilimlar berilishi bilan bolalar maktablarning keyingi bosqichlariga tayyorlanadi. Darslar, asosan, nemis tili, matematika, tabiatshunoslik, san'at, musiqa va sport predmetlarini o'z ichiga oladi. Chet tillarini o'rgatish takliflari barcha mamlakatlarda kengaymoqda.

Ko'pchilik yerlarda bolalarga o'qishning boshlang'ich ikki yili mobaynida baho qo'yilmaydi, buning o'rniga ularning o'zlashtirishiga batafsil tavsifnoma beriladi.

Boshlang'ich maktabda o'qiganlaridan so'ng bolalar umumta'lim maktabining 2-pog'onasiga boradi. Yani, 5-6 sinflar, ularning tashkiliy jihatidan qat'iy nazar, bu bola kamol topadigan davr bo'lib xizmat qiladi, bolaning ustidan uning keyingi o'qish shakliga yo'naltirish maqsadida kuzatuv olib boriladi.

Mo'ljal olish bosqichi. Mo'ljal olish bosqichi asosan 5 va 6 sinflardan xulosa yasaliib, o'quvchilarning keyingi maktab bosqichlariga o'tishida mo'ljal olishga xizmat qiladi. Bu bosqich maktab shaklidan kelib chiqib, maktabga tobe yoki tobe bo'lmagan tarzda amalga oshiriladi.

Asosiy maktablar. Asosiy maktablarga boshlang'ich maktablardan keyin chuqurlashtirilgan maktablarga bormaydigan bolalar borishlari shart. Asosiy maktab 9, ba'zi federal erlarda 10 sinf bilan yakunlanadi. Federal erlarning aksariyatida ixtiyoriy 10 sinf bosqichi mavjud. Ushbu maktab o'quvchilarining 30%i 10 sinfga qatnaydi. Asosiy maktab amaliy kasbiy ta'limga asos bo'ladigan umumiy bilimlarni beradi.

Bolalarning ko'pchilik qismi boshlang'ich maktabdan so'ng asosiy maktabga o'tishadi. Ushbu maktabdagi har bir o'quvchi olmon tili, matematika, tabiiy fanlar, jamiyatshunoslik va chet tili (asosan ingliz tili) fanlarini o'qiydi, bu y yerda o'quvchilarning kelajakda mutaxassislik egallashlarini yengillashtirish maqsadida mehnat darslari ham olib boriladi.

Asosiy maktab o'quvchilarga zarur bo'lgan umumiy ta'limni beradi. 5 yoki 6 yillik ta'limdan so'ng asosiy maktab bitiruvchilarining ko'pchiligi kasb-hunar sohasida tayyorgarlik ko'rishga kirishadilar va 18 yoshga qadar parallel ravishda kasb-hunar maktablarida ta'lim oladilar. Asosiy maktabni muvaffaqiyatli bitirish ko'pchilik hollarda kasb-hunar ta'limining ideal tizimiga o'tishga imkoniyat yaratadi.

Real maktablar. Bular 5 yoki 7 sinfdan 10 sinfgacha bo'lgan, chuqurlashtirilgan maktablardir. Real maktablarning bitiruv hujjati umuman olganda barcha turdagi muhim kasb – hunar uchun asos bo'la oladi va maxsus yuqori maktab, maxsus gimnaziyaga borish yoki shakllantiruvchi gimnaziyaga o'tish huquqini beradi. Real maktablar kengaytirilgan umumiy ta'lim beradi.

Gimnaziyalar. 9 yoki 8 (5 sinfdan 13 yoki 12 sinfgacha) yoxud 7 (7 sinfdan 13 sinfgacha) yillik ta'limni qamrab olgan chuqurlashtirilgan, umumiy o'rta ta'lam maktablaridir. Qariyb, barcha federal yerlarda hozirda 12 sinfdan so'ng bitiruv imtihonlarini topshirish imkoniyatini joriy etish rejalashtirilmoqda. Bundan tashqari shakllantiruvchi gimnaziyalar ham mavjudki, ularda asosan real maktablardan kelgan o'quvchilar tahsil oladi. Bitiruv hujjati gimnaziya tomonidan taqdim etiladi (umumiy oliygohga kirish huquqi) barcha oliygohlarda tahsil olish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Ba'zi fanlar va fan majmualarini o'qish majburiy bo'lib qolishiga qaramay, sinf o'quvchisi ta'lim sohasida o'zining individual qobiliyatlarini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlarga ega, chunki unga teng ko'lamdagi fanlar taklif etiladi. Fanlar o'qishning yo'nalishiga qarab taqsimlanadi: til-adabiy-badiiy, jamiyatshunoslik yoki matematika, tabiiy-ilmiy-texnik. Yuqori sinflarda o'qish tugagunga qadar o'quvchilar uchchala yo'nalish bo'yicha o'qishlari lozim.

Gimnaziya'ning yuqori sinflarida ta'lim olish, shahodatnoma olish uchun 4 ta fandan imtihon topshirish bilan yakunlanadi. 13 yillik o'qishdan (yerlarning to'rttasida hozirda 12 yillik o'qishdan so'ng) va yetuklik shahodatnomasini olish uchun imtihonlarni muvaffaqiyatli topshirilganidan so'ng uchinchi darajali o'rta ma'lumot haqida guvohnoma beriladi. Bu guvohnoma istagan ixtisoslik bo'yicha oliy o'quv yurtida o'qish huquqini beradi.

Umumiy maktablar. Bu kabi maktablarda turli chuqurlashtirilgan maktab shakllari tashkiliy ham mazmun jihatidan farq qiluvchi tartibda mujassamlashtiriladi. Qo'shma umumiy maktablar (barcha o'quvchilarning umumiy mashg'ulotlari) shuningdek, birgalikdagi va hamkorlikdagi umumiy maktablar (1 sekundar bosqichning turli maktab shakllari umumiy ilovada) farqlanadi.

Maxsus gimnaziyalar. Kasbga yo'naltirilgan gimnaziyalar, ular asosan real maktab bitiruvchi yoki shu darajadagi bitiruv asosida shakllantiriladi. Uch yillik ta'limdan so'ng (11 sinfdan 13 sinfgacha) barcha oliygohlarda o'qish huquqini beruvchi hujjatni taqdim etadilar. (umumiy oliygohga kirish huquqi).

Oliy o'quv yurtiga kirish uchun, uchinchi darajali o'rta ma'lumot haqidagi guvohnomani taqdim etish zarur. Abiturientlar sonining ko'pligi va oliy o'quv yurtlarida joylarning etishmasligi tufayli ba'zi fakultetlarda federal yoki mahalliy miqyosda joriy etiladigan qabul qilishning belgilangan cheklavlari mavjud.

Bo'lajak talabalarning tanlov me'yori bo'lib, shahodatnomadagi baholarning o'rtacha balli va oliygohga qabul qilinish to'g'risidagi qarorni kutishga sarflangan vaqt hisoblanadi.

Maxsus maktablar. Maxsus maktablarda bolalarning imkoniyatlari va cheklavlaridan kelib chiqqan holda alohida konstepsiya hamda chora – tadbirlar o'tkaziladi. Bu maktablar imkoniyati cheklanganlik darajasini hisobga olib jihozlanadi va darslar boshlang'ich bosqichdan 2 – sekundar bosqichgacha (qisman Internat) tashkil qilinadi. Bundan ko'zda tutilgan maqsad, ta'lim mazmuni bilan bir qatorda amaliy va ijtimoiy yordam ko'rsatishdir. Bu turdagi muassasalar real maktablar, gimnaziyalar va hatto kasb – hunar maktablari bosqichlarida ham mavjud.

Kechki maktablar va kollejlari. Ushbu muassasalarda o'smirlar o'zlarining "ikkinchi ta'lim yo'llari"ni bosib o'tib, asosiy maktab, real maktab yoki umumiy oliygohga kirish huquqini beruvchi bitiruv hujjatlariga ega bo'ladi. Bularga kechki asosiy maktab, kechki real maktab yoki kechki gimnazilar kiradi. Darslar kechqurun tashkil etiladi, o'quvchilar dastlabki o'quv yillarida ishlashadi. Kollejlarda esa umumiy oliygohga kirish hujjatini olish mumkin. Ular to'liq maktab hisoblanadi va o'quvchilar ishlamaydilar.

Kasbiy ta'lim olish yili. Ishtirokchilarga to'liq vaqt yoki qisman vaqt tashkil etiladigan darslar orqali umumiy yoki biror bir kasbga yo'naltirilgan kasbiy bilimlar beriladi.

Dual kasbiy ta'lim. Tizim "dual" deb ataladi, chunki ta'lim ikki joyda amalga oshiriladi: korxonada va kasb-hunar maktabida. Germaniyada kasbiy ta'lim bosqichidagi asosiy soha bo'lib, o'smirlarning 60 %i ushbu tizimda kasbiy ta'lim olishadi. Ba'zi kasblar bo'yicha tahsil olish tahlil olish tartib-qoidalari asosida amalga oshiriladi. (mamlakat bo'yicha qabul qilingan huquqiy tartiblar). Hozirda ta'lim olish tartib – qoidalari asosida 350 ta tan olingan kasb – hunar bor.

Maxsus yuqori maktablar. Ular real maktab yoki shu darajada tan olingan bitiruv hujjati asosida shakllantiriladi. Bu maktabda o'qish muntazam tashkil etiladi va bir yil davom etadi, qisman dars tashkil etilishi holatlarida esa 3 yil. Bitiruv hujjati maxsus oliygohlarda tahsil olish huquqini beradi.

Maxsus kasb – hunar maktablari. Maxsus kasb-hunar maktablari muntazam dars beruvchi muassasa hisoblanadi va o'qish kamida bir yil davom etadi. Bu maktablarga kasbga tayyorlov bo'yicha muntazam maktabni tugatgandan so'ng yoki hech qanday kasbiy amaliy ma'lumot olmaganlar ham borishi mumkin. U bitiruv imtihoni bilan yakunlanadi, ikki yillik ta'limdan so'ng beriladigan hujjat real maktabning bitiruv hujjatiga mos keladi, maxsus kasbiy maktabda tahsil olish huquqini beradi. Bitiruvchilar dual kasbiy ta'limda ham tahsil olishlari mumkin.

Germaniyada uchinchi bosqich o'rta ma'lumotiga ega bo'lganlar soni tobora ortib bormoqda: maktablarning ko'pchilik bitiruvchilari oliy o'quv yurtlarida ta'lim olishga qaror qilishmoqda. Maktabni oliy o'quv yurtiga kirish huquqsiz tamomlagan yoshlar, odatda, kasb-hunar ta'limi tizimiga kirib boradi. Lekin oliy o'quv yurtiga kirish huquqiga ega bo'lganlarning ko'pchiligi ham kasb-hunar ta'limini tanlaydi. Ko'pchilik yoshlar o'qishni «dual tizim» doirasida o'taydi, ya'ni korxonada amaliy tayyorgarlik bilan kasb-hunar maktabidagi nazariy o'qishni

birlashtiradilar. Shunday qilib, xususiy sektor va davlat kelishilgan holda kasb-hunar ta'limi tizimidagi ahvolga javobgardirlar. Maktabdan tashqari kasb-hunarga o'qish federatsiyaning boshqaruvida, kasb-hunar maktablari esa — alohida yerlar boshqaruvidadir.

Bugungi kunda deyarli 1,6 mln yoshlar, e'tirof etilgan nufuz va talab darajasi turlicha bo'lgan taxminan 350 ta ixtisoslikdan bittasi bo'yicha tayyorgarlikdan o'tadilar. Hozirgi vaqtda o'smirlarning deyarli, 40 foizi, qizlarning esa 55 foizidan ko'prog'i eng nufuzli 10 ta ixtisoslik bo'yicha tayyorgarlik o'tashmoqda. O'smirlar ko'proq avtomexanik, elektromonter, korxonada mexanik yoki ulgurji va tashqi savdo-sotiq kommersanti kasbini tanlashmoqda. Qizlar esa shifokor yordamchisi (hamshira), chakana savdo-sotiq sohasida sotuvchi, sartarosh, idora xizmatchisi kasblarini afzal ko'rishmoqda. Shu bilan bir qatorda tugallangan kasbiy ta'limni ololmagan yoshlarga kasb egallash imkoniyatini berish maqsadida boshqa keng choralar ham amalga oshiriladi.

Kasbga shakllantirish maktablari. Kasbga shakllantirish maktablariga asosan kasb-hunar maktablarini bitirayotgan yoki kasbi bo'yicha ishlayotgan o'smirlar borishadi. Ular o'zlarining tahsillari yoki faoliyatlari bilan bir qatorda yarim yil mobaynida ushbu maktabga qatnashadi. Ular (maktablar) turli yo'nalishlarga ega. O'qish muddati darslar muntazam o'tilganda 1 yoki 1, 5 yil, agar darslar qisman tashkil etilsa, 3 yoki 3, 5 yil davom etadi. Muvaffaqiyatli ta'limdan so'ng beriladigan hujjat real maktabning bitiruv hujjatiga mos keladi, maxsus kasbiy maktabda tahsil olish huquqini beradi.

Korxonada tayyorgarlik ko'rish bilan parallel ravishda yoshlar 3 yil davomida kasb-hunar maktablarida, u yerga haftada 2-3 marta qatnab ta'lim olishlari mumkin. Umumiy ta'lim bilan bir qatorda bu maktab, asosan, o'quvchiga korxonadan ko'ra kengroq ko'lamda egallashi mumkin bo'lgan maxsus nazariy bilimlar ham beradi.

Tayyorgarlik natijalari yakuniy imtihonlar jarayonida tekshiriladi va tegishli idora (palata) tomonidan berilgan o'qishni tamomlaganlik haqida guvohnomalarda ko'rsatiladi.

Kasb-hunar maktabida ta'lim olish 18 yoshga to'lmagan va boshqa maktablarda o'qimayotgan barcha yoshlar uchun majburiydir. Yil davomida tayyorlov kursida o'quvchilar maxsus nazariy bilimlar egallaydilar, bu esa o'z navbatida, bo'lajak mutaxassislik yo'nalishini tanlashda yordam beradi.

Kasbiy ta'lim olishning boshqa imkoniyatlari. Korxonada ta'lim olish va kasb-hunar maktablarida o'qishdan tashqari mutaxassislik egallashning boshqa imkoniyatlari ham mavjud. Masalan, ixtisoslashtirilgan kasb-hunar bilim yurtlarida o'qish 1 yildan 3 yilgacha davom etadi. U korxonada kasbiy tayyorgarlik deb hisoblanishi yoki uni to'liq ravishda o'rnini bosishi mumkin. Real maktab bitiruvchilari texnikumlarga qabul qilinadi va 2 yildan keyin ular ixtisoslashtirilgan oliy o'quv yurtlariga kirish huquqini beruvchi o'qishni tamomlaganlik haqida guvohnoma olishadi. Tugallangan kasbiy ma'lumotta ega o'quvchilarga bunday huquq 1 yil o'qiganlaridan so'ng beriladi. Nazariyadan tashqari, o'qitish sikliga o'quv ustaxonalarida ishlash va amaliyot kiradi. Har yili mehnat masalasi bo'yicha federal boshqarma jismoniy zaiflik bilan og'rikan yoshlarning individual kasbiy

ma'lumot olishlari uchun 4,3 mln marka ajratadi. Jumladan, korxonalarning majburiyatlariga ishchi joylarning 6 foizidan kam bo'lmagan qismi nogironlarga taqdim etish majburiyati yuklatilgan. Ushbu nizomni bajarmaganlik uchun jarima solinadi.

Korxonada ta'lim olish. Korxonada amaliy ta'lim olish, «shogirdlik», mutaxassislikka qarab 2 yildan 3,5 yilgacha, o'rtacha 3 yil davom etadi. Davlat tomonidan e'tirof etilgan mutaxassisliklar bo'yicha tayyorgarlik ruxsat etilgan xolos. Yetuklik shahodatnomasiga ega bo'lgan fuqaroning o'qish muddati yarim yilga qisqartirilishi mumkin. O'zlashtirish yuqori darajada bo'lsa, o'qish muddatini yana yarim yilga qisqartirish mumkin. Shogirdlarning maoshi yildan-yilga ortib boradi. O'quv dasturlari tadbirkorlar uyushmasi va kasaba uyushmalari tomonidan belgilanib, tegishli federal vazirliklar nizomlarida e'tirof etiladi. Ularda o'qitiladigan fanlar va imtihon shakllari belgilanadi. Imtihonlar iqtisoddagi o'z-o'zini boshqarish organlari (savdo-sanoat palatalari, hunar palatalari) tomonidan qabul qilinadi. Imtihon komissiyasi tarkibiga ishbilarmonlar, mehnat jamoasi vakillari hamda kasb-hunar maktablari o'qituvchilari kiradi.

O'quvchilar iqtisodiyotning barcha sohalarini qamrab olgan qator korxonalarda, shuningdek erkin kasblar sohasida va davlat muassasalarida o'qiydilar. Yirik firmalar o'quvchilarni o'zlarining o'quv ustaxonalari va ish joylarida tayyorlaydilar. Kichik korxonalarda o'qish bevosita ish joylarida tashkil etilgan. Agar korxona tor ixtisoslikka ega bo'lib, zaruriy bilimlarni berish imkoniyatiga ega bo'lmasa, ularga yoshlar o'zlarining kasbiy bilimlarini chuqurlashtirishlari mumkin bo'lgan tarmoqlararo o'quv markazlari yordam beradi.

Barcha uchun ta'lim. Mamlakatda hech bir kishi mutaxassislikka ega bo'lmay turib mehnat faoliyatini boshlashi mumkin emas. Kasbiy ta'limning dual tizimi o'zini yaxshi tomondan ko'rsatib, doimo mukammallashib bormoqda. Shuning uchun bo'lsa kerak qator mamlakatlarning bu tizimga qiziqishlari ortmoqda.

Yoshlar ichida korxonalarda o'quv joylariga talab oshayotganiga qaramay, shu paytgacha taklif va talab o'rtasidagi muvozanatni ushlab turishga erishilib kelinmoqda. Germaniyaning birlashuvi to'g'risidagi shartnomada sohada yoshlarning harakatchanligini oshirish maqsadida mamlakatning har ikkala qismida olingan kasbiy ta'lim to'g'risidagi guvohnomalar tan olinadi.

Sog'liqni saqlash maktablari. Ushbu maktablarda akademik daraja berilmaydigan sog'liqni saqlash sohasida ishlashni xohlovchilar: hamshiralar, doylar, massajchilar, amaliy terapevtlar tayyorlanadi. Maktablarning aksariyati tashkiliy va tarkibiy jihatdan kasalxonalar bilan bog'liq. Maktablarda, asosan, ham nazariy, ham amaliy bilimlar beriladi.

Maxsus kasb maktablari. Maxsus kasb maktablarga kasbiy ta'lim tugallangandan so'ng va ma'lum tajribaga ega bo'lingach, ixtiyoriy ravishda boriladi. Ba'zan ushbu maktablarda uzoq yillik tajribaga ega, o'z malakasining yuqoriligini isbotlashni xohlovchilar ham borishadi. Bu maktablar kasb doirasida mavjud kasbiy bilimlarni beradi (masalan: malakali usta maktablari, texnik maktablar). Maktablarda o'qish darslarni tashkil etilganiga qarab yarim yildan uch

yilgacha davom etishi mumkin, qisman tashkil etilgan dars shaklida esa 6 marta yoki 8 marta yarim yildan o'qish bo'ladi.

Oliy o'quv yurtlari.

Germaniyaning eng qadimgi oliy o'quv yurti — Geydelbergdagi universitet 1386 yilda tashkil etilgan. Boshqa ko'pgina universitetlar 500 yillik yubileylarini nishonladilar. Bular urf-odatlariga boy Leypsigdagi (1409 yilda tashkil etilgan) va Rostokdagi (1419 yilda tashkil etilgan) universitetlardir. Ular bilan bir qatorda juda yosh universitetlar ham mavjud, ularning 20dan ortig'i 1960 yildan so'ng tashkil etilgan.

Sekinlik bilan rivojlanayotgan universitetlar bilan bir qatorda oliy texnik o'quv yurtlari, pedagogika institutlari va, xususan, XX asrning 70-80-yillarida ixtisoslashtirilgan oliy o'quv yurtlari tashkil topdi. Barcha yoshlarning o'qishga qabul qilinishi huquqi — oliy maktab sohasidagi siyosatning maqsadiga aylandi.

1960 yilda oliy o'quv yurtlarida yoshlarning faqat 8 foizigina o'qiy boshlagan bo'lsa, bugungi kunda barcha maktab bitiruvchisining deyarli har bir uchinchisi oliy o'quv yurtiga qabul qilish haqida ariza beradi. Ammo, ta'kidlash joizki, keyingi yillarda Olmoniya oliy ta'limida muammolar ko'paydi. Bu ta'lim olishning o'rtacha muddati nihoyatda kattaligidir. Buning uchun federatsiya va yerlar o'quv jarayoni tuzilmasini isloh qilish va oliy o'quv yurtlarining samaradorligini oshirish haqidagi masalani ko'rib chiqmoqdalar. Olmoniyada oliy o'quv yurtlari faqatgina ta'lim sohasidagi vazifalarni bajaribgina qolmay, balki ilmiy tadqiqotlar uchun ham asos bo'lib xizmat qiladi. Ularning nazariy tadqiqotlar sohasidagi faoliyati Olmoniyadagi ilmiy tadqiqotlarning umumiy darajasini oshirishga yordam beradi.

Universitetlar (*Texnika universitetlari, texnika oliygohlari*). Ular Germaniyada an'anaviy oliygoh turlari hisoblanadi. Ularda barcha fanlar spektrumi taklif etiladi. Ta'lim va tadqiqotni birlashtirish vazifalari ilgari suriladi. Universitetlarda ilmiy ishlarni himoya qilish mumkin.

San'at, musiqa, dinshunoslik va pedagogik oliygohlar.

San'at va musiqa oliygohlarida talabalar tasviriy, nafis va badiiy san'at yoki musiqiy sohalarda ta'lim oladilar. Diniy oliygohlarda dinshunoslar tayyorlanadi. Pedagogik oliygohlarda (hozirda faqat Baden – Vyrtemberg, Zaksen – Anhalt, Shlezvig – Xolshtayn va Tyuringen federal yerlarida) boshlang'ich, asosiy va real maktab o'qituvchilari tayyorlanadi, qisman maxsus maktablar uchun ham. Qolgan federal o'qituvchilar tayyorlash universitetlarda, texnika universitetlarida, umumiy oliygohlarda yoki san'at va musiqa oliygohlarida amalga oshiriladi.

Umumiy oliygohlar.

Umumiy oliygohlar (faqat Xessen va Nordrayn – Vestfalen federal yerlarida) universitetlar, pedagogik oliygohlar, maxsus oliygohlar va qisman san'at va musiqa oliygohlari tan oladigan tadqiqot, ta'lim va tahsil vazifalarini mujassamlashtiradi. Ushbu oliygohlarning xarakterli xususiyati, ularda ta'lim umumlashtirilgan holda amalga oshiriladi. Umumiy oliygohlar “Universitet – umumiy oliygoh” deb ham yuritiladi.

Maxsus oliygohlar va maxsus boshqaruv oliygohlari.

Maxsus oliygohlar va maxsus boshqaruv oliygohlar amaliyotga asoslangan ta'lim yo'nalishida kasbiy ma'lumotni taqdim etish vazifasini olgan. Ularda asosan ilmiy

bilimlarni va metodlarni yoki san'atkorona sayqallash qobiliyatini qo'llay bilish talab etiladi. Ushbu oliygohlar asosan injenerlik, iqtisodiyot, ijtimoiy, qishloq xo'jaligi va dizayn yo'nalishlarida o'qishni taklif qiladilar. Maxsus oliygohlarda mamlakat va federal erlar jamoatchiligi boshqaruvi bo'yicha malakali va istiqboli porloq mutaxassislar tayyorlanadi.

Oliy maktabning tashkiliy tuzilmasi. Oliy o'quv yurtlari (ba'zi bir xususiy, ayniqsa, diniy oliy o'quv yurtlari, bundesver universitetlari, ixtisoslashtirilgan boshqaruvning oliy federal maktabidan tashqari) yerlar vakolatiga kiradi. Federatsiya va yerlar mavjud o'quv yurtlarini kengaytirish va yangilarini tashkil etish tadbirlarini rejalashtirish bo'yicha hamkorlik olib boradilar. Kelajakdagi vazifalarni hal etish maqsadida maxsus federatsiya va yerlarning ta'lim sohasini rejalashtirish masalalari bilan shug'ullanadigan va ilmiy tadqiqotlar olib borishga ko'maklashadigan birlashgan komissiyasi tashkil etilgan. Bu doirada federatsiya va yerlar hamkorlikda ta'limning barcha sohasida model loyihalarga moddiy yordam ko'rsatadi. Oliy maktab o'z-o'zini boshqarish huquqiga ega. Qonunlar doirasida u o'zining Nizomiga asosan ish olib boradi. Oliy o'quv yurtini bir necha yilga saylanadigan shtatdagi rektor yoki prezident boshqaradi. Federal yerlarning ko'pchiligida, oliy o'quv yurtlarida talabalarning o'z-o'zini boshqarish tizimi mavjud.

Malaka oshirish. Malaka oshirish yoshlikda olingan turli bilimlarning uzviy davomi yoki yangi axborotlarni qabul qilish davri hisoblanadi. Asosan umumiy va kasbiy malaka oshirish turlari farqlanadi. Siyosiy va madaniy sohalaridagi malaka oshirish umumiy malaka oshirishning muammoga yo'naltirilgan qismida amalga oshiriladi. Har ikkala malaka oshirish sohalarida oliygohlarning takliflari hamda ilmiy sohadagi etakchilarning sirtqi ta'lim borasidagi takliflari inobatga olinadi. Malaka oshirishga qatnashish ixtiyoriy, takliflar xilma – xil va etakchilar ko'p shuningdek davlatning ko'makchilik roli mavjud.

Bugungi kunda Germaniyada yangi ko'rinishdagi virtual maktablar tashkil etilyapti. Virtual maktab yordamida Sharqiy Friz orollaridagi o'quvchilar materikdagi o'quvchilar qatnaydigan maktab darslarida ishtirok etishlari mumkin bo'ladi. Orolidagi o'quvchilarga darsda kompyuter orqali onlayn rejimda, shuningdek, videokonferensiyalar orqali ulanishadi. Shunday qilib, istovchilar gimnaziya ta'limini olishlari mumkin bo'ladi – orollarda gimnaziya yo'q, biroq oliy ta'lim muassasiga o'qishga kirish uchun abituriyentda aynan gimnaziya attestati bo'lishi shart. Masofadan turib barcha darslar ham o'tilmaydi, aksincha, orolda kamroq e'tibor qaratilgan darslarga chuqurlashtirilgan holda o'tiladi. Xususan, bu qoida fransuz tili darslariga taalluqlidir. Ushbu ta'lim loyihasining tashkilotchilari namuna sifatida AQSh, Kanada, Avstraliya va Finlandiya tajribasini o'rganishgan. Dastlabki rejaga ko'ra, virtual maktab 2015 yilga qadar faoliyat olib boradi, shundan so'ng tajribani davom ettirish-ettirmaslik bo'yicha bir qaror qabul qilinadi. Loyihaning texnik ta'minoti uchun xarajatlar miqdori 200 ming evroga teng bo'lgan. Quyi Saksoniya federal yeri (Sharqiy Friz orollar shu hududga bo'ysunadi) madaniyat vaziri Bernd Althusmann (Bernd Althusmann) bu kabi – onlayn rejimda masofadan turib ta'lim berish loyiha Germaniyada tengi yo'qligini qayd etib o'tdi. Keyinchalik ushbu tizim mamlakatning boshqa

hududlarida ham joriy etilishi mumkin. Misol uchun, o'quvchi uzoq davom etgan kasallik tufayli darsga qatnay olmay, uyda yoki shifoxonada qolishga majbur bo'lsa, aynan virtual ta'lim loyihasidan foydalanishi mumkin.

4.2. Fransiya ta'lim siyosatining olib borilishi

Rasmiy nomi – Fransiya Respublikasi. Poytaxti – Parij. Hududi– 551000kv.km. Aholisi – 61024316. Davlat tili – fransuz. Dini – katolik (90%). Pul birligi – evro. Fransiya savodxonlik darajasi: umumiy savodxonlik – 99%. Erkaklar – 99%. Ayollar – 99%. Ta'lim tizimiga jalb etilganlar: Umumiy soni – 15 mln. Shundan: Boshlang'ich ta'lim – 6-7mln. O'rta ta'lim – 4,8-5 mln. Oliy va undan keyingi ta'lim – 2,5-3 mln.

Fransiya jahondagi iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar ichida yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Uning ta'lim tizimlari ham qadimiy va boy tarixga ega. Fransiya ta'lim tizimi bosqichlari:

- Maktabgacha ta'lim – 2 -6 yosh
- Boshlang'ich ta'lim – 6-11 yosh
- O'rta ta'lim – 11-18 yosh
- Oliy ta'lim va undan keyingi ta'lim.

Fransiyaning butun ta'lim tizimi uzoq tarixga ega. 2004 yil 15 martda yangi "Ta'lim to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Uning o'zgartirilishiga ta'lim strategiyasida ro'y bergan o'zgarishlar, mamlakatning ichki, tashqi siyosatidagi islohotlar, yuzaga kelgan iqtisodiy sharoit, chet el pedagogikasidagi ilg'or tajribalarning mamlakat ta'lim tizimiga kirib kelishi, o'quv predmetlaridagi integratsiya va boshqalar sabab bo'ldi.

Fransiya ta'limining asosiy maqsadi shaxsni har tomonlama kamol topishini ta'minlash, uni mustaqil faoliyatga tayyorlash, bozor munosabatlari sharoitida o'quvchilarni tadbirkorlikka, ishbilarmonlik va omilkorlikka o'rgatish, shunga yarasha kasbkorga ega qilishdan iboratdir.

Mamlakatda maktablar davlat, xususi, oraliq maktablariga bo'linadi. O'qitiladigan predmetlar ichida fransuz tili va adabiyoti, o'qish va yozuv alohida ahamiyatga molik bo'lib, ularga ajratilgan vaqt dars tarkibining 30 foizini tashkil etadi. Umuman, tarkibdagi 45 foiz darslar gumanitar yo'nalishda, qolganlari tabiiy fanlardir. Sinflarning o'rtacha haftalik darslari 26 soatdan iborat, darslarning davomiyligi esa 60 minut, sinflardagi bolalarning o'rtacha soni 35 - 40 ta, o'quv yili 5 chorakka bo'linadi.

Boshlang'ich sinflardagi o'qish ertalabki va tushdan keyingi qismlarga bo'linadi. Ertalab o'quvchilar ona tilidan, tushdan keyin esa matematika va boshqa predmetlardan saboq oladilar. Fransiya maktablarida ona tili va adabiyoti hamda matematika baza predmetlari, tarix, geografiya, mehnat ta'limi, jismoniy tarbiya predmetlari esa rivojlantiruvchi predmetlar hisoblanadi.

Ta'lim tamoyillari asosi XIX asrda yaratilgan va ular hozirgi kungacha amal qilib kelmoqda. Ta'lim tizimiga har yili davlat byudjetidan 64 mlrd. evro mablag' ajratiladi. Fransiya o'quvchilar hamda talabalar 15 mln. kishini tashkil qiladi, bu esa aholining to'rtidan bir qismidir. Davlat hududida 7000 ta kollej, 2600

ta litsey, 79 ta universitet mavjud. Ta'lim sohasiga har yili davlat byudjetining 21% mablag'i sarf qilinadi. Ta'lim tizimi A,B,S va mustaqil zonalarga tarmoqlangan, lekin bir markazga bo'ysunadi. Fransiyada o'quvchilar hamda talabalar 15 mln kishini tashkil qiladi, bu esa aholining to'rtidan bir qismidir. Davlat hududida 7 mingta kollej, 2600 ta litsey, 79 ta universitet mavjud. Ta'lim sohasiga har yili davlat byudjetining 21% mablag'i sarf qilinadi. Ta'lim tizimi A,B,S va mustaqil zonalarga tarmoqlangan, lekin bir markazga bo'ysunadi.

Ta'lim tizimlari. Maktabgacha ta'lim.

Fransiya ta'lim tizimining dastlabki bosqichini maktabgacha tarbiya tashkil etadi. Bu maktabning ta'limiy vazifasi: boshlang'ich maktabga tayyorlash, bolalarni o'zini namoyon qilishga o'rgatish. Bu bosqichni "Onalar maktabi" deb ham yuritiladi. Maktabgacha ta'lim majburiy emas. Unga 2 yoshdan qabul qilinadi, yoshiga qarab eng kichik guruh, kichik guruh, o'rta guruh va katta guruhlarga bo'linadi. 3 yoshdan "Onalar maktabi"ga borishadi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad, bolalarning maktabdagi sharoitini uy sharoiti bilan yaqinlashtirish ularga oiladagidek iliqlik munosabatni shakllantirishdan iborat. Ularni mustaqil holda ham, maktablarning boshlang'ich sinflari bazasida ham tashkil etilgan. Fransiya ta'limida bolalarning go'daklik chog'idanoq maktabda o'qitish uchun tayyor holda olib kelish g'oyat muhim masala hisoblanadi, 1980 yillarning oxiridagi ma'lumotlariga ko'ra, onalar maktabida 65 ming boshlang'ich maktablar bazasida tashkil etilgan maktabgacha tarbiya shaxobchalarida 9100 sinf mavjud. Bu bosqichda tarbiyalanuvchilar quyidagicha tabaqalashtirilgan:

- kichik guruh 2 yoshdan 4 yoshgacha;
- o'rta guruh 4 yoshdan 5 yoshgacha;
- katta guruh 5 yoshdan 6 yoshgacha.

5-6 yoshlilar maktabga tayyorlov guruhi bo'lib, ularga Fransiyada 100 foiz shu yoshdagi bolalar qamrab olingan. Bolalarni maktabga tayyorlash uchun alohida dastur va darsliklar mavjud.

Boshlang'ich ta'lim. Fransiyada boshlang'ich ta'lim maktablariga 6 yoshdan 11 yoshgacha bo'lgan bolalar jalb qilingan. Boshlang'ich maktablar fuqarolarning qanday millatga, mamlakat fuqaroligiga mansub bo'lishidan qat'iy nazar, majburiy va bepuldir.

Boshlang'ich ta'lim 6 yoshdan boshlanib, 5 yil davom etadi.

- 1-sinf "tayyorlov sinfi" deb ataladi;
- 2-3-sinflar "elementar sinf";
- 4-5-sinf "o'rta" sinflar deb ataladi.

Boshlang'ich maktab bosqichiga qo'yilgan asosiy talab o'quvchilarga ifodali o'qish, yozish, hisoblash malakasini berishdan iborat.

Fransiya ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan chet el fuqaroligiga mansub kishilarning farzandlariga ularning vatani, xalqi, tarixi, tili va adabiyotini o'rganish uchun fakultativ kurslar tashkil etish ham ko'zda tutilgan.

Boshlang'ich sinflarda o'qish muddati 5 yil bo'lib, shu muddat ichidagi o'qish asosan 3 bosqichga bo'linadi:

— *Tayyorlov bosqichi* — 1 yilga mo'ljallangan. Bunda bolalar hisoblashga, o'qish va yozishga, kuylashga, o'ylashga, tabiat manzaralarini tomosha qilishga va

undan bahra olishga, jismoniy mashqlar bilan mashg'ul bo'lishga, maktabning turli sport tadbirlarida ishtirok etishga, musiqaga, mehnat qilishga o'rgatiladilar.

O'quv mashg'ulotlari ertalab soat 9 dan 12 gacha, hamda soat 14 dan 16 gacha 5 soat davom etadi. Maktabda ovqatlanish pullik, lekin ovqatlar juda arzonlashtirilgan narxlarda taklif etiladi.

— Navbatdagi bosqich — *elementar* kurs bo'lib, bu bosqich 2 yil davom etadi. Bunda o'quvchilarning tayyorlov siklida predmetlar bo'yicha olgan bilimlari yanada takomillashtiriladi. Tayyorlov bosqichida bir o'qituvchi ishlasa, elementar bosqichda ikki o'qituvchi (har biri 1 yildan) ishlaydi.

— Boshlang'ich maktabning 3 bosqichi — *chuqurlashtirish* bosqichidir. Bunda o'quvchilarning tayyorlov va elementar bosqichdagi bilimlari yanada chuqurlashtiriladi.

Dasturda o'quv predmetlarining barchasiga uch bosqich bo'yicha aniq, alohida-alohida talab qo'yiladi. Masalan:

O'qish.

I bosqichda o'quvchi:

1. Bosmadan chiqqan barcha nashrlarni (kitob, gazeta jurnal, lug'at, e'lon, xat va hokazo) bir-biridan ajrata olish;
2. Xatni o'qish tamoyillarini (satr boshi, sarlavha, bob betlarning ketma-ketligi) o'rganib olish;
3. Matn tarkibini (nutq, asosiy qism, xulosa) aniqlay olish;
4. Mustaqil mashg'ulotlarda kitoblardan, lug'atlardan foydalana olish.

II bosqichda:

1. O'qiganlari mazmunini elementar bayon qilib bera olish;
2. Kitob mavzusida ishtirok etgan shaxslarni aniqlash, nomini bilish, tasvirlab berish;
3. Sintetik tahlil qila bilish (urg'u, tinish belgilari).

III bosqichda:

1. Ifodali, tez va aniq, ovoz chiqarib hamda o'zicha o'qish, o'qish qoidalarini to'la shakllantirish, savollarga og'zaki va yozma ravishda javob qaytarish, mavzuli rasmlarni izohlab berish;
2. Matndagi noaniq so'zlarni aniqlash va uni tez tarjima qilishni bilish;
3. Sinf kutubxonasini tashkil etishda ishtirok etish;
4. Bayon qilingan axborotni tinglash va to'g'ri qabul qilish;
5. So'zlarni og'zaki va yozma fonetik tahlil qilib berish;
6. Kitobdan va lug'atli adabiyotlardan mustaqil ishlash jarayonida to'la foydalana olish;
7. Soddalashtirilgan matnlar bilan ishlashni bilish.

Yozuv.

Yozuvga qo'yilgan talab uch saviyada belgilanadi: yozuv texnikasini o'rganish, yozuvda qalam, ruchka, bo'rda ishlashni bilish, chiziqlarga to'la rioya qilish, yozma va bosma harflarni farqlash, xatolar ustida ishlash malakasini egallash lozim. Yozuv bo'yicha o'quvchining III bosqichda inshosi shakllangan, tasviriy, mazmunli, yozuv texnikasini mukammal o'zlashtirgan, ifodada aniq izchillikka ega bo'lmog'i darkor.

Og'zaki nutq.

Og'zaki nutqni rivojlantirish bo'yicha ham uch bosqicli osondan qiyinga, soddadan murakkabga yo'naltirilgan talablari mavjud. Bola bu bosqichda atrofida bo'layotgan voqea va hodisalarga o'z munosabatini bildirgan holda ifodali so'zlab bera olishi, o'z nutqini mantiqan tahlil qilishi, sinonim, omonim, antonimlarni mazmun ifodasiga qarab qo'llay olishi, so'z va iboralarning o'z hamda ko'chgan ma'noda to'g'ri qo'llay bilishi, tarix, geografiya va boshqa predmetlarning atamalarini puxta o'zlashtirib olishi kerakki, bu keyingi bosqich maktablari uchun puxta zamindir.

Matematika bo'yicha.

Boshlang'ich maktabning uch etapi davomida o'quvchi sodda misol va masalalarni tahlil etish, ulardan paydo bo'ladigan hosilalarni aniq tasavvur qilishi, taklif qilingan hisoblash yo'llaridan boshqacha yo'llarni qidirib topishi, javoblarning to'g'riligini aniqlovchi bir qator isbotlarni bilishi, sonlarni taqqoslash, joylashtirishni amalga oshirishi, 1000 gacha adashmay sanashni bilishi, sonlar, qavslar, kasr chiziqlarini qo'llay olishi, mantiqiy fikrlash, arifmetikadagi uch amalni puxta egallashi, oddiy diagramma, shakl, sxema, grafika, jadvallarni chizish, geometriyadan dastlabki malakaga ega bo'lmog'i lozim.

Boshlang'ich maktabning uch bosqichli o'quv jarayonida tarix, geografiya bo'yicha jiddiy talablar asosida bilim beriladi. Chunonchi, tarix fanidan qadimiy va zamonaviy voqea va hodisalarni aniq xronologik ketma-ketlik bilan o'rganib olish, vatan tarixini bilish, barcha tarixiy terminlarni yod olish talab etilsa, geografiyadan orientirlash, kartani o'qish, qit'alar, okeanlar, dengizlar, tog'lar, daryo va ko'llarni ajrata olish, Fransiyaning geografik o'rni, iqtisodiyoti, qazilma boyliklari haqida ma'lumotga ega bo'lish bilan birga karta, globus, atlas, geografik lug'at va ensiklopediyalardan foydalanishni bilish talab etiladi.

Fransiya maktablarining boshlang'ich sinflarida fuqarolik ta'limi predmeti ham o'qitiladi. Bu predmet ta'limi bizning ta'lim tizimimizdagidek mustaqil bo'lmay, ayrim yondosh predmetlar tarkibiga kiritilgan.

O'quvchilar oila, maktab, sinf oldida ma'lum bir mas'uliyat sezmoqlari lozim. Ularni yoshligidanoq o'z do'stlarini sinfdoshlarini, oila a'zolarini hurmatlash, ular mehnatini qadrlash, jamoatchilik ichida o'zini tutish kabi insoniy xislatlarni singdirishdan tashqari, ijtimoiy, iqtisodiy siyosiy hayot, boshqarish ishlari strukturasi, shahar meri shahar kengashi ularning vazifalari, saylov tizimlari saylov oldi kompaniyasining qo'yilishi, mohiyati va boshqalar o'rgatiladi.

Fuqarolik ta'limi predmeti kurslari tarkibiga yana ma'muriy muassasalar, ularning vazifalari, fuqarolarning, o'quvchilarning huquq va burchlari ham o'rgatiladi. Bundan tashqari o'quvchilar o'z mamlakatining siyosiy hayotini anglab yetishlari, u haqda elementar fikr ayta olishni bilishlari lozim.

Fransuz maktablarida nafosat ta'limiga alohida ahamiyat beriladi. Bunday ta'lim uch tarkibdan iborat: musiqa, tasviriy san'at, sport.

Musiqa darslarida o'quvchilarga badiiy so'zlash, kuylash, raqsga tushish o'rgatadi. Bundan tashqari boshlang'ich sinf kursida o'quvchi eng ommalashgan musiqa asboblariidan birini chala oladigan bo'lmog'i kerak.

Tasviriy san'atda esa qiyish-yopishtirish, modellar yasash, surat solish, rang tanlash masalalari asosiy o'rinni egallaydi.

Sport ham ta'limning shu jabhasiga kirib, bolalar bunda yugurish, sakrash, emaklash, turli shakllarda yurish kabi mashqlarni bajaradilar. Sport mashg'ulotlari va musobaqalari jarayonida bolalarni o'zini idora eta olishi, bir-birini qo'llab-quvvatlashi, do'stlik va hamjihatlikni tarbiyalashga asosiy e'tibor qaratiladi.

Shunday qilib, fransuz maktablarining maktabgacha va boshlang'ich ta'lim bosqichida savodxonlikka, o'quvchining shaxs sifatida shakllanishiga mustahkam zamin yaratiladi, o'quvchining o'z kuchi, qobiliyati va imkoniyatiga ishonch tarbiyalanadi. Bu bosqich maktabda o'quvchining dastlabki bosqichda qanday holda qabul qilib olinishidan qat'iy nazar, uni maktab hayotida bosh rolni o'ynashga muvaffaq bo'lishidan iboratdir.

O'quvchilarni maktabning yuqori bosqichlariga puxta tayyorlab berishda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mas'uliyati (javobgarligi ham deyish mumkin) nihoyatda yuqori. Bu mas'uliyatni "Ta'lim haqida" gi davlat Qonunida alohida ko'rsatib o'tilgan.

O'quvchilar bilan individual ishlash, ularni rag'batlantirish, shaxsiy qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, ta'limda uzluksizlik va vorislikni ta'minlab berish boshlang'ich sinf o'qituvchilariga qo'yilgan bosh talabdir.

Boshlang'ich maktabda dars jadvali va kun tartibini to'g'ri, odilona tuzishga katta ahamiyat beriladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ta'lim vazirligi "o'quvchi tabeli" joriy etgan. Bu tabel orqali maktab va uning pedagogik jamoasi, hamda xodimlari ota - onalar bilan uzluksiz aloqada bo'lib turadilar.

Ta'limni turli sikllar orqali amalga oshirish fransuz ta'lim tizimiga keyingi yillarda kirib kelgan yangilik, deb baholash mumkin. Aynan ta'limdagi sikllashtirish, unga vorislik, uzluksizlik, bolalar individual qobiliyatlarini butun boshlang'ich ta'lim jarayonida ta'minlab beruvchi omildir. Bundan tashqari ta'limni sikllashtirish o'qituvchi faoliyatiga keng erkinlik beradi, uning pedagogik mas'uliyatini oshiradi.

O'quv dasturining mazmunini bevosita o'qituvchining o'zi belgilaydi. Bir so'z bilan aytganda, o'qituvchi bolalar bilimiga mas'ul ekan, uning uslub tanlashiga, mustaqil harakat qilishiga to'la erkinlik ham beriladi.

O'quvchilarga boshlang'ich maktabning dastlabki uch sinfida bir o'qituvchi dars beradi. Uning nomzodini pedagogik va ota - onalar jamoasi aniqlaydi. Bolalarni yosh xususiyatiga qarab bilim berish tamoyili mavjud. Lekin u yoki bu sababga ko'ra o'quvchilarning sinfdan-sinfga ko'chmay qolish hollari tez-tez uchrab turishi tufayli ularning yosh jihatdan farqlari ham turlicha bo'lib qolishi mumkin.

1990 yildagi hukumat qaroriga muvofiq, maktabgacha va boshlang'ich ta'limga modallashtirish, bolalarning bilimiga u yoki bu fanga moyilligiga qarab tabaqalashtirish, dars jadvalini ham shu asosda tuzish huquqi berildi. Bunday dars jadvallari bir yilga, yarim yilga, choraklar bo'yicha alohida-alohida tuzilishi mumkin. So'nggi yillarda o'qituvchi tomonidan o'quvchiga puxta bilim berish, ota - onalar tomonidan esa o'z farzandiga yetarli sharoit yaratish, ularning bilim

olishlariga mas'uliyat bilan qarash ifodalangan bitimlar tuzish odat tusiga kirib bormoqda.

O'rta ta'lim

O'quvchilar 11 yoshda boshlang'ich maktabni tugallab o'rta maktabga o'tadilar. O'rta ta'lim kollej va litseylarda amalga oshiriladi. Kollejda o'qish majburiy ta'lim bo'lib, 4 yil davom etadi va 3ta siklga bo'linadi.

1. Moslashuv sikliga 6-sinf kiradi. Bu sinfga boshlang'ich sinf bitiruvchilari imtihonsiz qabul qilinadi. Bu sinfda o'quvchilar chet tilini tanlaydilar, mustaqil o'qishga o'rganadilar.

2. Markaziy sikl.

Markaziy sikl 5-4-sinflarni o'z ichiga oladi. Bu siklning maqsadi boshlang'ich sinfda olgan bilim va ko'nikmalarni chuqurlashtirishdir. 5-sinfda lotin tilini fakultativ fan sifatida o'rgana boshlaydi, 4-sinfda ikkinchi chet tilini tanlaydi.

3. Kasbiy yo'naltirish sikli

Bunga 3-sinf kiradi. Umumiy ta'lim, texnik yoki kasbiy yo'nalishni tanlashga tayyorlaydi. Qadim yunon tilini o'rganadi. Bu sikl oxirida o'quvchilar milliy imtihon topshiradi va kasbiy yo'nalishi bo'yicha guvohnoma oladilar. 3-sinf oxirida o'quvchilar umumiy yoki texnologik litseyning 2-sinfiga qabul qilinadilar yoxud kasbiy litseylarga hujjat topshiradilar.

Litseylar

- Umumiy litsey. Bu litseyni bitiruv imtihonlaridan keyin oliy ta'limga hujjat topshirish huquqi beriladi.

- Texnologik litsey. Bu litseyni bitirayotgan o'quvchilar texnologik universitetlarda o'z mutaxassisligi bo'yicha o'qish uchun imtihon topshiradi.

Har ikkalasida o'qish 3 yil davom etadi.

- Kasbiy litseylar. Bu litseylarda o'qish 2 yil davom etadi. O'qish oxirida kasbiy tayyorgarligi haqida guvohnoma va kasbiy layoqati haqida sertifikat beriladi.

O'rta ta'lim ikki bosqichda beriladi. Birinchi bosqich (11 yoshdan 15 yoshgacha) 4 yil bo'lib, eng kichik sinf 6-sinf, 5, 4 o'rta, 3-sinf esa katta sinf hisoblanadi. Demak, sinflarni raqamlash yuqoridan pastga qarab amalga oshiriladi.

Birinchi bosqichda quyidagi predmetlar o'rgatildi: fransuz tili va adabiyoti, chet tili (ingliz, nemis, ispan, italyan tillari), tarix, Fransiya geografiyasi, matematika, tabiiy fanlar.

Shunday qilib, 6-5-sinflar umumiy o'rta ta'lim beradi: 4-3-sinflarda o'quvchilarga qobiliyati va moyilligiga qarab bilim beriladi.

Birinchi bosqich yakunlangach, o'quvchilar kasbiy yo'nalishlari bo'yicha guvohnoma oladilar.

Bundan keyin o'quvning ikkinchi bosqichi boshlanadi. Bu bosqichda o'quvchilar 15 yoshdan 18 yoshgacha ta'lim oladilar. O'qish 3 yil davom etib 2-sinf kichik, 1-sinf o'rta va yakunlovchi sinflarga bo'linadi.

O'quvchilar umumiy ta'lim va texnik litseylarni tugatganlaridan so'ng bakalavr unvoni va diplomi uchun imtihon topshiradilar. Ana shunday diplomga ega bo'lganlarga oliy o'quv yurtlariga kirish huquqini qo'lga kiritadilar.

Umumiy ta'lim yo'nalishidagi uch yillik ta'lim litseylarida quyidagi fanlar o'qitiladi: adabiyot tarixi, ona tili va adabiyoti, lotin tili, chet tili (ingliz, nemis, ispan, italyan tillari bo'lishi mumkin), tarix, geografiya, Fransiya ekonomikasi.

Xuddi shu 3 yillik bosqichli texnik litseylarda uning yo'nalishlariga qarab matematika, fizika, ximiya hamda boshqa tabiiy fanlar o'qitiladi. Shunisi diqqatga sazovorki, o'quvchining bu bosqichda chet tillarni o'rganishiga katta e'tibor beriladi. Talab, o'qishni tugatgach, o'quvchilar kamida 2 ta chet tilini mukammal bilishlari shart.

O'quvning bu bosqichini guvohnoma bilan tugallagan o'quvchilar oliy maktab sanalmish institutlar va universitetlarga imtihonsiz kirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Lekin hamma oliygohlarga ham imtihonsiz kirib bo'lmaydi. Talabalar oliy pedagogika instituti, politexnika instituti, oliy ma'muriy maktablarga kirish imtihonlari bilan qabul qilinadilar, ularning shu kasbga moyilligi ham alohida sinab ko'riladi.

Oliy ta'limga faqatgina bakalavriat litseyini tugatgan talabalar qabul qilinadi
Fransiyadagi oliy ta'lim 2 turga ajratiladi:

- universitet;
- oliy maktab.

Davlatdagi 79 ta universitetning asosiy qismi ko'p yo'nalishli, ammo ba'zilar bir yoki ikki mutaxassislik bo'yicha o'qitadi. (Parij II: huquq va iqtisodiyot)

Fransuz ta'lim tizimi davom etishiga ko'ra:

- *Qisqa muddatli* — 2 yil davom etadi. Bunday o'qishlarga dose bo'yicha qabul qilinadi, chunki ish joylari kam, xohlovchilar esa ko'p. Qisqa muddatli ta'limning maqsadi — oz vaqt oralig'ida kasbiy bilimlarga ega bo'lish va ishga joylashishdir.
- *Uzoq muddatli* — bakalavrlarning yarmi universitetlarda o'qiydi, ammo 40%i bir yil ichida u yerni tark etadi. U 3 bosqichdan iborat:
- 1. 2 yil davom etib, umumiy ta'lim bo'yicha universitet diplomi qo'lga kiritiladi.
- 2. 1 yil davom etib, litsenziya olinadi. Shuningdek, metris (ixtisoslashish) yana, 1 yil.
- 3. O'z ichiga ta'lim hamda amaliyotni oladi va 1 yil davom etadi.

Oliy maktablar

Oliy maktablar fransuz ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. U davlat tizimidagi oliy universitet ta'limiga zid hisoblanadi va xalqaro miqyosda qiyosiy tasnifga kirmaydi. Fransiyada oliy maktabda o'qish universitetda o'qishdan ortiq hisoblanadi. Universitetlarga imtihonsiz qabul qilinadi. Oliy maktabga esa katta konkurs asosida murakkab kirish imtihonlarini topshirish zarurdir.

Oliy maktablarga kirish qanchalik qiyin bo'lsa, kasbiy istiqbollar shunchalik yaxshi bo'ladi. Bitiruvchilarni to'liq ish bilan ta'minlash kafolatlanadi, eng zo'r ishchi o'rinlarga joylashadi.

Sarbonna

- Sorbonna — Fransiyaning eng qadimgi va mashhur universiteti.

Sorbonnaning tarixi 1215-yildan boshlanadi. Bu vaqtda Senaning chap tomonida joylashgan cherkov kollejlari Parij universiteti degan umumiy nom ostida birlashtirilgan edi. 40 yil o'tgach qirol Sorbon tashabbusi ostida universitet qoshida kollej ochildi va u yerda kambag'al aholi tahsil oldi. 1968 yil universitet bir necha avtonom institutlarga bo'lib tashlandi:

1. Panteon Sorbonna — bu yerda 40 ming student ta'lim oladi. Bu erda huquq, iqtisod, san'at va arxeologiya tarixi, geografiya, tarix, falsafa, matematika, informatika, boshqaruv va menejment bo'yicha diplom beriladi.
2. Yangi Sorbonna — Sorbonna ko'chasida joylashgan bo'lib, gumanitar yo'nalishi va nisbatan kichkinaligi bilan ajralib turadi. Bu erda 20 mingga yaqin talaba fransuz va lotin tillari hamda adabiyoti, nemis tili, ispanshunoslik, sharqshunoslik, Arabshunoslik yo'nalishlaridan tahsil oladilar.
3. *Rene Dekart nomli universitet /Strasburg Universiteti/*
Strasburg Universiteti Fransiyaning tarixiy universitetlaridan biri. Unga 1621 yil asos solingan. Fransiya — Prussiya urushidagi mag'lubiyatdan so'ng universitet Kayzer Vilgelm nomiga o'tgan. 1918 yil esa yana o'z nomiga qaytgan. 1970 yillarda Strasburg 3 qismga bo'lingan:

1. L.Paster nomidagi Strasburg universiteti — o'z ichiga tibbiy, aniq va tabiiy, yer haqidagi ta'limot fakultetlarini, matematika bo'limini, fizika institutini, Yer fizikasi, kimyo, fiziologiya va bioximiya, botanika, zoologiya, umumiy biologiya, geologiya, geofizika fakultetlarini va 2 ta kollejni oladi.
- 2007 yil 15 yanvar kuni Universitetga 1847 talaba qabul qilindi. Shulardan 3000 tasi chet ellikdir.
2. Mark Blox nomidagi 2 — Strasburg Universiteti — 10 ta fakultetni o'z ichiga qamrab olgan. Bular: san'at, tarixiy fanlar, gumanitar fanlar, filologiya, lingvistika, falsafa, ijtimoiy fanlar, sport ta'limi, katolik va pravoslav teologiyasi. Bu yerda 13000 ga yaqin student o'qib, 25 % i ajnabiylardir.
 3. Robert Shuman nomidagi 3 — Strasburg Universiteti — 160 ta mutaxassislik bo'yicha talabalarni tayyorlaydi. 10000 ta'lim oluvchilar bo'lib, 1500 chet el talabalaridir.

4.3. Angliya ta'lim tizimi

Angliyada umumiy o'rta ta'lim barcha bolalar uchun 5 yoshdan 16 yoshgacha. O'quv yili esa sentabrda to iyulgacha davom etadi va 3 trimestrga bo'linadi:

Kuzgi trimestr: sentabrning boshidan dekabrning o'rtalarigacha. U shuningdek, Michaelmas Term (Mikelmess term) nomi bilan ataladi (xususiyl maktablarda).

Bahorgi trimestr: yanvarning boshidan martning o'rtalarigacha yoki so'ngigacha (pasxa bayramlari vaqti bilan bog'liq). U shu bilan birga Lent Term (Lent term) nomini olgan.

Yozgi trimestr: aprelning boshidan yoki o'rtasidan iyulning o'rtalarigacha.

Har trimestrning o'rtasida qisqacha ta'til (u half term (xaf term) deb ataladi) rejalashtirilgan bo'lib, oktabrning oxirida boshlanadi, shu kabi fevralning o'rtasi va mayning oxirlariga to'g'ri keladi.

Angliyada ikki tipdagi maktablar mavjud: davlat maktablari va xususiy maktablar.

Davlat maktablari

Davlat maktablari davlat tomonidan ta'minlanadi va mahalliy ta'lim muassasalari tomonidan boshqariladi. Ammo ko'pgina davlat maktablari xususiy ta'minot manbalarini topishga ham harakat qilishadi. Bunday holatda ular dotatsiya maktablari deb ataladi. Davlat maktablarida ota - onalar o'qitish uchun hech narsa to'lashmaydi. Boshqacha aytganda, o'rta ta'lim (11 yoshdan) barcha uchun majburiy bo'lib, bu bolalarning bilim saviyasi va qobiliyatidan qat'iy nazar, ularning qabul qilinishini bildiradi. Bunday maktablarda asosan aralash, ya'ni o'g'il va qiz bolalar birga o'qitiladi. Shunga qaramasdan, qobiliyatli bolalar uchun ham maktablar bo'lib, ular imtihon natijalari asosida tanlab olingan va deyarli alohida o'qitish maktablariga ega. Hamma davlat maktablari kunduzgi, ya'ni maktab hududida yashashga mo'ljallanmagan.

Milliy dastur davlat tomonidan ishlab chiqiladi va barcha maktablar uchun majburiydir. Ko'pchilik xususiy maktablar milliy ta'lim dasturiga amal qilishadi, lekin fanlarni o'qitishda o'zgartirish huquqiga ega. Milliy dasturga quyidagi fanlar kiradi: ingliz tili, texnologiya va dizayn, geografiya, matematika, informatika, musiqa, tabiatshunoslik, chet tillari, san'at, jismoniy tayyorgarlik, tarix.

Milliy dastur 4 bosqichga bo'linadi va "Bosqichlar" deb ataladi, bu bolaning yoshiga bog'liq:

5-7 yoshdagi (1-bosqich) bolalar milliy bosqichdagi barcha fanlar o'rgatiladi.

7-11 yoshdagi (2-bosqich) bolalar chet tillaridan boshqa barcha fanlarni o'rganadilar.

11-14 yoshdagi (3-bosqich) bolalar quyidagi majburiy fanlarni o'rganadilar: matematika, ingliz tili tabiatshunoslik, chet tili, texnologiya. Ular qo'shimcha hech bo'lmaganda bitta ijtimoiy fanni o'rganishlari kerak: geografiya yoki tarix, shuningdek, san'at bo'yicha biror fanni: san'at, jismoniy tarbiya yoki musiqa. Maktab dars jadvali bo'yicha bolalar xohishlariga qarab barcha ijtimoiy va san'at fanlarini o'rganishlari mumkin.

16 va undan katta yoshda topshiriladigan davlat imtihonlari

GCSE — General Certificate of Secondary Education. 10 - o'quv yilini boshlovchilar va mayqiyun imtihonlari bilan 11-o'quv yilini yakunlovchilar uchun 2 yillik kurs. Ballar tizimi: "A"dan "G" gacha ("U" — o'tib bo'lmaydigan ball). Agar bola "A" level kursidan ko'proq fan o'rganishni istasa, u GCSE imtihonlarida shu fan bo'yicha "S"dan past ball olmasligi kerak.

"GCSE" imtihonlari uchun 10 tagacha fanlarni tanlash mumkin, lekin o'rtacha 6 ta fan topshiriladi.

GCE "A" Level - General Certificate of Education Advanced Level.

Oliy o'quv yurtlariga kiruvchilar uchun, 12-o'quv yilini boshlovchilar va 13-o'quv yilini may iyundagi imtihonlar bilan yakunlovchilar uchun 2 yillik kurs.

Ballar tizimi: “A” dan “E” gacha, GCSE darajasida imtihon topshirishda “N” balli tenglashtiriladi. “U” — o’tib bo’lmaydigan ball.

Imtihon topshirish uchun 1, 2 yoki 3 (ba’zan hatto 4) fan tanlanadi.

“AS” Level — 1 yillik kurs. Natijalari “A” level 1 2 ballariga tenglashtiriladi

Barcha imtihon natijalari avgustning uchinchi haftasida e’lon qilinadi.

Keyingi ta’lim

Keyingi ta’lim 16 va undan katta yoshdagi talabalarning oliy o’quv yurtlariga kirish uchun jadal tayyorlaydigan turli kurslarda o’qishlariga mo’ljallanadi. Bunday ta’lim turli fanlar bo’yicha mutaxassis tayyorlaydigan, texnika va tijorat fanlarining eng quyi darajadan boshlab, to yo’naltirilgan kurslarigacha, biznes sohasida, ma’muriyatchilik va xo’jalikning nufuzli doiralarida yuqori malakali xodimlar tayyorlashga yo’naltirilgan “keyingi ta’lim” kollejlari bo’lishi mumkin. Shuningdek, o’qishning davomi nokasbiy yo’nalishdagi kurslarda ham bo’lishi mumkin. Ularga ixtisoslashtirilgan GCSE va “A” level kurslari ham tegishlidir. Kunduzgi o’qish kurslariga qo’shimcha tarzda o’qishni ish bilan birga olib boruvchilar uchun qator sirtqi va kechki kurslar ham mavjud. “Keyingi ta’lim” kollejlari tijorat va ishlab chiqarish korxonalari bilan chambarchas bog’langan va asosan ishchilar ixtisosligi bo’yicha kadrlar tayyorlaydi, ammo “keyingi ta’lim”ning ko’p kollejlari oliy o’quv muassasalari bilan chambarchas bog’liqdir. Bu kollej talabalariga oliy ma’lumot olishlari uchun universitetda o’qishni davom ettirishlariga imkon beradi.

Oliy ta’lim

Oliy ta’lim “A” leveldan yuqori darajadagi ta’limning har qanday turini o’z ichiga oladi. Bunday ta’lim universitetning turli kurslarida, kollejlarda, oliy ta’lim institutlarida (shu jumladan, pedagogika institutlari), shuningdek, keyingi ta’lim institutlarida ham bo’lishi mumkin. Hozirgi vaqtda Buyuk Britaniyada 89 ta universitet mavjud (shu jumladan oliy ta’limning 1992 yildagi Aktiga muvofiq tashkil etilgan 39 ta “yangi” universitetlar ham) bo’lib, ular sobiq politexnika yo’nalishi mutaxassisliklariga ham o’z sohasi bo’yicha daraja berishga va universitet nomini olib yurishga ruxsat beradi.

Universitetga kirish

Universitetlar va kollejlarga barcha rasmiy talablar UCAS (Universities and Colleges Admission Service) - oliy ta’limning Britaniya universitet va kollejlari agentlik kabi harakatdagi markaziy organi orqali uzatiladi. UCAS savollarni sentabrning boshlari va dekabrning o’rtalarida bo’lgan oraliqda, oliy o’quv muassasalarida o’qishga keyingi yilning oktabridan qabul qiladi. Kechikkan talablar 30 iyungacha uzatilishi mumkin, lekin bu davrda OO’Yularida bo’sh joylar anchagina qisqaradi va OO’Yularining tanlovi cheklanadi.

Abiturient turli universitetlardan ko’pi bilan 6 kursni tanlaydi va ularni UCAS qayd qiladigan shaklda ko’rsatib beradi. Afzalliklar tartibi belgilanmaydi.

UCAS dagi har bir talab detallar qaydnomasi shaklida kompyuterga kirgiziladi va talablar nusxalari unda ko’rsatilgan universitetlarga jo’natiladi.

Har qaysi universitet rasmiy talabni qarab chiqadi va abiturientni suhbatdan o’tishga chaqirishi mumkin, shundan keyin universitetga taklif etish haqida qaror qabul qiladi.

Odatda, bunday taklif “shartli” bo’ladi va bu shartlar har yili avgustning uchinchi haftasida e’lon qilinadigan “A” level imtihonlarining natijalari hisoblanadi.

UCAS abituriyentlarga qaror va har bir tanlangan universitetning o’tish balini e’lon qiladi.

Qachonki, tanlangan universitetlar o’zlarining qarorlarini e’lon qilsalar, abituriyent ko’pi bilan ikkita taklifni tanlashi mumkin. Takliflardan biri asosiy va ikkinchisi esa “har ehtimolga qarshi” bo’ladi.

“A” level imtihonlarining natijalari e’lon qilinganda, (avgustning uchinchi haftasida) universitetlar abituriyent qabuli haqida yakuniy qaror qabul qiladilar.

“A” level imtihonlari bo’yicha kerakli ballarni to’plagan barcha abituriyentlar universitetga qabul qilinishlari shart.

“A” level imtihonlarida yetarli ball yig’olmagan abituriyentlar universitet ixtiyori bilan unga qabul qilinishi mumkin.

Tanlangan universitetlardan taklif olmagan yoki kech (1 iyuldan so’ng) murojaat qilgan abituriyentlar keyingi tanlov bosqichida qatnashishlari mumkin. Bu bosqichda UCAS mavjud o’rinlar haqida abituriyentlarga axborot beradi va abituriyent bunday universitetlar bilan mustaqil muzokaralar olib borishi mumkin.

Shotlandiya ta’lim tizimi.

Shotlandiya – Buyuk Britaniyaning bir qismi. Huquqiy jihatdan mustaqil davlat. Bu mamlakatda davlatga qarashli bo’lgan 2 313 ta boshlang’ich, 403 ta o’rta maktab, shuningdek, taxminan 73-75 ta xususiy maktablar mavjud. Xususiy maktablarda 5 % bola o’qishadi. Bundan tashqari, 30 ga yaqin maktab-pansionatlari mavjud.

Britaniyaning xususiy maktablari (shuningdek, Shotlandiyaning ham) ushbu jihatlari bilan ajralib turadiki, ularda *dasturlar* ko’proq yakka tartibda va rang-barangdir, *bolaning qobiliyati, qiziqishlarini rivojlantiradigan* tarzda tuzilgan. xorijliklar va xususiy maktablar uchun ingliz tilidan qo’shimcha mashg’ulotlar tashkil qilinadi.

Yirik birlashgan xususiy maktab bu Shotlandiyaning Mustaqil maktab Kengash (SCIS) bo’lib, u maktablar to’g’risida va unga qabul to’g’risidagi axborotlarni tarqatish bilan shug’ullanadi. Bunda maktabning an’anaviy ta’lim tizimi va ajratilgan (Shotlandiyada 12 ta qizlar maktabi va 6 ta o’g’il bolalar maktabi mavjud) tipini tanlash mumkin. Shotlandiyada qo’shma ta’limning ko’plab tarafdorlari mavjud. Masalan, Avliyo Monarx kolleji mashhur qizlar maktabi o’rnida faoliyat yuritadi va endilikda qizlar bilan o’g’il bolalar birgalikda o’qishadi. Shuningdek, Edenburg qizlar akademiyasi ham oxirgi sinflarda o’g’il bolalar bilan birlashishi mumkin.

Barcha xususiy maktablar ro’yxatga olinishi uchun Ta’lim va industriya Davlat departamenti (SOEID) ga borishi shart. Mazkur tashkilotning nazoratchilari muntazam ravishda o’quv sifatini va shartlarini nazorat qilib turishadi. Xususiy maktablarning ko’pchiligida maxsus mukofot sifatida stipendiya beriladi. Bu esa, bolalarning badiiy va sportga bo’lgan qobiliyatlarining oshishiga olib keladi.

Shotlandiyalik bolalar maktabga 5 yoshdan 16 yoshgacha borishga majbur. Shu bilan birga, ko’plab bolalarga bilim berish to’rt yoshdan boshlanadi, ya’ni

ularni o'z ota - onalari tayyorlov sinflariga (re-school) topshirishadi. Unda rasm chizish, raqs, matematika asoslari, o'qish va yozish o'rgatiladi. Har yili bunday sinflarda 50 mingga yaqin shotlandilik bolalar o'qishadi.

Shuningdek, 5 yoshdan 12 yoshgacha bolalar boshlang'ich maktab (primary school) ga qatnashadi. Unda o'qish asoslari, yozish, matematika, informatika, tabiiy fanlar, san'at, din, axloq kabilar o'rgatiladi. 15 yoshida esa maktab o'quvchilari ta'lim haqidagi sertifikat Scottish Certificate of Education (SCE Standard Gopade) uchun imtihon topshirishadi. Bu sertifikat esa Shotlandiyaning Oliy o'quv yurtlariga o'qishga kirish huquqini beradi. Shunday qilib, shotlandiyaliklar maktabni tugatib, o'qishga topshirish 16-17 yoshida oliy o'quv yurti talabasi bo'lish huquqiga ega.

Shotlandiyada *kasbiy ta'lim* va *akademik ta'lim* mavjud bo'lib, uni majburiy o'rta maktabning to'rtinchi sinfini tugatgach, egallash mumkin. Mamlakatda 46 ta kollej faoliyat yuritadi. Ularda mexmonxona ishi, turistik biznes, hisobchilik ishi, moliya, axborot texnologiyasi, marketing, til, dramaturgiya, dizayn va shu singari badiiy mutaxassisliklar o'qitiladi.

Shotlandiyada bolalarning majburiy ta'limi 1496 yildan boshlangan. Mamlakatda 23 ta Oliy o'quv yurti mavjud bo'lib, ularning eng qadimiysi Sent-Endryus (University of Andrews) hisoblanadi (1410 yilda Oksford va Kembrij universitetlaridan keyin ochilgan).

Shotlandiya'ning ko'plab kollejlari talabalarining 14 ta universitetdan birortasiga ikkinchi yoki uchinchi kurslarga o'tkazish (o'xshash bo'limlarga) to'g'risida kelishuvga egalar.

Statistika ma'lumotlarga qaraganda, oliy o'quv yurtlariga 50% shotlandiyaliklar topshirishadi.

Mamlakatda xorijiy mamlakatlardan kelganlar va ko'plab inglizlar (25 % talabalar) oliy o'quv yurtlarida tahsil oladilar.

Oliy o'quv yurtlarining alohida guruhlarini maxsuslashtirilgan oliy maktablar tashkil etadi. Masalan, Glazgo universitetida musiqa, Galashildz universitetida engil sanoat kolleji mavjud.

Shuningdek, Britaniya oliy o'quv yurti (Oren University)da masofaviy ta'lim olish mavjud bo'lib, unda ko'plab rang - barang dasturlar o'rin olgan. Unda dunyoning turli mamlakatlaridan 12 mingga yaqin talaba o'qiydi.

Ta'lim olish pullik bo'lib (oliy ta'lim), bir-biridan farq qiladi. Uni oddiy qilib ikkiga bo'lish mumkin: kurslar, laboratoriyada ishlari (laboratory based courses) va boshqalar (non - laboratory based courses).

Masalan, Straydklayd universitetida o'quv kursi birinchi tip uchun 10 880 funt, ikkinchi tip uchun esa, 6290 funt qilib (yiliga) belgilangan.

Oliy o'quv yurtlarida ta'lim olish – 4 yil. Oliy o'quv yurtiga topshirish uchun arizalar sentabr-dan dekabr oyigacha, ta'lim 37-38 hafta, oktabr oyidan iyunning o'rtalarigacha davom etadi.

Ko'plab oliy o'quv yurtlarida biznes maktablari mavjud. Ayrim oliy o'quv yurtlari 4 yillik (ta'lim va ishlab chiqarish amaliyotini aralashtirgan) maxsus dasturlarni taklif qilishadi. Misol uchun, Glazgo universiteti allaqachon oliy ma'lumotga ega bo'lganlar uchun dastur ishlab chiqqan. U ikki moduldan iborat:

universitetda o'qish (20 hafta) va mahalliy kompaniyalarda amaliyot (stajyorlar uchun 28 hafta). Shuningdek, ilmiy izlanishlarga ham katta e'tibor berilgan. Masalan, Edinburg universitetining yillik daromadi – 100 mln. funtni tashkil etsa, 250 mln. funtni yuqoridagi maqsadga sarf qiladi.

Shotlandiya universitetlarining muhim jihatlaridan biri talabalarga ish topishda yordam berishlaridir. Buning uchun esa har bir oliy o'quv yurtida Carers Servise xizmati mavjud bo'lib, u xuddi shu masala bilan shug'ullanadi. Masalan, Roberd Gordan universiteti rahbariyati ish bilan band bo'lishning yaxshi ko'rsatkichi sifatida har bir bitiruvchining bitirishdan olti oy oldin ishga joylashishlarini ta'kidlashgan.

Mamlakatimiz ta'lim sohasida ham shunday xizmat turi (ya'ni oliy o'quv yurti bitiruvchilarini ishga joylashtirish) tashkil etilgan.

4.4. Italiya ta'lim tizimi

Italiya Evropaning janubida, iliq O'rta dengiz sohillarida, Appenin yarim oroli hamda unga yondosh Sitsiliya, Sardiniya va boshqa orollarda joylashgan. Alp tog'lari Italiyani shimoliy shamollardan to'sib turadi. Mamlakatning ko'p qismida qish yumshoq keladi, yozda esa jazirama issiq bo'lmaydi. Janubda qishda ham unchalik sovuq emas. Aholisi 57820000 kishi. Maydoni 301200 km². Italiya Fransiya, Shvetsariya, Avstriya, Sloveniya kabi yirik mamlakatlar bilan chegaradosh. Italiyada 2 ta mustaqil davlat Vatikan va San Marino joylashgan.

Eng yirik va ko'hna shahri, mamlakat poytaxti – Rim. Bu yerda milodgacha qurilgan binolar saqlanib qolgan. Mamlakat aholisi 58 mln. kishini tashkil etadi. Mamlakat rasmiy tili – italyan tili, 94% aholisi italyanlar. Shuningdek, Italiyada bir qancha boshqa xalqlar ham istiqomat qiladi: nemis - 0, 5% , albanlar - 0, 17%, slovenlar - 0, 12%, katta bo'lmagan guruhda yunonlar - 0, 03% va fransuzcha so'zlashdiganlar aholining - 0, 03% ni tashkil etadi.

Hozirgi Italiya hududida miloddan avvalgi quldorlik davlati – Rim imperiyasi mavjud bo'lgan. U inqirozga yuz tutgach, ko'plab mayda davlatlar vujudga kelgan, ularning bir qismini qo'shni mamlakatlar egallab olgan. Faqatgina 1870-yilda Italiya birlashdi. Mamlakatning yagona davlat bo'lib birlashishida J.Garibaldi katta rol o'ynadi.

Italiya rivojlangan sanoat markazi. Uning zavodlarida avtomobil, kema, turli elektrotexnika va kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqariladi. Italiyada simob, oltingugurt, marmar konlari bor, ko'mir va temir rudasi konlari kam.

Italiyada dehqonchilik taraqqiy qilgan. Dehqonlar bug'doy, makkajo'xori, sholi, qand lavlagi, uzum, limon, apelsin, zaytun mevasi yetishtirishadi.

Italiyaning noyob me'moriy yodgorliklari va san'at xazinalariga ega bo'lgan ajoyib qadimiy shaharlari olamga mashhur. Appenin yarim orolining sharqiy sohilida Venetsiya port shahri bor. Bu shahar 118 orolda joylashgan. Shaharda

kanallar ko'cha vazifasini bajaradi. Maktab, do'konga qayiqda suzib borishga to'g'ri keladi. Arno daryosi sohillarida mamlakatning qadimiy va go'zal shaharlaridan biri – *Florensiya* joylashgan. Shu shaharda Italiyaning shon-shuhratini oshirgan astronom G.Galiley, shoir Dante, olim va rassom Leonardo da Vinchi, rassom Mikelanjelo kabilar yashab ijod qilgan.

Neapol ko'rfazining yoy shaklidagi qo'ltig'i sohilida go'zal Neapol porti o'z chiroyini ko'z-ko'z qilib turibdi. Ko'p mamlakatlar bilan bo'ladigan savdo aloqalari shu port orqali amalga oshiriladi. Harakatdagi Vezuviy vulqoni shaharning hamma tomonidan ko'rinadi. Neapol ko'rfazining o'zidagi kichkina Kapri orolida qurilgan shifoxonalar dunyoga mashhur.

Italiya Evropaning janubida joylashgan, markazda O'rta yer dengizi tufayli o'zining geografik joylashuvi orqali ko'plab asrlar davomida boshqa qit'alardagi mamlakatlar o'rtasida ko'prik bo'lib xizmat qilgan. Turli madaniyatlar bilan sivilizatsiyalarni birlashtirgan.

Sardiniya va Sitsiliya orollari mashhur. Hamda boshqa mayda orollarchalar mavjud. Italiyaning aksariyat dunyoga dong taratgan madaniy va tabiiy merosi, tarixiy obidalari YUNESKO ro'yxatiga kiritilgan, bugungi kunda dunyo sayyohlarni o'ziga mahliyo qilib kelmoqda.

Italiyada zamonaviy xalq ta'lim tizimi XIX asrning ikkinchi yarmida tarkib topa boshlagan. Dastlab 1859-yilda bolalarning majburiy ta'lim olishi to'g'risidagi qonun qabul qilingan bo'lib, 6-14 yoshdagi bolalar uchun majburiy 8 yillik ta'lim joriy etilgan.

Italiyada mavjud majburiy o'rta ta'lim 14 yil. O'qishni boshlang'ich maktablarda boshlab, universitetlarda tugatadilar. Xususiy maktablar 5% ni tashkil etadi. Mamlakatda bugungi kunda davlat mamlakatlari bilan bir qatorda diniy ta'lim muassasalari va xususiy maktablari ham faoliyat olib boradi.

Italiyada **umumiy o'rta ta'lim** quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- boshlang'ich ta'lim – 5 yil
- birinchi davr o'rta ta'lim – 3 yil
- ikkinchi davr o'rta ta'lim – 5 yil

Xorijiy o'quvchilar Italiyada o'rta ta'limni faqat xalqaro maktablarda yoki xususiy maktab pansionlarida olishlari mumkin. Italiyada bolalar 6 yoshdan maktabga qabul qilinadi. Hamma uchun ta'limning 1- 2- bosqichlari majburiy va bepul. Barcha uchun umumta'lim fanlardan o'qish, yozish, rasm solish, arifmetika, musiqa majburiy hisoblanadi. Faqat din xohishga ko'ra o'rgatiladi.

1985 – yilda mamlakat Ta'lim vazirligi tomonidan yangi o'quv rejasi tasdiqlandi. Unga muvofiq, o'qitiladigan fanlar, xususan italyan tili, chet tili, matematika, tarix, geografiya jamiyatshunoslik, san'at, musiqa, jismoniy tarbiya asosiy predmetlar hisoblanadi. Dinshunoslik esa qo'shimcha fan bo'lib, uni dars jadvaliga qo'yish yoki qo'ymaslikni ota – onalar hal qiladi. Har bir fan uchun maxsus jadval mavjud bo'lib, unda fanning mundarijasi, maqsadi, erishish kerak bo'lgan natijasi, dars berish usuli, boshqa fanlar bilan bog'liqlik jihatlariga alohida ahamiyat beriladi.

Birinchi ikki yil ichida o'qituvchilar o'quvchilardan qat'iy intizomni talab qilishadi. Jadvalda ko'rsatilgan darsliklarning maqsadlarini o'qituvchilar oldindan bashorat qila olishlari, qaysi usul bilan o'tilgan amaliy mashg'ulotlar ko'proq natija berishini bilishi lozimligi talab etiladi. Shuningdek, o'qituvchilarning kundalik rejasining ko'p qismi darslarni o'zlashtira olmaydigan o'quvchilarga mavzuni tushuntirish bilan o'tadi.

So'nggi paytlarda baholash jarayoni Italiyada ham turlicha kechmoqda. Avvaliga baholash tizimi 0 dan 10 gacha bo'lgan raqamlar orqali baholanar edi. Keyinchalik esa ball tizimi, A, V, S, D, Y harflari bilan belgilangan bo'lsa, bugungi kunda 4 daraja orqali baholanadi. Ya'ni bu:

-A'lo

-Yaxshi

-Qoniqarli

-Qoniqarsiz

Ta'limda boshqaruv: muammo va yechim.

Italiya xalq ta'limi tizimi boshqaruvining o'ziga xosligi haqida gap ketganda, uning huquqiy asoslari va mavjud an'anaviy me'yorlariga e'tibor qaratiladi. Mamlakatda uzluksiz ta'limning birinchi bo'g'inini, ya'ni boshlang'ich ta'lim boshqaruvining o'z talablari bor. Bolalarni maktabga qabul qilishning o'z shartlari bor. Ya'ni o'qishga ma'lum yilning 31 – avgustidan kelasi yilning 30 - apreligacha 6 yoshga to'lgan bolalar qabul qilinadi. Faqatgina maktablar uchun binolarning yetishmovchiligini hisobga olmaganida, barcha xarajatlar davlat tomonidan to'lanadi. Kitoblar, o'quv qurollaridan tortib, to maktab avtobusi va oshxona xarajatlarigacha bepul.

Italiyada **boshlang'ich ta'lim** bosqichi 5 yil davom etadi. Boshlang'ich ta'lim boshqaruvning **ikki ko'rinishini** taklif etadi:

- *Klassik*

- *Amodulo* (ikki sinf uchun 3 nafar o'qituvchi yoki 3 sinf uchun 4 o'qituvchi).

Shuningdek, (xalq ta'limi tizimida 3-5 yoshli bolalar uchun majburiy bo'lmagan maktabgacha tarbiya muassasalari ham mavjud). Haftada 27-130 soat dars jadvali bo'lgan maktablar hamda **classi atempo pieno** maktablarida bir sinf uchun 2 nafar o'qituvchi bo'lib, darslar haftasiga 40 soatni tashkil etadi. Har bir o'quv muassasasi o'z hududidan kelib chiqqan holda boshqaruvning tashkiliy tuzilishini ishlab chiqadi. Maktabning boshlang'ich sinflarida, odatda, 10 dan 25 nafargacha o'quvchi ta'lim oladi. Majburiy maktablarda 6 – 11 yoshli bolalar 5 yil boshlang'ich maktabda ta'lim olsa, quyi o'rta maktabda 3 yil ta'lim oladilar. Boshlang'ich ta'lim umumiy ta'limning dastlabki bo'g'ini hisoblanadi. Ta'lim muassasalari va davlat boshlang'ich ta'lim maktablari mamlakatdagi umumiy qonunlar va qonunosti me'yoriy hujjatlar orqali boshqariladi.

Turli xil maktablarning o'zaro farqlari ularning binolari, o'quvchilar soni, sinflar va dars jadvalining tuzilishi bilan farq qilishi mumkin.

Italiyada davlat va xususiy maktablar faoliyati teng olib boriladi. O'quv dasturlari bir – biridan uncha farq qilmaydi. 1985 – yilda qabul qilingan qonunga muvofiq boshlang'ich maktablar konstitutsiyada belgilangan shaxs va fuqarolarning ta'lim olish huquqlariga asosan ish ko'radi. Ta'lim tizimini boshqarishda fuqarolarning erkinliklariga qadriyat sifatida qaraladi va inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi talablariga javob beradi.

Boshlang'ich ta'limning yana bir **asosiy talablaridan biri** bu – bolalarda madaniy savodxonlikni shakllantirishdir. Maktablar afsuski, ta'limda amalga oshirilishi ko'zda tutilgan barcha vazifalarni to'liq bajara olmaydi. Shuning uchun o'qituvchilar doimo ota – onalar va tashkilotlar yordamiga ehtiyoj sezishadi. Ular bilan hamkorlikda ish faoliyatini olib borishadi. Asosiy maqsad o'quvchilarning bilim olib, savod chiqarishlari barobarida erkin demokratik jamiyatda yashashga o'rgatishga qaratiladi. Ta'lim tizimi qonunchiligida asosan maktablar o'ziga xos yo'nalishlarga bo'linadi va ulardan o'quvchilarda avvalo, shaxsni rivojlantirish, ularning individual qobiliyatlarini hisobga olish talab etiladi. Shu bois maktablar o'quvchilarning o'z fikrini shakllantirish va erkin ayta olish, savodxonlik, tabiiy fanlarni o'rganishda fundamental imkoniyatlarni yaratish bu borada ta'limda ilmiy metodlarni qo'llash, shuningdek, kommunikativ uslublar orqali tarbiyalashga alohida e'tibor qaratadi.

Italiyada maktablar 2 turga bo'linadi:

- 1) **scuoleparitarie**
- 2) **scuole private autorizzate**

Bulardan birinchisi **scuoleparitarie** maktablari bo'lib, ular 2000 – yildan buyon davlat ta'lim muassasasi sifatida bitiruvchilarga guvohnoma berib kelmoqda.

Ikkinchi turi esa, **scuole private autorizzate** maktablaridir. Bunday maktablarning o'ziga xosligi shundaki, ularni ma'lumotga ega bo'lmagan, shuningdek, yuridik shaxs bo'lmagan o'rta maktabni bitirgan fuqarolar boshqaradi. Bunday maktablar bitiruvchilarga sertifikat berish huquqiga ega emas.

Shuningdek, Italiya ta'lim tizimida anchagina nom qozongan xususiy ta'lim muassasalari mavjud. Bular **Steynarian** maktablaridir. 2000 – yil 11 – sentabrda Italiya ta'lim vazirligi qabul qilgan shartnomaga ko'ra, bu maktablarga faqat boshlang'ich sinflarni tashkil etish uchun ruxsat berilgan bo'lib, ularda Montessori metodi bo'yicha dars o'tiladi shu bois, bunday sinf rahbarlaridan maxsus Montessori didaktikasi differensial diplomiga ega bo'lish talab etiladi.

Italiya maktablarida ko'p miqdorda o'qituvchilar uchun alohida darsliklar va yordamchi materiallar mavjud. Biroq o'qituvchilar o'zlari istagan boshqa darsliklardan foydalanishlari mumkin. Bu esa, natijalarning samarali bo'lishini ta'minlaydi. Italiya maktabi ta'lim tiziminig boshqa davlatlar ta'lim tizimidan o'ziga xos farqli jihatlaridan biri shundaki, Italiya maktablarida **multi sinflar** mavjud. Bunday sinflar o'quvchilarini turli yoshda bo'lgan bolalar tashkil etadi. Ularning soni 6 dan 12 nafargacha bo'ladi. Multi sinf o'quvchilari birgina o'qituvchi nazoratiga topshiriladi. Lekin bunday sinflar barcha maktablarda mavjud emas. Ular faqatgina tog'li jorlarda, aholi juda kam joylashgan hududlardagi maktablarda tashkil etiladi. Bu sinfda ota – onalar bolalari bilan shug'ullanish imkoniyati bo'lmagani yoki boshqa sabablarga ko'ra band oilalar

farzandlari tahsil olishadi. Maktabda o`quv jarayonini tashkillashtirish maktabning hududiy joylashuvi hisobga olingan holda olib boriladi. O`quv yili 1 – sentabrdan boshlanib, yozgi ta`til 30 – iyundan boshlanadi. Maktab bitiruvchilari bitiruv imtihonlarini iyul oyida topshiradilar.

Boshlang`ich maktablarda darslar haftasiga 27 – 30 soatni tashkil qilsa, shundan 3 soati chet tilini o`rganishga ajratiladi. Dars jadvalini rejalashtirish jarayonida asosiy e`tibor fanlarni bir xil taqsimlashga qaratiladi.

Umumiy modul tizimidagi maktablarda (haftada 27 soat) haftada 5 kun o`qitiladi. O`quv jarayoni 40 soatni tashkil etadigan maktablar ham haftasiga 5 yoki 6 kun ishlaydi. Soatning ko`pligiga qarab darslar umumta`lim maktablar uchun 8:30 dan 16:00 gacha olib boriladi. O`rtadagi tanaffus uchun 30 daqiqa vaqt ajratiladi. 5 - sinf yakunida o`quvchilar ***esame di licenza elementare***, ya`ni boshlang`ich ta`limning yakunlanishi imtihonini topshirishdi. Shundan so`ng, ***ikkinchi bosqich scuola mediaga*** o`rta ta`limga o`tadilar. Imtihonda nafaqat o`quvchi, balki o`qituvchining salohiyati ham tekshiriladi. Ya`ni, o`quvchi ustozidan olgan bilimni qanchalik egallaganini ko`rsata olishi kerak. Test savollarida matematika va mantiq fanini o`zlashtirish darajasi tekshiriladi. Boshlang`ich ta`limni tugatgach, birinchi bosqich imtihonini topshirgan o`quvchiga maxsus guvohnoma beriladi. Bu hujjat ta`limning ikkinchi bosqichiga o`tish huquqini beradi.

Italiya ta`lim tizimi boshqaruvida asosiy e`tibor boshlang`ich ta`limni to`g`ri tashkil etishga qaratilishi bejiz emas. Chunki aynan shu bosqich keyingi ta`lim jarayonlarining samarali olib borilishini ta`minlaydi. O`quvchilar haftada besh kun 30 soat o`qiydilar. Har bir ta`lim bosqichining oxirida imtihon o`tkaziladi. Baholar og`zaki tartibda “juda yaxshi”, “durus” va “past” darajalarda baholanadi. Italiyada birinchi besh yillikda ya`ni ikki bosqichni tugatganidan so`ng yozuvga oid va og`zaki imtihon olinadi. Uning natijasiga qarab oquvchilarga shahodatnoma majburiy beriladi va ular o`rta maktabga o`tadilar. Qayerda o`qishlaridan qat`iy nazar, ta`lim 14 yil. Italiyada o`quvchilar bu bosqichda italyan tili, tarix, geografiya, matematika va tabiiy fanlar, xorijiy til, san`at, musiqani o`rganishadi. So`ng yil oxirida imtihon topshiriladi. Italiyada o`quvchilar imtihonlarda italyan tili, matematika va chet tilidan – yozma, qolgan fanlardan – og`zaki imtihon topshiradilar.

Italiyada ***litsey tizimi***

Umumiy maktablardan keyin universitatga kirish uchun litseylarda tayyorlanishadi.

Universitetlarga tayyorlanish litseylarda amalga oshiriladi.

Litseylarning uch turi mavjud:

1. Klassik
2. Texnikaga oid litseylar
3. Tabiiy fanlarga oid litseylar

Litseylar dasturi quyidagilarni o'z ichiga oladi. Italian adabiyoti, lotin tili, matematika, fizika, tabiiy fanlar, falsafa, tarix. Bitiruvchilar topshiradigan imtihonlar fransuzlarning topshiradigan imtihonlariga juda ham o'xshash. Oliygo'ha kirish yetuklik attestati orqali qabul qilinadi.

Klassik litseyda oliygo'ha kirish uchun umumiy tayyorgarlik amalga oshiriladi va bitiruvchilar har qanday fakultetga o'qishga kirishga haqli. Italiya ta'lim tizimida oliy o'rta maktablar kasbga yo'llovchi o'quv korxonalar (texnik oliygo'harlar, san'at maktablari) va litseylar hisoblanadi. O'quvchilar boshlang'ich va o'rta ta'limda 14 + 5 yil ta'lim bilan 19 yil o'qiydilar.

Oliy ta'lim

Italiya oliygo'harlarida ko'proq o'rta asr an'analarini saqlangan. Bayramlarda Robin Gud uslubida kiyinishadi, turli rangdagi kepkalar kiyishadi.

Oliy ta'limning zamonaviy andozalari 2001–2002 yillarda qabul qilingan. Bugungi kunda bu ta'lim tizimida 60 000 professor dars beryapti. Italiyada dunyoga mashhur universitetlardan biri – Bolonskiy dorilfununi mavjud.

Italiyada oliy o'quv yurtlari ikki turga:

- universitetlar;
- oliygo'harlar va kollejlilar.

Italiyada 83 ta universitetlar, shu jumladan:

- 58 ta davlat universitetlari;
- 17 ta nodavlat universitetlari;
- 2 ta universitet xorijiy talabalar uchun;
- 3 ta oliy maktablar;
- 3 ta Politehnika universiteti.

Ma'orif o'quv muassasalari noutiversitet sektorida bundan tashqari oliy ma'lumot olish mumkin bo'lgan to'rt turdagi ta'lim muassasalari mavjud:

1. Oliy dizayn maktablari;
2. Politehnika, san'at oliygohlari;
3. Nafis san'at akademiyasi;
4. Konservatoriya.

Italiyada Milliy akademiyaning: oliy maktablar, til tayyorgarligi hamda oliy va yarim oliy ma'orif muassasalari faoliyat ko'rsatadi. Bir qator davlat va xususiy oliygohlarda xorijiy talabalar ommabop yo'llanma asosida ingliz tilida dizaynerlik ishi, san'at va modani o'rganishlari mumkin. Italiya dorilfununlarida bir necha yo'nalishli, bosqichli ikki turdagi o'quv dasturlari qo'llanib, ular yangi tartib va an'anaviylikka asoslangan. Avvalgi standartlarga mos ravishda yangi talablar bilan birinchi bosqichda o'qitish amalga oshiriladi.

Oliy ta'limning birinchi bosqichida o'qish uch yil davom etadi. Bakalavrlilik dasturida asosiy mo'ljal o'qitishning umumiy ilmiy usullari, maxsus ta'lim hamda kasb malakalarini egallashni maqsad qilib qo'yilgan. Oliy ta'limning ikkinchi bosqichida yangi tizim bilan mos ravishda ikkinchi pog'ona ta'lim dasturlari bo'yicha mutaxassislar tayyorlanadi, dasturlarni ixtisoslashtirish madsadida birinchi bosqichni davom ettirgan holda magistirlilik dasturlari davom ettiriladi. Ikkalasida o'qish uch yil.

Talabalar uchinchi bosqichda oliy ta'limni davom ettirish uchun yangi sistemada aspiranturani o'qiydilar.

Rimda 5 ta katta universitetlardan biri La Sapienzaga 200 ming abituriyent hujjat topshirib, ortiqcha bo'sh o'rin yo'qligi sababli 10 abituriyentdan 3 abituriyent o'qishga qabul qilinadi. Diplom olgan talabalar Angliya va Germaniyaga qaraganda 3 baravar kam.

Kimyo, me'morchilik, odontologiyani o'rganish 5 yil, tibbiyot 6 yil.

Mutaxassislar bakalavriyat va magistraturani tugatgandan so'ng akademik daraja olish uchun malakaga oid imtihon topshirib, o'qishni aspiranturada davom ettirishadi. Aspiranturada o'qish 3 yil davom etadi.

Imtihonlar yozma va og'zaki shaklda o'tkaziladi. Adabiyot, tarix, tilshunoslik, filologiya odatda og'zaki topshiriladi. Har qaysi imtihon 99,9% mustaqil tayyorlanishni talab qiladi.

Italiya ta'lim tizimida har xil tilga oid kurslar tashkil etilgan. Til o'rganish kurslarining turli ko'rinishlari tarqalgan.

4.5. Polsha ta'lim tizimi

1999 yil Polshada yangi ta'lim reformasi kuchga kirdi. U o'qitishning tashkiliy tuzilishi va imtihonlar tizimini tubdan o'zgartirdi, o'qituvchilar xizmat pog'onasida o'sishining yangi tizimi va maktablarni moliyalashtirish usullarini kiritdi.


Reformaning asosiy tamoyillari ishlab chiqildi. Uning mazmuni:

- O'rta va oliy ta'limni keng yoyish;
- Ilmiy dasturlarning o'zgarishiga ko'ra ta'lim sifatini oshirishdan iborat.

Shuningdek, Reformaning yangi usullari joriy qilindi. Yangi maktab tuzilmasi; umumiy imtihon tizimi; o'qituvchining xizmat pog'onasidan o'sishi; maktablarni moliyalashtirishning yangi tamoyillari; dasturiy o'zgarishlar kiritish.

Polshaning zamonaviy ta'lim tizimi quyidagicha tuzilgan (1-chizma): maktabgacha ta'lim (1 yil), boshlang'ich ta'lim (6 yil), gimnaziya (3 yil), kasbiy maktab (2 yil), Litsey (3 yil), Texnikum (4 yil), KMDan keyingi litsey (2 yil), OO'Yu (5 yil), Doktorlik darajasini olish (3 yil).

Reformaga asosan dasturiy o'zgarishlar qilindi. O'quvchilarning ko'nikma-malakasi va fikrlashini shakllantirishga ko'mak beruvchi yangi dasturiy asoslar kiritildi. Imtihon standartlari ishlab chiqildi. O'qituvchi o'qitish dasturi va darsliklarni tanlash yoki o'qitish dasturini mustaqil yozish imkoniyatiga ega bo'ldi. Direktor o'quvchilar xohishiga ko'ra bir necha darslarni kiritishi mumkin (turli to'garaklar, o'lkashunoslik, ekologiya va boshqa o'quv fanlari bo'yicha mashg'ulotlar). Davlat miqyosida ishlab chiqilgan, bir xil baholash tizimiga ega bo'lgan, bir turdagi imtihonlar kiritildi. O'qitish bloklari kiritildi (masalan, musiqa, san'at va h.)



1-chizma. Polshaning zamonaviy ta'lim tizimi tuzilmasi

Mamlakatda ta'lim tizimini moliyalash va nazorat qilish gminlar byudjetidan amalga oshiriladi. Boshlang'ich ta'lim va gimnaziyalar gminlar byudjetidan moliyalashtiriladi (gmin-Polshadagi eng kichik ma'muriy birlik). Gminlar o'quvchilar uchun doimiy dotatsiyalarni oladilar. Xususiy maktablar ochish imkoniyatlari bor, bunda shaxsiy pul mablag'laridan tashqari davlat dotastiyasini ham olish mumkin. Maktablar ustidan pedagogik nazoratni kuratoriyalar amalga oshiradilar.

Maktabgacha tarbiya

Majburiy bir yillik maktabgacha tayyorgarlik bog'chada yoki maktabda amalga oshiriladi.

Boshlang'ich maktab.

Bolalar 7 yoshdan maktabda o'qishni boshlashadi. O'qish 6 yil davom etadi va imtihon bilan yakunlanadi. O'qish ikki bosqichda tashkil etilgan:

Birinci bosqich 1-3 sinflarni qamrab oladi. O'qituvchi o'quv dasturini o'quvchilarning o'zlashtirish imkoniyatlaridan kelib chiqib amalga oshiradi.

Ikkinchi bosqich 4-6 sinflarni o'z ichiga oladi, o'qitilayotgan fanlar an'anaviy va blokli fanlarga bo'linadi. Bunda polyak tili, tarix, matematika, chet tili kabilar

an'anaviy o'quv fanlariga, ximiya, biologiya, geografiyani o'zida birlashtiruvchi tabiat fani blokli fanlarga kiradi. Darslar 45 minut davom etadi. O'quvchi maktabni 6-sinfidan keyin majburiy imtihonlarni topshirish bilan yakunlaydi.

Polshada davlat va xususiy maktablari mavjud. Xususiy maktab sinflarida o'quvchilar soni kamchilikni tashkil etadi. Davlat maktablarida dars soatlari soni O'qituvchi Kartasida aks etadi (qonun bo'yicha haftasiga 18 soat). Xususiy maktablarda dars soatlari soni va sharoitlarni ish beruvchi belgilaydi. Xususiy maktablarda ta'lim jarayoniga ota - onalar ta'siri kuchli. Shuningdek, Polshada differensiyalashgan ta'lim bosqichi mavjud.

Gimnaziya ta'limi 3 yil davom etadi. Gimnaziya 3 bosqichli imtihon topshirish bilan yakunlanadi: gumanitar fanlar bo'yicha, matematika va tabiat bo'yicha, chet tili bo'yicha.

Litsey, texnikum O'rta maktablar ballar limitini e'lon qiladi. O'qish listeyda 3 yil, texnikumda 4 yil davom etadi. Texnikumni tugatgan o'quvchi o'z mutaxassisligi bo'yicha juda murakkab imtihon topshiradi. Litsey bitiruvchisi hech qanday mutaxassislikka ega bo'lmaydi, u faqat OO'Yularida o'qishni davom ettirish uchun tayyorlanadi, ayrim fanlar chuqur o'rganiladi. Litsey va texnikum yetuklik attestati imtihoni bilan yakunlanadi. yetuklik attestati imtihonlari quyidagilardan iborat:

- Ona tilidan yozma va og'zaki imtihon;
- Chet tilidan imtihon;
- O'quvchi o'zi tanlagan fan bo'yicha imtihon.

Imtihondan o'tish uchun 31% ball to'plash kerak. Imtihon natijalari ma'lum chizmalar bo'yicha hisoblanadi va shunga ko'ra OO'Yuga yo'llanma oladi.

Oliy O'quv Yurti

O'rta maktab bitiruvchilarini OO'Yulariga qabul qilish etuklik attestatida to'plagan ballari asosida amalga oshiriladi. O'qitish zachet va imtihonlar asosida o'tadi. OO'Yuda o'qish diplom ishi himoyasi bilan yakunlanadi. Texnika OO'Yularida injenerlik imtihonlari ham topshiriladi. Davlat OO'Yularining obro'si balandroq. OO'Yuda ikki bosqichli ta'lim mavjud:

- magistr darajasini olish (5 yil);
- yoki listenziat(3 yil) + magistr darajasi(2-yil).

OO'Yu bitiruvchilarining kasbiy nomlari

- Listenziat – OO'Yuda 3-3,5 yil o'qigan talaba.
- Injener – Texnika, qishloq xo'jaligi, iqtisodiyot OO'Yulari bitiruvchisi.
- Magistr – ta'limning 5 yillik standart kursini bitiruvchisi.

Ilmiy darajalar va unvonlar:

Doktor – doktorlik dissertastiyasini himoya qilgan shaxsga beriladigan daraja (bizdagi fan nomzodiga to'g'ri keladi).

Doktor xabilitovan – doktorlik darajasiga ega bo'lgan, fanga ulkan hissa qo'shgan va yana bir ilmiy ishni himoya qilgan shaxsga beriladigan ilmiy daraja.(bizdagi fan doktoriga to'g'ri keladi).

Polshada o'qituvchilarning xizmat pog'onalari bo'yicha o'sishi quyidagi bosqichlarga ega (ketma-ket polyakcha nomi bilan):

- Yangi ish boshlagan o'qituvchi “stajer o'qituvchi” maqomini oladi.

- 9 oy muddatda staj o'tagach, "shartnomali o'qituvchi" maqomiga ega bo'ladi.
- 1 yildan keyin esa "mianovan o'qituvchi" maqomini olish uchun staj o'tash huquqini oladi.
- Staj 2 yil-u, 9 oy davom etadi, so'ngra gmin komissiyasi oldida imtihon topshiradi.
- "Mianovan o'qituvchi" maqomini olgach, 3 yildan keyin "diplomli o'qituvchi" maqomi uchun staj qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Staj 2 yilu 9 oy davom etadi va ta'lim vazirligi vakillari suhbatini bilan yakunlanadi.
- "Diplomli o'qituvchi" maqomini olgach, 9 yildan so'ng "professor o'qituvchi" maqomini olishga harakat qiladi (bu professorlik ilmiy darajasi emas).

O'qituvchilarning xizmat pog'onalari bo'yicha o'sishda xizmat pog'onalari bo'yicha o'sishning barcha bosqichlarida berilgan muddatlarga amal qilinishi, bu muddatda kerakli hujjatlar tayyorlanishi va topshirilishi lozim. Staj paytida o'qituvchi maktab direktori tasdiqlagan shaxsiy reja asosida ishlaydi. Barcha ish natijalarini hisobotda yozib boradi, keyinchalik direktorga va imtihon komissiyasiga taqdim etadi. Xizmat pog'onalari bo'yicha o'sishi o'qituvchining tegishli maqomga ega bo'lishi va oylik maoshining oshishi bilan bog'liq bo'ladi. O'qituvchini ishga qabul qilish va kasb imtiyozlariga ega bo'lishi ko'p jihatdan uning maqomiga daxldor masala sanaladi.

Polshaning zamonaviy ta'lim tizimi bugungi kunda katta yutuqlarga erishishiga xizmat qilmoqda. Ammo ta'lim tizimida ba'zi muammo va yutuqlari mavjud. Jumladan, kichik qishloq maktablarini moliyalashtirish muammosi: bir sinfda 25 o'quvchi bo'lsagina maqsadli dotatsiya beriladi. Maqsadli dotatsiya bo'lmasa gminlar o'z shaxsiy byudjetlaridan xarajatlarni qoplaydilar shu bois kichik qishloq maktablari yopiladi. Boshlang'ich ta'limning 1-3-sinflarida baholash tizimi mavhum tuzilgan. Shuningdek, Umumpolyak imtihonlarining kiritilishi alohida regionlardagi o'qitish darajalarini taqqoslash imkoniyatini berdi. OO'Yuga qabul qilish tizimida korrupsiyaning yo'qotilishini ta'kidlash lozim.

4.6 Niderlandiya ta'limining ayrim masalalari

Niderlandiyaning yer maydoni 42 ming km kv bo'lib, unda 15 million aholi istiqomat qiladi. Uning shimoliy dengiz bo'yida uch daryo Reyn, Maasa, Sxelde dengizga quyilish joyida joylashganligi, Niderlandiyaga katta geografik qulaylik tug'diradi. Shu tufayli ham aholining katta qismi kemasozlik, turizm, tranzit yuklarni kemalar bilan tashib berish bilan band. Ishga yaroqli aholidan 6 millioni yoki 67 foizi maishiy xizmat ko'rsatish sohasida, 28 foizi sanoatda, 5 foizi qishloq xo'jaligi va baliqchilik xo'jaliklarida mehnat qiladi. Davlat tuzimi – konstitutsion monarxiya, uning o'z parlamenti ham faoliyat ko'rsatadi. Bu mamlakat 12 viloyatdan tashkil topgan, poytaxti Amsterdam shahridir.

Niderlandiya kichik mamlakat bo'lsada, lekin xalqaro ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy hayotda faol ishtirok etadi. Hozirgi Birlashgan Millatlar Tashkilotining o'tmishdoshi bo'lgan millatlar ligasi aynan birinchi bor Niderlandiyada tashkil

etilgan edi. Bu mamlakatda 1899, 1907-yillarda xalqaro tinchlik konferensiyalari bo'lib o'tgan. Hozir xalqaro arbitaj, xalqaro sud shu mamlakatning Gaaga shahrining Tinchlik saroyida joylashgan. Uning siyosati tinchlik siyosatidir. U xalqaro tinchlikni saqlash tashkilotlarining a'zosi, tinchlik forumlarining barchasida faol qatnashadi. U BMT, NATO, EES, Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyatining faol a'zosi. Ikkinchi jahon urushidan keyin Niderlandiyada qudratli industriya'ni barpo etish ishlari boshlandi.

Niderlandiya ta'lim tizimlarining shakllanish davri 1789 yilda fransuz revolyutsiyasi natijasida paydo bo'lgan Bativ Respublikasi davriga to'g'ri keladi. Hozirgi kunda mamlakatning 75 foiz maktablari xususiy shaxslar, tashkilotlar va jamiyatlar tomonidan, shu jumladan xrestian yoki katolik cherkovlari tamonidan tashkil etilgan.

Bu mamlakatda ta'lim tizimi 7-3-2 shakldadir. Boshlang'ich ta'lim maktabgacha tarbiya bilan qo'shilgan.

Ta'lim tizimi bosqichlari:

- boshlang'ich ta'lim;
- o'rta ta'lim;
- maxsus ta'lim;
- oliy ta'lim;
- chet elliklar uchun ta'lim.

Bu mamlakatda 4 yoshdan kichik bolalar uchun o'quv-tarbiya muassasalari yo'q. Bolalar yashilari mavjud, lekin ular ta'lim vazirligi tasarrufida emas.

Boshlang'ich ta'lim

Boshlang'ich maktab 4-12 yoshli bolalarga mo'ljallangan. Bolalar 4-5 yoshlarida maktabga keladilar. Boshlang'ich sinfda o'qish haftasiga 5 kun. Bolalar 8.00 dan 15.00 gacha maktabda bo'ladilar. Mashg'ulotlar o'yin shaklida amalga oshiriladi, dars soatlari chegaralangan emas. Golland maktablarida 15, 20, 30, 40 minutlik darslarni uchratish mumkin. Soat 12.00 dan 13.30 gacha tushlik (tanaffus). Bu paytda bolalar uylarida ovqatlanib keladilar. O'qituvchilar uchun tushlikda 45 minut tanaffus beriladi. Mashg'ulotlar aksariyat juftlik bo'yicha amalga oshiriladi.

Boshlang'ich maktabning dastlabki ikki yilda o'quv rejasi o'yin shaklida bolalarni o'qishga, yozishga, hisoblashga, rasm solishga, qo'l mehnatiga o'rgatish ko'zda tutilgan. O'quvning keyingi 6 yillik bosqichida bolalarga niderland tili, matematika, yozuv, tarix, geografiya, fizika, jamiyatshunoslik fanlaridan dars o'tiladi. Maxsus maktablarda ilohiyot darslari o'qitiladi. Boshlang'ich maktab o'quvining so'nggi bosqichida bolalarga ingliz tilidan dars beriladi. Boshlang'ich sinfni bitirganlik haqida o'quvchilarga maxsus hujjat berilmaydi.

Bolaning boshlang'ich maktabdagi bilimi, aqliy va jismoniy rivojlanishiga qarab ota-onalar o'rta maktab tanlaydilar.

O'rta ta'lim

Niderlandiya maktablarida o'rta ta'lim:

- umumiy o'rta ta'lim;
- umumiy ilmiy o'rta ta'lim;
- hunar-texnika ta'limi va hokazolardan tashkil topgan.

O'z navbatida umumiy *o'rta ta'lim*da o'qish muddati 4 yil bo'lgan o'rta va o'quv muddati 5 yil bo'lgan oliy bosqichga bo'linadi.

Tayyorlov bosqichi hisoblangan *ilmiy o'rta ta'lim* ham ikki ko'rinishga ega: gimnaziya va atensum deb ataluvchi tipga bo'linadi. Har ikki ko'rinishda ham o'qish muddati 6 yil. Tayyorlov ilmiy o'rta ta'lim oliy ilmiy o'quv yurtlariga kiruvchilarni yetishtirib chiqaradi.

Hunap-texnika (ularda hunar-texnika) ta'limi quyi hunar-texnika ta'limi, o'rta va oliy hunar-texnika ta'limidan iborat uch bosqichdan iborat.

O'quvchilar o'quv yurtiga kirish uchun topshiradigan sinovlari ularning qaysi bosqich o'quv yurtiga kirish xohishi va albatta shunga munosib bilim darajasiga qarab belgilanadi. O'rta ta'lim bosqichi o'quvchilarga o'rta hunar-texnika bilim yurtlariga, oliy tip o'rta maktablari esa, oliy toifa hunar-texnika bilim yurtlari hamda tayyorlov ilmiy o'quv muassasalarining bitiruvchilariga universitetlar va boshqa oliy o'quv yurtiga kirib o'qish imkoniyatini ochadi.

Hunar-texnika ta'limi kasb yo'nalishiga ko'ra quyidagicha ko'rinishda:

- qishloq xo'jalik ishlari ta'limi;
- iqtisodiyot va ma'muriy ta'lim;
- texnik ta'lim;
- maishiy xizmat va tibbiyot ta'limi;
- ro'zg'or yuritish, xalq hunarmandchiligi ta'limi;
- savdo o'rta ta'limi;
- dengizchilik o'quv yurti va hokazo.

Niderlandiyada yoshlar 16 yoshga to'lgunga qadar o'qishga majbur. Shundan keyin olingan kasb yo'nalishlarini yanada takomillashtirish, yuqori malakaga ega bo'lish uchun o'qishlar yana ikki yil davom ettiriladi. Bunday holda o'quvchi haftaning bir yoki ikki kunida o'qishda bo'lsa qolgan kunlari ishda bo'ladi.

Ta'lim standartlari deganda, gollandiyalik ta'lim mutaxassislari reja va dasturlarni tushunadilar.

Niderland maktablari faqat ta'lim bilan shug'ullanadi. Maktablarda oshxonalar va bufetlar yo'q. Maktablarda ovqatlantirish, qonunbuzarlikni oldini olish ishlari bilan asosan oila, jamoat tashkilotlari mashg'uldirlar.

Maktablarda 60-70 foiz o'zlashtirishni normal holat deb hisoblanadi. Qolganlari bo'sh yoki o'zlashtirmovchi o'quvchilardir. Bizning tushunchamizdek, "ikkichilar" Niderlandiyada yo'q.

Yangi maktab qurilishini loyihalashtirishga qo'yilgan asosiy talablar quyidagilar: sinfda har bir o'quvchi uchun 6-8 m joy bo'lishi; yorug'likning me'yorida bo'lishi; har bir o'quvchiga yetarli maydonning mavjudligi (sinfda ham maktab hovlisida ham); individual e'tiborning bo'lishi va hokazo. Maktablarda devor, tom, derazalar oynavand, yorug' bahavo qilib qurilgan.

Maxsus ta'lim

Niderlandiya'ning maxsus maktablarida nogiron, aqli zaif, jismoniy nuqsonlarga ega bo'lgan bolalar tarbiyalanadi.

Bunday turdagi maktablar ikki toifaga bo'linadi:

1. Boshlang'ich;
2. O'rta.

U 8 yoshdan 21 yoshgacha bo'lganlar uchun mo'ljallangan. Bunday o'quv muassasalariga qo'yiladigan asosiy talab tezroq ruhiy, jismoniy nosog'lom bolalarni boshlang'ich va o'rta maktabga tayyorlab berishni ta'minlashdan iborat.

Katta yoshdagilar ta'limi

So'nggi yillarda Niderlandiyada katta yoshli fuqarolarning bilim olishga qiziqishi ortib bormoqda. Aksariyat bu toifadagi kishilar ilgari turli sabablar bilan ta'lim olishga imkoniyatlari bo'lmagan kishilardir. Mana shunday kishilarning bilim olishga bo'lgan ishtiyoqini qondirish uchun mamlakatda ochiq maktablar, ochiq universitetlar tashkil etilgan. Bu o'quv muassasalarida o'quv mashg'ulotlari mustaqil yoki ishdan so'ng amalga oshiriladi.

Yoshlar. Hozir kunda Niderlandiyada mamlakat umumiy aholisining 40 foizini 25 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etadi. Mamlakat yoshlar siyosatining asosiy yo'nalishi ularni ma'lumotli, kasb-korli qilishga, yoshlarni mamlakat ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy hayotida faol ishtirok etishini ta'minlash, ularning ko'ngilli dam olishlarini namunali tashkil etishni ta'minlashga qaratilgan.

So'ngi yillarda mamlakatda yoshlarning ijtimoiy istiqbollari keskin o'zgardi. Ularda hayotiy jarayonlarga qiziqish ancha kuchaydi, shuningdek ular o'z muammolarini o'zlari mustaqil hal qilishga tobora intilmoqda.

Yoshlar boshqa mamlakatlardagi tengdoshlari singari jamiyatdagi o'z o'rnini topish va uni mustahkamlash uchun kurashmoqdalar.

Yoshlar siyosatiga oid, davlat ahamiyatiga molik masalalarni faravonlik, sog'liqni saqlash va madaniyat ishlari vazirligi hal etadi. Bu vazirlik boshqa vazirliklar bilan hamjihatlikda yoshlar ehtiyojlarini, shu jumladan ularni ish bilan, turar joy bilan ta'minlash, moddiy farovonligini yaxshilash, ularga malakali tibbiy xizmat ko'rsatish kabi masalalarni muvofiqlashtiradi, hal etadi.

Katta avlodning, boshqaruv ishidagi mansabdorlarning faoliyatida eng ko'zga tashlangan soha yoshlarning ishsizligini tugatish, ularga keng ko'lamdagi yordam uyushtirishga sidqidildan yondashayotganligidir. Niderlandiyada yoshlar ishlari bo'yicha federatsiya mavjud bo'lib, uning vazifasi hukumatda, parlamentda yoshlar manfaatlarini va ularning huquqlarini himoya qilishdan iborat.

Niderlandiyada qariyb 4 mln. yoshlar kunduzgi o'quv bilan qamrab olingan. Mamlakatda majburiy ta'lim bepul, katta yoshlilar maktablari va oliygohlarida pullikdir.

Ba'zan maktablarda ota - onalar o'quv tarbiya ishlarini amalga oshirish uchun o'z mablag'lari bilan yordam beradilar. Barcha o'qtuvchi va tarbiyachilar maoshi davlat tomonidan ta'minlanadi. O'qituvchi to'liq holda maosh olish uchun haftasiga 40 soat sarf etmog'i kerak.

Rasmiy ma'lumotlarga qaraganda, ta'lim vazirligi Niderlandiyada eng qimmat turuvchi vazirlikdir. Unga Davlat ta'lim sohasida bir yilga 29,6 milliard gulden mablag' sarf etadi. Bu davlat byudjetining 17 foizidir.

Niderlandiyada nafaqa yoshi erkaklar uchun ham ayollar uchun ham bir xil 65 yosh. Nafaqa miqdori oiladagi kishilar soniga qarab belgilanadi.

Savol va topshiriqlar:

1. Germaniya ta'lim tizimining huquqiy asoslarini izohlab bering.
2. Germaniyada kasb-hunar ta'limning o'ziga xos xususiyatlarini nimalarda ko'rish mumkin?
3. Sizningcha, Fransiya ta'lim tizimining afzalliklari nimalardan iborat?
4. Angliya davlat maktablari milliy dasturida qanday fanlar qamrab olingan?
5. Niderlandiya hunar-texnika bilim yurtlarida tinglovchilarga qanday ixtisosliklar bo'yicha ta'lim beriladi?
6. Niderlandiyada majburiy ta'lim qanday amalga oshiriladi?
7. Yevropa mamlakatlari ta'lim tizimining yutuqlarini O'zbekistonda tadbiq etish mumkinmi?

V BOB. OSIYO MAMLAKATLARI TA'LIM TIZIMI

5.1. Yaponiya ta'lim tizimi va unga daxldor masalalarning olib borilishi

Yaponiya – Sharqiy Osiyoda, Tinch okeandagi orollarda joylashgan davlat. Uning hududida 6,5 mingga yaqin orol bor. Eng yirik orollari: Xokkaydo, Xonsyu, Sekoku va Kyusyu. Yaponlar o'z davlatlarini “Nixon”, “Nippon” deb atashadi. Uning ma'nosi “Kunchiqar mamlakat” deganidir.

Maydoni 377,8 ming kv.km. Aholisi 127 mln. 960 ming kishi (2011 y). Aholisi bo'yicha dunyoda 10 o'rinda turadi. Poytaxti – Tokio shahri.

1992 yilda Yaponiyaning Toshkentdagi elchixonasi o'z faoliyatini boshlagan. Davlat boshqaruvi konstitutsion parlamentar monarxiyaga asoslangan. Konstitutsiyaga ko'ra, Yaponiya imperatori davlatni boshqarishda Vazirlar Mahkamasining qarorlariga tayanadi. Barcha davlatlararo rasmiy uchrashuvlarda imperator davlat boshlig'i sifatida qatnashadi.

Akixito 1989 yildan beri Yaponiya imperatori bo'lib kelmoqda.

Iqtisodiy qudrati jihatidan Yaponiya jahonda Amerika Qo'shma Shtatlaridan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Jahonning ko'zga ko'ringan ruhshunoslari va iqtisodchilari Yaponiya rivojlanishidagi bu ulkan parvozni mamlakatda ta'lim tizimlari taraqqiyotiga berilgan yuqori darajadagi e'tibor samarasi, deya qayd etadilar. Bu bejiz emas. Kun chiqish mamlakati deb yuritiladigan bu o'lkada ta'lim tizimlarini bosqichma-bosqich takomillashtirib borilishiga hukumat, xususiy kompaniyalar, jamoat tashkilotlari, ota - onalar qanchalik omilkorlik bilan yondashayotganligini guvohi bo'lamiz.

Tabiiyki, Yaponiya ta'lim tizimining yuksak parvozi o'z-o'zidan bo'lgani yo'q. Uning ham o'ziga xos inqirozi va muammolari bo'lgan. Buni to'liq tasavvur qilish uchun mamlakat pedagogik tamoyillari va taraqqiyotining tarixiy bosqichlariga nazar tashlash kifoya.

Zamonaviy ta'lim tizimi bosqichlari

1. ASOS SOLISH BOSQICHI (1868-1885 yillar). Zamonaviy ta'limning ilk ustunlari yaratildi.

2. BIRLASHISH BOSQICHI (1886-1916 yillar). Turli xil maktab qonunlari chiqarib boshladi, sistematik ta'lim tizimi yaratildi.

3. TARQALISH BOSQICHI (1917-1936 yillar). Ta'lim tizimi Ta'lim bo'yicha Favqulodda kengashning tavsiyalariga asosan rivojlantirildi.

4. HARBIY BOSQICH (1937-1945 yillar). Harbiylashgan ta'limning cho'qqisi davri.

5. ZAMONAVIY BOSQICH (1945 yildan hozirga qadar).

Yapon ta'limining mumtoz shakllanishi 1867 — 1868 yillardagi mamlakat hukmdori Meydzi tomonidan amalga oshirilgan islohotlarga borib taqaladi. Bu hukmdorning o'z oldiga qo'ygan ikki qat'iy shiori bo'lib, biri “Fukoku- kioxsi” — boyish, mamlakatni mustahkamlash va harbiylashtirish, ikkinchisi esa “Siokusan kogio”-ilg'or G'arb ishlab chiqarish texnologiyasi asosida mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish edi. Meydzi bu ikki maqsadni amalga oshirishning bosh omili ta'lim tizimlarini tubdan o'zgartirish va yangilashda deb hisoblardi.

Davlat boshlig'ining bu xulosalari Yaponiyada 1872 yilda “Ta'lim haqida Qonun” qabul qilinishiga olib keldi. Qonunga muvofiq tez orada eski uslubdagi ta'lim tizimi o'rnida mamlakat rivojlanishini ta'minlashga samarali xizmat qiluvchi yangi yo'nalishdagi 53750 ta boshlang'ich 256 ta o'rta maktab, 8 ta dorilfunun tashkil etildi. Bu o'quv yurtlaridagi ta'lim shakllari ma'rifatli G'arb ta'lim uslublari bilan uyg'unlashtirildi, 1890 yilga kelib ilgari 3-4 yillik boshlang'ich maktablar muntazam 4 yillikka aylantirildi va u bepul amalga oshirila boshlandi.

1908 yildan boshlab Yaponiyada boshlang'ich ta'lim majburiy 6 yillikka aylantirildi. O'quv-tarbiya ishlari bepul amalga oshiriladigan bo'ldi. 1893 yildan e'tiboran Yaponiyada kasb yo'nalishidagi dastlabki kollejlarda paydo bo'la boshladi.

Birinchi dorilfunun 1886 yilda Tokioda tashkil etildi. Lekin bu dorilfununga oliy tabaqali aslzodalarning bolalari qabul qilinardi. Asr boshida mamlakatda ayollar uchun ham dorilfununlar tashkil etildi. Lekin bu bilim maskanlarida xotin-kizlar uchun faqat xo'jalik yuritish, oila iqtisodiyotidagina ta'lim berilardi.

1897 yilda Kiatoda ikkinchi dorilfunun ochildi. Ikkinchi jahon urushida Yaponiya mag'lubiyatga uchragandan keyin mamlakat maorifi tizimlariga Amerika Qo'shma Shtatlari ta'lim tamoyillari kirib kela boshladi.

1946 yilda qabul qilingan Konstitutsiya Yaponiya fuqarolarining ta'lim sohasidagi huquq va burchlarini belgilab berdi. Unda «Layoqatiga ko'ra barcha fuqarolar bilim olish huquqiga ega. Barcha bolalar bepul umumiy ta'lim olishlari shart» ekanligi belgilab qo'yilgan.

1947 yilda qabul qilingan «Ta'lim haqida Qonun» Yaponiya konstitutsiyasi ruhiga uyg'un bo'lib, mamlakatda ta'limning maqsad va vazifalarini to'la ifoda etadi. Unda, jumladan, shunday deyiladi: «Biz shaxsiy g'ururi bor, o'zining qobiliyati va imkoniyatiga ishonuvchi, haqiqat va tinchlikni sevuvchi odamlarni tarbiyalaymiz, toki ular ko'p qirrali madaniyat sohibi bo'lsinlar». Shunday qilib, Yaponiya'ning Ta'lim, fan va madaniyat vazirligi boshqaruvi hozirgi kunda qat'iy markazlashdi, ilg'or xalqaro standartlar darajasidagi yapon ta'lim tizimlari qaror topdi.

Majburiy ta'lim

O'quv yili aprel oyidan boshlanadi. Boshlang'ich hamda o'rta maktab barcha uchun majburiy hamda bepuldir. Boshlang'ich maktab o'quvchilari (1-6 sinflar)

uchun uyga vazifa berilmaydi. Biroq o'rta (7-9 sinflar) va oliy maktab (10-12 sinflar) o'quvchilari uchun ko'p uy vazifasi beriladi.

1. Boshlang'ich maktab 6 yil.

2. O'rta maktab 3 yil.

3. Oliy maktab 3 yil.

Ta'lim tizimi tarkibi

Hozirgi zamon yapon ta'lim tizimlarining tarkibi quyidagicha:

-bolalar bog'chalari;

-boshlang'ich maktab;

-kichik o'rta maktab (Chugakko);

-yuqori o'rta maktab;

-oliy ta'lim tizimlariga kiruvchi o'quv yurtlari.

Bolalar bog'chalari

Ta'limning bu bosqichiga 3-5 yoshli bolalar qabul qilinadi. Bolalar yosh xususiyatlariga muvofiq ravishda 3, 2, 1 yillik ta'lim kurslariga jalb qilinadilar. Yaponiyada maktabgacha ta'lim muassasalarining 59,9 foizi xususiydir. 40,8 foizi esa munitsipial (tuman) kengashlari tasarrufida, qolgan 0,3 foizi davlatnikidir. Bog'cha davrida bolalarga o'qituvchilar sodda hisob-kitoblarni, shuningdek, xiragana va katakana alifbolarini o'qishni o'rgatishadi.

Boshlang'ich maktab

(Kokopo) (1-6 sinflar, 6-12 yosh). O'qish muddati 6 yil.

Ta'limning bu pog'onasiga 6 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan bolalar jalb qilinib, ular shu muddat ichida 6 yillik boshlang'ich maktabni tugatadilar. O'quv oxirida 1-1.8 ming ieroglifni bilish gazeta va jurnallarni erkin mutoala qila olish talab qilinadi.

Boshlang'ich maktablarda odatda bir kunda 3 ta dars bo'ladi. Kamdan kam hollarda 4 ta dars bo'lishi mumkin. Maktabda darslar odatda 8:30da boshlanadi. Har dushanba kuni "lineyka" bo'ladi. Boshlang'ich maktablarda darslar 45 daqiqadan iborat. Ushbu maktablarda o'quvchilar uchun uyga vazifalar berilmaydi. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilar ona tili, matematika, biologiya, fizika, kimyo, tarix, etika, musiqa, rasm, jismoniy tarbiya, uy xo'jaligi kabi darslarni o'qishadi. Boshlang'ich maktabni tugatganga qadar bolalar 1006 ta kanjini yod olishlari talab etiladi.

Muhtoj oilalarning bolalari mahalliy va milliy boshqaruv tashkilotlari tomonidan ajratilgan mablag' hisobiga bepul nonushta qilish, o'quv qurollari olish, tibbiy xizmatdan bepul foydalanish imtiyoziga egadirlar. Bundan tashqari, ularga bepul sayohatlar va boshqa ko'ngilochar tadbirlar uyushtiriladi. Zarur bo'lib qolgan taqdirda kam ta'minlangan oila farzandlari uchun moddiy yordam ko'rsatiladi. Bu bosqichdagi maktablarga qabul uchun maxsus qonun yoki cheklashlar yo'q. Faqat jismonan, ruhan nosog'lom bolalar unga qabul qilinmaydi.

Ota - onalar o'z bolalarini xususiy maktablarga berish huquqiga ega. Lekin xususiy maktablarning o'ziga xos shart-sharoitlari va talablari mavjud.

Kichik o'rta maktab (7-9 sinflar, 12-15 yosh). O'qish muddati – 3 yil.

O'quvchilar 6 yillik boshlang'ich va 3 yillik kichik o'rta maktab kursini o'taydilar. 9 yillik boshlang'ich va kichik o'rta maktab majburiy bo'lib, barcha bolalar bepul o'qitiladi va tekin darsliklar bilan ta'minlanadi.

O'rta maktabda yuqoridagi fanlarga qo'shimcha ravishda yana ingliz tili va bir qancha maxsus fanlar qo'shiladi. Ushbu fanlarning soni maktablarga qarab turlicha bo'ladi. Dars 50 daqiqa davom etadi. Bir kunda 6 tagacha darslar bo'ladi. Maktab formasi majburiy hisoblanadi. O'quvchilardan 2 ming ieroglifni bilish talab qilinadi.

Boshqa joylardagidan farqli o'laroq, Yaponiya maktablarida o'qish 1-apreldan boshlanib, kelasi yilning 31 martida nihoyasiga etadi.

Boshlang'ich va kichik o'rta maktablarda o'quv yili uch semestrga bo'linadi: aprel-iyul, sentabr-dekabr, yanvar-mart. Katta o'rta maktablarda esa o'quv yili 2 yoki 3 semestrga bo'linadi.

Ta'tillar yozda, qishda (yangi yildan oldin va imtihonlardan keyin) va bahorda bo'ladi. Yozgi ta'tillarning boshlanishi va tugashi munisipalitetlardagi vaziyat, ya'ni yuzaga kelgan holatlarga va o'quv yurtlari xususiyatlariga qarab belgilanadi.

Ko'pchilik boshlang'ich va kichik o'rta maktablarda ta'tillar iyun oyi oxirida boshlanib, avgust oylarida tugaydi. Qishloqlarda esa qishloq xo'jalik ishlarini bajarishdagi dolzarb holatlardan kelib chiqib, bahor va kuzgi ta'tillar yozgi ta'tillar hisobidan uzaytiriladi.

O'quv yili Yaponiyada 240 kun yoki Amerika Qo'shma Shtatlaridan 60 kun ko'pdir. Darslar 7 soat. Ko'pchilik maktablarda darslar ertalab soat sakkiz yarimda boshlanib, uchdan keyin tugaydi.

O'quvchilar haftasiga 2-3 soat sinfdan tashqari klub ishlarida, 7 soat ixtisos bo'yicha mashg'ulotlarda yoki repititorlar ixtiyorida bo'ladilar.

Yuqori bosqich o'rta maktablarida butun o'quv jarayonida o'quvchilar 80 ta sinov topshirishadi. O'quvchilar majburiy asosiy fanlardan tashqari o'z xohishlariga ko'ra ingliz tili, texnik ta'lim va maxsus fanlardan sinovlarga jalb etiladilar.

Yapon maktablari elektron hisoblash mashinalari va boshqa o'quv texnika vositalari bilan to'la ta'minlanganligiga qaramay, mutaxassislarining fikricha, asosiy e'tibor o'qituvchi faoliyati va darslikka qaratilmog'i kerak. Ularning fikricha, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi jonli muloqot o'rnini har qancha, takomillashgan mashina ham bosa olmaydi.

Deyarli barcha darsliklar xususiy bosmaxonalarda chop etiladi. Ularni chop etishga mablag'ni vazirlik ajratadi. Yuqorida qayd etilganidek, darsliklar boshlang'ich va quyi o'rta maktablarda bepul, yuqori o'rta maktablarda esa pullidir. Darsliklar narxi shundayki, ularni xarid qilishga hammaning imkoniyati bor. Foydalanilgan darsliklar pullik bo'lsa ham, tekin bo'lsa ham o'quvchining o'zida qoldiriladi.

Oliy maktab. (Yoki yuqori o'rta maktab (Kotogakko)) (10-12 sinflar, 15-18 yosh). O'qish muddati – 3 yil. O'qish pullik.

Yuqori maktabda fanlar birmuncha boshqacharoq taqsimlangan. O'quvchilarga oliy maktabda ko'proq maxsus ixtisoslashgan fanlar o'qitiladi. Maktab formasi majburiy hisoblanadi

Yaponiyada bunday bosqich maktablarining kunduzgi, kechki va sirtqi bo'limlari mavjud. Kunduzgi yuqori bosqich maktablarida o'qish muddati 3 yil. O'quvchilarning 95 foizi kunduzgi maktablarda ta'lim oladilar. Bu turdagi maktablarda o'qish ixtiyoriydir. Unda quyi o'rta maktablarni bitirgan, yuqori bosqich o'rta maktablariga kirish sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tgan 16 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan o'quvchi yoshlar qabul qilinadilar. Unda umumiy ta'lim (akademik) fanlari, texnik bilimlar, tijorat, mahalliy sanoat, qishloq xo'jaligi, chorvachilik, baliqchilik, kemasozlik va boshqa sohalarga oid bilimlar o'rgatiladi. Bunday turdagi o'rta maktablarda umumiy va xususiy tarmoqlarni qo'shib hisoblaganda 98 foiz yosh bilim oladi.

Dzyuku, ya'ni “Mahorat maktabi”.

Dzyukular, qo'shimcha maktab bo'lib, ular bolalarni mavzuni o'zlashtirishlariga ko'maklashadi.

Ushbu maktablarni “repetitorlik maktabi” deyish ham mumkin. U yerda maxsus yollangan o'qituvchilar bolalarga maktabda tushuntirilgan mavzuni yanada chuqurroq o'rgatishadi. Ilk bora ushbu maktablar Tokioda XVII asrda paydo bo'lgan. Maktabda 10 ga yaqin bolalar tahsil olgan. Bir necha yillar avval u yerda faqatgina universitetlarga kirish uchun o'qitilardi, endilikda esa u yerga hatto bir qator kollejlarga kirish uchun o'qishga kelishmoqda.

Dorilfununlar, kichik kollejlarda, texnik kollejlarda, maxsus ixtisoslashtirilgan kollejlarda Yaponiyada oliy ta'lim tizimini tashkil etadi.

Bu mamlakatda boshlang'ich, o'rta va oliy o'quv yurtlaridan tashqari, bir-biridan farq qiluvchi “Ixtisos maktablari” va “turli” maktablar mavjud. Ularning ko'pchiligi xususiy bo'lib, turli firma, konsern va sindikatlar uchun qisqa vaqtli kurslarda bichuvchi, tikuvchi, to'quvchi, oshpaz, hisobchi, avtotexnik, elektron hisoblash mashinkalari uchun dastur tuzuvchi va boshqa zaruriy kasblar o'rgatiladi. Maktablarning ayrimlari chet tillarini o'rgatish bo'yicha ixtisoslashtirilgan.

1976 yildan-e'tiboran vazirlikning aniq talablarini bajarayotgan “turli maktablar” ixtisoslashtirilgan maktablarga aylantirildi.

Yaponiyada o'qituvchi kadrlar tayyorlash sifatiga juda katta talablar qo'yiladi. Bu talablar shundayki, mazkur kasbga iqtidorsiz va yo'nalishi to'g'ri kelmaydigan tasodifiy kishilarning kirib qolishi amalda mumkin emas.

O'qituvchilar 4 yillik dorilfununlarda va 2 yillik kollejlarda tayyorlanadi. Bu o'quv yurtlarining bitiruvchilariga birinchi va ikkinchi darajali guvohnomalar beriladi.

Maktab direktori bo'lish uchun 1-darajali guvohnomaga ega bo'lish shart.

Yapon o'qituvchilarining jamiyatda tutgan obro'-e'tibori katta. Binobarin, ularning maoshlari ham yuqori, 74 foiz o'qituvchi jamoa va kasaba assotsiatsiyasiga a'zo. Bu ularga ta'lim mazmunini va uslubini muvofiqlashtirish qila olish imkoniyatini beradi. O'qituvchilarning ilk maoshi dorilfununni tugallagan mutaxassislar maoshi bilan teng.

Ular o'z kasb mahoratlarini takomillashtirish ustida, tinimsiz izlanishlar olib boradilar, ishga tushishdan oldin 7-10 kun kunduzgi tayyorlov kurslaridan o'tadilar. Yapon o'qituvchilari har 5 yilda malaka oshirish kurslarida o'qib

qaytadilar. Malaka oshirish o'qituvchilarning o'zlari uchun katta ehtiyojdir. Chunki Yaponiya maktablari dasturi 10 yilda davr taqozosiga ko'ra o'zgaradi. Dasturlardagi yillik o'zgarishlar esa anjumanlar o'tkazish yo'li bilan o'qituvchilarga etkazib boriladi.

O'qituvchilar o'zlariga ishonib topshirilgan 35-40 o'quvchining bilimi va tarbiyasi uchun javobgardirlar. Shu bois ular darsdan bo'sh vaqtlarini o'quvchilar, ularning ota - onalari bilan suhbatlarga, xonadonlarga tashrif ishlariga bag'ishlaydilar.

Yaponiyada oilaviy byudjetning katta qismi bolalarning sara maktablarda puxta bilim olishlarini ta'minlashga, universitetlarga kirib bilim olishlariga sarflanadi. Oilada bola yaxshi bilim olishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratib beriladi. Imtihon paytlarida esa bolalar uy yumushlaridan ozod etiladilar. Ota - onalar maktab hayotining barcha sohalarida faol ishtirok etadilar, o'z farzandlariga barcha sohada o'rnak-namunadirlar. Ular bolalari o'qishida yordam berish uchun juda ko'p o'qiydilar, maktab o'quv dasturini mukammal o'rganib oladilar.

Bolalar tarbiyasida onalarning roli va mas'uliyati ayniqsa katta. Ular farzandlarining oqil, dono, muloyim, odil va mehnatsevar bo'lib o'sishlari uchun oila sulolasi va davlat oldida o'zlarini mas'ul deb hisoblaydi. Yaponiyada oilaviy tarbiya xususida ko'plab metodik qo'llanmalar va tavsiyanomalar nashr etiladi, radio va televidenie orqali ko'plab pedagogik maslahatlar berib boriladi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun ota - onalar oyiga o'rtacha 2-3 kitob sotib olishadi. Shu yoshdagi bolalar uchun oyiga 40 ta jurnal nashr etiladi, ota - onalarning mutloq ko'pchiligi bu jurnallarga obuna bo'lishadi. Bola maktabga borgunga qadar o'qishni, yozishni, oddiy hisoblash ko'nikmalarini egallashi zarur.

Yaponiya oilalaridagi uy partalari diqqatga sazovordir. U mukammal, yon tomonidan muhofazalangan qurilma bo'lib parta ustida kitob javoni, yoritgich, soat, qalam qog'oz mikrokalkulyator va boshqa zaruriy ashyolar, shuningdek, kerak bo'lib qolgan taqdirda ota - onasini chaqiradigan signal tugmachalarigacha o'rnatilgan.

Turli ta'limiy ko'nikmalarni bolalar ongiga singdirish yapon maktablariga xos fazilatdir. Masalan, 2-sinf o'quvchisi ko'pchilik oldida nutq so'zlash qobiliyatiga ega bo'lishi, 6-sinf o'quvchisi kamida 2 ta cholg'u asbobida kuy chala bilishi, boshlang'ich sinf o'quvchisi suvda bemalol suza olishi kerak. Mana shulardan yapon muallimi o'z kasbiga qo'shimcha ravishda yana nimalarni o'rganishi lozimligini bilish qiyin emas. O'qituvchi qo'shiq aytishi, cholg'u asboblarida kuy chala olishi, notiqlik san'atini bilishi, yaxshi sportchi bo'lishi kerak...

Yaponiyaliklar to'g'ri va halol turmush tarzini qadrlaydilar. 1-sinf dan to 9-sinf gacha axloq tarbiyasi maktab faoliyatining zaruriy shartidir. O'qituvchi o'z o'quvchilari bilan doimo birga bo'ladi.

Yapon bolalari tashkilotchilik ishlariga ham maxsus o'rgatiladilar. Bolalarning o'zlari ekskursiyalar uyushtiradilar, majlislar tayyorlaydilar va o'tkazadilar. Bolalar xulq-atvoridagi barqarorlik Yaponiyada bebaho boylik hisoblanadi. Bolalarning o'zlari o'qish va o'zlashtirishni, o'z-o'zini tarbiyalashni muhokama qiladilar.

Axloq normalari aniq ishlab chiqilib, uni ro'yobga chiqarish uchun darslarning ma'lum bir qismi ajratiladi. Axloqiy jihatdan aybdor bola uchun eng oliy jazo o'qituvchining o'quvchidan ixlosi qaytishi bo'lib, bu ixlosni qaytadan barpo qilish uchun o'quvchi va uning ota - onasi ancha-muncha ishlashi kerak.

Yapon o'qituvchisi o'quvchining eng yaqin maslakdoshi, maslahatgo'yi, murabbiysidir. O'qituvchi o'z o'quvchisi bilan hatto ta'lim paytlarida ham aloqasini uzmaydi. Ta'lim tizimini sinchiklab o'rgangan kishi AQSH, Fransiya, Germaniya ta'lim tizimlaridagi barcha yaxshi va ibratli jihatlarni yaponlar ijodiy o'zlashtirganliklariga guvoh bo'ladi. Shuning uchun bo'lsa kerak, Yaponiya o'rta maktablarining saviyasi AQSH o'rta maktablari saviyasidan birmuncha yuqori turadi. Shuningdek, Yaponiya maktablarida farroshlar yo'q. Darslar tugaganidan so'ng maktab o'quvchilari o'zlari maktabni va uning atroflarini tozalashadi.

O'rta maxsus va hunar-texnika ta'limi tizimiga kiruvchi bilim maskanlari Yaponiyada garchi oliy ta'lim tizimiga - kiritiladi. Ular asosan kichik kollej, texnik kollej, maxsus tayyorgarlik kollejlari bo'linadi.

Kollejlarda tahsil olish 2 yilni tashkil etadi. Kichik kollejlarda ham maqomiga ko'ra o'ziga xos dorilfunundir. Ularda kasbga yo'naltirish jarayoni juda chuqur va puxta. O'qish muddati 2-3 yil, bitirgach, "bakalavr" nomi berilmaydi.

Texnik kollejlarda 5 yil o'qitiladi, unga kichik o'rta maktabni bitirganlar qabul qilinadilar. Bunday kollejlarda yoshlarga o'rta texnik ta'limni beradi. Bu bilim maskanida katta maktab dasturi asosida mexanika, elektronika, kimyo, texnologiya, qurilish, metallurgiya kabi maxsus texnik fanlar o'qitiladi. Kollejni bitirgan o'quvchilar dorilfununning 2-yoki 3-kursiga kirib o'qishlari mumkin.

Maxsus tayyorgarlik kolleji. U faqat yuqori malakali mutaxassis tayyorlabgina qolmay, balki talabalarning madaniy saviyasini o'stirishni ta'minlaydi. O'qish muddati 1 yil, kurs 800 soatdan iborat.

Universitetlar

Bakalavriatura 4 yil hamda magistratura 2 yildan iborat bo'lsa, doktorantura 5 yilni o'z ichiga oladi. Bakalavr - Gakushi. Магистр - Shushi. Yaponiya oliy o'quv yurtlari dunyoda yagona bo'lgan "kenkyusey", ya'ni "talaba-tadqiqotchi" institutiga ega.

Tokio universiteti

Universitetga 1877 yil asos solingan. Ushbu universitet Yaponiyada eng mashhur oliy ta'lim muassasalaridan biri hisoblanadi. "World University Rankings" reytingiga ko'ra, 2010 yilda Tokio universiteti Osiyoda 5-o'rinni egallagan, dunyoda esa kuchli 20 talikka kirgan universitet hisoblanadi. Universitetda 10 ta fakultet bo'lib, ularda taxminan 30 mingga yaqin talaba tahsil oladi. Shulardan 2000 tasi o'zga mamlakat talabalari sanaladi. Universitetning 6 nafar bitiruvchisi Nobel mukofotini qo'lga kiritgan. Ular orasida mashhur yozuvchi Yasunari Kavaabata ham bor.

Nagoya davlat universiteti

Nagoyada 21 ta universitet joylashgan. Ulardan eng mashhuri Nagoya davlat universiteti sanaladi. Universitetning tarixi 1871 yillarga borib taqaladi. O'sha vaqtlarda u vaqtinchalik tibbiyot maktabi bo'lgan. 1939 yilga kelib Nagoya imperatorlik universiteti deb atala boshlandi. 1947 yilda Nagoya universiteti deb

qayta nomlanadi. 2004 yilda milliy universitetlar qatoriga kiradi va Nagoya davlat universiteti maqomini oladi. Universitetda xitoylik talabalar 47%ni, koreyaliklar 9,5%ni tashkil etadi. 30 ga yaqin talaba Tayvan, Indoneziya, Malayziya, Kambodja va O'zbekistondan kelib tahsil oladi. Universitetni bitirganlar orasida 4 ta nobel mukofoti laureatlari mavjud. Bular:

- Ryodzi Noyori (kimyo, 2001 yil),
- Makoto Kobayasi (fizika, 2008 yil),
- Tosixide Maskava (fizika, 2008 yil),
- Osamu Simomura (kimyo, 2008 yil).

Nagoya davlat universitetida 9 ta fakultet bo'lib ular:

1. Huquqshunoslik
2. Tibbiyot
3. Qurilish
4. Adabiyotshunoslik
5. Ilmiy
6. Qishloq xo'jaligi
7. Iqtisodiy
8. Ta'lim
9. Madaniy axborot

Universitet sayti: <http://www.nagoya-u.ac.jp>

Yaponiyada pedagogika universiteti mavjud emas. Bu erda "o'qituvchilik"ka o'qitishmaydi. Oliy ma'lumotga ega barcha fuqaro nisbatan murakkab bo'lgan imtihondan o'tib, o'qituvchilik kasbi bilan shug'ullanish huquqini beruvchi lisenziya oladi va bimalol faoliyat yuritaveradi. Har 10 yilda esa o'z kasbi yuzasidan kurslardan o'tishi talab etiladi. Shunga qarab uning lisenziyasi yana uzaytiriladi.

Biroq, Yevropa ilmi baribir ham har qanday to'siqlarga qaramay kirib keldi. Nagasaki Dedzima qirg'og'ida joylashgan Golland savdo faktoriyasi "rangaku" (golland ilm-fani) nomi bilan mashhur ma'lumot manbaiga aylandi.

Golland ilmining asosiy sohalari:

- Geografiya
- Tibbiyot
- Astronomiya
- San'at
- Chet tili
- Elektron mexanika kabilar.

Olingan bilimlar natijasida XVIII asrda vadokeylar yaratildi. Izolyatsiolangan siyosatning susayishi yevropa ilmining kirib kelishini ta'minladi. Va turli sohalarda, mikroskoplar, teleskoplar, mexanik soatlar va boshqa ixtirolar yaratildi. Ko'p asrlik qadriyatlar ikkinchi o'ringa o'tdi.

5.2. Koreya va Xitoyda ta'lim-tarbiya jarayoni xususiyatlari

Koreya Xalq Demokratik Respublikasi.

Poytaxti – Seul shahri. Hududi: 99 392 km², dunyo bo'yicha 107-o'rinda turadi. Aholisi – 50mln. (dunyo bo'yicha 25-o'rinda). Hukumat shakli: Prezident Respublika. Prezidenti: Li Myon Bak. Milliy tili – Koreys tili. Pul birligi – Von. Shiori “Insoniyatga foyda keltirish”

Ma'lumki Koreya 1910 yildan to 1945 - yilgacha yapon mustamlakasi hisoblangan. Koreyani yoppasiga savodsizga aylantirish siyosati natijasi o'laroq, 1944 yilgi Koreya Umumiy Arxiv qo'mitasi ma'lumotlariga qaraganda o'sha paytda Koreyaning savodxonlik darajasi bor-yo'g'i 13,8%ni tashkil etgan. 1945 yili Ikkinchi Jahon urushi bilan birga Koreyadagi Yaponiya mustamlakachiligi ham tugadi. Endilikda, Koreada tabiiyki boshqa sohalar qatori ta'lim tizimini o'zgartirish vazifasi turardi. Eng avvalo, "Ta'limni rivojlantirish qo'mitasi" tashkil etildi va qo'mita oldiga darsliklar yaratish majburiyati qo'yildi. Ta'lim tizimi tadqiq etilishi davom ettirilib, axloq, etika, texnikaga oid fanlar kiritildi. 1963 yildan boshlab esa, ta'lim tizimida tabiiy va ijtimoiy fanlarga e'tibor kuchaydi. 1981 yili Prezident Chon Du Xvan mamlakatda shaxsiy ta'lim berish va xususiy ta'lim maskanlari faoliyatini qonunan ta'qiqlab qo'ydi. Ammo maktabda mustaqil shug'ullanish uchun imkoniyat yaratib berdi. 1992 yilga kelib esa, boshlang'ich maktablar faoliyati yanada rivojlanishi uchun hukumat tomonidan bir qancha imtiyozlar berildi. Koreya ta'lim tizimining umumiy tuzulishi (2- chizma):

<i>Bosqichlar</i>	<i>Ta'limning davomiyligi</i>	<i>Majburiyligi</i>
<i>Boshlang'ich maktab</i>	<i>6 yil</i>	<i>Ha</i>
<i>O'rta maktab</i>	<i>3 yil</i>	<i>Ha</i>
<i>Yuqori maktab</i>	<i>3 yil</i>	<i>Yo'q</i>
<i>Kollej</i>	<i>2 yil</i>	<i>Yo'q</i>
<i>Universitet</i>	<i>4 yil</i>	<i>Yo'q</i>

1- jadval. Koreya ta'lim tizimining umumiy tuzulishi.

Koreyaning zamonaviy ta'lim tizimi rasman Yaponiya mustamlakasidan ozod bo'lgan 1945 – yildan boshlangan. Ammo kengroq qaraydigan bo'lsak, koreyslarda ta'lim tizimi 1894 yilgi islohotlardan keyin yuzaga kelgan' deyish mumkin. 1881 yili Koreyadagi Choson hukumati mamlakat xavfsizligini kuchaytirish maqsadida maxsus armiya tuzadi va g'arbliklar harbiy san'atdan dars bera boshlaydilar.

Bu o'z navbatida chet tili va boshqa fanlar ta'limini yuzaga kelishini ta'minladi. Garchi 1882 – yili maxsus qo'shin uchun darslar to'xtab qolgan bo'lsa–da, bir qancha amaliy fanlar darsi davom etaverdi. Bu davrda asta – sekinlik bilan Gvangxevon, Bejexakdan, Ixvaxakdan kabi shaxsiy ta'lim muassasalari ham vujudga kela boshladi va keyinchalik universitetlar uchun asos bo'lib xizmat qildi. 1894 – yili shaxsiy bilim maskanlari birlashtirilib, mamlakat ta'lim tizimini boshqaruvhchi institut tashkil etildi. Shu bilan birga 1895 – yildan boshlang'ich maktablar va maktab uchun kadrlar tayyorlaydigan pedagogika maktablari tuzildi. Bundan tashqari bir qancha xususiy maktablar ochilib, 1900 – yilda ular

faoliyatini tartibga solib turadiagn “Xususiy maktablar to’g’risidagi qonun” qabul qilindi. 1910 – yili Koreya va Yaponiya o’rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq Koreya Yaponiyaning rasman mustamlakasiga aylantirildi. Natijada bu mamlakat ta’lim tizimiga ham katta ta’sir ko’rsatdi. Yapon mustamlakachilari Koreyaning ta’lim tizimini keskin o’zgartirish yo’lidan bordi va xususiy maktablar faoliyati cheklab qo’yildi. Bu davrda 1911 – yil 23 – avgustda qabul qilingan “1 – Choson ta’lim buyrug’i” amal qildi.

Unga ko’ra, koreys va yapon fuqarolarining farqli ta’lim siyosati olib borildi. Ya’ni mahalliy xalq faqat 4 yil mobaynida boshlang’ich ta’lim olar, o’rta va oliy ta’lim berilmas edi. Bu yapon mustamlakachiligining uzoq o’ylangan rejalari qatoriga kirardi. Ammo 1919 – yili boshlangan norozilik harakatlari oqibatida Yaponiya hukumati biroz yon berishga majbur bo’ldi va buyruqqa o’zgartirish kiritib, boshlang’ich ta’lim 4 yildan 6 yilga uzaytirildi. 1922 – yil 4 – fevralda “2 – Choson ta’im buyrug’i” qabul qilindi. Bu buyruqqa ko’ra, ta’lim muddatlari uzaytirildi. Ya’ni, oddiy maktablarda ta’lim 6 yil, ayollar maktablarida esa 5 yil etib belgilandi. Shuningdek, asta – sekinlik bilan universitetlar ham paydo bo’la boshladi. Jumladan, 1924 – yili Kyongson Davlat Universiteti ochildi. Shu yili Xitoy – Yaponiya urushi boshlanishi munosabati bilan mustamlaka Koreyada nazorat yanada kuchaytirildi.

Oddiy maktablar va boshlang’ich maktablar, yuqori va o’rta maktablar birlashtirildi. Koreys tili fanlari kamaytirilib, imperiya xalq demokratiyasi fani kiritildi. 1943 – yil 3 – avgustda “4 –Choson ta’lim buyrug’i imzolandi va yapon mustamlakachiligining ta’lim sohasidagi zo’ravonligi kuchaydi. Jumladan, o’rta va yuqori maktablarda ta’lim 4 yilgacha kamaytirilib, koreys tili fani dasturdan olib tashlandi. Uning o’rniga yapon tili darslari kiritildi. Koreyani yoppasiga savodsizga aylantirish siyosati natijasi o’laroq, 1944 – yilgi Koreya Umumiy Arxiv qo’mitasi ma’lumotlariga qaraganda o’sha paytda Koreyaning savodxonlik darajasi bor – yog’i 13,8%ni tashkil etgan. 1945 – yili Ikkinchi Jahon urushi bilan birga Koreyadagi Yaponiya mustamlakachiligi ham tugadi. Endilikda Koreyada tabiiyki boshqa sohalar qatori ta’lim tizimini o’zgartirish vazifasi turardi. Eng avvalo “Ta’limni rivojlantirish qo’mitasi” tashkil etildi va qo’mita oldiga darsliklar yaratish majburiyati qo’yildi. Ta’lim tizimi tadbiq etilishi davom ettirilib, axloq, etika, texnikaga oid fanlar kiritildi. 1963 – yillardan boshlab esa ta’lim tizimida tabiiy va ijtimoiy fanlarga e’tibor kuchaydi. 1981 – yili Prezident Chon Du Xvan mamlakatda shaxsiy ta’lim berish va xususiy ta’lim maskanlari faoliyatini qonunan ta’qiqlab qo’ydi. Lekin maktabda mustaqil shug’ullanish uchun imkoniyatlar yaratib berdi. 1992 – yilga kelib esa boshlang’ich maktablar faoliyati yanada rivojlanishi uchun hukumat tomonidan bir qancha imtiyozlar yaratildi.

Maktabgacha ta’lim muassasasi

Koreys bog’chalari ta’lim tizimining bir qismi hisoblanmaydi. Bolalar xususiy muassasalarda qabul qilinadi. Ular asosan koreys tilida faoliyat yuritadi. Biroq, ingliz tilida faoliyat yuritadigan bog’chalar ham anchagina. Bog’chalarga bolalar 3 yoshdan 5 yoshgacha qabul qilinadi. Ko’pchilik bolalar maktabga tayyorgarlik ko’rishmaydi va shunchaki o’z tengqurlari bilan bog’chalarga qatnab yuraverishadi. Bog’chaning asosiy vazifasi bolalarni har tomonlama rivojlanishi

uchun sharoit yaratish. Bog'chalarda asosan musiqa, rasm, hisoblash darslari o'tiladi. Koreys bog'chalari bolalarda mustaqillikni shakllantirishga katta e'tibor qaratadi. Bolalar yoshi orasidagi farq 3 yoshgacha bo'lishi mumkin.

Boshlang'ich maktab «чходын хаккё» (kor. 초등학교, 初等學校)

Zamonaviy Koreya ta'lim tizimida boshlang'ich maktablarning roli muhim. Koreyada boshlang'ich ta'lim uchun o'quv yilida 1 – martga qadar 6 yoshdan yuqori bo'lgan bolalar qabul qilinadi. Lekin 5 yoshli bolalar ham o'qishga kirishga huquqli bo'lib, buning uchun maktab ma'sul shaxsining ruxsatnomasini olishi lozim bo'ladi. O'quv yili esa 1 – mart Koreya Respublikasida davlat bayrami munosabati bilan 2 – martdan boshlandi. 6 yil davom etadigan boshlang'ich ta'lim majburiy etib belgilangan. Boshlang'ich ta'im 1 yil ikki semestrda bo'lingan holda olib boriladi. Boshlang'ich ta'limda o'qitiladigan fanlar qatoriga: Koreys tili, matematika, aniq fanlar, jamiyat haqidagi fanlar, chet tili, tasviriy san'at, musiqa kiradi.

O'rta ta'lim «чунхакё» (중학교, 中學校)

Boshlang'ich ta'limdan keyingi “zinapoya” vazifasini o'rta ta'lim bajaradi. O'rta ta'lim Koreya Respublikasida 3 yil davom etadi. O'rta ta'lim ham majburiy bo'lib, bir o'quv yili 1 – martdan keyingi yil mart oyiga qadar davom etadi. Darslar 45 daqiqadan etib belgilangan bo'lib, bir yilda 1222 soatni tashkil etadi. O'rta ta'lim maktablarida davlat tili, axloq, ijtimoiy fan, matematika, jismoniy tarbiya, musiqa, san'at, chet tili kabi 10 ga yaqin fanlar o'qitiladi. Shuningdek, o'rta maktabda o'quvchi uchun tanlov fanlar mavjud. Bular qatoriga axborot, chet tili (ko'pincha nemis, fransuz, ispan, xitoy, yapon, rus, arab tillari) kabilar kiritish mumkin. O'rta maktabda o'quvchilar qattiq nazorat qilinadi o'quvchilarning formasi, soch turmagi va maktabdan tashqari faoliyatlari ham nazorat qilinadi. Boshlang'ich maktabdagi kabi o'rta maktabda ham o'quvchilar asosan bir sinfda o'tirishadi, ammo fanlar turli o'qituvchilar tomonidan olib boriladi. O'quvchilar har kuni 6 ta o'quv predmeti bo'yicha dars o'tishadi.

Yuqori maktab «кодыхаккё» (고등학교, 高等學校).

Yuqori maktablar bir necha turlarga bo'linadi:

- davlat yuqori maktablari;
- umumiy yuqori maktablar;
- xususiy yuqori maktablar.

Yuqori maktabning 1- kursiga o'quvchilar 17 yoshdan qabul qilinib 19 yoshgacha tahsil oladilar. Davlat yuqori maktablari (Koreya Ta'lim va Texnika fanlari vazirligi, Madaniyat, Jismoniy tarbiya va sayyohlik vazirligi boshqaradi). Umumiy yuqori maktablar (har bir viloyatdagi yuqori tashkilotlar tomonidan boshqariladi). Xususiy yuqori maktablar. Shuningdek, yuqori maktablar o'qitish fanlariga ko'ra ham bir qancha turlarga bo'linadi: umumiy maktablar, ixtisoslashtirilgan maktablar (qishloq xo'jaligi, sanoat, dengiz xo'jaligi, axborot), maxsus maktablar (litsey shaklidagi maktab), texnika maktablari, chet tili maktabi, jismoniy tarbiya maktabi, san'at maktablari. Koreya Respublikasida Ta'lim vazirligi maxsus tashkil etgan yuqori maktablar ham bor. Bular asosan qishloq

xo'jaligi, baliqchilik, sanoat, xalqaro tillarga ixtisoslashgan bo'ladi. Yuqori maktabda o'qish ixtiyoriy.

Oliy ta'limga kiruvchi ta'lim muassasalariga kollejlari – ular kasbiy ma'lumot berishga mo'ljallangan. Universitetlar – bunday ta'lim muassasalari oliy ma'lumot berishga mo'ljallangan.

Koreyaning eng mashhur universitetlari: Seul Milliy Universiteti, Koreya Advanced Institute of Science and Technology, Pusan Milliy Universiteti. Shuningdek, xususiy universitetlardan: Koreys Universiteti, Pohang University of Science and Technology, Yonsei University, Sogang University, Hanyang University, Sungkyunkwan University, Ewha Womans University.

Janubiy Koreya Osiyoda meditsina jihatidan eng rivojlangan mamlakat hisoblanadi. Janubiy Korreya fuqarosi bir vaqtning o'zida Shimoliy Korreya fuqarosi ham hisoblanadi. Dunyodagi eng mehnatkash xalq bu – koreyslar hisoblanadi. Undan keyin greklar, cheklar, vengerlar, polyak. Janubiy Koreyaning bir yilik harbiy xarajatlari (2008-yil) 28.940.000.000 \$ ni tashkil qiladi. Janubiy Korreya internet foydalanuvchilari eng ko'p bo'lgan dunyoning kuchli 10 taligiga kiradi. Korreya dunyodagi eng xavfsiz mamlakat. Korreyada jinoiy ishlar Germaniyaga qaraganda 8 marta kam, odam o'ldirish Rossiyaga qaraganda 15 marta, o'g'rilik AQShga qaraganda 20 marta kamdir. Bu yerda narkomaniya deyarli yo'q. Korreyadagi ko'p qavatli uylar liftida "4" raqami yo'q. Chunki 4 – "CA" va o'lim-"ca" bir hil yoziladi. Shuning uchun 4 soni o'rniga "F" belgisi yoziladi. Korreyada sut mahsulotlari defitsit, uni har doim ham uchratib bo'lmaydi. Koreys odatlariga ko'ra chap tomon hosiyatli sanaladi. 90% koreyslar ko'zoynak va kontakt linzalardan foydalanishadi. Koreyada bepul ishlaydigan internetni istalgan binodan, hatto avtobuslardan ham olish mumkin.

Xitoy ta'lim tizimi

Xitoy Xalq Respublikasi – dunyoning eng katta davlatlaridan biri bo'lib, uning hududi 9,6 mln kv.km ga teng. Poytaxti: Pekin. Xitoy aholisi qariyb 1,5 mld.kishiga teng. Aholining 90% dan oshig'ini – xitoyliklar (xan), qolgan qismini boshqa millat vakillari chjuanlar, uyg'urlar, mongollar, tibetliklar, xueylar, myaolar va b.tashkil etadi.

Xitoy Sharqiy Osiyo davlati. Shimolda Mongoliya va Rossiya bilan, shimoliy-sharqda Rossiya va Koreya bilan, janubda – Vetnam, Birma, Laos, Hindiston, Butan va Nepal bilan, g'arbda – Pokiston, Afg'oniston va Tojikiston bilan, shimoliy-g'arbda – Qirg'iziston va Qozog'iston bilan chegaradosh. Sharqda Sariq dengizi, janubda Janubiy Xitoy dengizi bor. 3400 dan ortiq orolchalar mavjud. Umumiy maydoni 9,6 mln. kv. km. Vaqti: Toshkent vaqtidan 3 soat oldin.

Yirik shaharlari: Shanxay (14,6 mln. kishi), Pekin (12,4 mln. kishi), Tyanzin (9,5 mln. kishi) va boshqalar.

Bayram va dam olish kunlari: 1 yanvar (Yangi yil), yanvar-fevral (Xitoy kalendari bo'yicha yangi yil, Bahor bayrami), 8 mart (Xalqaro xotin-qizlar bayrami), 12 mart (Ko'chat ekish kuni), 1 may (Xalqaro mehnatkashlar birdamligi

kuni), 4 may (Xitoy yoshlari kuni), 1 iyun (Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni), 1 avgust (Xitoy milliy ozodlik armiyasi kuni), 10 sentabr (O'qituvchilar kuni), 1 oktabr (XXR ta'limi milliy bayrami).

Xitoy ta'lim tizimi o'ziga maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim, to'liqsiz o'rta ta'lim, o'rta ta'lim, universitet, aspirantura bosqichlarini qamrab olgan. Xitoy Xalq Respublikasining "Majburiy ta'lim" to'g'risidagi qonuniga muvofiq, 9-yillik ta'lim davlat tomonidan majburiydir.

Xitoy boshlang'ich maktablarida 140 mln.ga yaqin bolalarni o'qishi yo'lga qo'yilgan. Har yili boshlang'ich maktablariga 6 yoshli bolalarning 98.8%i qabul qilinadi. O'rta maktablarda 60 mln. o'quvchi o'qiydi, oliy ta'lim muassasalarida esa talabalar soni 3 mln. dan ortiqni tashkil etadi.

O'quv yili 1 sentabrdan boshlanib, iyul oyining boshlarida yakunlanadi. Ta'limda talabalar bilimni baholash uchun *kredit* tizimi amal qiladi. O'quv jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalari va innovatsion pedagogik texnologiyalar tatbiq qilingan.

Xitoy ta'lim tizimi quyidagi bosqichlardan iborat:

- maktabgacha ta'lim;
- boshlang'ich ta'lim;
- to'liqsiz o'rta ta'lim;
- to'liq o'rta ta'lim(kasbiy va maxsus ta'lim);
- universitet,
- aspirantura.

Maktabgacha ta'lim.

Bolalar bog'chasi. Bolalar 3 yoshdan 6 yoshgacha bog'chaga boradilar. Hozirgi kunda Xitoyda 150 mingga yaqin bog'chalar faoliyat olib bormoqda. Ular davlat tasarrufidagi va xususiy bog'chalarga bo'linadi.

Boshlang'ich ta'lim. Xitoyda bolalar 6 yoshdan maktabga boradi va boshlang'ich ta'limda 6 yil o'qiydi. Asosiy o'qitiladigan fanlar:

- xitoy tili,
- matematika,
- tabiiy fanlar,
- chet tillar,
- ma'naviy tarbiya,
- musiqa,
- jismoniy tarbiya va b.

O'rta ta'lim: O'rta ta'lim 3 bosqichdan iborat. Birinchi bosqichda ta'lim bepul bo'lib, 3 yil o'qitiladi. O'quvchilar faqat darslik va daftarlar uchun pul sarflaydilar. Birinchi bosqichda quyidagi fanlar o'rgatiladi:

- matematika,
- xitoy tili,
- chet tili,
- fizika,
- ximiya,
- axloqiy tarbiya,
- informatika va b.

2-bosqich

Ikkinchi bosqichda yana 3 yil o'qitiladi. To'liq o'rta ta'lim 12 yil davom etadi.

3-bosqich

Bu bosqich 2 yil davom etadi. Bu bosqichda kasbiy va maxsus ta'lim beriladi.

OLIY TA'LIM.

Xitoyda oliy ta'lim 3 xil ko'rinishga ega:

- maxsus o'quv dasturlardan iborat kurslar (o'qish muddati 2-3yil);
- bakalavriatura (4-5 yil);
- magistratura (2-3);

OO'Yuni bitirgach, 3 ta ta'lim darajasi beriladi:

- bakalavr,
- magistr,
- doktor.

Xitoy universitetlari: Iqtisodiyot va Xalqaro Savdo Xitoy Universiteti, Pekin Politehnika Universiteti, Pekin Universiteti, Pekin Neft Universiteti, Pekinning tillar va madaniyat Universiteti, Poytaxt Pedagogika Universiteti, Sinxua Universiteti, Dalian Chet tillar Universiteti, Lyaonin Pedagogika Universiteti, Chuntsin Universiteti, Sian Transport Universiteti, Fudan Universiteti, Shanxay Transport Universiteti, Shanxay Chet tillar Universiteti, Tzilin Universiteti, Yanshan Universiteti, Xarbin Muhandislik Universiteti, Xebey Pedagogika Universiteti, Chjestzyanskiy universiteti, Uxan Universiteti, Xitoy Okeanologiya Universiteti, Lanchjou Universiteti, Xaynan Universiteti, Nankin Universiteti, Guandun chet tillar va tashqi savdo Universiteti, Syamin Universiteti, Nankay Universiteti, Tyantzin Universiteti, Yantay Universiteti, Xunan Pedagogika Universiteti, Yunnan Universiteti, Shandun Moliya Instituti, Pekin universiteti.

Pekin Universiteti

Hozirda Pekin Universiteti Xitoyda asosiy oliy ta'lim muassasasi hisoblanadi. Uning tarkibida 31 ta kolleg, 12 ta fakultetlar mavjud. Darslar 101 ta bakalavrlilik, 224 ta magistrlik, 202 ta doktorlik yo'nalishlari bo'yicha o'tiladi. Universitetda 216ta ilmiy tadqiqot institutlari bor. Osiyoda eng katta hisoblangan kutubxona Xitoyda joylashgan. Hozirda 46,074 talaba tahsil olmoqda. Ulardan 4000 nafari dunyoning 80 davlatidan kelgan chet ellik talabalar hisoblanadi. Pedagogik tuzilmasi 4574 teng. 2010 yil 200 kollej va universitetlarning dunyo bo'yicha reytingida 6 – o'rinni Pekin universiteti egalladi.

Shanxay Universiteti

Shanxay universiteti Xitoyning eng nufuzli, yetakchi oliy ta'lim muassasalaridan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda universitet mamlakat iqtisodiyotining turli soha va tarmoqlari uchun zarur bo'lgan, zamonaviy talablarga to'liq javob beradigan mutaxassislarni tayyorlab bermoqda. Universitetda 58 ta bakalavr dasturi, 64 ta magistr dasturi, muhandislik ilmiy darajasi uchun 7 ta mutaxassislik dasturi, axborot muhandislik, matematika, elektronika va kommunikatsiya, metallurgiya, dinamika sohalarini qamrab olgan 7 ta nomzodlik va 16 ta doktorlik dasturlari mavjud. Bundan tashqari Shanxay universiteti 2010 kishilik professor – o'qituvchilar kontingentiga ega, ulardan 337 tasi professor va 687 tasi fan

nomzodlaridir. Ushbu professorlardan 7 tasi Xitoy muhandislik akademiyasi va Xitoy fanlar akademiyasi akademiklaridir.

Bugungi kunda Shanxay universitetida 30 mingdan ziyod talaba tahsil oladi. Ushbu universitetning 72 ta ilmiy tadqiqot institutlari bilan hamkorlik aloqalari mavjud.

5.3. Singapur, Hindiston va Pokiston ta'lim tizimi mazmuni

Singapur ta'lim tizimi

Rasmiy nomi – Singapur Respublikasi. Poytaxti – Singapur shahri. Geografik joylashuvi – kichkina – urbanizatsiyalashgan orolcha-shahar bo'lib, janubiy-sharqiy Osiyoda joylashgan. Maydoni - 712,4 km². Aholisi – 4,45 mln. kishi (2010-yil) bo'lib, shundan 78% - xitoyliklar; 14% - malayslar; 7% - hindular. Pul birligi – Singapur dollari. Mustaqillik kuni - 1944-yil, 9 - avgust. Prezidenti – Toni Tan.

Singapurda har bir bola 10 yil muddat davom etadigan umumiy ta'limni olish huquqiga ega. Bu ta'lim 6 yil boshlang'ich ta'lim va 4 yil o'rta ta'limni o'z ichiga qamrab oladi. Singapur ta'lim tizimida asosiy urg'u bolalarni o'qishga, hisoblashga, 2 ta tilda gapira olishga o'rgatish, bolalarda jismoniy va axloqiy tarbiyani shakllantirish, ijodiy va mustaqil fikrlashni o'stirishdir. 2 tilli siyosat har bir boladan ingliz tilini o'rganish bilan bir qatorda o'z ona tilisini ham puxta va mukammal o'rganishni talab qiladi.

Singapurdagi barcha maktablarda ta'lim 2 tilda olib boriladi. Ya'ni, ingliz tili va xitoy tili. Ta'limni ikki tilda tashkil etilishining bir necha jihatlari mavjud. Jumladan, ingliz tili – jahon tili sifatida dunyoviy ilmlarni o'rganish maqsadida qo'llanilsa, xitoy tili – aholining o'z milliy urf - odatlari, madaniyati, tarixini o'rganishda muhim hisoblanadi.

Shuningdek, Singapur – ko'p millatli xalq bo'lganligi sababli, mamlakatning gullab - yashnashi va kelajagining yaxshilanishi uchun mamlakatda yashovchi har bir fuqaroga uning tili va dinidan qat'iy nazar, bir xil yaxshi munosabatda bo'lishni talab etadi.

Ta'limning yuqori darajaga ega bo'lgan yo'nalishlari gumanitar fanlar emas, balki aniq va tabiiy fanlarda o'z aksini topadi.

Bolalarni qobiliyatiga qarab ma'lum bir guruhlariga bo'lish mobaynida ularning bilim darajasiga qarab o'quv dasturlarini tuzish prinsiplaridan foydalanishni taqozo qoladi.

Singapurdagi har bir bola dini va irqidan qat'iy nazar 6 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan davrni o'z ichiga olgan 10 yillik ta'limni olish huquqiga egadir.

Mamlakatda shuningdek, davlat o'quv muassasalari bilan bir qatorda xususiy o'quv muassasalari ham mavjud. Boshlang'ich ta'limni tamomlagandan keyin o'quvchilar Primary School Leaving examination (PSLE) imtihonlarini topshiradilar. O'rta ta'lim haqidagi Sertifikat Singapurda Singapore – Cambridge General Certificate of education o'rta maktabini tamomlagandan keyin beriladi va bu sertifikat butun jahon mamlakatlarida tan olinadi. Singapurda Oliy o'quv yurtlariga kirish uchun Universitetga kirishga mo'ljallangan maxsus kurslardan

o'tish lozim. (2-3yil). Shuningdek, ingliz tilini o'rganishga qaratilgan maxsus o'quv markazlari ham yaratilgan. Ular orasida TMC (Technology Management and communications) Education Groupni ko'rsatish mumkin.

Singapur ta'lim tizimining tuzilishi quyidagicha:

- Maktabgacha ta'lim – 3-6 yoshgacha (3 yil);
- Boshlang'ich ta'lim – 6-12 yoshgacha (6 yil) ikki bosqichli:
 - I-bosqichda o'qish muddati - 4 yil,
 - II-bosqichda o'qish muddati - 2 yil;
- O'rta ta'lim – 12- 16- yoshgacha (4 – 6 yil);
- To'liq bo'lmagan kollej ta'limi (2 yil);
- Politexnikumda (3 yil);
- Oliy ta'lim uch bosqichdan tashkil topgan:
 - Bakalavr (4 yil),
 - Magistratura (1-3 yil),
 - Doktorantura (2-5 yil).

Maktabgacha ta'lim

Yasli va bog'chalardan iborat. 3-6 yoshgacha bo'lgan bolalarni har tomonlama kamol toptirishga xizmat qiladi. Muddati – 3 yil.

Yasli – birinchi va ikkinchi yil. Bog'chada bolalar o'zaro muloqot qilish, ona tili hamda hisoblashni o'rganadilar. O'z ona tilisi yani xitoy, malay va tamil tillaridan tashqari ingliz tilida ham o'z fikrlarini erkin bayon qilish ko'nikmasiga ega bo'ladilar. Bog'cha bolalarni o'z vataniga sodiq vatanparvar qilib tarbiyalashga qaratilgan

Boshlang'ich ta'lim.

Boshlang'ich maktablar 6-12 yoshgacha bolgan bolalarga ta'lim-tarbiya berishga qaratilgan. O'qish muddati – 6 yil. Boshlang'ich ta'lim ikki bosqichdan iborat:

I-bosqichda o'qish muddati – 4 yil. Uning vazifasi bolalarda o'qish, yozish, hisoblash malakalarini shakllantirish. Estetik didini, musiqiy va badiiy qobiliyatlarini rivojlantish.

II-bosqichda bolalar 2 yil ta'lim oladilar. Barcha fanlardan dastlabki bilimlar sohibiga aylanadilar. Ta'limning bu turi hamma uchun majburiy va bepul joriy qilingan.

O'rta ta'lim.

12-16 yoshgacha bo'lgan bolalarni qamrab olgan. O'qish muddati – 4-6 yil. Ta'limning bu turi bir necha yo'nalishlarda olib boriladi:

- Maxsus
- Tezkor
- Akademik
- Texnik

Singapur san'at maktablari xam oquvchilar uchun keng imkonoyatlar beradi.

Kollej o'quvchilari xohishi, imkoniyatlariga ko'ra tanlanadi. O'quvchilar to'liq bo'lmagan kollej ta'limida 2 yil, politexnikumda 3 yil o'qishadi.

Oliy ta'limi tizimi

Singapurda Universitet ta'limi 1905 –yilda meditsina kolledjining tashkil topishi bilan yuzaga keldi. Keyinchalik, 1929-yilda Rafiz kollejiga asos solindi. U o'z ichiga gumanitar va aniq fanlar fakultetini qamrab olar edi. 1949 - yilda Singapurda mavjud bo'lgan universitetlar o'z ichiga Meditsina kolleji va Rafiz kollejini olar edi. Singapur Milliy Universiteti va Nanyang Texnologiya Universitetlari o'z ichiga oliy ta'lim va aspiranturani qamrab olib, bu Universitet talabalariga yuqori darajadagi tadqiqot ishlarini olib borish imkoniyati berilar edi.

Singapur oliy ta'limi politexnikum, universitet, pedagogika va texnik ta'lim yo'nalishida mutaxassislarni tayyorlovchi institutlardan iborat.

Singapur Milliy Universiteti dunyodagi 200 dan ortiq eng mashhur universitetlar qatorida 18 - o'rinda turadi. Universitet tarkibida: gumanitar, ijtimoiy, biznes, kompyuter yo'nalishi, muhandislik, dizaynerlik, ekologiya, huquq, tabiiy fanlar, tibbiyot, stomatologiya hamda musiqa fakultetlari mavjud. Universitetda 22000 bakalavr, 8000 magistr tahsil oladi va 3000 dan ortiq xodimlar ishlaydi.

Hindiston ta'lim tizimi

Hindistonda, 1949 – yil qabul qilingan konstitutsiyaga ko'ra 6 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun bepul, majburiy ta'lim joriy etigan.

Hindiston **xalq ta'limi tizimi** quyidagicha tuzilgan:

- maktabgacha ta'lim tizimi;
- boshlang'ich va kichik asosiy maktab;
- to'liqsiz o'rta;
- to'liq o'rta maktab;
- oliy ta'limdan iborat.

Oliy o'quv yurtlarida o'qish muddati 5–6 yil. O'qish pullik. Mamlakatda bugungi kunda 219 ta universitet va institut hamda 7 mingdan ortiq kollej faoliyat yuritmoqda. Dunyoda eng mashhur oliy o'quv yurtlari: Bombay universiteti, Kalkutta universiteti, Chennoy universiteti.

Asosiy kutubxonalari:

Kalkuttadagi milliy kutubxonasi, Dehlidagi ommaviy kutubxona, Chennoydagi ommaviy markaziy kutubxonalar.

Hindiston mustaqillikka erishgandan so'ng, mamlakatda yo'lga qo'yilgan ta'lim siyosati ko'proq sekulyar va markazlashgan tizimga xizmat qiluvchi kadrlar tayyorlashga e'tibor qaratdi. U ijobiy va salbiy natijalar berdi. Ijobiy natijasi shu bo'ldiki, Hindiston ta'lim tizimi dunyo ish bozorida raqobatbardosh doktor, menejer, injener kabi mutaxassislar yarata oldi. Mamlakatdagi mashhur “Hindu” gazetasi muharririning aytishicha, Hindiston oliy o'quv yurti bitiruvchilarining 80 foizdan ziyodi chet elga chiqishni istaydi. Aksariyat malakali mutaxassislarni chet elga ketishni xohlaydigan yoshlar tashkil etadi.

Yoshlarning milliy qadriyatlardan yiroqlashib borayotgani bugun hukumat darajasidagi muammoga aylangan. Buning salbiy oqibatlarini kamaytirish yuzasidan tegishli chora – tadbirlar ham ishlab chiqilmoqda. Masalan, 1986 – yili Hindiston Ta'lim boshqarmasi “Ta'lim to'g'risida milliy siyosat loyihasi”ni tayyorladi. 5200 dan ortiq o'quv muassasasi uchun mo'ljallangan bu dasturda mamlakatning siyosiy, ijtimoiy hayoti o'tish bosqichida ekani va bu davrda azaldan

urfdagi bo'lgan milliy qadriyatlarning yo'qolishi xavfi kuchaygani kuyunchak bilan tilga olingan. Loyiha bu xavfni bartaraf etish uchun ta'lim tizimida qadriyatlarni o'qitishni kiritish lozim, deb hisoblaydi. Bu borada nodavlat tashkilotlar ham Ta'lim boshqarmasi bilan bir fikrda. Ular o'tkazgan tadqiqotlar milliy qadriyatlarni, axloq–odobni ta'lim tizimi orqali yoshlar ongiga singdirish zarur ekanini ko'rsatmoqda.

Axloq tarbiyasini va qadriyatlar mohiyatini yetkazadigan dinshunoslik, etika, ijtimoiy nazariya kabi fanlar yaxshi rivojlanmagan yoki o'qitiladigan mavzularining qamrov doirasi tor. Bu bo'shliqni to'ldiruvchi yangi o'quv qo'llanmalari va dasturlarni yaratishga urinishlar mavjud. Masalan, Butun Hindiston Nasoro ta'lim Assotsiatsiyasi bu borada o'z dasturlarini ishlab chiqqan. Ular din, axloq, ijtimoiy muammolar kabi axloq – etikani tarbiyalovchi fanlarni yo'lga qo'yish bilan birga, matematika, tilshunoslik, fizika, biologiya kabi aniq fanlar bo'yicha o'quv qo'llanmalarini yaratishda ham dinshunos va nazariyotchilarning maslahatlaridan foydalanishni ko'zda tutadi. Bu, asosan, Nasoro jamiyati talabalari uchun amalga oshayotgan bo'lsa-da, hindu va musulmon jamiyatlari ham o'z doiralarida shunga o'xshash faoliyatlarni olib bormoqda. Ayni vaqtda dinlararo bag'rikenglik, do'stlik aloqalarini mustahkamlash ham ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biri sifatida qaraladi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ham ma'nan va axloqan yetuk kadrlarni tayyorlash bejiz ta'lim tizimining asosiy maqsadlaridan biri sifatida ko'rsatilmagan. Ma'naviyati yuksak yosh avlodni tarbiyalash yurt rahbarining ham doimiy e'tiboridagi masala bo'lib kelayotgani sir emas.

Pokiston ta'lim tizimi

Pokiston jahon mamlakatlari ichida o'z obro' - e'tibori va nufuziga ega bo'lgan mustaqil davlat hisoblanadi. Mamlakatda XX asrning ikkinchi yarmida zamonaviy ta'lim tizimi shakllandi. Majburiy umumiy ta'lim haqida qonun qabul qilindi.

Pokiston umumta'lim maktab tizimi quyidagicha tuzilgan:

- boshlang'ich maktab (1-5 sinflar);
- to'liqsiz o'rta maktab (6-8 sinflar);
- o'rta maktab (9-10 sinflar);
- oliy maktab (11-12 sinflar).

Oliy o'rta maktabni, shuningdek, oraliq kollejni tugatganlar oliy o'quv yurtlarida o'qishni davom ettirishlari mumkin. Pokistonda 168 ming maktab, 690 kollej, 23 universitet bor. Barcha turdagi maktablarda 16.9 mln, kollejlarda 610 ming, unitarda 76 ming kishi o'qiydi. O'qituvchilar soni barcha turdagi maktablarda-salkam 550 ming, kollejlarda – 56 ming, universitetlarda 6 mingtani tashkil etadi. Maktab o'qituvchilari maxsus maktablar, institut va kollejlarda tayyorlanadi.

Pokistonning yirik universitetlari: Karochidagi Karochi universiteti (1951), Tibbiyot fanlari universiteti (1983), Lohurdagi muhandislik texnologiya universiteti (1961). Islomobodagi Qand-e A'zam universiteti (1965), Xalqaro islom universiteti (1980), Lohurdagi Panjob universiteti (1982).

Mamlakatda fanlar rivojlanishini rejalashtirish hamda fan va texnika qo'mitasi ishini nazorat etish, fan yutuqlarini joriy qilish bilan fan va texnika tadqiqotlari kengashi shug'ullanadi.

Pokistonning eng yirik ilmiy muassasalariga Pokiston fan taraqqiyoti assotsiatsiyasi, Pokiston fanlar akademiyasi, Atom energiya komissiyasi, Atmosferaning yuqori tamoyillari va kosmik fazoni tadqiq etish qo'mitasi, geofizik ilmiy tadqiqot instituti, paxtachilik ilmiy tadqiqot instituti va boshqalar. Bundan tashqari tibbiyot, iqtisodiyot, xalqaro munosabatlar, adabiyot va til masalalarini o'rganuvchi ixtisoslashgan ilmiy institut va jamiyatlar mavjud.

Pokistonning yirik kutubxonalari: Qand-A'zam universiteti kutubxonasi, Karochi universiteti kutubxonasi, Panjob universiteti kutubxonasi Hamdard fondi kutubxonasi, Markaziy kotibiyat kutubxonasi, Pokiston ilmiy kutubxonasi (Islomobod). Yirik muzeylari: Karochidagi Pokiston ilmiy muzeyi, Lohur muzeyi, Peshovar muzeyi, Lohur qal'asi muzeyi, Milliy muzey va b.

5.4. Turkiyada ta'lim siyosatining olib borilishi.

O'zbekiston Respublikasi istiqloлга erishgach, uning mustaqilligini birinchi bo'lib qardosh Turkiya Respublikasi tan oldi. Mamlakatlarimiz o'rtasida iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqalar, shu jumladan, ta'lim bo'yicha hamkorlik tez rivojlanib bordi va u bizning xorijiy mamlakatlar bilan aloqalarimizda yetakchi o'rinlardan birini egalladi.

Bu hamkorlikning natijasi o'laroq, har yili yuzlab o'zbekistonlik o'quvchilar va talabalar ta'lim olish uchun Turkiyaga jo'natilmoqda. Ayni vaqtda turkiyalik yoshlar ham Respublikamiz o'quv muassasalarida bilim olmoqdalar.

Shuningdek, bu mamlakat bilan keng ko'lamda ta'lim bo'yicha mutaxassislar almashish yo'lga qo'yilgan. Har ikki mamlakatdan ta'limni boshqarish muassasalarining, o'quv yurtlarining hamda ta'lim bo'yicha ilmiy tadqiqotlar va ilmiy-metodik ishlar olib boruvchi mutaxassislar, o'qituvchilar va tarbiyachilar birbirlariga tashriflar uyushtirib o'zaro tajribalar almashmoqdalar. Bularning barchasi ikki mamlakat maorifchilarining umumiy maqsad yo'lidagi ishlarni rivojlantirishga hissa bo'lib qo'shilyapti. Turkiya Respublikasida ta'limning qo'yilishining o'ziga xos tomonlari borligini hisobga olib, u haqda to'laroq ma'lumot berish lozim. Respublikada hozir amaldagi ta'lim tizimiga turk xalqining asl farzandi Kamol Otaturk asos solgan. Turkiya ta'lim tizimlari mamlakat Konstitutsiyasi, ta'lim-tarbiya to'g'risidagi qonunlar, "Milliy maorif vazirligining tuzilishi va vazifalari haqida"gi qator qonunlarda hamda hukumat dasturlarida har tomonlama chuqur ifodalangan.

Respublika Konstitutsiyasida "Barcha kishilar ta'lim-tarbiya olish huquqiga egadirlar" deb yozib qo'yilgan va fuqarolarning bilim olish huquqlari kafolatlangan. Turkiya Respublikasida barcha tipdagi ta'lim to'la davlat nazoratida bo'lib, bunday nazoratga kirmaydigan ta'lim-tarbiya maskanlarini ochish mumkin emas. Xususiy maktablar ham davlat ta'lim standartlari talabiga mos kelishi va davlat dasturlarini to'la bajarishga majbur.

Boshlang'ich ta'lim barcha kishilar uchun majburiy, davlat maktablarida bepul o'qitiladi. Majburiy ta'limdan so'ng, uning keyingi bosqichlarida o'qishni davom ettirish istagini bildirgan, kam ta'minlangan oilalardan chiqqan bolalar davlat tomonidan stipendiyalar bilan ta'minlanadilar, ularga boshqa tegishli imtiyozlar ham belgilangan. Ta'lim muassasalarida faqat o'quv-tarbiya ishlari, uni takomillashtirish bilan bog'liq vazifalarnigina bajaradilar. Undan tashqari faoliyatga yo'l qo'yilmaydi. Turk millatiga mansub kishilarga ona tili sifatida boshqa biror xorijiy davlat tilini o'rgatish mumkin emas.

Turkiya milliy maorifi tizimlarining umumiy tuzilishi ikki asosiy qismga bo'linadi.

-maktab ta'limi;

-maktabdan tashqari ta'lim.

Maktab ta'limi tarkibiga: a) maktabgacha tarbiya, b) boshlang'ich ta'lim, v) o'rta ta'lim, g) oliy ta'lim kiradi.

Maktabgacha tarbiya

Bu bosqichga maktab yoshiga yetmagan bolalarni qabul qilish ixtiyoriydir. Maktabgacha ta'lim-tarbiyaning maqsadi bolalarni jismoniy, aqliy va axloqiy rivojlanishini ta'minlash, ularni maktab bosqichiga puxta tayyorlab berish, kam ta'minlangan o'quvchilarga sharoit yaratish, turk tilida to'g'ri va chiroyli gapirishni o'rgatishdan iboratdir.

Boshlang'ich maktab

Boshlang'ich maktabga bolalar 6 yoshdan 14 yoshgacha ta'lim oladilar. Bu bosqichdagi maktab quyidagi maqsad va vazifalarni ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi;

a) har bir turk farzandiga yaxshi inson bo'lib kamol topish, bilimli bo'lish, uni milliy iftixor ruhida tarbiyalash va fikrlashga o'rgatish;

b) har bir turk farzandiga qiziqishi, qobiliyati va iste'dodiga ko'ra ta'lim berish, ularni hayotga, o'qishning keyingi bosqichlariga puxta tayyorlashdan iborat.

Boshlang'ich ta'lim muassasalari maktabgacha tarbiya bosqichidan so'ng ikki qismga: 5 yillik boshlang'ich va 3 yillik o'rta maktablar bosqichiga bo'linadi. Har ikki bosqich maktabini bitirganlik haqida o'quvchilarga attestat beriladi.

Bu ikki bosqich maktab sharoitiga qarab bir maktab bazasida yoki alohida-alohida ikki maktab tarkibida tashkil qilinishi mumkin.

Aholi siyrak va tarqoq qishloqlarda maktab markaziy qishloqlardan birida ochiladi, guruhlashtirish imkoniyati bo'lmagan tumanlarda esa bu ta'lim bosqichi internatlar tipidagi o'quv muassasalari shaklida amalga oshiriladi.

O'rta ta'lim

Boshlang'ich ta'limga tayanib, kamida uch yillik ta'lim beruvchi umumiy, kasbiy va texnik ta'lim muassasalarini o'z ichiga oladi.

Uning asosiy maqsadi barcha o'quvchilarga umumiy o'rta ta'lim va shunga muvofiq umumiy madaniyat, inson va jamiyat muammolarini o'rgatish, ularni oliy ta'lim bosqichiga, hayotga, kasb-kor sohalariga tayyorlashdan iborat.

Bu maqsadlar o'rta umumiy ta'lim, turli dasturda kasb-kor o'rgatuvchi texnik-qurilish, qishloq xo'jaligi yo'nalishlaridagi litseylarda amalga oshiriladi.

O'quvning har bir bosqichi bo'yicha alohida-alohida dasturlar mavjud.

Bu dasturlar quyidagilar:

- ta'limning oliy bosqichiga tayyorlash dasturi;
- kasbga va oliy ta'limga tayyorlash dasturi;
- hayotga, ishlab chiqarishga tayyorlash dasturi va xokazolar.

Litseylar o'z turlariga va jumhuriyat ehtiyojiga ko'ra quyidagicha ixtisoslashtirilgan:

- umumiy litseylar — o'quvchilarni oliy ta'limga tayyorlaydi, 3 yil;
- fan litseylari — alohida fanlardan iqtidorli va ijodkor o'quvchilar bilimini va qobiliyatini takomillashtiradi, 5 yil;
- kichik litseylar — kunduzgi litseylarda o'qish imkoniyati bo'lmaganlar uchun, o'qish 4 yil;
- kasb-hunar litseylari — o'quvchilarga o'z qiziqishlari bo'yicha turli kasb-hunar o'rgatadi, o'qish muddati 3 yil;
- nafis san'at litseyi — ona tili va adabiyoti, rasm, musiqa kabi bo'limlarga ega;
- o'qituvchilar litseylari — boshlang'ich ta'lim bo'yicha o'qituvchilar tayyorlaydi. O'qish muddati 1 yil, tayyorlov kursini hisobga olganda, 4 yil;
- tijorat va turizm ta'limi litseylari — maishiy xizmat ko'rsatish, savdo, umumiy ovqatlanish shahobchalariga va boshqa sohalarga mutaxassislar tayyorlab beradi;
- diniy ta'lim maktablari — imom-xatib hamda din darsini o'tuvchi o'qituvchilar tayyorlaydi;
- maxsus ta'lim maktablari — ular korreksion maktablar bo'lib, jismoniy-aqliy jihatdan nuqsoni bor bolalar uchun mo'ljallangan;
- texnik litseylar — o'quvchilarga umumiy fanlar bilan bir qatorda industrial kasb-hunar ta'limini beradi.

Bundan tashqari Turkiyada qizlar kasb litseyi, qizlar texnik litseyi, qizlar san'at o'rta maktablari, qizlar, o'g'il bolalar xususiy maktablari mavjud.

Oliy ta'lim

Mamlakatda oily ta'lim oliy malakali turli kasb mutaxassisliklarini, ilmiy tadqiqot ishlari olib borishga qodir kishilarni yetishtirib beradi.

Turkiyada bunday mutaxassisliklar bo'yicha hozir qator universitetlar va oliy texnologik institutlar ishlab turibdi. Bu universitetlardan 2 tasi diniy mahkamalar tasarrufidadir.

Mamlakatdan tashqarida yashovchi turk millatiga mansub kishilarning (ular 2,5 mln. dan ortiq) ta'lim-tarbiyasiga ham katta ahamiyat beriladi. Hozir shunday toifadagi kishilarni o'qitish uchun Turkiya hukumati tomonidan 1,236 ta o'qituvchi ajratilgan. Ularning barchasiga davlat tomonidan maosh to'lanadi.

Turkiya hukumati "Milliy maorifining asosiy Qonuni"da maktab ta'limi bilan bir qatorda maktabdan tashqari ta'limga ham katta e'tibor berilgan.

Maktabdan tashqari ta'lim

Unga qo'yilgan asosiy talab katta yoshdagilarni o'qish va yozishga o'rgatish; ularga umumiy va kasb-kor bilimlarini berish; savodxonligidagi nuqsonlarini bartaraf etish kabi vazifalarni bajaradi, shuningdek, bunday muassasalar

fuqarolarga, birinchi galda yoshlarga ijtimoiy hayotning ilmiy, texnologik, iqtisodiy, madaniy hayotiga to'la moslashish uchun shart-sharoit yaratib beradi. Shuningdek, MTMLar turli sohalarida mehnat qilayotgan kishilarning ishdan ajralmagan holda kasb malakalarini oshirishga imkoniyat tug'diradi. Turkiya Respublikasida maktabdan tashqari ta'lim ikki manba orqali amalgam oshiriladi. Ulardan biri maktab bo'lsa, ikkinchisi ustoz-shogirdlik yo'nalishidir.

Uning sohalar bo'yicha dasturlari quyidagilar:

1. Umumiy ta'lim dasturlari;
2. Kasb-hunar, texnik ta'lim dasturlari;
3. Shogirdlik va ustalik ta'limi dasturlari;
4. Ochiq ta'lim dasturlari va hokazolar.

Maktabdan tashqari ta'lim muassasalari tarkibiga bundan tashqari amaliy san'at maktablari, qizlar amaliy san'at maktablari, yetuklik institutlari va yetuklik texnik ta'lim markazlari ham kiritilgan.

Shuningdek, keyingi yillarda o'quvchi va talabalarning bo'sh vaqtlarini ko'ngilli va sermazmun o'tkazishga katta ahamiyat berilmoqda. Shu maqsadda, til o'rgatish markazlari, musiqa, xalq o'yinlari, foto, teatr studiyalari, shaxmat-shashka klublari, turli sayohatlar uyushtirish, lagerda dam olishni tashkil qilish, hamshiralik, rassomchilik to'garaklari yo'lga qo'yilmoqda. Ular orqali turli tanlovlar, musobaqalar, konkurslar tashkil etilmoqda.

Talabalar va o'quvchilar uchun sportning turli sohaları bo'yicha seksiyalar tashkil etilgan, ularda sportning ommaviy turlari bo'yicha turnirlar, musobaqalar tashkil etiladi. Qizlar uchun esa, qo'lda to'qish, bichish-tikish, pazandalik yo'nalishidagi to'garaklar mavjud. Ular tomonidan to'qilgan, tikilgan, tayyorlangan mahsulotlar har yili Anqaradagi katta ko'rgazmada namoyish etiladi.

Savol va topshiriqlar.

1. Yaponiya ta'lim tizimi tuzilishi haqida qanday ma'lumotlarga ega bo'ldingiz?
2. Koreya va O'zbekiston ta'lim tizimining o'xshash va farqli tomonlarini izohlang?
3. Xitoy ta'limining o'ziga xosligi nimada?
4. Singapur ta'lim tizimining afzalliklarini bayon qiling.
5. Hindiston ta'limining yutuqlarini izohlang.
6. Pokiston ta'lim tizimi tuzilishini bayon qiling.
7. Turkiya ta'lim tizimi mamlakat Konstitutsiyasida qanday ifodalangan?
2. Turkiya ta'lim tizimi va uning turlari haqida so'zlab bering.
3. Turkiya litseylari va ularda ta'lim dasturlarining bajarilishini tahlil qiling.

VI BOB. RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA TA'LIM-TARBIYA TIZIMI VA QIYOSIY TAHLIL

6.1.AQSH va O'zbekiston ta'lim tizimining qiyosiy tahlili

Mamlakat ta'lim tizimining tuzilishi quyidagicha:

— bolalar 3 yoshdan 5 yoshgacha tarbiyalanadigan maktabgacha tarbiya muassasalari;

— 1-8-sinfgacha bo'lgan boshlang'ich maktablar (bunday maktablarda bolalar 6 yoshdan 13 yoshgacha o'qiydilar);

— 9-12-sinflardan iborat o'rta maktablar (bu maktablarda 14-17 yoshgacha bo'lgan bolalar ta'lim oladilar). U quyi va yuqori bosqichdan iborat.

Amerika Qo'shma Shtatlarida navbatdagi ta'lim bosqichi oliy ta'lim bo'lib, u 2 yoki 4 yil o'qitiladigan kollejlarda hamda dorilfununlarda amalga oshiriladi.

So'nggi bosqich, dorilfununlar va boshqa oliy o'quv yurtlari tarkibida tashkil etilgan aspirantura yoki doktoranturalar.

AQSHda majburiy ta'lim 16 yoshgacha amal qiladi. Bu mamlakatdagi o'quv yurtlarida davlat, jamoa, xususiy tasarrufda va diniy muassasalar ixtiyorida bo'lishi mumkin.

Shunisi diqqatga sazovorki, AQSH maktablarining (bitiruvchi sinf o'quvchilaridan tashqari) barcha o'quvchilar ta'lim vaqtida asosan, ish bilan band bo'lishadi. AQSH maktablarida o'quv yili 180 kun. Bir soat dars 45 - 50 minut.

Amerika konstitutsiyasiga muvofiq, ta'lim tizimi tasarrufidagi shtatlar boshqaruv muassasalari ixtiyoridadir. 1979 yilgacha ta'limni mablag' bilan ta'minlash, ta'limda davlat siyosatini amalga oshirish, o'quv yurtlari faoliyatini muvofiqlashtirib borishni Sog'liqni saqlash, Ijtimoiy ta'minot va Ta'lim vazirligi olib borar edi. 1979 yilda Ta'lim vazirligi mustaqil bo'lib ajralib chiqdi.

Ta'lim tizimiga mablag' ajratish bo'yicha AQSH dunyo mamlakatlari orasida yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. AQSH ta'lim tizimining rivojlanish sur'ati ancha yuqori bo'lib, uning boshlang'ich ta'lim bosqichida o'qishi lozim bo'lgan bolalarning 99,9 foizi, o'rta bo'g'ida 94,5 foizi ta'lim oladi. O'quvchilar umumiy sonining 46 foizi o'rta maktabni tamomlagach, kollej va universitetlarga o'qishga kiradi. Barcha toifadagi ta'lim maskanlarida 58 million yosh, shu jumladan, ta'limning oliy bosqichida 12 million yigit - qiz tahsil oladi. AQSHda har 10 ming aholiga 307 talaba to'g'ri keladi. Bu jahonda yuksak ko'rsatkichlardan biridir.

Bulardan tashqari AQSHda har yili 33 million kishi uzluksiz ta'lim va malaka oshirish tizimlarida bilim oladi. Mamlakatda 3 million o'qituvchi mehnat qiladi. Hap yili o'rta maktabni 3 million o'quvchi, bakalavr darajasidagi oliy ta'lim bosqichini 932 ming kishi, magistr darajasida esa 300 ming kishi tugallaydi, yiliga 30 ming kishi doktorlik ilmiy darajasini oladi.

Maktabgacha tarbiya

Amerika boy mamlakat. Lekin bu mamlakatda bolalar uch yoshga to'lgunga qadar onalarga turli moddiy imtiyozlar berish ko'zda tutilmagan.

Farzandlarga qarab uyda o'tiradimi yoki enaga yollab ishga tushadimi, bu onalarning ishi. O'zbekistondagi kabi keng va shinam, ikki qavatli, o'ynaydigan, uxlaydigan, ovqatlanadigan alohida xonalari bo'lgan bog'cha va yaslilar Amerikada odat tusiga kirgan emas. Enaga yollash oila uchun haftasiga 200 dollardan kamga tushmaydi. Bu mamlakatda 30 - 40 bolaga mo'ljallangan xususiy va davlat tasarrufidagi bog'chalar mavjud. Ular enaga yollashdan bir oz

arzonroqqa tushadi. Lekin har ikki holda ham, uydan olib borgan ovqatni eedirishadi, krovatchalar, ko'rpa-to'shak, yostiqlarni ota - onalarning o'zlari olib borishadi. Amerikada bizdagidek taomnomalar, o'quv dasturlari yo'q. Bolalar yozda atrofdagi ko'kalamzorlarda o'ynab dam olaishdi.

Maktabgacha ta'lim muassasasida bolalar yoshlariga qarab turli guruhlarda tarbiyalanadi, ularga tarbiyachi - mutaxassis qaraydi, ular ovqatni tayyorlab beradi, turli qo'shiqlar, she'rlar o'rgatadi, quvnoq o'yinlar uyushtiradi. Ammo har kim o'z uslubiga muvofiq ishlaydi, umumiy qoidalar, o'quv dasturlari joriy qilinmagan.

Lekin bolalar uchun haqiqiy ta'lim-tarbiya jarayoni ular 5 yoshga to'lganlaridan keyin boshlanadi. Ana shu yoshda ular "Kinder garden" deb ataluvchi tayyorlov bog'chalariga jalb etiladi. Ular hukumat tasarrufida bo'lib, bog'chalar yoki maktablar tarkibida tashkil etiladi. Bolalarni maxsus "maktab avtobusida" uyga olib keladilar va maktabga olib boradilar. Bunday avtobuslar yo'l-transport hodisalaridan to'la muhofaza etilgan: sariq rangga bo'yalgan, uning signallariga barcha transport vositalari itoat etishga majbur. Maktab avtobuslarini boshqa transport vositalari quvib o'tishi mumkin emas, tartibni buzganlar qattiq jazolanadi.

Ko'chalarda, maktabga ketayotganda yoki qaytayotganda alanglab yurgan, o'ynab, futbol tepib yurgan bekorchi bolani uchratish amrimahol. Bolalarni maktabda ham, uyda ham shaxsiga tegilmaydi, do'pposlashmaydi, u erkin o'smog'i kerak. Agar biror bola "meni urdi" deb ota - onasidan shikoyat qilsa, ma'lum muddatga ana shu ota - onalar ayrim hollarda ota - onalik huquqidan mahrum qilinadilar. Maktabga bolalar o'zlari xohlagan kiyimda boradilar. 5 yoshli bolalarni maktabga tayyorlash ota - onalarning, bog'cha va maktabning, ommaviy axborot vositalarining ishi.

AQSH televideniyasining alohida kanalida "Sezam ko'chasi" deb nomlanuvchi ko'rsatuvlar dasturi mavjud, u o'quvchilarga ingliz tili, alifbo, arifmetik amallarni bajarish, sanash, o'qish, koinot, tabiat, geografiya, tarix bo'yicha bilimlarni o'ta qiziqarli tarzda singdirishga harakat qiladi.

Amerika ko'p millatli mamlakat. Lekin har bir millat o'z farzandiga milliy urf-odatlarini, tilini o'rgatishga jiddiy ahamiyat beradi. Ko'pincha bu vazifani katta avlod amalga oshiradi.

O'zbeklar ham o'z ona tilini, urf - odatlarini, dinini o'z farzandlariga singdirishga astoydil intilishadi. O'zbek bolalari ham Markaziy Osiyoda o'z mamlakatlari borligini biladilar, g'oyibona intiladilar, u haqda ko'p narsalarni ko'rish, eshitish, o'qishni istaydilar. O'zbekistonga kelish har bir amerikalik o'zbeklarning muqaddas orzusidir.

Besh yoshli bolalar bilan olib boriladigan mashg'ulotlarning asosini ularni maktabga tayyorlash tashkil etadi. Olti yoshlilar bog'cha guruhlarida bo'lsalarda, lekin bu guruhlardagi ta'lim boshlang'ich sinfdagi ta'limga yaqin turib, amalda uning dastlabki bosqichi hisoblanadi. Maktabgacha tarbiya muassasalarining ta'lim dasturi ko'p jihatdan ota - onalar bilan hamkorlikda ish olib borishga mo'ljallangan, u pirovard natijada bolalarni boshlang'ich maktablarga puxta tayyorlab berishga xizmat qilishi kerak. Shuningdek, maktabgacha tarbiya muassasalari bolalarning aqliy va jismoniy rivojlanishi, umuminsoniy fazilatlarini

o'zlashtirishi, bolalar jamoasi ichida o'zini tutish, samimiylilik, mehnatsevarlik, foydali xatti-harakatlarning ilk shakllanishiga erishmoqlarini, tozalik, ozodalik va pokizalikka o'rganishlarini ta'minlab berishi lozim. Yuqorida aytganimizdek, maktabgacha tarbiya muassasalarining xususiyatlari ham bor. Lekin u Yaponiyadagidek rivojlangan emas. Amerikada xususiy bog'chalar davlat dasturiga kiritilgan.

Amerikada o'quvchilarning o'z fikrini so'zda mukammal, aniq ifodalab bera olishiga, o'zligini anglash, o'zining qadr-qimmatini e'zozlash, shaxsiy qobiliyatini ro'yobga chiqarish tuyg'ularini tarbiyalashga katta e'tibor beriladi. Bolalarda ana shu his - tuyg'ularini shakllantira borish ilk yoshdanoq boshlanadi.

Boshlang'ich ta'lim

Boshlang'ich maktablarning asosiy vazifasi 6 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan bolalarga to'laqonli bilim, ta'lim berish, ularning umuminsoniy, axloqiy xislatlariga ega bo'lib shakllanishini ta'minlashdan iboratdir.

Boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan o'quv predmetlari va dasturlari bolalarning yoshi, muhitiga moslashgan bo'lib, ular o'quvchilarning umumiy savodxonligini ta'minlab berishdan tashqari ma'lum darajada kasb yo'nalishiga ham ega qiladi.

Sinfdan-sinfga ko'chirish o'quvchining o'qish tezligi, yozuvi, husnixati, arifmetika, tarix, geografiya, musiqa va san'at kabi predmetlarni boshlang'ich sinf dasturi hamda darsliklari doirasida qanday o'zlashtirib olganligiga qarab belgilanadi.

Amerika maktablarida o'quv-tarbiya ishlari bilan bog'lik masalalarni to'raligicha har bir shtat o'ziga mustaqil belgilab olish huquqiga ega. Shu boisdan boshlang'ich maktablarda o'quv davomiyligi turli shtatlarda turlicha belgilangan. Ya'ni boshlang'ich ta'lim 4, 5, 6, 8 yillik bo'lishi mumkin. O'quvchilar shu davr ichida ingliz tili, ijtimoiy fanlar, tabiat va gigiena, matematika, hunarmandchilik va san'at, badantarbiya va sport predmetlaridan saboq oladilar. AQSH maktablarida o'qish har bir o'quvchi uchun faxr-iftixor bo'lishiga o'quvchi o'z bilimi imkoniyati, nuqtai nazariga ishonch hissini tarbiyalashga katta e'tibor beriladi. O'quvchilarni maktabdan bezdirish, ularni darslarga ishtiyoqsiz va loqayd bo'lib qolishlari favqulodda salbiy holat hisoblanadi.

O'quvning boshlang'ich ta'lim bosqichidanoq o'quvchilar uchun turli to'garaklar, sayohatlar tashkil etiladi, xilma-xil ko'ngilochar tadbirlar o'tkaziladi. Lekin ular pullik bo'lib, unga oila byudjetining 10-16 foizi sarflanadi. Kam ta'minlangan oila farzandlariga bu borada ba'zi imtiyozlar beriladi.

O'rta ta'lim

Amerika Qo'shma Shtatlarida to'laqonli o'rta maktab sirasiga 10, 11, 12-sinflar kiradi. 7, 8, 9-sinflarni aksariyat holda quyi o'rta maktab deb ham yuritiladi. Binobarin, quyi o'rta maktab kursini muvaffaqiyatli o'taganlar yuqori bosqichga — to'laqonli o'rta maktabga qabul qilinadilar.

Ma'lum darajada 9-sinfni bitirganlar yuqori o'rta maktablarga tanlov yo'li bilan qabul qilinadi. Ammo yuqori o'rta maktablar o'quvchilarning bilimiga qarab tabaqalashtirilganligi tufayli 86,4 foiz o'quvchi ularga qabul qilinadi.

Amerikalik yoshlarning ko'pchiligi o'rta maktablarni tugatgach, tegishli diplom va maxsus kurslarni bitirganliklarini isbotlovchi hujjat olishadi. O'quvchilar odatda ma'lum bir sinfni, kurs yoki maktabni yakunlashda test sinovlariga jalb etiladi.

O'quvchilar bilimi quyidagicha baholanadi:

A — 95-100 ball;

V — 85-92 ball;

S — 71-80 ball;

D — 65-70 ball;

G — 0-64 ball (qoniqarsiz).

Test natijalariga ko'ra qoniqarsiz baholangan o'quvchilar yil davomida ma'lum vaqt o'tkazib sinovdan qayta o'tkaziladilar. Bu sinovlarga o'quvchilarning sinf muloqotida qatnashganligining natijalari, og'zaki va yozma vazifalarning yechimlari ham ilova qilinadi. AQSH maktablarida chorak va o'quv yili natijalariga ko'ra ham o'quvchilar test sinovlaridan o'tkaziladilar.

Ba'zi shtatlarda, shuningdek, Nyu-Yorkda ham ta'lim departamenti tomonidan belgilangan imtihonlar ham o'tkaziladi.

AQSH maktablarida odatda, o'quvchilar o'quv yili davomida ikki marta o'zlashtirish tabeli olishadi. Ayrim shtatlarda bunday tabellar har bir fan bo'yicha 6 marttagacha beriladi. Har bir maktab o'quv yili boshlanishidayoq o'z o'quv tartibini oldindan belgilab oladi. U quyidagicha bo'lishi mumkin:

7 sentabr — o'quv yilining boshlanishi;

12 oktabr — Kolumb kuni munosabati bilan bayram;

21 oktabr — o'quvchilarning aqliy qobiliyatlarini aniqlovchi test sinovlari;

10 noyabr — insholar konkursi;

22-27 noyabr — dastlabki ta'tillar;

2 dekabr — kollejga kirish imtihonlarining birinchi bosqichi;

22 dekabr — Rojdestvo ta'tili;

13 yanvar — kollejga kirish imtihonlarining ikkinchi bosqichi;

26 yanvar — o'quv yili ikkinchi yarmiga o'tish imtihonlari;

24 fevral — yaxshi o'quvchilarni aniqlovchi milliy imtihonlar;

2 mart — kollejga kirish imtihonlarining uchinchi bosqichi;

5 aprel — 3-davruga o'tish imtihonlari;

12-20 aprel — bahor ta'tillari;

4 iyun — kollejga kirish imtihonlarining to'rtinchi bosqichi;

30 may — Xotira kuni;

12 iyun — bitirish kechasi;

20 iyun — yozgi ta'tilga chiqish kuni.

O'rta maktablarda o'quvchilarga o'zlari tanlagan yo'nalishlariga mos holda predmetlar tanlashda ma'lum erkinliklar bor. Masalan, ingliz tili, ijtimoiy fanlar, matematika, fizika predmetlari asosiy fan bo'lib, chet tillari, nafis san'at, kasb ta'limi predmetlari o'quvchilarning xohish - istaklariga qarab qo'yilishi mumkin.

O'rta maktab o'quvchilari kundalik faoliyatida yarim vaqtni o'quv sinflarida, qolgan vaqtni esa, laboratoriya, maydonlar, tajriba uchastkalari, amaliyot uchun mo'ljallangan joylarda o'tkazishadi. 10, 11, 12-sinflarda maktab – oila hamkorligi,

ayniqsa, mustahkam bo'ladi. Chunki ayni shu bosqichda o'quvchilarning kasb-korlarga moyilligi to'la qaror topadi.

O'quvchilar va ota - onalarning istaklariga muvofiq, kasb-kor yo'nalishiga mos keladigan predmetlardan olinadigan saboqlarni ko'paytirish mumkin. Boshqacha qilib aytganda, o'quvchi kelajakda qaysi sohaga o'z hayotini bag'ishlashga ahd qilgan bo'lsa, aynan o'sha yo'nalishdagi predmetlarni ustun darajada o'rganib, tayyorgarlik ishlarini olib boradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa qilish mumkinki, AQSH o'rta maktablari o'z o'quvchilariga uch yo'nalishda: akademik, kasb - kor, umumiy yo'nalishlarda bilim beradi. Ayni vaqtda o'quvchilarga to'rt yo'nalishda hunar, kasb-kor asoslarini berib boriladi. Bular quyidagilar:

Birinchisi, qishloq xo'jalik kasblari ta'limi hisoblanib, unda tinglovchilarga fermerlik asoslari o'qitiladi va qishloq xo'jaligi bo'yicha menejmentlar yetishtirib beriladi. Bunday ta'lim Amerikaning bo'lg'usi fermerlari dasturi asosida ish olib boradi.

Ikkinchisi, biznes ta'limidir. Unda o'quvchilarga tijorat, tijorat iqtisodiyoti, ichki iqtisodiyot mutaxassisligi o'rgatiladi, bunday o'quv yo'nalishlarida bolalarda muruvvat, bemorlarga g'amxo'rlik qilish, insonparvarlik tuyg'ularini tarbiyalash masalalariga jiddiy ahamiyat beriladi.

Uchinchisi, savdo va sanoat ta'limi bo'lib, unda yoshlarga mahsulot ishlab chiqarish va mexaniklik kasbi o'rgatiladi.

To'rtinchisi, qurilish ta'limi bo'lib, bu ta'lim tizimi orqali turli qurilish kasblari bo'yicha bilim va ko'nikmalar beriladi.

By kasb dasturlari o'quvchilarni ana shu kasbga tayyorlashi, ularni shu kasb-korni yanada chuqurroq o'rganishi bo'yicha o'qishni davom ettirishga tayyorlashi mumkin. Bundan tashqari, dasturning uchinchi turi ham mavjud bo'lib, bu umumiy ta'lim (akademik) dasturidir. Bu dastur kasblar yuzasidan umumiy tushuncha beradi va o'quvchilarga kasblarning o'ziga xos xususiyatlarini ochib beradi.

AQSHda har bir o'quvchining fanlar bo'yicha olgan bilimlarini jamlovchi attestat mavjud. U o'quvchilarning oliy o'quv yurtlariga kirishlarida ana shu attestat nusxalari topshiriladi. Kollejga o'qish istagida hujjat topshirgan o'quvchilar yuqori o'rta maktabning so'nggi ikki yili bilimlari hajmida kirish test sinovlaridan o'tkaziladi. Test sinovlarini amalga oshirish maxsus ta'sis etilgan ta'lim test xizmati hamda Amerika kollejlari test sinovlari xizmati tomonidan ado etiladi. Test sinovlari tegishli bilimlar bo'yicha o'quvchilarning saviyasini belgilab berishdan tashqari o'g'il - qizlarning tanlagan kasbiga layoqatini va qobiliyatini ham aniqlaydi.

Chunki o'quvchi tanlagan kasb uning tabiatiga, sog'lig'iga, dunyoqarashiga mos kelmay qolishi mumkin. Test sinovlarida attestatda ko'rsatilgan ballar umumlashtiriladi va o'quvchilar tomonidan berilgan tavsifnomalar e'tiborga olinib, kollejga kiruvchining taqdiri belgilab beriladi.

Odatda, o'quvchilarga dastlabki 6 yil davomida barcha o'quv predmetlari bo'yicha bir o'qituvchi bilim beradi. Keyingi 6 yil ichida esa har bir predmet bo'yicha alohida o'qituvchi belgilanadi.

Ayrim maktablar o'quvchilarining o'quv predmetlarini o'zlashtirishda eng yangi o'quv vositalarini qo'llash va o'rganilayotgan darsliklarni programmashtirish tufayli katta muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritmoqda. Maktablarda qo'llanishi mumkin bo'lgan vositalar elektron yozuv apparatlari (kolligrafiya va yozuv qoidalarini takomillashtirishga yordam beradigan moslamalar), ta'lim televideniesi, qo'lda ko'tarib yuradigan elektron til laboratoriyasi, slaydlar, videoappaturalar, elektron doska, kompyuter va hokazolardan iborat.

AQSH maktablarining O'zbekiston maktablaridan farqli tomoni shundaki, u yerda boshlang'ich maktab, o'rta maktab alohida – alohida binoda joylashgan. Maktablar ishini tashkil etishdagi yana bir o'ziga xoslik shundaki, o'quv binolaridan butun yil davomida foydalanib turiladi. 1970 yillarda Amerika maorif xodimlari tomonidan ilgari surilgan “Maktab eshiklari doimo ochiq bo'lsin” degan chaqiriq hozir ham amalga oshirilib kelinmoqda. Yozgi ta'til kunlarida ham pedagoglar yoshlarga turli mashg'ulot va o'quvlar taklif qiladilar, maktab o'quvchilari bilimini chuqurlashtirish, ular uchun kolleja tayyorlov kurslarini tashkil qilish bilan band bo'ladilar.

ROSSIYANI TASHLASH KERAK

6.2. Rossiya va O'zbekistonda pedagogika fani taraqqiyotidagi o'ziga xosliklar: umumiylik va tafovut

Rossiya ta'lim tizimi

Rossiyada ta'limning barcha turlari takomillashtirishning maqsad vazifalari 2000 yilda qabul qilingan.

Bu RF milliy ta'lim doktarenasi va 2010 yil bo'lgan davrda ta'limning modernizatsiyalashgan konsepsiyasida belgilangan. 2000 yilda mamlakatda 68804 maktab bo'lib, uning 635 tasi xususiy maktab edi. Ularda 1748 ming o'qituvchi 20879 ming o'quvchiga ta'lim berdi. 2000-yilda 2589 davlat o'rta maxsus o'quv yurtida 2312 ming o'quvchi ta'lim oldi. Rossiyada 130 mingdan ortiq kutubxona bor.

Eng yiriklari: Rossiya davlat kutubxonasi (42 mln. asar) Rossiya milliy kutubxonasi (33 mln. asar). M.A.Rudamino nomidagi umumrossiya davlat chet el adabiyoti kutubxonasi (3,2. mln asar).

Davlat ijtimoiy siyosiy kutubxonasi (2,2 mln. asar).

2000 yilda mamlakatda 1664 muzey ishladi.

Mashhurlari: Ermitaj, Peterburk, Konstamera, Moskva Kremeli, Davlat tarix muzeyi, Tretyapov galeriyasi.

Savol va topshiriqlar:

1. AQSH ta'lim tizimining o'ziga xos jihatlarini yoritib bering.
2. Rossiya ta'lim tizimini tahlil qiling.

VII BOB. MARKAZIY OSIYO DAVLATLARIDA TA'LIM-TARBIYANING O'ZIGA XOSLIKLARI

7.1. Qozog'istonda pedagogika fani rivojida o'ziga xos jihatlari

19-asrning 2-yarmigacha Qozogiston hududida faqat musulmon maktab va madrasalari bo'lgan. 19-asrning 2-yarmidan dunyoviy maktablar, xususan, 1850-yil Orenburg chegara komissiyasi huzurida qozoq bolalari uchun 7 yillik maktab ochildi.

1864-yil Torgayda qozoq demokrat - ma'rifatparvar pedagogi N.Oltinsarin tashabbusi bilan qozoq maktabi va uning qoshida internat tashkil etildi. 1879—89 yillarda Qozog'istonning turli uyezdlarida 2 sinfli rus-qozoq maktablari, 1888-yil Orskda muallimlar maktabi ochildi. 1929-yil lotin alifbosi asosida qozoq yozuvi yaratildi. 1940-yil rus alifbosi asosidagi yozuvga o'tildi. Qozoq xalqi adabiyoti xalq og'zaki ijodi (qo'shiq, ertak, maqol va matal, qahramonlik va lirik-epik dostonlar)dan boshlanadi. „Er Targ'in“, „Qambar batir“ va boshqa qadimgi dostonlarda xalq ozodligi, erki va mustaqilligi yolida kurashgan xalq qahramonlari madh etiladi. „Qiz Jibek“, „Bayan Suluv“, „Ayman-sholpan“ dostonlarida qozoq xalqining erksevarligi kuylanadi. Xalq ertaklarining Aldar ko'sa, Jirenshe, Tazsha, Ayozbi kabi qahramonlarning sarguzashtlari aks ettirilgan ertaklar keng tarqalgan. Qozog'istonda zamonaviy maktablarning shakllanishi XX asrning ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi. Bu davrda boshqa sohalar kabi maorif sohasida ham turli yangiliklar bo'ldi. 1992-yildan ta'lim tizimida qator islohotlar amalga oshirildi. Umumiy o'rta ta'lim maktablari kabi o'rta ma'lumot beradigan litsey, gimnaziya, hunar-texnika maktablari, kollejlari paydo bo'ldi.

2003-yil respublikada 108 gimnaziya, 63 litsey, litsey va gimnaziya sinflari bo'lgan 289 maktab, iqtidorli bolalar uchun mo'ljallangan 30 maktab ishladi. 312 hunar-texnika maktabida 89 mingdan ziyod, 382 kollejdagi 207 mingdan ortiq o'quvchi o'qigan bo'lsa, bugunda ularning soni ancha ko'paydi. Qozog'istonda birinchi oliy o'quv yurti — Qozog'iston pedagogika instituti 1928-yil Almati shahrida ochildi. Hozirda Qozog'istonda 43 dan ortiq davlat oliy o'quv yurtlari ishlab turibdi.

Qozog'istonda bir qancha kutubxona (eng yirigi Qozog'iston Respublikasi milliy kutubxonasi), klub muassasalari, 12 muzey (yiriklari: Qozog'iston Respublikasi davlat muzeyi, San'at muzeyi, Muxtor Avezov uy muzeyi, Abay Qo'nonboyev memorial muzeyi va boshqalar) bor.

7.3. Tojikiston va Turkmanistonda pedagogika fani rivoji.

Tojikistonda maorif tizimining bugungi shaklda rivojlanishi XX asrga to'g'ri keladi. Tojikiston ta'lim tizimi tuzilishi quyidagicha:

- boshlang'ich ta'lim;
- to'liqsiz o'rta ta'lim;
- umumiy o'rta ta'lim maktablaridan
- o'rta maxsus ta'lim;
- oliy o'quv yurtlarida iborat.

Yirik oliy oliy o'quv yurtlari: Tojikiston universiteti, Politehnika instituti, Qishloq xo'jalik instituti, Tibbiyot instituti, Pedagogika institutlari, Qo'lob va Xo'jand pedagogika institutlari.

Bundan tashqari turli vazirliklarga qarashli ilmiy muassasalar mavjud. 1999 yil Tojikistondagi 8 ta yirik oliy o'quv yurtlarining tashabbusi bilan tuzilgan Fan va maorifni rivojlantirish uyushmasi ilmiy texnika muassasalari oliy o'quv yurtlari jamoalarini birlashtirdi. U yangi axborot texnologiyalarini ishlab chiqib, oliy va o'rta ta'lim tizimiga joriy etish innovasion texnologiyalarni rivojlantirish, xalqaro ta'lim andozalarini Tojikiston oliy va o'rta ta'lim tizimiga joriy etishga qaratilgan. Bu sohada xalqaro tajriba ayirboshlashga ko'maklashish kabi ishlar bilan shug'ullana boshlandi. Tojikistonda Firdavsiy nomidagi Tojikiston davlat kutubxonasi, Tojikiston Fanlar akademiyasining Markaziy ilmiy kutubxonasi va mingdan ortiq ommaviy kutubxona, 15 davlat muzeyi bor.

VIII BOB. AFRIKA MAMLAKATLARI TA'LIM TIZIMI MAZMUNI

8.1. Janubiy Afrika Respublikasi ta'lim tizimi

Hozirgi JAR hududiga yevropaliklar kelgunga qadar (17-asr o'rtalarigacha) afrikalik yoshlarga ta'lim berish an'anaviy afrikacha yo'ldan borgan: yosh avlodga turmush ko'nikmalari va hayot falsafasini o'rgatar edi. Yevropaliklarning dastlabki manzilgohlari barpo etilgach, ularning farzandlari cherkov ruhoniysida diniy kitob o'qishni o'rganardi. Xristian dini targ'ibotchilari (missionerlar) 18-asr oxiri-19 asr boshlarida dastlabki maktablarni ochishdi. Inglizlar avval boshdanoq bu maktablarda yevropaliklar va mahalliy millat bolalarining alohida-alohida o'qishini joriy etdilar. 1995-1996 yil o'quv yilida maorif ehtiyojlari uchun 8,9 mln. AQSH dollari miqdoridagi mablag' ya'ni davlat byudjetining 21,2 % sarflandi. Jami, o'quvchilar 9,3 mln. kishiga yetdi. Boshlang'ich maktab o'qituvchilari kollejlarga, o'rta maktab o'qituvchilari 17 universitet va 3 politehnika institutida tayyorlanadi. Hozirgi kunda JARda minglab boshlang'ich maktab va kollejlari, 17 universitet va 3 politehnika instituti ishlab turibdi.

Yirik universitetlari: Pretoriya universiteti, Vitvatersrand universiteti, Stellenbosh universiteti, Keyptaun universiteti.

Yirik kutubxonalari: Blumfonteyndagi ommaviy kutubxona (1875 yilda tashkil topgan), Keyptaundagi shahar kutubxonasi (1952), Parlament kutubxonasi (1857), Janubiy Afrika ommaviy kutubxonasi (1818), Keyptaun universiteti kutubxonasi (1829).

Asosiy muzeylari: Blumfonteyndagi milliy muzey, Janubiy Afrika tabiat tarixi muzeyi, Janubiy Afrika madaniyat tarixi muzeyi, Keyptaundagi Milliy galereya.

8.2. Zambiya Respublikasi ta'lim tizimi

Zambiya mustaqillikka erishgach, mamlakat ta'lim tizimida ham qator o'zgarishlar yuz berdi. Uzlaksiz ta'lim tizimi shakllandi.
-boshlang'ich ta'lim (7 yil);

- o'rta ta'lim (5 yil)
- o'liy ta'lim (4-6 yil)

Dastlab boshlang'ich maktablarda afrikalik bolalar yevropaliklar bilan birga o'qitila boshlandi. Bolalar 7 yoshdan boshlab 7 yillik boshlang'ich maktabda o'qiydi. Boshlang'ich maktabning 1- 4 sinflarida darslar ona tilida, so'ng ingliz tilida olib boriladi. O'rta maktab 5 yillik. Boshlang'ich maktablar uchun o'qituvchilar kichik (to'liqsiz) o'rta maktab negizida pedagogika bilim yurtlarida 2 - 3 yil davomida tayyorlanadi. Kichik o'rta maktab o'qituvchilari esa to'liq o'rta maktab negizida pedagogika kollejlarda 2 yil davomida , to'liq o'rta maktab o'qituvchilari institutda tayyorlanadi. Hunar-texnika ta'limi boshlang'ich maktab negizidagi hunar maktablarida va hunarmandchilik o'quv yurtlarida amalga oshiriladi. Zambiyaning eng mashhur oliy o'quv yurti Lusakadagi universitet (8 fakultet), Kitve-kanada uning filiali bor.

Zambiyada yana bir qancha institut va kollejlari, shu jumladan, Milliy ijtimoiy boshqaruv instituti, amaliy hunarmandchilik va tijorat kolleji, texnika kolleji, milliy resurslarni rivojlantirish kolleji va b.

Yirik kutubxonalari: Lusakada Zambiya universiteti kutubxonasi, Zambiya kutubxonalar boshqarmasi, shahar ommaviy kutubxona, Ndola va Kitve-Nkanada ommaviy kutubxonalar bor.

Muzeylari: Lusakada K. Kaunda uy-muzeyi, Milliy mustaqillik birlashgan partiyasi siyosiy muzeyi, Livingstondagi muzey, Ndola va Mbaladagi muzeylar.

8.3. Jazoir ta'lim tizimi

Jazoir mustaqillikka erishgach, maorif sohasida katta yutuqlarga erishildi. 7 ta universitet, 170 ta boshqa oliy o'quv yurtlari, 700 ta hunar-texnika ta'limi markazlari bor. Mamlakatdagi umumta'lim maktablarida 260 mingdan ortiq o'quvchi, oliy o'quv yurtlarida 200 ming talaba ta'lim oladi.

Eng yirik kutubxonasi – Jazoir shahridagi milliy kutubxona (1 mln.ga yaqin asar). Yirik muzeylari – Jazoir milliy muzeyi (1930), Antik dunyo yodgorliklari milliy muzeyi (1897) va b.

Asosiy ilmiy muassasalari Jazoiridagi Yadro tadqiqot instituti (1966), Okeanografiya instituti, Astronomiya, astrofizika va meteorologiya rasadxonasi, Biokimyo instituti mavjud. Tibbiyot muammolari bilan Rakka qarshi markaz, Paster instituti (parazitologiya va mikrobiologiya), gigiyena, traxoma va tropik oftalmologiya, stomatologiya institutlari shug'ullanadi.

Savol va topshiriqlar:

- 1.Janubiy Afrika Respublikasi ta'lim tizimi haqida so'zlab bering.
- 2.Zambuya Respublikasi ta'lim tizimi haqida nimalar bilasiz?
- 3.Jazoir maorifi, madaniy-ma'rifiy va ilmiy muassasalari haqida gapirib bering.

IX BOB. JAHON MAMLAKATLARIDA PEDAGOG KADRLARNI TAYYORLASH MASALALARI.

9.1. Jahon mamlakatlarida pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyoj va ularni tayyorlash masalalari

Boshqa ko'plab kasblar kabi o'qituvchilik kasbi tayyorgarligi dastlabki pedagogik ta'lim olingandagina tugamaydi. O'qituvchilarga doimiy yangilanib turuvchi talablar qo'yiladi. Professional o'qituvchi bu yangilanishlarga tabiiy ravishda o'z kasbiy darajasini doimiy oshirib borish bilan erishishi lozim. O'qituvchilarni tayyorlash uzluksiz jarayon sifatida ishga kirgunicha, ishga kirayotgan vaqti va ishlayotgan davri bosqichlarini o'z ichiga oladi.

O'qituvchilarni dastlabki tayyorlash

Yevropa Ittifoqining aksariyat davlatlarida (Daniya, Finlandiya, Fransiya, Germaniya, Gretsiya, Irlandiya, Ispaniya, Shvetsiya, Buyuk Britaniya) boshlang'ich va o'rta maktab o'qituvchilarining dastlabki tayyorgarligi oliy o'quv yurtlarida kechadi. O'rta maktabning boshlang'ich sinflarida dars berish uchun o'qituvchilar oliy ma'lumotli bo'lishi kerak (Avstriya), Belgiya, Gollandiya bundan istisno.

O'qituvchilarning kasbiy va amaliy tayyorgarligi asosiy kurs bilan bir vaqtda (baravar usul) yoki asosiy kursdan keyingi, masalan, aspirantura darajasida (izchil usul) olib boriladi. Baravar usul bo'yicha kirish talablariga to'liq o'rta ma'lumot to'g'risidagi attestat, ba'zi hollarda oliy ma'lumot olishga loyiqligi haqidagi sertifikat talab qilinadi. Izchil usul bo'yicha dastlabki oliy ma'lumot (universitet yoki undan boshqa) maxsus fan yo'nalishini egallagan talabalar muallimlikka aspirantura yoki universitetdan tashqari kurslarda tayyorlanadi.

Baravar usul o'qituvchilarining barcha ta'lim va tayyorgarligi boshlang'ich maktablarda izchil usulda yo'lga qo'yiluvchi Fransiya boshqa barcha davlatlarda keng tarqalgan. Angliyada har ikki usul ham amal qiladi, ammo maktab o'qituvchilarini tayyorlashning baravar usuli kengroq tarqalgan.

Shotlandiyada kasbiy ta'limda lektorlar pedagog darajasini egallashlari mumkin. Bu majburiy bo'lmasada, 85% lektorlar bu daraja sohibi bo'ladilar. Pedagoglar tayyorlashda lektorlar uchun albatta pedagog malakasi talab qilinadi. Oliy ta'limning boshqa sohalarida lektorlar odatda bunday malakaga ega emaslar. Hozirgi kunda universitet xodimlari uchun ta'lim kurslarida pedagogik metodlarga tayaniladi.

Lektorlardan oliy ta'limda ham, undan keyingi ta'limda ham ta'lim usullarini doimiy yangilab borish talab qilinadi. Buning turli jihatlari izohlanadi. Bir qancha davlatlarda lektorlardan yaxshi natijaga erishish talabi qo'yilgan qoidalar mavjud. Shuningdek:

1. Talabalarning muvaffaqiyatlari bilan bog'liq moliyaviy pul ulushi mavjud.
2. Talabalarga har bir predmet bo'yicha so'rovnomalarni to'ldirishga beriladi. Natijalar kursdagi barcha lektorlarni jamlovchi kurs qo'mitasi a'zolari, talabalar vakillari, ishlab chiqarish va mahalliy jamiyatlar vakillari huzurida e'lon qilinadi.

3. Ta'lim sifatini tekshirishni amalga oshiruvchi inspektor va boshqa universitet xodimlari ishtirok etadi.

4. Talabalarni baholovchi professionallar guruhi tuziladi.

Yomon o'qitish mazkur kursga juda kam talabalarni to'plashga sabab bo'ladi va bu o'z navbatida kursning yopilishiga olib kelishi mumkin.

Dastlabki kurslarni tasdiqlash

Shotlandiya Davlat kotibi o'qituvchilar tayyorlanishini bir necha yo'l bilan nazorat qiladi:

- u maktab o'quvchilari ta'limi kursini tasdiqlaydi;

- tasdiqqa ega bo'lgan, sharoitlarni yaratib beruvchi homiy tashkilotlarga ko'rsatma beradi;

- har yili malaka oshirish kurslariga kirish talablarining eng quyi darajasini ishlab chiqadi;

- ta'lim olish uchun o'qituvchilar soni va o'rni nazorat qiladi.

Maktab inspektori pedagogik ta'lim sifati samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

1994 yili Angliya va Uelsda o'qituvchilar tayyorgarligi agentligi (O'TA) tashkil qilindi. Uning maqsadlari quyidagicha belgilandi:

- ta'limning barcha yo'nalishlari bo'yicha sifat va samaradorlikni yaxshilash;

- o'qituvchilarning barcha maktablarda kurslarga jalb qilinishini kafolatlash;

- o'qituvchilarning dastlabki tayyorgarligi uchun davlat rejasini ishlab chiqish hamda yangi o'qituvchilar uchun davlat standarti va talablarini ko'rib chiqish.

O'TA "O'qituvchi malakasi statusining davlat standarti"ni ishlab chiqdi. Shuningdek, ro'yxatdan o'tgan tashkilotlarda o'qituvchilarning dastlabki tayyorgarligi kursini muvaffaqiyatli tugatgan talabalar malakali o'qituvchi maqomi (MO'M)ga ega bo'ladilar.

Har bir kurs ta'lim oluvchiga standart bo'yicha alohida baho qo'yishni o'z ichiga oladi. Talabaga quyidagi standart talablari qo'yiladi:

- predmetni bilish va anglash;

- rejalashtirish, sinfdagi o'quvchilarga ta'lim berish va uni boshqarish;

- nazorat, baholash, jurnal yuritish bayonot va hisobot berish;

- boshqa kasbiy talablar.

Oliy toifa quyidagi bilimlarni o'z ichiga oladi: o'quvchilarga o'zining shaxsiy va kasbiy xulqi bilan namuna bo'lish, kasbiy takomillashishi kerakligini anglash va pedagogika yangiliklari, o'z predmeti yangiliklaridan xabardor bo'lib borish.

Umumiy o'qituvchilar kengashlari

Shotlandiyada umumiy o'qituvchilar kengashlari (UO'K) 1965 yili tashkil qilingan bo'lib, u shotland o'qituvchilari kasbiy darajasini yaxshilash, kasbga kirishish standartlarini belgilash va bu standartlar dastlabki tayyorgarlik kurslarida ma'lum strukturaga erishish mumkinligiga ishonchni tarbiyalaydi. Yangi o'qituvchilar UO'Kga shartli qabul qilinadilar. To'liq a'zo bo'lish faqatgina ikki yillik sinov muddati tugaganidan so'ng amalga oshadi. To'liq a'zo bo'lgan o'qituvchilardan o'z kasbiy darajasini uzluksiz takomillashtirish, o'z-o'zini baholashni rivojlantirishga tayyor bo'lish talab qilinadi.

Angliya va Uelsda tashkil qilingan UO'K quyidagi muammolar yechimiga yordam beradi:

- ta'lim standartlari;
- o'qituvchilar xulqi standartlari;
- o'qituvchi kasbining o'rni;
- o'qituvchining tayyorgarligi, obro'si va faoliyati;
- o'qituvchi kadrlar safini to'ldirish;
- dars berishga tibbiy jihatdan yaroqlilik.

9.2. Jahon mamlakatlarida o'qituvchilarni ishga qabul qilish

Vazifaga kirishish. Yangi o'qituvchi uchun dastlabki bir necha yil og'ir kechishi mumkin. Bir qancha davlatlarda (Avstriya, Belgiya, Angliya, Daniya, Fransiya, Germaniya, Gretsiya, Irlandiya, Italiya, Shotlandiya, Shvetsariya) yangi o'qituvchini dastlabki tayyorgarlik kursini muvaffaqiyatli yakunlab, ishga kirish arafasida baholash davri mavjud.

Avstriyada sinov muddati bir yildan iborat. Maktab xodimi yangi o'qituvchining faoliyatini kuzatib borishga javobgar hisoblanadi. Yangi o'qituvchi yil davomida haftada bir marta pedinstitutga qatnash imkoniyatiga ega.

U bu muddatni qay darajada muvaffaqiyatli o'tkazganini maktab jamoasi, ilmiy mudir, maktab inspektori va pedinstitut xodimi hal qiladilar.

Belgiyada o'qituvchi stajyor bo'lgunga qadar, 240 kun vaqtinchalik o'qituvchi bo'lib ishlashi lozim. Stajirovka yana bir yilni o'z ichiga oladi. Bir yildan so'ng stajyor faoliyatini ilmiy mudir hamda maktab inspektori baholaydi. Ilmiy mudir va maktab inspektori bayonotiga asosan mazkur o'qituvchining lavozimiga loyiq ekanligi yoki sinov muddatini yana biron yilga uzaytirish lozimligi yoxud uning faoliyati umuman qoniqarsiz ekanligi hal qilinadi. Germaniyada sinov muddati bo'lg'usi o'qituvchining kasbiy tayyorgarlik darajasiga qarab belgilanadi.

6 daraja mavjud: 1 — eng yuqori, 5 yoki 6 qoniqarsiz. O'qituvchi birinchi darajada 12 oy sinov muddatida faoliyat yuritadi, 2 — 15 oy, 3 — ikki yil.

Maktab inspektori ilmiy mudir qarashlariga asosan sinov muddati nechog'li samarali o'tganligi haqida qaror qabul qiladi.

Daniyada sinov muddati ikki yil davom etadi. Yakuniy qaror asosan ilmiy mudir axboroti asosida maktab kengashi tomonidan qabul qilinadi. Gretsiyada pedagogik faoliyatning dastlabki ikki yili sinov muddati hisoblanadi. Shundan so'ng o'qituvchi maktab maslahatchilari tomonidan baholanadi. Baho ijobiy bo'lgan taqdirda o'qituvchi o'z vazifasida doimiy qoldiriladi.

Shotlandiyada yangi o'qituvchi ta'limga muvofiq kursni tugatgach hamda UO'Kning shartli ruxsati bilan o'qituvchi hisoblanadi. To'liq ro'yxatdan o'tish faqatgina ikki yillik sinov muddatidan so'ng amalga oshiriladi.

9.3. Jahon mamlakatlarida o'qituvchilar malakasini oshirish

Yevropa modeli: Yevropa davlatlarida buni tashkil qilishning aniq ko'rinishini tasvirlash bir necha sabablarga ko'ra qiyin kechadi:

- ta'lim darajasidagi farqlar;
- muqarrar va qo'shimcha ta'lim;
- mashg'ulot turi;
- davomiylik va predmetlar bo'yicha.

Malaka oshirish asosan rivojlanishning ikki bosqichida kechadi (Avstriya, Belgiya, Finlyandiya, Niderlandiya, Portugaliya, Shotlandiya, Ispaniya, Shvetsiya). Dastavval u norasmiy va ko'ngilli ravishda, shundan so'ng ikkinchi bosqichda aniq tizimli, muqarrar ravishda bo'ladi. Odatda ta'lim barcha darajadagi maktablarda bir vaqtda olib boriladi (Avstriya, Germaniya, Norvegiya, Portugaliya, Shotlandiya). Bungacha dastlabki shu singari amaliyot boshlang'ich maktablarga yuklatilgan edi (Fransiya va Lyuksemburgda), Irlandiyada esa, istisno tariqasida norasmiy mashg'ulot dastavval o'rta maktablarga kiritilgan.

O'qituvchilar tayyorlanishi agentligi Angliya va Uelsda malaka oshirishning doimiy standartlarini ishlab chiqdi. Standartlarning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- o'qituvchilarga kasbiy faoliyatning har xil ko'rinishlarida yordam berish: takomillashuvning samarali rejasini tuzish va tekshirib borish, o'z-o'zini takomillashtirishga tayyorgarlik, faoliyat va bu yo'lda aniq maqsadni qo'ya olish;
- o'z-o'zini takomillashtirishda o'qituvchilarning ma'lum yutuqlarga erishishi uchun maqsadni yo'naltira bilishni doimiy ta'minlash va ta'lim sifati;
- o'qituvchi mehnatining asosini professional jihatdan anglashni ta'minlash;
- uzluksiz kasbiy kamolotni rejalashtirish va o'qituvchilarning bo'sh vaqtlarini samarali o'tkazish hamda ularning o'qituvchilariga eng yuqori foyda keltiruvchi yuksak malakaviy mashqlarni taqdim qilishga ko'maklashish.

Shotlandiyada o'qituvchilar malaka oshirishga bo'lgan o'z ehtiyojlari bilan baholanadilar. Shundan so'ng ular bu ehtiyojlarni tajribali xodimlar bilan muhokama qiladilar. O'rta maktabda katta o'qituvchining vazifasiga kadrlar tayyorlash masalalari bilan ishlash kiradi. Muhokama milliy ta'limni boshqarishda, maktabda va individual rivojlanishda eng muhim ehtiyojlar doirasida o'tadi. Xodim ehtiyoji, xoh, o'qituvchilik, xoh, undan tashqari ishda bo'lsin, maktabni rivojlantirish rejasining eng muhim va ajralmas qismi bo'lib qoladi. Bu ehtiyojlarning bir qanchasi mahalliy darajada, boshqasi ta'limni boshqarish darajasida, o'qituvchilar malakasini oshirish instituti yoki ekspertlar yordamida qondirilishi mumkin.

Gretsiyada o'qituvchilar joylarda har 5-6 yilda uch oylik o'qituvchilar malakasini oshirish kurslarini o'tashlari kerak. Bundan maqsad o'qituvchilarni turli tartibdagi ta'lim sohasining eng so'nggi yangilik va yutuqlari, o'quv dasturlari, o'qitish usullari bilan tanishtirib borishdir.

Tadqiqotlar maktab faoliyatining samaradorligi, ta'lim muassasasining rahbarlik qobiliyatiga shubhasiz bog'liq ekanligini ko'rsatadi. So'nggi yillarda Shotlandiyada "Direktorlarni menejment bo'yicha tayyorlash" kurslari faoliyat yuritmoqda. Ular joylarda mashqlar orqali va turli masalalar yuzasidan materiallar e'lon qilish vositasida ta'limning yuksak standartlarini yoyishga imkon beradi.

Shotlandiya ofisi Shotlandiya direktorlari standartini tayyorladi. U ushbu lavozim sohibiga xos bo'luvchi chuqur bilimlilikning asosiy o'lehamlarini belgilab beradi.

O'qituvchilar bilan davomli hamkorlik va o'zaro maslahatlashuvlar jarayonida ishlab chiqilgan standart Shotlandiya rahbarlari malakasi (SHRM) ning asosi hisoblanadi. SHRMni egallashga boruvchi o'qituvchilar malakasini oshirishning bu yangi ko'rinishini yanada mukammallashtirish ustida olimlar ish olib borishmoqda.

Ish joylarida tayyorgarlik o'tkazish qarori

Fransiyada Vazir har yili kelgusi o'quv yilida o'qituvchilar tarkibini tayyorlash mashqlarida hisobga olinadigan prinsiplar, rahbarlik va eng ahamiyatli jihatlar bayonnomasini ishlab chiqadi. Maktab direktori mashqlarning milliy dasturini tayyorlaydi. Quyidagilar eng zarur deb hisoblanadi:

- bilimlarning zamonaviyligi;
- o'qitish usullarini takomillashtirish;
- boshqaruv malakasini rivojlantirish.

Gretsiya ta'lim vazirligi milliy darajadagi malaka oshirishga javob beradi. U eng zarur narsalarni aniqlaydi, masalalar qo'yadi va mashg'ulotlar shakli hamda mazmuni yuzasidan qaror qabul qiladi. Shuningdek, shunga mos qonunchilik asoslarini ishlab chiqadi.

Italiyada malaka oshirish to'rt xil harakat ko'rinishidagi tayyorgarlik bo'yicha milliy dasturga asoslanadi:

- milliy tizim;
- mintaqaviy tizim;
- viloyat tizimi;
- mahalliy o'qituvchilar kengashlari.

Irlandiya Respublikasi ta'lim departamenti malaka oshirishni tashkil qiladi, belgilaydi va unga homiylik qiladi. Bir qancha agentlar departamentga ehtiyojlariga javob beruvchi o'z takliflarini kiritadilar. Takliflar inspektorlar tomonidan ko'rib chiqiladi. Shotlandiyada Davlat kotibi 75 foiz miqdor fondni alohida grantlar tizimining eng asosiy sohalari kurslariga ajratadi. Homiylik jabhasi departament tomonidan ta'lim boshqaruvi avvaldan xabardor inspektorat ishtirokida ko'rib chiqiladi.

Kurslarga muqarrar va erkin qatnashish

Yevropaning bir qancha davlatlarida davomiyligi bir necha kun bo'lgan majburiy malaka oshirish haqida qaror qabul qilingan (Finlyandiya, Irlandiya, Norvegiya, Portugaliya, Shotlandiya, Ispaniya). Boshqa mamlakatlarda bir kunlik konferensiyalarga ishtirok etish majburiy hisoblanadi (Belgiya va Fransiya).

Belgiyada har yili mahalliy inspektorlar tomonidan ish joylarida uyushtiriladigan ikki - uch kunlik kurslarga qatnashish majburiydir. Inspektorlar tomonidan qo'shimcha kurslar ham tashkil qilinishi mumkin, biroq ularga qatnashish majburiy emas. Shotlandiyada o'qituvchilarga tayyorgarlik uchun har yili 5 kun ajratiladi va uning berilishiga ta'lim bo'limi javob beradi. 50 soat minimum ishni rejalashtirish vaqti (IRV) har yili o'qituvchilarning maktabning keng miqyosdagi ehtiyojlari uchun ajratiladi. Ta'lim rejasini qayta ishlash,

o'qituvchilar malakasini oshirish, maktabning ichki aloqalari, kasbiy kamolot, pedagogik kengash va ta'lim bo'limi yig'ilishlarida kasbdoshlar bilan uchrashishni misol qilish mumkin. O'qituvchi 50 IRVning 20 soatini direktor ko'magida individual ish uchun ajratish huquqiga ega.

Butun professional faoliyati davomida o'z ehtiyojlarini qondirish uchun Fransiyada o'qituvchilarga tayyorgarlik kurslarida ishtirok etish uchun (36 hafta) kredit ajratiladi. Ularga kurslarga o'z ixtiyori bilan qatnashishi huquqi beriladi. Ularning qatnashuvi ta'lim bo'yicha tuman inspektorati tomonidan rag'batlantiriladi. Niderlandiyada o'qituvchilar malakasini oshirishning qiziq o'ziga xosligi bor — ularda hatto ishsiz o'qituvchilar ham mashg'ulotlarda ishtirok etish huquqiga ega.

Yevropa Ittifoqining har bir davlatida joylarda tayyorgarlik o'tkazish uchun qanchadan pul sarflanishini aniq aytish qiyin. Biroq shuni aytish lozimki, mashg'ulotlarga ajratilgan mablag' ta'lim uchun ajratilgan umumiy mablag'ning 1 foizga yaqinini tashkil etadi.

Bir qancha davlatlarda (Angliya, Niderlandiya, Shotlandiya) o'qituvchilar tayyorgarligiga ajratilgan mablag' maktablarga beriladi. Maktablar o'z ehtiyojlarini o'zlari aniqlaydi yoki ularni mavjud vositalar, ba'zan tashqi agentlar yordamida belgilaydi. Bu ehtiyojni qondirish tizimini yaxshilash hamda ish sifatini oshirishga olib keladi. Hukumat zimmasida mashg'ulotlarni milliy tashabbus miqyosida mablag' bilan ta'minlash vazifasi yotadi.

Angliya va Uelsda o'qituvchilar malakasini oshirishni mablag' bilan ta'minlash uch manba asosida shakllanadi:

— Hukumat miqyosida. Bunda fond mahalliy ta'lim organlari vositasida taqsimlanadi.

— Mahalliy ta'lim bo'limlarining o'z mablag'lari. Bir qismi maktablarga berilib, bir qismi o'qituvchilarni joylarda tayyorlashga ajratiladi.

— Malaka oshirish mashg'ulotlarini mablag' bilan ta'minlash fondi. O'qituvchilarni tayyorlash agentligi maktab o'qituvchilari uchun ochilgan kurslarga homiylik qiladi.

Angliya va Uelsda 23000 boshlang'ich va o'rta maktablarning 400000 o'qituvchisini qayta tayyorlash uchun har yili 800 millionga yaqin dollar sarflanadi.

Norvegiya hukumati malaka oshirish kurslariga o'qituvchilarning qatnashuvini mablag' bilan qo'llab-quvvatlashni o'z zimmasiga oladi. O'qituvchiga islohotlar bilan bog'liq predmet bo'yicha bilimlarni mustahkamlash va boshqa maktab masalalari bo'yicha shaxsiy javobgarlik yuklanadi. Daniyaning har bir maktab boshqaruv kengashi yillik byudjetdan o'qituvchilar malakasini oshirish uchun kerakli mablag'ni ajratishni zimmasiga oladi. Har bir maktab direktori maktabning o'qituvchilarni qayta tayyorlash siyosatini aniqlaydi, har bir mashg'ulot turiga fond ajratish, o'qituvchilarni kurslarga taqsimlash masalalarini bajaradi.

Gretsiya ta'lim vazirligi o'qituvchilarni tayyorlashning barcha turlari bo'yicha mablag'larni rejalashtirish va boshqarishga javobgar hisoblanadi. O'z vaqtida mintaqaviy boshqaruv organlari ijro etuvchi rolini o'ynaydi.

5 oylik tayyorgarlik kurslarini yo'l - yo'lakay o'tovchi doimiy o'qituvchilar hali ishga kirmagan, tayyorgarlik bosqichini o'tagan o'qituvchilar bilan almashadilar. Belgiyada o'quvchilar ta'tilga chiqqanida o'qituvchilar uchun 2-3 kunlik tayyorgarlik kurslari uyushtiriladi.

O'zbekistonda o'qituvchilar malakasini oshirishni o'tkazishning asosiy mazmuni:

- o'qituvchilarning kasbiy mahoratlarini o'z predmeti bo'yicha oshirish;
- o'qitishning yangi usullarini o'rganish;
- tajriba almashish va tajribali pedagoglarning ta'limi;
- kompyuter savodxonligi va chet tilini o'rganish va takomillashtirish.

Asosiy zaif tomonlar:

- o'qitishning yomon usullari;
- zarur va zamonaviy adabiyotlarning yetishmasligi;
- ba'zi malaka oshirish institutlaridagi yomon sharoit;
- keraksiz predmetlarning ko'pligi;
- kompyuter texnologiyasini egallashning past darajasi;
- yuksak malakali pedagoglarning yetishmasligi.

O'zbekistonda o'qituvchilar malakasini oshirish tizimini takomillashtirish usullari:

- chet davlatlarda stajirovka va chet el tajribasini o'rganish;
- malaka oshirish institutlariga tajribali ma'ruzachilarni jalb qilish;
- zamonaviy metodik adabiyotlarning qo'llanilishi;
- kompyuter malakalarini o'zlashtirish;
- o'qitishning zamonaviy usullari;
- amaliy mashg'ulotlar ustuvorligi;
- o'quvchilar fikriga e'tibor berish;
- o'quvchilar ehtiyojlariga katta e'tibor berish.

O'qituvchilar doimiy kasbiy rivojlanishda o'z ehtiyojlarini aniq belgilay oladilar. Ular o'qitish usullarini boshqa tajribali o'qituvchilar bilan muhokama qilib, aniq baholay oladilar va kompyuter malakalarini takomillashtiradilar. Shu bilan bir vaqtda o'qituvchilarning aksariyati, ma'ruzalarni zerikarli, o'qitish usullari yomon, ba'zilar hatto malaka oshirish kurslariga qatnashish vaqtini va pulni bekorga sarflash deb hisoblaydi.

Vaziyatni o'zgartirishning birinchi usuli — chet el tajribasini qo'llash, masofaviy ta'limni yo'lga qo'yish hisoblanadi.

Yevropada o'qituvchilar tarkibini takomillashtirish talablarini tahlil qilish an'anasi shakllangan. Rivojlanish rejasi mavjud institutlarda takomillashish zarurati xodimlar bo'yicha yig'iladi va jamoatchilik e'tiboriga havola qilinadi.

Savol va topshiriqlar:

1. Yevropada o'qituvchilarni dastlabki tayyorlash masalalari qanday amalga oshiriladi?
2. O'qituvchilarni ishga qabul qilish qoidalari nimalardan iborat?

3. O'qituvchilar malakasini oshirish qoidalari.
4. O'zbekistonda o'qituvchilar malakasini oshirish qanday amalga oshiriladi?

X BOB. XX-XXI ASRLARDA TA'LIM MAZMUNI

10.1. XX-XXI asrlarda xorijda xalqaro ta'lim makoni

Xalqaro ta'lim makoni – geosiyosiy hudud, global mashtabdagi va turli mamlakatlarning ma'orif bo'yicha jamoat va davlat tashkilotlari, ilmiy- pedagogik markazlar, barcha ta'lim va tarbiya muassasalari.

Zamonaviy dunyo ijtimoiy hayotining turli jabhalarida intensiv baynalminallashuv sharoitida o'zaro ta'sir va munosabatlashuvini bildiradi.

1.Shimol va Janub ta'limining rivojlanishida siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy xususiyatlari.

Baynalminallashuvning eng yangi bosqichi globalashuv jarayoni bo'ldi. U jahon xo'jaligini yaxlit organizm sifatida shakllantirib, mehnatning xalqaro taqsimotini chuqurlashtirdi va madaniy aloqalarni jadallashtirdi. Milliy yoki davlat miqiyosida hal qilish mumkin bo'lmagan kuchli global muammolar bilan yuzmayuz kelganda barcha insoniyat sa'yi-harakatlarini birlashishi obyektiv yechim topilishida yagona chora-tadbir bo'lib qolmoqda. Mamlakatlar va xalqlarda kuchayib borayotgan o'zaro bog'lanish, turli irq, konfessiya va millatga mansub odamlar o'rtasidagi aloqalar kengayishi, umumiy qadriyatlar shakllanishida va eng yaxshi xalqaro tajribadan samarali foydalanishda qulay sharoit yaratadi. Bu esa insoniyatning kelgusi istiqbolida ijobiy taraqqiy etishi uchun zamin yaratadi.

Globalashuv bir qator jiddiy salbiy jihatlarga ham ega. Umumsayyoraviy konvergensiya haqida eyforistik bashoratlar o'zini oqlamadi. Na davlatlararo ziddiyat, na etnik va diniy to'qnashuvlaroldi olindi. Mamlakat va mintaqalar taraqqiyotidagi notekis rivojlanish har qanday chora-tadbir bilan ham bartaraf etilmadi. Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar o'rtasidagi farq qisqarish o'rniga, yanada kengaydi. Bu esa, barcha insoniyat manfaatlariga aloqador va jahonda portlovchi vaziyat hosil qiluvchi eng og'ir muammoga aylandi.

Axborot istiqboli hali global xarakter kasb etib ulgurgani yo'q. G'arb olamida bir necha o'n million INTERNETdan doimiy foydalanuvchi mijozlar qayd etilgan bir paytda, Afrikaning ko'plab odamlari oddiy netbukdan foydalanishni bilmaydigan mamlakatlar taraqqiyoti postindustrial bosqichda. Rivojlanmagan mamlakatlar esa katta mashaqqat bilan sanoatlashtirish bosqichini boshdan kechirmoqda. Ular na iqtisodiy, na siyosiy na ruhiy jihatdan jahon integratsiyasi jarayonida tenglar qatoriga munosabatga kirishishga tayyor emas. Ko'plab mamlakatlarning "quvib yetuvchi rivojlanish" dasturiy tuzilmalarini ijobiy amalga oshirishi uchun imkoniyatlari yo'q.

Globalashuv sharoitida insoniyat sivilizatsiyasidagi turli farqlar o'zaro to'qnashadi. Bu dunyo amaliyotida misli ko'rilmagan yangi mumammolarni keltirib chiqardi. Iqtisodiy inqiroz, internetda foydalanishning salbiy oqibatlari.

Globalashuv jarayoni G'arb mamlakatlari tomonidan, jahonning ko'plab mamlakatlari o'zining ishlab chiqarish tizimi, siyosiy va ijtimoiy - madaniy

qadiriylariga yo'naltirishga intilayotgan AQSH tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. Lekin G'arb madaniy ekspansiyasiga qarshilik qiluvchi turli xalqlarning ko'p asrlik an'analari jahon umummadaniyati yaratilishida keskin ziddiyatlar hosil qilmoqda. "Men uyim har tomondan baland devor bilan o'rab olinishi, derazalari mahkamlab tashlanishini xohlamayman. Men barcha mamlakatlarning madaniyat shamoli uyimda qancha mumkin bo'lsa, shuncha esishini xoxlayman. Biroq bu shamollar meni yo'ldan adashtirishini aslo xohlamayman"-degan edi M.Gandi.

Globallashuv ayrim hollarda milliy chegaralarni bosib o'tib, muayyan mamlakatlar suvereniteti va ularning xalqlari milliy o'zligiga xavf tug'diruvchi omil deb qabul qilinmoqda.

Bularning bari "antigloballar" harakati paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Ular yoqlab chiqqan qarashlar qator mamlakatlar aholisining aksariyati tomonidan qo'llab - quvvatlanmoqda. Ammo globallashuv jarayonini to'xtatishga urinishlar istiqbolga ega emas.

Globallashuv – hozirgi dunyo taraqqiyotida xolis tendensiya. Uni in'om sifatida tushunmoq joiz. Bizning vazifamiz esa, uning imkoniyatlaridan insoniyatning ezgu maqsadlari yo'lida foydalanish va salbiy jihatdan yoki oqibatlarini imkon qadar kamaytirishdan iborat.

Globallashuv jarayonining murakkab va ziddiyatli jihatlari ta'lim sohasida ham o'ziga xos ravishda namoyon bo'lmoqda.

Hozirgi xalqaro ta'lim makonining asosiy xususiyatlari rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning ta'lim taraqqiyoti tendensiyalari va ta'lim ahvolining o'ziga xos jihatlari qat'iy hisobga olingan holda amalga oshirilishini talab qiladi.

Bunday bo'linish qator davlatlarga nisbatan sun'iy tarzda amalga oshirilgan. Kelgusida bu tasnif qayta ko'rib chiqilishi va ayrim davlatlar, masalan Janubiy-Sharqiy Osiyoning yangi industrial mamlakatlari rivojlanayotganlar qatorida rivojlanganlar safiga o'tishi va aksincha, holatlar amalga oshiriladi deb ehtimol qilish mumkin. Shuningdek, ayrim rivojlangan mamlakatlarda qoloq rayonlar, ayrim qoloq davlatlarda esa rivojlangan hududlar mavjud.

Ammo xalqaro tashkilot va statistik nashrlarda qabul qilingan tasniflar hali o'z kuchini yo'qotmagan. Shuning uchun qiyosiy tahlil qilish jarayonida milliy va xalqaro ko'rsatkichlar qiyoslanishini ta'minlash maqsadida aynan shu manbalarda qayd etilgan atamalar asosida tadqiqot ishlari olib boriladi.

Zamonaviy siyosiy va ijtimoiy adabiyotlarda "rivojlangan mamlakat", "rivojlanayotgan mamlakat" atamalari o'rniga ko'pincha Shimol va Janub atamalari qo'llaniladi. 1990 yillar boshidan G'arb va Sharq o'rtasida yuzaga kelib, dunyoni termoyadro halokati yoqasiga olib kelayotgan keskin qutblanishning uzun davri o'tmishda qoldi. Ammo bu qarama-qarshilikning susayishi Shimol va Janub o'rtasidagi ziddiyatlarning chuqurlashishi bilan almashdi.

Milliy va mintaqaviy farqlarni hisobga olish xalqaro ahamiyat kasb etadi. "Hozirgi kunda,- deyiladi YUNESKO nashrlarining birida,- uzoqni ko'ra oluvchi yetuk olimlar tomonidan insoniyat oldida turgan asosiy muammolarning umumsayyoraviy miqyosida va global xarakteri batafsil izohlab berilgan. Haqiqat

esa, yaqin o'n yilliklarda turli davlatlarning iqtisodiy va ilmiy rivojlanishida ulkan farq saqlanib qolishini hisobga olishni talab qiladi. Global miqyosida ularni uch toifaga ajratish mumkin: industriallashtirish arafasida bo'lgan, industrial va post industrial. Bunday farqlanishga ega mamlakatlarda ta'lim taraqqiyoti istiqbollari bir xil bo'la olmaydi."

Rivojlangan mamlakatlarda ta'lim jarayoni ilmiy - texnika inqilobining zamonaviy bosqichi talablari bilan bevosita aloqador. Mikroelektronika radiotexnika, biotexnologiyadan keng foydalanish, takomillashtirilgan kompyuterlarning paydo bo'lishi, mehnat va ishlab chiqarish jarayonida insonning o'zni mohiyatini o'zgartiradi. Zamonaviy jamiyat strukturasi, turmush tarzi va odamlar psixologiyasini jarayonga moslashtirdi. Iqtisodiyot aqlbovar qilmas darajada o'zgarib bormoqda. Ayrin sanoat mahsulotlari konveyyerdan chiqib ulgurmay, eskirib qolmoqda. Bir avlod hayotidayoq ulkan texnologik o'zgarishlar sodir bo'lmoqda.

Axborot yagona eskirmas va cheklanmagan darajada o'sib boruvchi resurs sifatida hal qiluvchi ahamiyatga aylanmoqda. Dunyoning istalgan nuqtasida bir necha soniya ichida Internet orqali axborot uzatish imkoniyati geografik imkon va vaqtga oid ming yillik an'anaviy tasavvurlarni yo'qqa chiqardi. Mahalliy ishlab chiqarish faoliyat yurituvchi aholining kasbiy-malakaviy tarkibi o'zgarmoqda.

Muhandislar va ilm, fan, maorif, sog'liqni saqlash, boshqaruv apparati xodimlari soni ortmoqda. Ilmiy taraqqiyot yoki sinov tajriba ishlab chiqarishi bilan mashg'ul yuqori malakali mutaxassislar soni sezilarli darajada ko'paydi.

Intellectual kasblar o'zining oldingi mutanosiblik ahamiyatini yo'qotib ommaviy tus olmoqda. Malakali xodimlarning umummadaniy va kasbiy bilimlarni keng o'zlashtirishi talab darajasiga ko'tarildi. Ammo eng yuqori texnologik tashkilotlarda ham oddiy malakali xodimlarning muayyan miqdori saqlanib qoladi. Sanoatning avtomatsiyalashishi ishchi - xodimlar malakasining betaraf talablariga ta'siri zid xarakterga ega. Yuqori malakaga ega xodimlarga talab oshishi bilan bir qatorda, hech qanday yuqori darajadagi umumiy ta'lim va kasbiy tayyorgarlik asoslari talab qilinmaydigan bir xil maromdagi vazifani bajaruvchi operatorlar guruhining qayta ixtisoslashuvi sodir bo'lmoqda. Bunday xodimlarning nazariy bilim darajasi uncha yuqori bo'lmasada, bu holat ijtimoiy ma'sullik hissi rivojlangan bo'lishi bilan kafolatlanishi kerak.

Qimmatbaho asbob-uskunalar va avtomatlashtirilgan sanoatning barcha ishtirokchilarining o'zaro chambarchas bog'liqligi xodimdan katta diqqat e'tibor, aniqlik va ehtiyotkorlikni talab qiladi. Shuning uchun ishchi xodimning o'quv partasidayoq zamonaviy korxonalaridagi yangi mehnat shartlariga tez moslashishi uchun kerak bo'lgan bu xususiyatlarni o'zlashtirishi va ko'nikma hosil qilishi talab qilinadi.

Zamonaviy IFI obyektiv tarzda umumiy o'rta ta'lim tizimini yaratish va yoshlarni turli ko'rinishdagi o'rta ta'limga jalb qilish vazifasini keltirib chiqardi. Tabiiyki, ta'lim darajasini ko'tarish va kadrlarni qayta tayyorlash endilikda sanoatni modernizatsiya qilish va yangi texnologiyalar yaratish rejalarining muhim tarkibiy qismiga aylandi.

“Iqtisodiyot va ta’lim” muammosi davlat hukumatini tobora o’ziga jalb qilmoqda. Chunki ularning iqtisodiy vazifalari ulkan darajada kengaydi. Agar o’tmishda kapitalistik davlatning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga bevosita aralashuvi favqulodda chora sifatida, urush yoki chuqur inqiroz paytlarida amalga oshirilgan bo’lsa, oxirgi o’n yilliklarda bu holat ichki siyosatning yetakchi an’analaridan biriga aylandi. Chunki qator g’arb mamlakatlarning o’ziga ham yirik tadbirkor yisoblanadi. U ulkan sanoat komplekslariga egalik qiladi. Shuning uchun ta’limning iqtisodiy samaradorligi ortishidan bevosita manfaatdor bo’ladi.

Turli mamlakatlarning olimlari tomonidan ta’limning iqtisodiy samaradorligi darajasining miqdoriy ko’rsatkichlarini aniqlashga urinishlari turli sabablarga ko’ra, aytarli muvaffaqiyat keltirmaganligi aytilgan edi. Bunday vazifani amalga oshirishi ta’limga sarflangan umumiy xarajat va uning iqtisodiy samarasi orasida uzoq vaqt namoyon bo’lishi bilan yanada murakkablashadi. Bu xarajalar esa o’quv muassasalari bitiruvchilari olgan bilimlarini amaliyotga tatbiq eta olgan holdagina iqtisodiy rentabelli hisoblanadi. Hatto juda rivojlangan mamlakatlarning qishloq xo’jaligida ham past malakali mehnatdan foydalanish keng tarqalgan. Nihoyat, o’qish muddatini uzaytirish har doim ham o’quv va bilimning proporsional o’sishiga yordam bermasligi mumkin. Shuning uchun ishchi xodimning ishlab chiqarish salohiyatini uning qancha vaqt partada o’tirgani va bu jamiyat uchun qanchaga “tushgani” bilan baholash kerak emas. Shu bilan birga, yetarli bilimga ega ishchi xodimlar bilan ishlab chiqarish mehnatining unumdorligi pasayishi mumkin. Chunki ular doimiy ravishda o’z ishidan, olgan bilimlariga munosib emasligi hissi tufayli qoniqmaydilar.

Aholining bilim darajasini kuchaytirish iqtisodiyot rivojlanishining asosiy yo’nalishiga mos keladi. Hatto ishchi-xodimlar ma’lum bir qismining mehnati mazmuni bevosita ularning har biridan to’liq o’rta maxsus hajmdagi nazariy bilim talab qilmasa ham, bu jarayonni qoniqarli deb baholash mumkin. Bu ishchi-xodim manfaatlariga ham mos keladi.

Bilimli ishchi-xodimga avtomatlashtirilgan korxonada o’z o’rnini topib olishi oson kechadi. U zamonaviy sanoatning chuqur struktura o’zgarishlari sharoitida ham yangi ixtisoslikni tez va muvaffaqiyatli o’zlashtira oladi.

Bir necha o’n yil muqaddam sanoati rivojlangan mamlakatlarda ta’limning davlat tomonidan rejalashtirishi, avvalo iqtisodiyotning konyunktur talablaridan kelib chiqqan edi. Undagi asosiy vazifalardan biri aholini “qayta o’qitish”ga yo’l qo’ymasdan iborat edi. Hozirda bu muammo butunlay boshqacha qilinadi. Yangi reja tuzuvchilar endilikda “malakali zahira” konsepsiyasiga asoslanib, yangi reja tuzadilar. Ya’ni malakali kadrlarni bunday miqdorda tayyorlash bugun ortiqchadek ko’rinishi mumkin. Lekin yuqori texnologik sanoatni keyingi yillar va o’n yilliklarda rivojlantirishga imkon yaratadi.

Ta’lim taraqqiyoti istiqbollari va an’analarini faqatgina iqtisodiyot talablari nuqtai nazaridan ko’rib chiqmaslik kerak. Bu muammoni insoniylik tamoyillari nuqtai nazaridan ko’rib chiqish so’nggi vaqtda dunyoda keng tarqaldi. Ta’lim sohasida paradigmatic o’zgarishlar qilish vazifasi chuqurlashdi. Ekonsentrizmdan sotsiosentrizm va kulturosentrizmga o’tish zaruratiga aylandi. Chunki madaniyat rivojlanishi iqtisodiyotga ham ijobiy ta’sir ko’rsatadi.

Ta'limning ijtimoiy samarasi uning bevosita iqtisodiy foydasidan ortiq ekanligi oydinlashdi.

Bizning davrimizda, "subyektiv omil"- insonlar zakovati va irodasi xolis ijtimoiy qonunlarni hayotga tatbiq qilishga bevosita bog'liq bo'lgan bir paytda, yangi dunyoda ijtimoiy taraqqiyotning o'ziga xos tushunchalari joriy qilinmoqda. Hozirgi iqtisodiy ko'rsatgichlarning muayyan miqdori emas, insonga ijodiy qobiliyatini to'la namoyon etishga imkon beruvchi sharoit yaratilganligi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lmoqda. Bu o'rinda ta'limning o'rni aniq. Shuning uchun to'laqonli ta'limga ijtimoiy talab kuchaydi. Bu muammoga jamoatchilik tomonidan yanada ko'proq ijtimoiy qiziqish bildirilmoqda. O'tgan davrda aksariyat davlatlarda, hatto eng rivojlangan mamlakatlarda ham ta'lim muammolari dolzarb masala hisoblanmagan. Eng kichik zaruriy materiallar bilan ta'minlash vazifasi ham ko'pincha ortga surilgan. Hozir esa rivojlangan mamlakatlarning salmoqli qatlami uchun boshqacha turmush tarzi xarakterli bo'lib, avvalgilardan yuqori iqtisodiy ko'rsatgichlar va yuqori darajali ijtimoiy-madaniy yutuqlari bilan farqlanadi. Ular uchun og'irlik markazi qorishib, "postmaterial qadriyat" deb ataluvchi tomonga tegishli (mehnatning ijodiy xarakteri, to'laqonli hordiq) dunyoviy omillar o'z ahamiyatini to'laqonligicha saqlab qolmoqda.

Yoshlarning keng qatlami yaxshi ta'lim olish ijtimoiy mavqega erishish yo'lidagi zaruriy shart deb bildiradilar. Ta'lim darajasi va maosh miqdori o'rtasida sezilarli tafovut bo'lmaydi. AQSHda o'rta maktabni tugatgan ishchilar o'zi bilan tengdosh bakalavrlardan 1,5-2 marta, doktor diplomiga ega odamlardan esa 3 marta kam maosh oladi. Shunga yaqin proporsiya Yevropa mamlakatlarida ham kuzatiladi. Ta'lim pog'anisidan yuqoriga qo'yilgan har bir odam muayyan tarzda rag'batlantiriladi. Bilimlarga ijtimoiy ehtiyoj o'rta ma'lumotli ishchilar maoshi nisbatan kamayib boradi. Oliy ma'lumotli xodimlar maoshi nisbatan ham, mutloq ham oshib boradi. Iqtidorli yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilishda moddiy rag'batlantirish tizimi yo'lga qo'yilgan.

So'ngi yillarda ilmiy mehnatning ijtimoiy maqomi devalvatsiyasi boshqa hech bir mamlakatda hech qachon kuzatilmagan. AQSH, Yaponiya va Buyuk Britaniyada ilmiy xodimlar maoshi xalq xo'jaligi xodimiga nisbatan ikki marta yuqori, Rossiyada esa ularning maoshi sanoat xodimiga nisbatan ikki marta kam. Bu so'zsiz, fanda inqirozli holatni hosil qilmoqda. "Axir, nega inqiroz bo'lmasin, - deb yozadi taniqli rus iqtisodchisi, akademik N.P.Fedorenko, - bozor islohoti deb atalgan davrda moliyalashtirishning o'zi 15 marta kamaygan bo'lsa? Axir nega inqiroz demaylik, agar dunyoga mashhur olim maoshi iste'mol saytidan 3-4 marta, moskvalik eshikbon maoshidan ikki marta kam bo'lsa." Bu yangi "akademiya" lar va soxta "akademik"lar paydo bo'lishini ham keltirib chiqaradi.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda oliy ta'lim darajasi ishsizlikning oldini olish kafolati sifatida ko'riladi. Bandlikning ortishi nisbatan oliy ma'lumotli shaxslar hisobiga bo'ladi. Aynan ular uchun yangi ishchi o'rni belgilanadi. To'g'ri, mehnat bozoridagi konyunktura ayrim mamlakatlarda ishsizlarning muayyan qismini diplomli mutaxassislar ham tashkil qilishni ko'rsatadi. Biroq ishsizlikning dastlabki qurbonlari minimal bilim darajasiga ega ishchilar bo'lib qolaveradi. Ularning orasida esa yoshlar katta yoshlilarga nisbatan 2-3 marta ko'pchilikni

tashkil qiladi. Tabiiyki, zaruriy ta'lim malakasini olish imkoniyati masalasi mehnat qilayotgan yosh avlodni hayotga qiziqishini orttiradi.

Aholining imtiyozli guruhiga mansub yoshlar orasida turli jamiyatlarning yangi usullari tashkil topishida ta'limning ahamiyati ortadi. O'tmishda G'arbning serg'ayrat va tadbirkor odamlari past bilim darajasi bilan ham ijtimoiy pillapoyaning eng yuqori pog'onasiga chiqishga muvaffaq bo'lganlar. Endilikda moliyaviy - iqtisodiy va siyosiy kiborlar tarkibiga kirishda obro'li universitet diplomi bo'lishi muhim shartga aylandi.

Rivojlangan mamlakatlarda ta'lim muammosi borgan sari yangi qirralarini namoyon qilib, ijtimoiy strategiyaning muhim jihatiga aylanmoqda. Albatta, ta'limning ijtimoiy ahamiyatga ega muammolari avvalgidek hozir ham muayyan siyosiy va g'oyaviy qarashlarda muqarrar bayon qilinadi. Mavjud ziddiyatlar bilan bir qatorda keyingi o'n yilliklarda asosiy ijtimoiy guruhlarda turli muammolar bo'lishi muayyan kelishuvga intilish kuzatilmoqda. Bunga ta'lim taraqqiyoti istiqboli ham bevosita aloqador. Shimoliy mamlakatlarning aksariyati qadrllovchi ijtimoiy barqarorlik va iqtisodiy o'sishga past darajadagi kasbiy va umummadaniy bilimga ega aholi qismi, asosan yoshlar real xavf tug'dirishi mumkin.

Ko'pchilik barqarorlikning asosiy dushmani deb savodsizlik, madaniyatsizlik o'z vaqtiga zaruriy bilim olmagan odamlardagi alamzadalik deb hisoblaydi. Ta'lim tizimidagi kamchiliklar mamlakatning xalqaro maydondagi raqobatbardoshligiga putur etkazadi. Bu xususan, AQSH uchun xarakterli. AQSHda hukumat shunday yondashuv asosida ta'lim taraqqiyoti vazifalarini o'rganadi.

Xalqaro ta'lim makonida Janub, ya'ni Osiyoning rivojlanayotgan mamlakatlari, Lotin amerikasi va Afrika mamlakatlari o'ziga xos o'ringa ega. Ularning yaxlit holda ko'rib chiqish mumkin emas. Bu mamlakatlarning turli guruhlari taraqqiyotning ko'plab ko'rsatgichlarga ko'ra farqli xususiyatga ega. Yangi industrial deyiluvchi Janubiy-Sharqiy Osiyo va Lotin Amerikasi mamlakatlari texnik-iqtisodiy munosabatlarda jadal su'ratda Shimol o'rtasidagi farqni qisqartirmoqda. U yerlarda foydali qazilma qazib olish tezlashdi. Qayta ishlash sanoatining yangi jabhalari rivojlanmoqda. Ilmiy ishlab chiqarishni kuchaytirish muhim shartga aylandi. Aynan shu yo'l bilan bu mamlakatlar globallashuv jarayoniga passiv obyekt sifatida emas, balki xalqaro iqtisodiy munosabatlarning faol subyekti sifatida qo'shilishiga imkoniyat yaratildi. Zamonaviy sanoatga arzon, savodsiz, malakasiz ishchi kuchi to'g'ri kelmaydi. Unga murakkab va qimmatbaho uskunalar bilan muomala qila oladigan o'qimishli ishchi - xodimlar kerak. Xalqaro standartga ko'ra, bunday ishchilarning turmush darajasi pastligicha qolmoqda, ammo Janub aholisining qashshoq qatlamidan sezilarli farqlanadi. Zamonaviy ishlab chiqarish ta'limning salmoqli rivojlanishi va malakali kadrlar tayyorlashga e'tibbor berishni talab qiladi.

Ta'limning ulkan iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatini Janubiy Koreya misolida ko'rish mumkin. U bir necha o'n yillar avval qoloq agrar mamlakat edi. 1960 yilda aholi jon boshiga yillik YaIM 80\$ ni tashkil qilib, bu XIX asr o'rtalaridagi Yaponiya ko'rsatkichiga teng edi.

Lekin buhungi kunda tabiiy resurslarga unchalik boy bo'lmagan, uzoq vaqt Yaponiya mustamlakasi bo'lgan, keyin esa, 1950-53 yildagi fuqarolar urushidan kuchli aziyat chekkan Janubiy Koreya rivojlangan industrial davlatga aylandi. O'zining iqtisodiy salohiyatiga ko'ra "katta yettilik" mamlakatlari darajasiga ko'tarilib oldi. Bu olg'a siljishlar ko'p jihatdan ta'limning jadal rivojlanishi bilan bog'liq. Yapon mustamlakasidan ozod bo'lgandan ko'p o'tmay, xalq ta'limi milliy qonunchiligi asoslari yaratildi. Maorifni rivojlantirish masalalari 1948 yilgi Konstitutsiyada o'z aksini topdi. 1949 yilda "Ta'lim to'g'risida"gi asosiy Qonun qabul qilindi. 1952 yilda bepul majburiy boshlang'ich ta'lim, 1958 yilda "Kasbiy ta'limni rivojlantirish to'g'risida" qonun, 1980 yilda "Ta'lim islohoti to'g'risida" qonun qabul qilindi. 1994 yilda ta'limni kelgusi rivojlanishi yo'llarini ishlab chiqarish uchun Prezident komissiyasi tuzildi. Hukumatning ta'lim muammosiga doimiy e'tibori, yirik moliyaviy sarmoyalar kiritilishi ajoyib natijalarga olib keldi. Qisqa muddatda savodsizlikka barham berilib, o'rta ta'lim ommaviy tus oldi.

O'rta-maxsus ta'lim beruvchi o'quv muassasalari ko'paydi. 1990 yillar oxiriga kelib universitetlarda milliondan ziyod talabalar tahsil ola boshladi. Aholi bilim darajasining sezilarli o'sishi, malakali kadrlar ko'payishi eksportbop maxsulot ishlab chiqarishga yo'naltirilgan sanoat rivojlanishiga imkon yaratdi. Ilmiy ishlab chiqarish parklari tashkil qilinib, u yerda sanoat firmalari, tadqiqot institutlari, universitet va kollejlarning hamkorligi amalga oshirildi. Janubiy Koreya misolida boshqa qiziqarli jihat ham mavjud. Fan - texnikaning xorijiy yutuqlari diqqat bilan o'rganildi. Tashqi iqtisodiy aloqalar keng rivojlandi. Minglab Koreys talabalari AQSH, Yaponiya kabi xorijiy mamlakatlarda tahsil olmoqda.

Lekin Janubiy Koreya'ning o'zida ta'lim va madaniyat sohasida tashqi ta'sir qat'iy chegaralangan. Masalan, mamlakatning o'quv muassalarida Koreys millatiga mansub bo'lmagan shaxslarga faqat xorijiy tillardan saboq berishga ruxsat etilgan. Ular hatto xususiy universitetda ham shtatli professor - o'qituvchi lavozimini egallay olmaydi. Ular uchun faqatgina "mehmon - professor" maqomini olish mumkin. Tashqi dunyo bilan munosabatda bunday hushyorlikni koreyslarning asrlar davomida xitoy, mo'g'il, yapon kabi millatlar zug'umi ostida yashaganligi bilan izohlash mumkin. Bu tarixiy xotira hali ham tirik.

Janubga Lotin Amerikasi ham mansub hisoblanadi. Ma'lumki, bu nom roman tillarining umumiy negizini bildiradi. Bu tillarda mintaqaning ko'pchilik aholisi so'zlashadi. 1990 yillar boshida 220 mln. kishi ispan tilida, 120 mln. - portugal tilida, bir necha million kishi fransuz tilida so'zlashar edi. Shuningdek, bu mintaqaga Vest-Indiyaning inglizabon mamlakatlari ham mansub hisoblanadi. BMT va YUNESKO ning rasmiy hujjatlarida bu mintaqaga shunday ataladi: Lotin Amerikasi va Karib havzasi mamlakatlari. Ularning etnik tarkibi juda murakkab: Argentina va Urugvay aholisining mutlaq ko'pchiligi toza yevropa ildiziga ega. Braziliya etnosi oqlar, negrlar va hindulardan; gandi va yamayka negrlaridan kelib chiqqan.

Qit'aning ancha rivojlangan mamlakatlari - Meksika, Argentina, Braziliya, Urugvay keyingi o'n yilliklarda iqtisodiyotda sezilarli muvaffaqiyatga erishdi. Bu yerlarda industuriallashtirish amalga oshirilib, raqobatbardosh sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Ta'lim sohasida ham olg'a siljishlar kuzatilmoqda.

Maorifga jalb etilgan YaMI ulushi kengaydi, bolalarni majburiy ta'lim bilan qamrab olish kuchaydi. O'rta maktab va o'rta-maxsus bilim yurtlari soni ko'paydi. Eng yaxshi universitetlar – Meksika Milliy universiteti, Buenos-Ayres universiteti, Chili universiteti xalqaro maqomga erishdi.

Bu mamlakatlarda ta'lim to'g'risida istiqbolli qonunlar qabul qilingan. 1993 yilda Argentina Milliy Kongresi ta'lim to'g'risida Federal qonunni tasdiqladi. Uning shiori – “Sifatli ta'lim hammaga va har birimizga”. Qonunda 9 yillik majburiy ta'lim joriy etilib, 15-18 yoshli bolalar uchun katta o'rta maktab yaratishni maqsad qilib qo'yildi. Shu yili Meksikada ta'lim to'g'risida umumiy qonun, Braziliyada esa o'n yillik dastur (1993-2003) - “bilim - ommaga” qabul qilindi. 1996 yili Braziliyada qabul qilingan. “Milliy ta'lim asoslari va asosiy yo'nalishlari to'g'risida”gi qonun ta'lim maqsadi, uni tashkil qilish tamoillari, davlat majburiyatlari va moliyalashtirish tartibiga oid masalalarni hal qilishga qaratildi.

Janubiy mamlakatlar ichida Lotin Amerikasi davlatlari birinchilardan bo'lib, ta'lim integratsiyasi yo'liga o'tdi.

1980 yillar boshida YUNESKO ning Lotin Amerikasi va Karib havzasi mamlakatlari uchun “2000 yilgacha ta'lim bo'yicha asosiy loyiha”si amalga oshirildi. 1993 yili Lotin Amerikasi davlatlarining maorif vazirlari ishtirokida bo'lib, o'tgan majlisda “Santago Deklaratsiyasi” qabul qilindi. Chilida qabul qilingan bu deklaratsiyada mintaqaviy hamkorlik va pedagogik tajriba almashishni kengaytirish ko'zda tutilgan. 1994 yilda AQSH, Kanada, va Meksika o'rtasida ta'lim sohasida hamkorlikka oid uch tomonlama shartnoma tuzildi. Shu yili 31 Lotin Amerika davlati va AQSH, Bogotada bolalar va o'smirlar ijtimoiy himoyasiga oid shartnomani imzoladilar. Bu shartnomada maktabgacha tarbiya va boshlang'ich ta'limga katta e'tibor qaratildi. Oliy ta'lim sohasida qilingan ishlar yanada e'tiborli. Markaziy Amerikaning olti davlati uchun oliy ta'lim islohoti rejasini tayyorlovchi Markaziy Amerika Universitetlari kengashi faoliyat olib bormoqda. 1990 yillar boshidan “Kolumbus” dasturini amalga oshirib kelinmoqda. Bu dasturda 40 ta Lotin Amerikasi va 20 ta Yevropa universiteti qatnashmoqda. Dastur doirasida Lotin Amerika universitetlari rahbarlari oliy ta'lim ilmiy tadqiqotlarining Yevropa tajribasi bilan tanishib, universitet va sanoat firmalari bilan hamkorlik qiladilar. Biroq Lotin Amerikasini eng rivojlangan mamlakatlari ham samarali zamonaviy oliy ta'lim tizimi yaratish arafasida turibdi. Bu yo'lda hali katta mashaqqatli yo'lni bosib o'tish kerak.

Keskin ijtimoiy farq Lotin Amerikasi ta'lim sohasiga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Sifatli universitet oliy ta'limi va past sifatli umumiy ta'lim o'rtasida katta farq saqlanib qolgan. Oliy ta'limni ulkan darajada moliyalashtirish umumiy maktablarga ziyon keltirmoqda. Lotin Amerikasi davlatlarida ijtimoiy sohada mutaxassislar tayyorlashga urg'u beriladi. Bu sohalar milliy sanoatning dolzarb talablari bilan uncha bog'liq emas. Iqtisodiy o'sish va ta'lim sohasida rivojlanishda keskin farqlanish Braziliya misolida yaqqol ko'rinadi. YaIM hajmi bo'yicha Braziliya jahonda 8 - o'rinda turadi. Ammo aholi savodsizligi hamon saqlanib turibdi.

Janub mamlakatlari ta'lim taraqqiyotini til muammolari ham ancha murakkablashtiradi. Mustamlaka davrida boshlang'ich maktabda mahalliy tilda dars o'tilib, o'rta maktabda ta'lim metropoliya (Mustamlakachi) tilida joriy qilingan. Hozir bu ikki maktab ta'limi ham mahalliy tilda olib borilmoqda. Efiopiyada majburiy tartibda – axmar tili, Tanzaniyada – suaxili Bangladeshda banglu tili o'rganiladi. Ona tilida o'qishga o'tish maktab va hayot o'rtasidagi farqlarni yo'qotuvchi milliy madaniyat shakllanishiga yordam beradi. Lekin bu murakkab va ziddiyatli jarayondir. Misol uchun Hindistonni olsak, bu mamlakat ko'p millatli hisoblanadi. U yerda yashovchi aholi yuzlab til va shevalarda so'zlashadi. Hindiston mustaqil bo'lgunga qadar o'rta maktablarda ingliz tili hukmron bo'lgan. Mustaqil Hindiston konstitutsiyasida esa hind tili davlat tili deb e'lon qilindi. Ingliz tili esa ikkinchi rasmiy til maqomiga ega. Hindiy va ingliz tilidan tashqari yana 14 til (assam, bengal, sanskrit kabi) rasmiy maqomga ega.

O'rta maktab o'qituvchilari majburiy ravishda uch tilni bilishi talab qilinadi: 1. Mintaqaning rasmiy tili; 2. Hindu yoki ingliz; 3. Boshqa hind tili yoki xorijiy til. Bu maktab o'qituvchilari uchun katta qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Shu bilan birga, ayrim shaharlarda majburiy o'quv dasturiga kiritilgan hindiy tili mahalliy aholi qarshiligiga duch keladi. Zamonaviy iqtisodiyotni yaratish, ijtimoiy va madaniy sohalarni rivojlantirish uchun yuqori malakali kadrlar zarur. Aynan shu jihatga ko'ra Shimol va Janub o'rtasidagi nisbat juda katta. Tadqiqot va tajriba ishlab chiqarishda ilmiy xodim va muhandislar soni rivojlangan mamlakatlarda nisbatan o'n marta ko'p. Vaziyatning murakkab tus olishi XX asrning 1970-80 yillarida qator rivojlanayotgan davlatlarda tezkor iqtisodiy o'sish garovi sifatida o'rta va oliy ta'lim rivojiga e'tibor qaratildi. Lekin bu miqdoriy o'sish sur'ati shu ixtisoslik talab qiluvchi ish faoliyati kengayishidan ancha ortib ketdi. Natijada ko'plab bitiruvchi yoshlar ishsiz bo'lib qoldi yoki ixtisoslashmagan mehnat bilan mashg'ul bo'ldi. Vaholanki, Janubning ko'plab mamlakatlarida iqtisodiy - ijtimoiy taraqqiyot darajasi ixtisoslashgan mehnat keng qo'llanishini rag'batlantirmaydi. Ularning kelajagi esa aynan shu omillarga va ta'lim rivojlanishiga bog'liq. 21 asr ta'lim taraqqiyoti ulkan olg'a siljishlarni yuzaga keltirdi. Ular avvalo o'quvchilar va pedagog kadrlar soni ortishida aks etdi.

Savol va topshiriqlar:

1. Xalqaro ta'lim makoni nima?
2. Jahon mamlakatlarida ta'lim sohasidagi muammolarning yuzaga kelishiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
3. Globallashuv jarayoni qanday salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi?
4. XX-XXI asrlarda xorijda xalqaro ta'lim xususiyatlarini tahlil qiling.

XXI BOB. TA'LIM SOHASINI ISLOH QILISHDA XALQARO TAJRIBALARNING AHAMIYATI

11.1. Ta'lim sohasini isloh qilish yo'nalishlari

Ta'limni isloh qilishning muhim yo'nalishlaridan biri, uning tarkibini qayta qurishdir. Dunyo mamlakatlarida an'anaviy boshlang'ich ta'lim ommaviy bo'lib, u ishlab chiqarishni bilimli (savodli) ishchi kuchi bilan ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. XX asrning 60-70-yillarda yuz bergan, demokratiyalashtirish to'loqini dunyo mamlakatlarida o'rta ta'limni kengaytirish, shuningdek, oliy ta'limni rivojlantirishga yo'l ochib berdi.

Iqtisodiy gullab-yashnashning asosi bo'lgan ta'limni saqlab qolish va uning sifatini oshirish ehtiyoji ko'plab davlatlarda ta'limni standartlashtirish muammolarini kun tartibiga qo'ydi.

Shu o'rinda tadqiqotchilar B.S.Gershunskiy va V.M.Berezovskiyning quyidagi fikrlarini keltirib o'tish joiz: - "Standartlashtirish bu istalgan jabhada biron narsani maqsad qilish va natijasini baholash bosqichlari bilan birga o'tkaziladigan muolajadir"¹.

AQSH ta'lim Departamentining ko'rsatmasiga binoan:

"Standartlar bu shunga qaratilganki, ya'ni undagi ishtirokchilar bilishi va qila bilishi lozim".²

Standartlashtirish birinchi, asosiy muammo sifatida asosan markazdan boshqarilmaydigan, ya'ni AQSH, Buyuk Britaniya singari davlatlarda, ko'proq yagona umummilliy talablarga ehtiyoj mavjud bo'lgan davlatlarda paydo bo'la boshlagan.

Bu ko'proq Sobiq Ittifoq tasarrufidagi respublikalarga taalluqlidir.

AQSH da esa, islohot maqola, ma'ruzalarda: "Millat xavf ostida: maktabni isloh qilish zarur" (1983yil), "XXI asr uchun ta'lim" (1983 yil) kabi ilmiy maqolalarda o'z aksini topgan. Ularda amerikalik o'quvchi va talabalarga ta'limning yuqori bosqichlaridagi bilim berishning sayozligi tanqid qilindi.

80-yillarning oxirlarida esa, qator, ya'ni maqsadi ta'limni yaxshilashga qaratilgan qonun aktlari qabul qilingan. "Amerika-2000: ta'lim istiqboli" (1991) deb nomlangan hujjatda ta'kidlanishicha, 2000 yil amerikalik o'quvchilar o'zlarining boshqa mamlakatlardagi tengdoshlaridan matematika va tabiiy fanlarni egallashda yuqori ko'rsatkichga erishishi ta'kidlangan edi.

1991 yilda AQSH ta'lim standartlari va test usulidagi ta'limning davlat standartlarini rivojlanishi bo'yicha Milliy Kengash tuzildi. Kengash tomonidan komissiya tuzilib, uning ishtirokida matematika, ingliz tili, tabiiy fanlar, tarix, geografiya, fuqarolikka kirish, san'at singari fanlardan ta'lim standartlari yaratildi. 1993 yil ta'lim standartlarini matematika yo'nalishida ishlab chiqish yakunlandi. Qolgan standartlarni ishlab chiqish 1994-95 o'quv yilida tugatilishi lozim edi.

AQSHda shtatlardagi va maktab okruglaridagi avtonomiyaning yuqori bosqichi umummilliy ta'lim standartlarining yaratilishida asosiy muammo bo'lgan.

Shundan so'ng, ta'lim Departamenti standartlarning majburiy emasligi to'g'risida qaror qabul qildi.

Angliya esa ta'lim standartlarini yaratishda boshqa yo'ldan bordi. Markazlashmagan ta'lim, ya'ni bunda maktablar katta mustaqillikdan

¹ Гершунский Б.С., Березовский В.М. Методологические проблемы стандартизации в образовании//Педагогика. 1993.#1.C.28

² World Class Standards for American Education. Wash, D.C. 1992 P.2.

foydalanishdi va ularning o'zaro o'quv reja va dasturlarini ishlab chiqish, tanqid qilishga keng yo'l (ayniqsa sanoat doiralarida) ochildi.

Ta'lim predmetlari yuqori va to'liqsiz o'rta maktablar uchun 80-yillarning oxirida ingliz tili (adabiyoti), matematika, din va jismoniy tarbiyadan ta'lim standartlari yaratildi.

Shuningdek, Angliyada birinchi marta majburiy maktab uchun o'quv rejasi tuzish haqidagi takliflar ta'lim Bosh nazoratchisining "11-16 yoshlar uchun o'quv reja" (1977yil) tuzishidan boshlangan.

Ta'limni isloh qilish to'g'risidagi qonunda (1988yil) belgilanishicha ta'lim masalalari bo'yicha davlatning mas'ul shaxsi ta'lim mazmuniga davlat talabini va barcha uchun majburiy bo'lgan ingliz maktablari uchun o'quv predmetlarini belgilashi ko'rsatib o'tilgan.¹

Qonun maktabda o'rganish uchun o'n bitta majburiy bo'lgan predmetlarni belgiladi: 3 ta predmet «Yadro» hisoblanadi, ya'ni matematika, ingliz tili, tabiiy fanlar, shuningdek, din, tarix, geografiya, texnologiya, musiqa, san'at, jismoniy tarbiya va chet tili (o'rta maktabda) ham mavjud edi.

Angliya Ta'lim va Fan Departamenti tomonidan "Ta'limni isloh qilish to'g'risida"gi qonun qabul qilingach, asosiy predmetlar uchun komissiya tuzildi. Komissiya tarkibida predmetchilar, o'qituvchilar, shuningdek, qo'shimcha guruh mutaxassisleri faoliyat yuritdi.

90-yillarning boshida umummilliy ta'lim standarti va o'quv rejasi zarurligi ma'lum bo'ldi.

To'liqsiz o'rta maktablarning yuqori sinflari uchun majburiy predmetlarni o'qitishga o'quv vaqtining 85% i ajratilgan.¹

Keyinchalik o'qituvchi pedagoglarning tanqidi va talablari asosida majburiy predmetlar uchun ajratilgan vaqt 70-75% ga qisqartirilgan.

Angliyalik pedagog DJ.Uayt, Angiyada islohot o'tkazishda "qatnashchi davlat maktablariga asosiy va iqtisodiy maqsadga erishish vositasi sifatida qaragan".²

Shuningdek, inson va fuqarolarning qiziqishlarini inobatga olish lozimligini ta'kidlaydi. Amerikalik pedagog DJ.Gudled yozishicha: "Ta'lim rejasini oshirish, maktabning javobgarligini kuchaytiradi... maktabda testning yuqori ko'rsatkichlari orqada "qoluvchilar" uchun dastur bo'lib, ularning kamayishiga erishish mumkin"ligini ta'kidlagan.

Yaponiyada esa, zamonaviy ta'lim islohoti 1984 yilda premer - ministr Nakasone asos solgan Maktabni isloh qilishning davlat qo'mitasi tomonidan amalga oshirilgan. 1985 yilda qo'mita dokladi matbuotda e'lon qilingan, unda ta'limni isloh qilishga kirishilganligi bildirilgan.

80-yillarda Yaponiyada o'quv soatlari soni va o'quv rejalari sonini (maktablarda) qisqartirishga qaror qilindi, ya'ni ta'lim standarti qisqartirildi (bu haqda 2-jadvalda ko'rsatilgan).

¹ Holmes B. Comparative Education: Some Consideration of Method. London, 1981.

¹ The National Curriculum 5-16: a consultation document. London, 1987.P.7.

To'rtinchi sinfda o'quv vaqti 31 dan 29 o'quv soatiga qisqartirildi, VI - V sinfda haftasiga 34 soatdan 30 soatga qisqartirildi.

O'quv vaqtining sezilarli darajada qisqartirilishi o'quvchilarning o'quv soatlarini yengillashtirdi va standart rejasini pasaytirdi. Qo'shimcha darslar ancha oldinroq ya'ni VI sinfdan olib boriladigan bo'ldi va 10-12 % o'quv vaqtida amalga oshiriladigan bo'ldi. "Yapon islohotchlari dars yuklamalarini kamaytirishga uringanlar, o'quv reja va dasturlarni ko'proq egiluvchan, bolalarning qiziqishiga yo'naltirgan holda ishlab chiqqanlar",¹ deydi, yapon pedagogi I.Kazuo.

1988 yilda Fransiyada maktab dasturlarini ko'rib chiquvchi komissiya tuzilgan, ta'lim mazmunini isloh qilishning asosiy sababi matbuotda e'lon qilingan (1989), unda ta'lim mazmunini majburiy qism, ya'ni bilimlarning asosini o'zida mujassamlashtirgan (har bir inson uchun albatta zarur bo'lgan), qo'shimcha qism dasturi yakka tartibdagi qobiliyatni hisobga olgan holda o'qitish, shuningdek, qo'shimcha, mustaqil ta'lim olish nazarda tutilgan.²

2-jadval

	<i>Boshlang'ich maktab</i>							<i>Kichik maktab</i>	
Sinf	I	II	III	IV	V	VI		VII	VIII
70-yillar	25	26	28	31	33	33		34	34
80-yillar	25	26	28	29	29	29		30	30

Bu tamoyillar 90-yillar reformasida o'z aksini topdi va majburiylik mazmuni qisqartirildi.

Shuningdek, Xitoy ham ta'lim tizimining majburiy standartlarini qisqartirish yo'lidan bordi, hamda 80-yillar o'rtalarida barcha uchun yagona o'quv rejasi, dasturi va darsliklarini ishlab chiqishda markazlashtirish hukmronlik qildi.

Ta'lim jarayoni qatnashchilarning yuklamalarini kamaytirish, ularning qiziqishlaridan kelib chiqib, qo'shimcha darslar 10% (kichik o'rta maktablarda) yuqori maktablarda 20-30%ga qisqartirilgan.¹

XXR Davlat ta'lim qo'mitasi 60-70 % o'quv dasturini (majburiy fanlar) tasdiqlasa, qolganlarini tegishli provinsiyalar, mahalliy tegishli organlar tasdiqlaydilar.

Sharqiy va Markaziy Yevropada ta'limni isloh qilish, milliy standartni yaratishda Vengriyalik pedagog Z.Batori mamlakatda o'quv rejalari va dasturlari, shuningdek, alohida darsliklarni yaratish (80-yillar oxirida) markazlashgan xarakterga ega ekanligini ta'kidlaydi, "...ta'lim mazmunining ayrim sohalarida bilim keragidan ko'ra ko'proq edi",² deydi.

¹ Kazuo. School Education in Japon. Tokio, 1989, P.25,

² Principes pour une reflexion sup les contenus de l'enseignement Iee Monde de Education. 1989.№ 159.p.15-20.

¹ Боровская Н.Е. Новые учебные программы в КНР. Педагогика. 1993. № 3.С.106.

² Bathory Z. A National Core Curriculum and the Democratization of Public Education in Hungary// Curriculum Studies. 1993. Vol.1 . N.1. P.94.

1992 yil Vengriya pedagoglar guruhi milliy o'quv rejasining loyihasini tayyorladilar, bu reja 6 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan o'quvchilarga mo'ljallab tuzilgan bo'lib, quyidagi fanlar bo'yicha tuzildi: ona tili, chet tili, matematika, tabiiy fanlar, inson va jamiyat, san'at, texnika madaniyati va atrof-muhit, hayot, oila, uy iqtisodi, jismoniy tarbiya va sport. Mazkur fanlarga o'quv vaqtining 80 % i ajratilgan edi. 1993 yilda "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning loyihasi ishlab chiqilgan. Qonun loyihasi muhokamasida har xil yondashuvlar yuzaga kelgan: ayrim guruhlar ta'limni markazlashtirish, davlatning muntazam boshqaruvini o'rnatish tarafdori bo'lgan bo'lsalar, ayrimlari esa maktabga to'la erkinlik berish markazlashtirmaslik tarafdori edilar.

Shunday qilib, 80-yillarning ikkinchi yarmi va 90-yillarning boshidagi Ta'lim standartini yaratishga bo'lgan har xil qarash va va urinishlar bir tomondan o'quv rejalari va dasturlarini qisqartirish yo'ldan borgan bo'lsa, boshqalari aksincha, ko'paytirish tarafdori edilar.

Agar savodxonlikning an'anaviy bo'lib kelgan tushunchasi o'qish, xat va hisob o'rganishdan iborat bo'lgan bo'lsa, 90-yillar boshiga kelib, bu tushuncha ancha kengaydi. Tailandda o'tkazilgan "Ta'lim barcha uchun" mavzuidagi (1990 y) Butundunyo Konferensiyasida shunday deyilgan: "Ta'lim yo'nalishi tushunchasining o'zi kengaytirilishga muhtoj... bilim va yangiliklarning keng qamrovliligi hayot uchun zarurdir".¹

Har xil mamlakatlarning pedagog va ta'lim sohasi arboblari ta'limni isloh qilishda turli xil yo'ldan borishgan.

Birinchidan, barcha mamlakatlar o'quv rejasiga zamonaviy predmetlar va kurslar kiritishni, shuningdek, o'quv predmetining yangi materiallar bilan boyitishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'yishgan.

Ikkinchidan, ta'lim mazmunini qayta qurishning muhim yo'nalishlari sifatida o'quv dasturlarini fundamentallashtirishni zarur deb hisoblashgan.

Uchinchidan, bilimlarning integratsiyasini, o'quv dasturlarini mukammal yaratishni ilgari surdilar.

U yoki bu qarashlarni ko'rib chiqib, ta'limning mazmunini modernizatsiyalash xarakterida ekanligining, bunda asosiy o'quv fanlari majmui – tabiiy-matematik va gumanitar fanlarga alohida e'tibor qaratilganligiga amin bo'ldik.

80- yillarning oxirida tabiiy ilmiy va matematik ta'limni isloh qilish zarur edi. Chunki mazkur fanlar sohasida yangilanishlar mavjud edi.

Shuning uchun mamlakatlarda birinchi o'rinda e'tibor tabiiy-matematik ta'limga qaratilgan.

¹ Final Report World Conference on Education for All: Meeting Basic Learning Needs. 5-9 March 1990. Somtien, 1990.P.7.

AQSHning o'rta maktablarida tabiiy fanlarni o'rganishning majburiyligi barcha maktablarga taalluqli emas edi. Ko'plab shtatlarning hukumat komissiyasiga tavsiyasi bilan o'rta maktablarning yuqori sinflarida matematika va tabiiy fanlar uch yil mobaynida, informatika esa yarim yil mobaynida o'qitiladigan bo'ldi.

Buyuk Britaniyada esa "Ta'limni isloh qilish to'g'risida"gi qonun (1988y)ga muvofiq tabiiy fanlarni o'qitish majburiy bo'lmagan boshlang'ich va to'liqsiz o'rta maktablarda tabiiy fanlarni majburiy maktablarning barcha o'quvchilari uchun majburiy qilib belgilangan.¹

Shuningdek, 80 - yillarda GDRning ayrim yerlarida Asosiy maktabning o'rta sinflarida matematika fanlarini o'rganish haftasiga 4-5 soat o'quv soatiga ko'paytirilgan.

Tabiiy bilimlarni oshirishga intilish nafaqat rivojlangan mamlakatlar uchun, balki, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ham xarakterlidir. Shu o'rinda hind pedagogi U.S.Choudharining quyidagi so'zlarini keltirib o'tish joiz:

- "Dunyo tabiiy fanlar inqilobidan qayg'uradi. Uning markazi industrlashgan davlatlar bo'lsa, hayotning barcha jabhalarida uning ta'sirini sinab ko'ruvchi rivojlanayotgan mamlakatlardir".²

Shimoliy va Markaziy Yevropa davlatlariga taalluqli ta'lim mazmuni egallagan tabiiy ilmlarni oshirish diqqat e'tiborga muhtoj bo'lgan bo'lgan predmet, yoki MDH davlatlarida kamaytirilgan. Afrika mintaqaviy konferensiyasida (1982 yil) shunday deyilgan: "Qit'adagi mamlakatlar tabiiy bilimlarni yangilash uchun yangi dastur va darsliklar tayyorlashmoqda".¹

Shuningdek, asosiy e'tibor (o'qitishda) o'quvchilar kundalik hayot bilan bog'liq bo'lgan hayotiy bilimlarni oshirishlarida deyilgan.

Buyuk Britaniyada matematikani o'qitish komissiyasining dokladida (1988 y) bu fan sohalari quyidagilarga ajratildi: "Maktabda o'rganish uchun zarur bo'lgan: hisob, algebra, geometriya, statistika va ehtimollar nazariyasi, algoritm, elementar dasturlash kabilar".² Mualliflar o'z nutqlarida matematikaning hayot-mehnat faoliyati uchun zarur bo'lganlariga asosiy e'tiborni qaratgan.

80-90- yillar dunyo mamlakatlari ta'lim mazmunidagi islohotlarda tabiiy fanlarning integratsiyalashuvi vujudga kelgan.

Integratsiyalash modeli o'quv materiallarining yuqori darajada integratsiyasi, masalan, «energiya» mavzusi fizika fanida o'tiladigan bo'lsa, biologiya va ximiya fanlarida boshqa mavzular orqali bir-birisi bilan bog'langan.

Shuningdek, mazkur uchta fanlar ketma-ketlik asosida o'rgatilgan. Ya'ni biologiya, fizika, kimyo alohida o'rgatilgan, lekin bir vaqtda emas.

Tabiiy bilimlar kursidagi bu kabi yondashuvdan Yaponiyaning kichik o'rta maktablarida foydalanilgan.

Amerika pedagogi R.Fogarti fanlar integratsiyasining o'nta variantini ajratgan.

¹ Education Reform Act. London, 1988.

² V.S. Choudhapi. Issues in Advances in Education. Delhi, 1986.

¹ Conference of ministers of Education and those responsible for economic planning in Africa member states. Final Report Paris: UNESCO, 1982.

² Mathematics for Ages 516. London, 1988.

Ular predmet ichida integratsiya, predmetlararo, ikki yoki undan ortiq predmetlar yig'indisi.

Shuningdek, mavzu bo'yicha birlashtirilgan materiallar, yangilik yoki tushunchalar haqidagi integratsiyalashgan o'quv dasturlari va kurslari kabilar.

Integratsiyalashtirishning oliy darajasi sifatida har xil fanlar sohasidagi maktablarning yuqori sinflari, oliy o'quv yurtlari yoki aspiranturalar uchun tayyorlangan o'quv loyihalari, tadqiqotlardagi, yangi axborotlardan foydalanish hisoblangan.¹

To'liqsiz o'rta maktablar uchun "Tabiiy bilimlar" integratsiyasining yuqori ko'rinishiga Norvegiya misol bo'la oladi.¹

Norvegiyada tabiiy bilimlarni o'rgatishning asosiy maqsadi quyidagicha, ya'ni o'quvchilarning kuzatish va amaliy ishlarida tasavvur va mustaqillik fazilatlarini rivojlantirish, bolalarni tabiatga hurmat ruhida tarbiyalash, tabiiy resurslar va texnologiyalardan foydalanishda javobgarlik his-tuyg'ularini shakllantirish, sog'liqni saqlash va shu to'g'risidagi bilimlarni olish, shuningdek tabiiy fanlar va texnologiyalar madaniyatining bir qismi sifatida o'quvchilarni elementar izlanishlar olib borishga o'rgatishdan iborat bo'lgan.

Tabiiy bilimlar kursi 14 mavzuda o'rganilgan: kuzatish va tajriba, analiz o'tkazish, fizik dunyo (quyosh sistemasi, mikrokosmos, yadro energiyasi, atom radiastiyasi va hakazolar), iqlim va ob-havo, hayot, rivojlanish va davomiylik, o'simlik va hayvonot, gavda va salomatlik, bizning sezgi, energiya va tabiiy resurslar, kundalik hayotni elektrlashtirish, axborot va kompyuter texnologiyasi, kundalik texnologiya va hokazolar.

Angliyada keng tarqalgan to'liqsiz o'rta maktablar uchun darsliklarda "Tabiiy fanlarni o'rganishda" tahliliy mavzular: "Ixtirochi olim to'g'risida ocherk", "Yer", "Rang-barang hayot", "Katak", "Molekula", "Atom", "Energiya", "Biosfera", "Aholi", "Muloqot", "Koinot" kabi mavzularda o'rganilgan.

Bu kurslar tabiiy fanlar haqidagi asosiy tushunalari, amaliy xarakterlari bilan norvegiyaliklarning o'quv kurslariga yaqindir.

Demak, ko'plab mamlakatlarda maktab o'quvchilari tabiiy fanlarni integratsiyalashgan kurslarda o'rganishadi. Shuningdek, xuddi o'sha o'quvchilar mazkur fanlarni qiziqishlari va qobiliyatlariga qarab alohida o'rganishlari mumkin bo'lgan.

Buning uchun to'liq o'rta maktablarda chuqurlashtirilgan kurslar va dasturlar mavjud. Masalan, Fransiya, sobiq GDRda tabiiy bilimlar alohida kurslarida o'rganiladi. Fransiyada bir vaqtning o'zida (to'liqsiz maktabda) "Fizika, kimyo" kabi predmetlarning integratsiyasi mavjud.

90-yillarda tabiiy va gumanitar fanlardan birlashgan materiallarni yaratish fikrlari *birinchi* o'rinda jamiyat haqidagi bilimlarni rivojlantirishga e'tibor qaratgan. Bu fanlarning tabiiy yo'nalishlarini *insonparvarlashtirish*dan guvohlik beradi. Birinchi o'rinda bu yo'nalishdagi ta'limning vazifalari tabiat uchun javobgarlik, tabiiy resurslarni o'rganishda sotsial muammolarni o'rganish va

¹ Fogarty R. *How to Integrate the Curricula*. Palatine, 1991.

¹ Curriculum Cuidelines for Compulsory Education in Norway OSLO, 1990.

hokazolardan kelib chiqqan (ilgari o'quv hujjatlarida bunday tartib qoida tariqasidagina joylashtirilar edi).

Ikkinchidan, yangi paydo bo'lgan ko'plab o'quv kurslari o'zining yangi vazifasiga ega bo'ldi.

Uchinchidan, yaratilgan maxsus kurslar tabiiy va ijtimoiy fanlar integratsiyasidan kelib chiqdi. Masalan, AQSHning qator olimlari "Fan-texnologiya-jamiat" kabi konsepsiyadan kelib chiqib, jamiyatga, fan-texnika taraqqiyotiga yordam beruvchi maxsus bilimlarni tinglovchilarga taqdim etadilar, ya'ni texnika va jamiyatning o'zaro aloqalari muammolari, olimlar haqidagi dalillar, tarix to'g'risidagi fanlarning ochiqligi va hokazo.

Yuqoridagi tahlillardan ayrim dunyo malakatlarida ta'limni standartlantirish muammosining vujudga kelganligi, bu jarayonda har bir davlat o'ziga xos, ya'ni ta'lim sohasidagi muammo va ehtiyojlardan kelib chiqib amalga oshirilganligining guvohi bo'ldik.

XX asrda davlatlar ikkita jahon urushini boshidan kechirgandan, so'ngra bu muammoni yechishga urindilar.

Oxirgi yuz yillikda diniy ta'lim berish muammosi vujudga kelgan edi. Munozaralarning asosiy mavzusi bu o'smir va o'g'il bolalarga maktabda diniy ta'lim berish mumkinmi yoki yo'qmi degan munozara ko'pchilikni qiziqtirib qo'ydi. O'tgan yuz yillikda bu masala g'arb mamlakatlarida deyarli dolzarb masalaga aylanishga oz qoldi. Sohadagi asosiy islohatlar Afrikada 1910 - 1930 va 1962-yillarda, Angliyada 1944-1988 yillarda, Belgiyada 1968 yillarda, Germaniyada 1949 yilda, Turkiyada 1924, 1933, 1949 - 1982 yillarda amalga oshirildi.

Ma'lumki, Angliya Yevropaning eng taraqqiy etgan mamlakatlaridan biri sanaladi. Angliya davlati ta'limni isloh qilish uchun qonun qabul qilgan. Unda ta'lim muassasalarida xristian va boshqa dinlarni o'rganish yo'lga qo'yilgan. Xristianlikni o'rganish islom, budda va boshqa dinlarni o'rganish bilan qo'shib olib borilgan. Yuqoridagi dinlarning birgalikda o'rganilishida ularning qay biri haq din, yoki qay biri noto'g'ri degan ma'noda emas, balki bu metod (ya'ni birgalikda o'rganish) har xil dinga itoat qiluvchi fuqarolar orqali jamiyat ehtiyojlarini qondirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.

Ikkinchi jahon urushidan so'ng ko'pchilik g'arb marifatparvarlari ta'limni dinning tasiridan to'la ozod qilish tarafdori bo'lib chiqishgan. Lekin Angliya rasmiy doiralari bu fikrni qo'llab quvvatlamadi. Aksincha, ular ta'limni xristian qadriyatlar bilan bog'ladi. Bugungi kunda Angliyada davlat tomonidan qurilgan cherkov mavjud bo'lib, Qirolicha cherkovning boshlig'i hisoblanadi (ya'ni mamlakatdagi ramziy ma'noda, birinchi siyosiy shaxs bo'lishiga qaramasdan).

Angliyada cherkov maktabining ikki xil ko'rinishi mavjud:

Birinchi, davlatdan yordam oladigan cherkov maktabi (Loluntary-aided shcool) bu maktablarda ta'limning 3 dan 2 qismi cherkovda olib boriladi, 3 dan 1 qismi esa, davlat maktablarida o'qitish orqali amalga oshiriladi.

Ikkinchi, davlat nazorati ostidagi cherkov maktablari ((Loluntary-Controlled shcool): bu maktablarda ta'limning 3 dan 1 qismi cherkovda, 3 dan 2 qismi

davlatga qarashli maktablarda olib boriladi. Ular to'liq davlat mablag'i bilan ta'minlanadi.

1988 yilda Din to'g'risida qonun qabul qilinib natijasida maktab dasturlari uch qismga ajratildi:

- 1) Maxsus predmetlar (matematika, ingliz tili va hakazo);
- 2) Asosiy predmetlar (tarix, geografiya, texnologiya, musiqa, san'at, jismoniy tarbiya va hokazo);
- 3) Fundamental predmetlar (bu guruhga faqat diniy ta'lim kiritildi). Ta'lim vazirligi qolgan barcha predmetlardan (diniy ta'limdan tashqari), imtihon shakllari va hokazolarni yaratish huquqiga ega bo'lgan. Diniy darslar boshqa asosiy predmetlar qatoriga kirmagan bo'lsa ham, ular bir xil maqomga ega bo'lgan. Diniy ta'limning dasturi, maqsadi, shakli davlat tomonidan yaratilmaydi, lekin boshqa darslar bilan bir xil maqomga egadir.

1988 yildagi ta'lim islohati natijasida Angliya'ning o'rta va boshlang'ich maktablarida islom dini ham o'qitila boshlandi. Ma'lumki, diniy ta'lim bu din to'g'rimi yoki noto'g'rimi degan savolga javob bermasligi kerak, shuningdek, diniy ta'limning dasturi va darsliklari ham odamlarning qaysi dinga ishonishi yoki ishonmasligiga qarab tuzilmasligi lozim.

Germaniya Federatsiyasining Konstitutsiyasida (7-modda) rasmiy maktablarda diniy ta'lim majburiydir. Yuqoridagi qonun moddasiga muvofiq ta'limni boshqaruvchi provensiyalar ushbu ta'lim uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi. Shuning uchun Federatsiya Konstitutsiyasining ta'lim to'g'risidagi moddasi provinsiyalarning konstitutsiyalarini nazorat qiladi. Konstitutsiya'ning 7 - moddasida shunday deyilgan:

- a) barcha ta'lim va o'qitish davlat nazoratidadir;
- b) diniy darsga bolaning borish yoki bormasligi uning tarbiyasi bilan shug'ulanuvchi (ota - ona)larning xohishiga bog'liqdir.

Germaniya konstitutsiyasi 7 - modda, 1 - bandiga asosan ta'lim va bilim olishni nazorat qilish javobgarligi davlatning zimmasidadir, deb belgilangan. Ushbu qonun moddasi shuningdek, alohida shaxs yoki tuzilmalarning maxsus maktablar ochish xuquqini himoya qiladi.

Belgiya esa Yevropa Kelishuviga a'zo davlat bo'lib, o'zining konstitutsiyasida dinga munosabatni chegaralagan ya'ni Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi, Inson huquqlari Yevropa Kelishuvi qoidalariga rioya qilgan holda vijdon erkinligi va diniy e'tiqod g'oyalariga alohida e'tibor bergan.

Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasining 18, 26 moddalari Inson huquqlari bo'yicha Yevropa Kelishuvining 9 - moddasiga va unga qo'shimchaga muvofiq, diniy erkinlik va diniy ta'limni ta'minlaydi. Shuningdek, mazkur kelishuvga muvofiq mamlakatda yashaydigan chet elliklar emigrantlarga diniy e'tiqod erkinligi, o'zlarining diniga taalluqli ta'lim olish huquqi berilgan.

Belgiya ta'lim tizimida maktablar 4 guruhga bo'linadi:

- a) munitsipal maktablar;
- b) davlatga qarashli maktablar;
- v) maxsus maktablar.

Diniy ta'lim bu uchta tipdagi maktabda ham majburiy bo'lib, Belgiya davlati rasmiy tan olgan (katolik, xristian, protestant, islom, iudizm) dinlar o'qitiladi. Bundan tashqari, cherkov maktablari katolik cherkovining muassasasi hisoblanadi. Shuningdek, cherkov maktablarida Islom dinidan ta'lim berishga ruxsat berilmaydi.

Barcha maktab o'quvchilari (barcha maktab tiplarida) diniy ta'limning 5 ta tipidan birini tanlashi shartdir. Diniy ta'lim bolalarga 2,5 yoshdan, bolalar bog'chasidan boshlanadi. 1980 yilning oxirlarida xristian katolik dini 1 - 2 sinflarda haftasiga 4 soat, 3 - 4 sinflarda 3 soat, 5 - 6 sinflarda va litseylarda 2 soat qilib belgilandi. Hozirgi kunga qadar boshlang'ich va o'rta sinflarda, shuningdek, litseylarda diniy darslar haftasiga 2 soat, bir qancha diniy maktablarda 3 soat qilib belgilangan.

Maktab o'quvchilari ibodatni maktab oshxonasida, yoki umumiy zalda qattiq ovozda yoki ichida o'qishlari mumkin. Maktab ma'muriyati qandaydir diniy anjumanlarni o'tkaza olmaydi. Ammo qandaydir diniy guruh maktab hududini ijaraga olmoqchi bo'lsa (anjuman o'tkazish maqsadida) maktab rahbariyati ma'lum bir shartlar bilan ijaraga berib turishi mumkin.

Maktab o'quvchilari diniy axborotlarni olishga (tarqatishga) haqli, lekin maktab o'quvchiga diniy bilim berishga majbur emas. Oliy sudning qabul qilgan qaroriga asosan ta'lim din tarixini o'rgatmasdan, dinning fuqarolar dunyoqarashiga ta'sirini o'rganmasdan tugashi mumkin emas. Diniy fanlarni o'rganmasdan san'at, musiqa, adabiyot va boshqa ijtimoiy fanlarni o'rganish mumkin emas. Maktabda din tarixi, diniy ta'limotlarning qarama - qarshiligi to'g'risidagi bilimlar beriladi. Shuningdek, Injil va uning mazmuni kabilar o'rganiladi.

O'rta maktablarning diniy to'garaklari ham shunday huquqqa ega. Ular diniy yig'inlarni darsdan tashqari lekin maktabning ish vaqtida o'tkazishlari mumkin. o'quvchi bo'lmagan (mazkur maktabda) kishilar o'quvchilar bilan birga yig'inda ishtirok eta olmaydi. Davlatga qarashli maktablarda o'quvchilar diniy bayram yoki yig'inlar to'g'risidagi axborotlarni tarqatishlari mumkin. Mazkur bayram tadbiri diniy shaklda o'tishi mumkin. Unda o'quvchilar o'zlarining diniy qarashlariga javob beradigan tarzda kiyinish imkoniyatiga ega, maktab esa ularni u yoki bu kiyimni kiyishga majbur qila olmaydi.

Turkiyada diniy ta'lim masjid, madrasada, sibyan (o'smir yigitlar maktabi)da o'rgatiladi. Turkiya respublika deb e'lon qilingach, Tavhidi-Tadrisat Qonuni (№ 430, 3 mart 1924yil) bilan ta'lim tuzilishi Maorif Boshqarmasiga qarashli bo'ldi. Mazkur qonuning 4-moddasida shunday deyilgan: maorif boshqarmasi Universitetda yuqori malakali diniy kadrlarni tayyorlash maqsadida bitta fakultet tashkil etsin. 1975-76 o'quv yilidan litseylarning oxirigi sinfida va o'rta maktablarda o'quvchilarning xohishiga binoan diniy darslar o'tiladigan bo'ldi. Hozirgi kunda ham diniy dars boshlang'ich maktabning 4-5 sinfida, o'rta maktabning 1, 2, 3, sinflarida haftasiga ikki soatdan, shuningdek, litseylarning 1, 2, 3 sinflarida esa haftasiga bir soatdan o'tiladi. Litseyda bunday darslar faqat 2 ta chorakda o'tkaziladi. Shuningdek, barcha demokratik davlatlarda diniy ta'lim ikki sababga ko'ra zarur deb hisoblanadi. Birinchi, vijdon erkinligi va ta'lim.

Ikkinchi, "jaholatga qarshi ma'rifat" degan g'oya'ni keltirib o'tish mumkin.

”Darhaqiqat, dunyoni jaholat egallasa nafaqat aql, balki aqlni peshlaydigan ma’rifat, ma’naviyat, hurfikrlik, inson ozodligi barcha barchasi barham topadi”,- degan edi Prezidentimiz I.A.Karimov.¹

Yaponiya ta’lim tizimida majburiy ta’lim to’qqiz yillik bo’lib, o’rta ma’lumot olishning oliy bosqichi majburiy hisoblanmasa ham uni 95 % o’rta ma’lumot oluvchi bitiruvchilar tugallashadi. Maktablar xususiy, davlatga qarashli va milliy (universitet uchun yoki o’qituvchilar kollejlari uchun baza bo’lgan) maktablardan iborat. Maktablarda (har bir okrugda har xil ya’ni) o’zlashtirish, o’zlashtirmasligiga qarab o’quvchilar qabul qilinadi.

Oliy o’rta maktabda har xil variantlardagi dasturlarini taklif qiladi: umumiy, kasbiy va hokazo. Ta’lim mazmuni va uning sifatiga davlat nazorati o’rnatilgan. Oliy ta’lim tizimi Amerika oliy ta’lim tizimini eslatadi, ammo bir oz markazlashgan xarakterga egaligi bilan ajralib turadi. Yaponiyada 80 % oliy o’quv yurtlari xususiydir (bu asosan ikki yillik kollejlarga taalluqli). Yaponiyada hammasi bo’lib 96 ta milliy universitetlar (1949 yildan keyin milliy ta’lim haqidagi qonunga binoan asos solingan) mavjud.

Universitet tarmoqlari:

- milliy universitetlar;
- hududiy universitetlar;
- xususiy universitetlarga bo’linadi (eng mashhurlari Tokio, Kioto, Vaseda).

Universitetlar va universitet kollejlari umumiy ta’lim berishadi, ya’ni chet tilidan tayyorlash, sog’liqni saqlash, jismoniy tarbiya, shuningdek, yo’naltirilgan tayyorlov.

Universitet bo’lmagan tarmoqlarga: kichik (junior) kollej, 2 yoki 3 yil ta’lim beruvchi (asosan ayollarga taalluqli, ya’ni umumiy o’rta ta’lim maktabining 9-sinfini tugatishi bilan turmushga chiqqan) o’quv yurtlari kiradi.

Texnika kollejlari umumiy to’qqiz yillik maktabni tugatgandan keyin qabul qilinadi va 3 yil mobaynida to’liq o’rta ma’lumot beriladi, kasbga tayyorlanadi, texnika universitetlarining tegishli bo’limlariga topshirish imkoniyati beriladi. Shuningdek, bir yildan ikki yilga tayyorlovchi maxsus kasb maktablari mavjud.

Yapon ta’limining muhim jihatlaridan biri, oliy o’quv yurtiga kirishda imtihon topshirishdagi qattiq talablaridir. Oliy o’quv yurtiga kiruvchilar uchun birinchi o’rinda, yapon tilini bilish va o’rta ma’lumot haqida diplomning asl nusxasi talab qilinadi.

Bu diplomni esa, tayyorlov kurslarida yoki o’rta maktabning oliy bosqichida (9 yillikdan keyingi) olish mumkin.

Shuningdek, oliy o’quv yurtiga topshirish uchun texnika kollejini tugatganligi haqida diplom ham bo’lishi mumkin. Xorijliklar uchun xizmat ko’rsatuvchi o’quv yurtidan 12 yillik yapon o’rta ma’lumotini olganligi haqidagi guvohnomaning ekvivalentini olish mumkin (International Students Institute in Tokio u Kansai, International Students Institute in Osaka). Barcha xorijlik

¹Каримов.И.А «Баркамол авлод орзуси» -Т., «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» 2000йил. 210-бет.

abiturientlar maxsus testdan o'tishi kerak, ya'ni oliy o'quv yurtida ta'lim olish qobiliyatini tasdiqlovchi va maxsus til bo'yicha test topshiriladi.

Umumiy imtihon Tokiodagi Xalqaro Ta'lim Uyushmasi tomonidan o'tkaziladi (har yili dekabrda). Test natijasiga ko'ra abiturientlar o'zlariga tegishli hujjatlar bilan oliy o'quv yurtlariga jo'natiladi.

Xorijlik abiturientlar maxsus dastur asosida yoki magistratura va doktorantura bo'yicha o'qishlari mumkin. Bu dasturlar esa yapon tilini bilishni talab qilmaydi (o'qish ingliz tilida ham olib boriladi). Lekin moliyaviy (o'zi tomonidan yoki yordam dasturidagi grant asosida) mablag' talab qiladi. Moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlovchi tashkilotlar Yaponiyada har xil davlat, milliy, xususiy fondlar hisobidan olinishi mumkin.

Universitet dasturlari bakalavriat, magistratura va doktorantura uchun tuzilgan.

70-yillarda yapon oliy ta'lim xalqaro aloqalarda to'xtovsiz yuqori chiqib bordi. Hozirgi kunda yapon oliy o'quv yurtlari xalqaro integratsiyada har xil shakllar:

a) chet elda bilim olish uchun maxsus dastur, ya'ni yapon oliy o'quv yurtlarining umumiy ta'lim kursini o'z ichiga olgan;

b) xalqaro ingliz tili dasturlari (talaba almashish maqsadidagi);

v) ta'lim bilan tanishuv dasturlari (3 oylik);

g) chet mamlakatlar oliy o'quv yurtlari bilan hamkorlik aloqalari (kelishuv, o'qituvchi almashish);

d) kollejlarda chet mamlakatlar bo'limi (Yaponiya va boshqa davlatlarda) va birgalikdagi o'quv yurtlari dasturlari.

Angliyada esa, ta'lim 5 yoshda boshlanadi va 11 yoshgacha boshlang'ich maktabda o'qitiladi. 11 yoshdan 16 yoshgacha esa, o'quvchilar o'rta maktabda, umumta'lim, chuqurlashtirilgan predmetlarni o'rgatish va o'rta maxsus ta'lim beriladi.

16 yoshdan keyin o'quvchilar Oliy o'quv yurtlariga topshirish uchun zarur bo'lgan bilimlarni o'zlarining maktab va kollejlarda olishlari mumkin.

Oliy o'quv yurtlarida o'qituvchi lavozimi - assistent, ma'ruzachi, katta ma'ruzachilardan iborat.

Talabalarga bitta semestr davomida 4 ta fan o'tiladi. Har bir fandani haftasiga 2 ta ma'ruza o'tiladi (45 minutlik), semestr esa 15 haftadan iborat, semestr oxirida har bir predmetdan yozma ravishda imtihon topshiriladi.

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, Angliya oliy o'quv yurtlari bitiruvchilarining ishga joylashishida ish tajribasi, darsda o'zlashtirishga nisbatan muhim hisoblanadi. Shuning uchun oliy o'quv yurtini bitirgan talabalar birinchi marotaba ish qidirishganda ularning bir-ikki yillik ish staji borligiga qarab tanlashadi. Agar shunday stajga ega bo'lishsa, ularda nufuzli kompaniyalarda ishlash imkoniyati paydo bo'ladi.

Ta'lim sohasidagi davlat standarti (hukumat tasdig'idagi) Angliyada mavjud emas. Ta'limning mazmuni ish beruvchining talabidan kelib chiqadi. Oliy o'quv yurtlari ta'lim mazmuni to'g'risida qaror qabul qiladi va unga javobgardir. Bitta fanning mazmuni har bir oliy o'quv yurtida bir-biridan farq qiladi. Shu bilan birga,

Buyuk Britaniyada asosiy fanlarni o'qitishning sifatiga umumiy tashqi reyting baholash tizimi mavjud.

AQSH Ta'lim Departamenti esa (1998 yil) "Har qanday joyda har qanday vaqtda Ta'lim" (Learning Anytime Anywhere parterships - LAAP) dasturini ishlab chiqishdi. Dastur oliy o'quv yurtidan keyinga ta'lim hisoblanadi va Internet orqali masofaviy ta'lim olishga yo'naltirilgan oliy o'quv yurtlari va texnika kompaniyalari unga mablag' ajratishgan.

Mazkur dasturni qabul qilish natijasida AQSH Kongressi "Oliy ta'lim to'g'risida"gi (1965 yil) Qonuniga o'zgartirishlar kiritgan, maqsad masofaviy ta'limdagi yangi texnologiyalarni rag'batlantirishdan iborat bo'lgan. Dastlab tanlov ikki bosqichda o'tkazilgan, birinchisi 653 ariza qabul qilgan, shuningdek 3-5 yil muddatga moliyaviy mablag' bilan taminlanishga 29 ta loyiha sazovor bo'lgan (1999yil).

Shimoliy Irlandiyada esa, ta'lim 4 yoshdan 11 yoshgacha boshlang'ich maktabda o'qishdan boshlanadi. Shimoliy Irlandiyada mustaqil maktablar (Voluntary grammar schools) davlat ta'lim tizimining bir qismi hisoblanadi. Xususiy maktablarda 7% ga yaqin britaniyalik bolalar tahsil olishadi. o'qish uchun to'lov maktabning turiga va o'quvchining yoshiga bog'liq. Masalan, kunduzgi maktabda 1-o'quv yili uchun unga 400 funt sterling to'laydi, maktab pansionatining yuqori sinfida o'qish uchun esa 9000 funt sterlingacha to'lash kerak bo'ladi. Shuningdek, xususiy maktablardagi alohida kam ta'minlangan oilalarning bolalari uchun esa davlat mablag' ajratadi.

Hozirgi kunda Angliya, Uels va Shotlandiyada 2500 ga yaqin xususiy maktablar mavjud. Irlandiyada Public-Schools, ya'ni 200 ta eng yaxshi maktab-pansionlar (o'g'il bolalar uchun) mavjud bo'lib, ularning ko'pchiligi uzoq tarixga egadir.

Xususiy maktablarga o'qishga topshirmoqchi bo'lgan bolalar tayyorlov maktablariga (Preparatory schools) qatnashadi (odatda 7 yoshdan 12 yoshgacha). Bu tayyorlov maktablari ham (boshqa maktablar kabi) o'g'il bolalar va qiz bolalar maktablariga bo'linadi.

Germaniyaning ta'lim tizimini qiyosiy tahlil qilsak, davlatda majburiy ta'lim 6 yoshdan (mahalliy fuqarolar va xorijliklar uchun) qilib belgilangan. Ayrim hollarda 7 yoshdan o'qishga qabul qilinadi. Mamlakatimizda esa bolalar 7 yoshdan maktabga boradi.

O'quv yilining boshlanishi Germaniya yerlarida har xil paytda boshlanadi. Masalan, Gamburgda yozgi ta'til 19 iyuldan 29 avgustgacha bo'lsa, Tyuringda 28 iyundan 8 avgustgachadir. Majburiy ta'lim umumiy yoki xususiy maktablarda amalga oshiriladi.

Asosiy ta'lim hisoblangan umumiy ta'lim o'quvchilarga umumiy ta'limning asoslarini o'rgatadi. Jumladan, nemis tili, matematika, tabiiy fanlar, jamiyatshunoslik, chet tili (asosan ingliz tili). Maktabni muvaffaqiyatli tugatgan o'quvchilar kasb-hunar ta'limida o'qishni davom ettirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Maktab ta'limining oxirgi yillarida esa, bitiruvchilar kasb-hunar tayyorgarligini korxonalarda o'tashadi. Mazkur maktablar asosiy maktablar deb

yuritiladi. Undan tashqari, ta'lim tizimida gimnaziyalar va Real maktablar asosiy o'rin olgan bo'lib, bu yerda bolalarga kengaytirilgan umumiy ta'lim beriladi. Qoida tariqasida bu yerda o'qish 5-sinf dan 10-sinf gacha ta'lim jarayonini o'z ichiga oladi, hamda mazkur o'quv maskanini tugatgani to'g'risida guvohnoma berish bilan yakunlanadi. Shundan so'ng bitiruvchilar boshqa o'quv muassasalarida, jumladan maxsus kasb-hunar bilim yurtlari, texnikumlarda o'qishni davom ettirish huquqiga ega bo'lishadi. Gimnaziyalar chuqurlashtirilgan umumiy ta'lim beradi, o'qish muddati esa, qoida tariqasida o'n yillikdir.

Bundan tashqari, ayrim hududlarda maktabning "muntazam" (Tyuringiyada), "o'rta" (Saksoniyada), "ikkinchi bosqich maktab" (Saksoniya-Angelt), "mintaqaviy maktab" (Reyplend-Porald) kabi maktablar mavjud.

Nogironlar va muomala layoqati cheklanganlar uchun maxsus maktablar mavjud. Ba'zan nogiron bolalar "muntazam maktablar" ning maxsus sinflarida ta'lim oladilar.

Kechki gimnaziyalar va maktablarda ta'lim olish ta'lim oluvchi katta yoshdagilar uchun mo'ljallangan, ularning oliy o'quv yurtlariga kirish imtihonlari topshirishlari va xohlagan oliy o'quv yurtiga kirib o'qish uchun imkoniyat beradi, hamda 2-bosqich o'rta maktabni tugatganligi to'g'risida guvohnoma yoki attestat berish orqali yakunlanadi. Ishlayotgan katta yoshdagilar uchun esa attestat olish uchun imtihon topshirish va tayyorgarlik ko'rishlari uchun maxsus kurslar tashkil etilgan.

Germaniyaning ta'lim sohasidagi, bu usuldan mamlakatimizda ham xuddi shu singari katta yoshdagilar maktablarini tashkil qilish lozim.

Germaniyada kasb-hunar ta'limida o'qish asosan ishchi o'rinlarini hisobga olgan holda va ishchi xodimlarga bo'lgan talabga asoslanib tashkil etiladi. Ushbu ta'lim turi 2 yildan 3,5 yilgacha bo'lgan ta'limni o'z ichiga oladi. O'quvchilar o'qish davomida pul mukofotlari bilan mukofotlanib boriladi.

Ayniqsa, moliya sohasi bo'yicha ta'lim uchun korxonalar va davlat katta miqdorda mablag' sarflaydi.

Germaniya o'qituvchilari haqida so'z yuritganda shuni takidlash joizki, ya'ni Germaniyaning har bir tur maktabi o'zining maxsus bilimga ega bo'lgan o'qituvchilariga ega. Bo'lg'usi boshlag'ich va asosiy maktab o'qituvchilari qoida tariqasida 7 semestr o'qishadi, ba'zan 9 oygacha uzaytirilgan bo'lishi ham mumkin. O'qish yakunida bo'lg'usi o'qituvchilar 1-davlat imtihonini topshirishadi. Keyin esa, pedagogik amaliyotni o'tashadi (qoida tariqasida 2 yil) va keyin 2-davlat imtihonini topshirishadi.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlarning oliy ta'limida amaliyot, amaliy tajribaga ega bo'lish birinchi o'rinda turadi. Bu juda ham muhim bo'lib hozirgi kunda respublikamizda ham bunga e'tibor berilmoqda.

Germaniyada kasb-hunar ta'limining alohida ko'rinishlari mavjudki, uning ikki jihatini ajratib ko'rsatish mumkin:

Birinchi, ta'limning ko'proq qismi maktabda emas, balki ishlab chiqarish korxonalari yoki xizmat ko'rsatish korxonalarida, davlat xizmatida va hokazolarda o'tkaziladi. Ta'lim oluvchilar kasb-hunar maktabiga borish uchun ishdan vaqt

ajratiladi. Yoshlar 3-4 kun korxonada va 1-2 kun kasb-hunar maktabida bilim oladilar.

Ikkinchi, kasb-hunar ta'limida bilim bilan ikki Institut shug'ullanadi: korxona va kasb-hunar maktabi. Kasb ta'limini korxonalarda o'rgatish federatsiyaga qarashli, kasb-hunar maktablari esa alohida yerlarga tegishlidir.

Mazkur ta'lim turi federatsiya bilan yerlar va boshqa hamkorlarning iqtisodiy talablaridan kelib chiqadi. Kasb turi bilan bog'liq o'qish muddati 2 yildan 3,5 yilgacha davom etadi. Hozirgi kunda, deyarli 1,6 mln. yoshlar, deyarli 360 ta mutaxassislikni o'rganishmoqda. Shuningdek, hozirgi kunda deyarli 42% yigitlar va 55% qizlar kasb o'rganish uchun kasb-hunar ta'lim muassasalariga topshirishadi. Yigitlar ko'pincha avtomexanik, elektromontyor, g'isht teruvchi, duradgorlikni tanlashsa, qizlar esa vrach yordamchisi, sotuvchilik kasblarini tanlashadi.

Turkiya davlatining ta'lim tizimini o'rganar ekanmiz bu mamlakatda majburiy ta'lim 6 yoshdan boshlanadi, 8 yillik majburiy boshlang'ich ta'lim deb nom olgan bu ta'lim, 14 yoshgacha bo'lgan bolalarning ta'lim olishini o'z ichiga oladi.

O'rta ta'lim esa boshlang'ich ta'limga asoslanib, kamida 2 yillik bo'lgan oliy ta'lim beruvchi o'quv muassasalarida olib boriladi. Oliy ta'lim pullikdir, shuningdek, yaxshi o'zlashtiradigan lekin moddiy imkoniyatlari yo'q bo'lgan talabalarning ta'lim jarayonlari stipendiya va kredit yo'li bilan qoplanadi.

Mamlakatning test tizimi mukallashib bormoqda. Test Markazi abiturentlarga oliy o'quv yurtlariga kirish uchun test topshirishiga 1 oy qolganda markazda faoliyat ko'rsatayotgan xodimlarning o'sha markazdan chiqarilmasligi, shuningdek, test materiallarining chop etilmasligi alohida ahamiyatga ega.

Xalqaro tajribalarni o'rganib, mamlakatimizda ham barcha sohalarda kadrlarga bo'lgan ehtiyoj (broker, kompyuter ustasi, dasturchi, dizayner va boshqalar) ortib bormoqda. Joylarda kichik kadrlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Kollej bitiruvchilariga maqsadli kredit ajratish tizimi yo'lga qo'yildi. Bu sohadagi ishlarni yanada jonlantirish lozim. Shuningdek, respublikamizda tashkil etilgan Tashxis markazlari faoliyatini kuchaytirish zarur. Zero, u o'quvchilarga va ota-onalarning ongiga ta'sir qilsin va ularga kelajagi uchun to'g'ri yo'l ko'rsatsin.

Ta'lim – shaxsning yashash faoliyati va ijtimoiylashtirishning turli tabaqalari rivojlanishi va shakllanishida zarur bo'lgan asosiy omildir. Shaxsning ijtimoiy statusini aniqlash, jamiyat ijtimoiy tuzilishini ishlab chiqish va rivojlanishida ijtimoiy tartib va barqarorlikni qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy nazoratni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'rta va oliy maktab ta'limining yuksak saviyasi, shubhasiz, har qanday jamiyatni modernizatsiya qilish va rivojlantirishning asosidir. Mustaqillik tufayli jamiyat oldiga mustahkam davlatchilikni barpo etish hamda murakkab iqtisodiy vaziyat sharoitlarida milliy elitani shakllantirish zaruratipaydo bo'ldi. Zamon talablariga mos ravishda ta'lim tizimini yangilash va qayta tashkil etish vazifasi o'ta dolzarb masalaga aylandi. O'zbekistonda ta'lim tizimini isloh qilish

jarayoniga mustaqillikning dastlabki yillaridanoq kirishilgan bo'lib, aynan o'sha davrda mamlakatimizdagi ta'lim tizimini jahon standartlariga moslashtirishga intilish boshlandi. Bugungi kunda ta'lim sohasida Respublikamiz AKSELS, AYREKS, Amerika kollegiyalari konsorknumi, SARE, Tinchlik korpusi (AQSH), DAAD, Konrad Adenauer fondi (Germaniya), Britaniya Kengashi, Sauz Al-bantin fondi (Misr) kabi xalqaro va boshqa nohukumat tashkilotlari bilan hamkorlik yo'lga qo'yildi. Mamlakatimizdagi ta'lim tizimi ijtimoiy siyosatning eng muhim yo'nalishidir. Jamiyatni yangilash doimo ta'limni qayta qurish bilan bog'liq, chunki yangi mafkurali, yangi dunyoqarashga ega bo'lgan kishilarni ta'lim sohasi tayyorlaydi.

Mustaqillikning 23 yili davomida ta'lim tizimini tartibga solish, isloh qilish va ta'limga innovasiyalarni olib kirishga kirishildi va bu borada qator qaror va dasturlar qabul qilindi. Ta'lim sohasini chuqur isloh qilish vazifalarini hisobga olgan holda barcha pog'onalaridagi o'quv yurtlarini tubdan qayta qurish va rekonstruksiya qilish ishlari amalga oshirib kelinmoqda. Yangi universitetlar, tijorat, politexnika kollejlari va boshqa o'quv yurtlari ochildi. Zamonaviy yo'nalishlar – jahon taraqqiyoti va diplomatiyasi, xalqaro jurnalistikasi, xalqaro huquq va iqtisodiyot, bozor munosabatlari va boshqa sohalar bo'yicha mutaxassislar tayyorlash tashkil qilindi.

Respublikamizda zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilish, zamonaviy talablarga mos kadrlar tayyorlash ishini yo'lga qo'yish maqsadida quyidagilar asosiy yo'nalish sifatida qabul qilindi:

- butun ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, faoliyat ko'rsatayotgan o'quv yurtlarini yangi yo'nalishga o'tkazish hamda yangicha sharoit va zamonaviy texnologiyalarda ishlay oladigan mutaxassislar tayyorlash uchun o'quv yurtlari, eng avvalo, texnik kollejlari, biznes maktablari va maxsus o'quv yurtlari tashkil etish bilan tuzilma yangiliklarini amalga oshirish;
- o'quv-tarbiya jarayonini jahon standartlari darajasiga ko'tarish, ta'lim, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarining butunlay yangi usullarni joriy etish;
- o'quv yurtlari tuzilmalarini takomillashtirish, xususan, umumiy o'rta ta'lim dargohlarini bitiruvchilari uchun tadbirkorlik faoliyati asoslari, iqtisodiy va huquqiy bilim darslari kiritilgan maxsus ta'lim muassasalari barpo etish va ularning tarmog'ini kengaytirish;
- yoshlarga milliy uyg'onish va umuminsoniy qadriyatlar asosida, Vatanga mehr-muhabbat, mustaqillik g'oyalariga sadoqat ruhida ta'lim-tarbiya;
- O'zbekistonning iqtisodiy, ma'naviy ehtiyojiga mos keladigan yuksak malakali xorijiy mutaxassislar bilan raqobat qila oladigan kadrlar salohiyatini yuzaga chiqarish va uni rivojlantirish;

- pedagog kasbiga hurmatni oshirish, pedagog va murabbiylar mehnatiga qiziqishni kuchaytirish uchun zarur bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar yaratish...

Ko'rib turganimizdek, O'zbekistonda ta'lim tizimini isloh qilish sohasida ko'rilgan chora-tadbirlar, shuningdek, rejalashtirish va ishlab chiqish bosqichida turgan loyihalar hozirning o'zidayoq Respublikamizda ta'lim islohotining sezilarli muvaffaqiyatlaridan so'z yuritishga imkon bermoqda. Ta'lim tizimini isloh qilish va rivojlantirish mustaqil O'zbekistonimizning porloq kelajagi va barqarorligi uchun kiritiladigan ishonchli investitsiyadir.

Savol va topshiriqlar.

1. Xalqaro tajribalarni o'rganishning ahamiyati.
2. Integratsiyalashgan kurslarning ahamiyatini ayting.
3. Jahon mamlakatlari ta'lim tizimini qiyosiy tahlil qiling.

Qiyosiy pedagogika fanidan test savollari.

- 1. Qiyosiy pedagogika fanining taraqqiyot bosqichi necha davrni o'z ichiga oladi?**
 - A) 3 davrni
 - B) 2 davrni
 - V) 5 davrni
- 2. Qiyosiy pedagogikaning vazifalari nechanchi yilda muhokama qilindi?**
 - A) 1978 yil Parijda
 - B) 1977 yil Londonda
 - V) 1976 yil Fransiyada
- 3. Qiyosiy pedagogika fanining tadqiqot metodlari quyidagi javoblarning qaysi birida to'g'ri ko'rsatilgan?**
 - A) tavsiflash metodi, statistik metod, tarixiylik metodi
 - B) sostiologik metod, analitik metod
 - V) ko'rsatilgan barcha javoblar to'g'ri
- 4. Qiyosiy pedagogika fani taraqqiyotining birinchi davri qaysi yilni o'z ichiga oladi?**
 - A) X asr oxiri 1823 yilni
 - B) XVIII oxiri 1917 yilni
 - V) XX asr oxiri 1997 yilni
- 5. "Qiyosiy pedagogika" va "qiyosiy tarbiyalash" terminlari birinchi bo'lib kim tomonidan qo'llanildi ?**
 - A) Mark Antuan Parijskiy
 - B) Yan Amos Komenskiy
 - V) K.D. Ushinskiy
- 6. Qiyosiy pedagogika taraqqiyotining ikkinchi davri qaysi yillarga to'g'ri keladi?**
 - A) 1917 yildan 1945 yilgacha
 - B) 1920 yildan 1925 yilgacha
 - V) 1912 yildan 1915 yilgacha
- 7. Qiyosiy pedagogika jamiyati ilk bor qayerda tuzilgan?**
 - A) 1956 yil AQSH da
 - B) 1960 yil Rossiyada
 - V) 1971 yil Fransiyada
- 8. Qiyosiy pedagogika fani qaysi metodga tayanib ihh ko'radi?**
 - A) suhbat
 - B) qiyoslash
 - V) anketa
- 9. Yaponiyada nechta universitet faoliyat yuritadi ?**
 - A) 96 ta
 - B) 89 ta
 - S) 99 ta
- 10. Germaniyada bolalar bog'chasi qanday muassasalar tizimiga kiradi?**
 - A) Yosh avlodni qo'llab-quvvatlash muassasalari tizimiga

B) Voyaga etmaganlarni tarbiyalash ta'lim muassasalari tizimiga

S) Bolalarni huquqiy himoyalash muassasalari tizimiga

11.1994 yili o'qituvchilar tayyorgarligi agentligi qayerda tashkil qilindi?

A) O'zbekiston va Hindistonda

B) Angliya va Uelsda

S) AQSH va Germaniyada

12. Shotlandiyada umumiy o'qituvchilar kengashlari (UO'K) nechanchi yilda tashkil qilingan?

A) 1972 yilda

B) 1965 yilda

S) 1983 yilda

13. Angliyada umumiy o'rta ta'limga necha yoshdan qabul qilinadi va u necha yoshgacha davom etadi?

A) 5 yoshdan 16 yoshgacha

B) 7yoshdan 17 yoshgacha

S) 6yoshdan 14 yoshgacha

4 yoshdan 10 yoshgacha

14. Nechanchi asrdan boshlab Angliyada boshlang'ich ta'lim tizimini ishlab chiqish mas'uliyatini davlat o'z zimmasiga olgan?

A) XIX asrdan boshlab

B) VII asrdan boshlab

S) X asrdan boshlab

15.Germaniyada majburiy maktab ta'limiga necha yoshdan qabul qilinadi va u necha yil davom etadi?

A) 7 yoshdan 16 yoshgacha (9 yil)

B) 6 yoshdan 16 yoshgacha (10 yil)

S) 6 yoshdan 18 yoshgacha (12 yil)

16. Qiyosiy pedagogika fanining asosiy vazifasi to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang.

A) Yangi pedagogik texnologiyani nazariy asoslash

B) Tarixiy tajriba jarayonlarini joriy qilish

S) Chet el mamlakatlarining ijobiy tajribasini o'rganish

17. Germaniyada nechanchi yildan boshlab bolalar bog'chasiga qatnash uchun huquqiy me'yorlar ishlab chiqildi?

A) 1993 yildan boshlab

B) 2001 yildan boshlab

S) 1996 yildan boshlab

18.Germaniyaning aynan qaysi shaharlarida boshlang'ich ta'lim 6 yil davom etadi?

A) Gessen va SHimoliy Reyn-Vestfaliyada

B) Berlin va Branderburgda

S) Hagen va Geydelbergda

19.Fransiyada boshlang'ich ta'lim qanday xususiyatga ega?

A) Majburiy va bepul

B) Ihtiyoriy va pullik

S) Ihtiyoriy va bepul

20. 3 yoshga etgan bolalarga maktabga tayyorlovchi maxsus bog'chalarda buyuk pedagog Mari Mantesorri metodi asosida ta'lim beriladi...

A) Belgiyada

B) Italiyada

S) AQSHda

Testlar kaliti

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	20
A	V	V	B	A	A	A	B	A	A	B	B	S	A	S	S	A	B	A	B

GLOSSARIY

Adaptatsiya (ko'nikish) -	Shaxs yoki guruhning ijtimoiy muhit bilan o'zaro ta'sir etish, moslashish jarayoni.
Akmeologiya -	Kattalarning o'z-o'zini mustaqil rivojlanishi, mustaqil bilim egallashi, kasbni takomillashtirish haqidagi fan.
Akseleratsiya -	Ijtimoiy – iqtisodiy o'zgarishlar ta'sirida bolaning intellektual va jismoniy rivojlanishining tezlanishi.
Aqliy tarbiya -	Talabalarning ongi va tafakkurini bilimlar, ongli ko'nikmalar hamda malakalar bilan boyitish. Aqliy kuchlar: sezgilar, ruhiy jarayonlar, iqtidorlar, biluvchanlik maqsadlari, dunyoqarash va faoliyat ozodligini shakllantirish.
Aqllilik -	Biror ishni bajarishda shoshma – shosharlik qilishdan saqllovchi quvvat.
Bilim -	Talabalar tomonidan mustaqil hayotda, faoliyatda, jumladan ishlab chiqarishda ijtimoiy munosabatda zarur bo'lgan fan asoslarining qonunlari, omillari va tushunchalarini o'zlashtirish natijalari.
Bilish qobiliyati -	Fanning tegishli sohalariga oid qobiliyatdir.
Vatanparvarlik -	Kishining o'zi tug'ilib o'sgan, kamol topgan joy, zamin, o'lkaga bo'lgan mehr muhabbati, munosabatlarini ifoda etadigan ijtimoiy va ma'naviy – axloqiy hislatlari, fazilatlaridir.

Vosita –	Ma'lum o'qitish usulini muvaffaqiyatli amalga oshirmoq uchun zarur bo'lgan yordamchi o'quv materiallari – asbob, qurol va boshqa shu kabilardan foydalanishdir.
Global -	To'liq, umumiy, universal.
Gnostik faoliyat –	Pedagogik faoliyatning natijalarini tekshirish va baholash, uning kechishi va samaradorligini tahlil qilish.
Diskussiya –	O'quv jarayonining tarkibiy qismlaridan biri; muhokama, bahs yuritish.
Jazolash –	Bu tarbiyalanuvchining hatti – harakati va faoliyatiga salbiy baho berishdir.
Jamoa –	Insonparvarlik va javobgarlik ma'suliyatlariga bog'liqligi bilan karakterlanadigan munosabatlar hamda hamkorlikdagi ijtimoiy, ijobiy faoliyatga asoslangan kishilarning umumiyligidir.
Idrok –	Borliqni odam ongida aks etishidir
Ijodkor shaxs -	Faoliyat natijasida, yangiliklar yaratishga intiluvchan va imkoniyati bor shaxs.
Ilmiy bilimlar –	Voqelikning haqqoniy in'ikosidir
Inson kamoloti –	Bu insonning hayot yo'li davomida rivojlanishining o'ziga hos shakli bo'lib, mahsus olib boriladigan tarbiyaviy ta'sir natijasi hisoblanadi.
Insonparvarlik -	(“inson” – arabcha; “parvar”- fors-tojikcha; “lik”- o'zbekcha – kishiga g'amho'rlik, gumanizm) – odamzodning qadri, uning erkinligi, qobiliyatlari har tomonlama namoyon bo'lishi uchun kurashish, insonning baht-saodati, teng huquqliligi, adolatli hayotini ta'min etishga intilish, insoniylikning barcha tamoyillari yuzaga chiqishiga shart-sharoitlar yaratish ma'nosini anglatadi.
Islahot –	Islah qilish, tubdan o'zgartirish, qaytadan qurish, yangidan tashkil qilish.
Istiqbol –	Ta'sir ko'rsatishning juda ta'sirchan usuli bo'lib, u kishining hatti-harakatlari, oldiga maqsadlar qo'yish yo'li bilan ta'minlaydi va intiluvchanlikni rivojlantirishga yordam beradi.
Istiqlol –	(arabcha “istiqlol”- ko'tarilish, qaddini rostdash, o'sish, yuqori joyga erishish) – har bir inson, jamoa, davlat, millatning rivojlanishi uchun zarur erkinlik sharoiti.
Ixtisos -	Insonning hosil qilgan bilimlari va amaliy ko'nikmalarining majmui. Kishiga turmushining moddiy va ma'naviy sohasida muayyan ishni bajarish imkoniyatini beradi.
Iqtisodiy madaniyat –	Jamiyat a'zolarining iqtisodiy hayotdagi ommaviy ijodiy ishtirokining, ularning iqtisodiy bilimlari, ho'alik

	yuritishdagi mahorati va malakasi, iqtisodiy fikrlashi va tafakkuri rivojlanganligining sifat tavsifi.
Iqtisodiy savodhonlik -	Iqtisodiy faoliyatda ishtirok etishga tayyorgarlik, iqtisodiy aloqalar va munosabatlar mohiyatini tushunish, ho'jalik faoliyatining nazariy va amaliy asoslarini bilish, aniq iqtisodiy vaziyatlarni tahlil eta olish
Iqtisodiy ta'lim -	Ijodkor shaxs shakllanishiga ta'sir etuvchi iqtisodiy bilim, ko'nikma, malakalarni uzluksiz va izchil o'zlashtirishga yordam beruvchi, shaxs ehtiyoji hamda imkoniyatlarini hisobga olgan holda turli uslub, reja va dasturlar, metodikalar yordamida iqtisodiy bilim berish uchun maqsadga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.
Iqtisodiy tarbiya –	Talabalarni iqtisodiy tushunchalar bilan tanishtirish jarayoni bo'lib, ularni ishlab chiqarish sohasidagi harakatlar ko'nikmasi, malakasi, iqtisodiy tafakkurni rivojlanishi bilan qurollantirish.
Iqtisodiy tarbiyalanganlik -	Shaxs barkamolligini belgilovchi axloqiy sifatlar, iqtisodiy faoliyatining ma'naviy, huquqiy va siyosiy yo'nalishlaridagi in'ikosi. Iqtisodiy tarbiyalanganlik darajasi ijtimoiy foydali mehnat natijasi bilan belgilanadi.
Kasb –	Muayyan bilim va mahorat talab etadigan mehnat faoliyat turi. Unga umumiy yoki mahsus ma'lumotlar hamda amaliy tajriba yo'li bilan erishiladi.
Kreativ –	Ijodiy.
Kriteriy (mezon) –	Biror hodisaga baho berish uchun yoki biror narsani turkumlash (klassifikatsiya qilish) uchun zarur belgi; baholash va fikrlash uchun o'lchov.
Kuzatish –	O'rganish lozim bo'lgan pedagogik hodisani ma'lum maqsad nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda kuzatuvchi kuzatish bayonnomasini olib boradi. Kuzatish obyektiga oid bo'lgan aniq dalilli material tayyorlanadi. Kuzatish belgilangan aniq reja asosida olib boriladi
Kuzatuvchanlik qobiliyati -	Talabaning, tarbiyalanuvchining ichki dunyosiga kira olish qobiliyati, talaba shaxsini va uning vaqtinchalik ruhiy holatlarini juda yahshi tushuna bilish bilan bogliq bo'lgan psixologik kuzatuvchanlikdir.
Ko'nikma -	Malakaning tarkibiy qismi bo'lib, harakatning ayrim qismlarini nihoyatda tez, aniq va maqsadga muvofiq ravishda o'z-o'zidan bajarilish qobiliyatini ifodalaydi va talabalarda ko'p marta takrorlanadigan mashqlar natijasida yuzaga keladi.
Malaka –	Ongli ravishda bajariladigan ishning bir hil mehnati, ko'p marta takrorlanadigan, avtomatlashib ketgan tarkibiy elementidir.

Maorif –	Ta’lim sohasidagi ming yillik madaniyatimiz hazinalarini jamlagan eski yozuvni o’rganish ham didaktik ta’lim mazmunidagi yangilikdir
Mafkura -	(arabcha “mafkura”- nuqtai nazarlar va e’tiqodlar tizimi, majmui) – jamiyatdagi muayyan siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, badiiy, falsafiy, ilmiy qarashlar, fikrlar va g’oyalar majmui.
Mahorat -	Turli malakalardan ishonchli, ijodiy ravishda foydalanish hamda kasbiy malakalar rivojlanishining yuqori darajasi va kasbiy ta’limning mutloq maqsadidir. Mahorat – bu murakkab ishni tez, aniq bajarishning engilligi, mehnatning yuqori sifati va barqaror ritmi uchun kafolat beruvchi ishonchlilikdir.
Millat -	(arabcha “millat”- xalq) – kishilarning yagona tilda so’zlashishi, yahlit hududda istiqomat qilishi, mushtarak iqtisodiy hayot kechirishi, umumiy madaniyat va ruhiyatga ega bo’lishi asosida tarihan tashkil topgan barqaror birligi.
Milliy an’analar -	Millat hayotining turli sohalarida namoyon bo’ladigan tushunchalar, belgilar, hususiyatlar, faoliyat turlari, odatlar va hislatlarning avloddan-avlodga o’tish hamda meros bo’lib qolish tarzi.
Milliylik -	Tarixan tashkil topgan barqaror ijtimoiy-etnik birliklarni, ya’ni millatlar va elatlarni boshqa barqaror ijtimoiy birliklardan, masalan, ijtimoiy guruhlardan farqlovchi tomonlar, hususiyatlar, ma’naviy, ruhiy va madaniy qirralar hamda tafovutlar majmui.
Milliy manfaatlar -	Millatga, milliy davlatga moddiy, ma’naviy, ruhiy va jismoniy foyda, naf keltiruvchi omillar.
Milliy ong -	Bevosita har bir millat yoki elatning uzoq tarixiy etnogenez davri, turmush tarzi, iqtisodiy ishlab chiqarish usuli, diniy e’tiqodlari, madaniyati, boshqa halqlarning bevosita ta’siri tufayli shakllangan dunyoqarashi, iqtisodiy, siyosiy-ijtimoiy va madaniy-ma’naviy sohalarida faollik darajasi.
Milliy ruhiyat –	Millatning ichki holati, kechinmalari, his – tuyg’ulari, ma’naviy dunyosi, o’y – fikrlari, maqsad va malakalari hamda kayfiyatlari bilan bog’liq mulohazalar majmui.
Milliy qadriyatlar –	Millatning g’oyalari, qadriyatlar, e’tiqodlari, ma’naviy turmush tarzi, orzu-istaklari, kelajak maqsadini ifoda etadigan urf odatlar majmui.
Milliy ruhiyat –	Millatning ichki holati, his – tuyg’ulari, ma’naviy dunyosi, o’y – fikrlari, maqsad va maslaklari hamda kayfiyatlari bilan bog’liq mulohazalar majmui.
Milliy til –	Kishilarning tarixan tashkil topgan barqaror birligi –

	millatning, elatning umumiy tili. O'zaro fikr almashish, muloqot vositasi.
Milliy g'urur -	Har bir millatning o'z – o'zini anglashi natijasida sodir bo'ladigan ichki ruhiy kayfiyati. Milliy g'urur mustahkam bo'lsa, millat vakillari orasidagi birlik ham kuchli bo'ladi.
Moddiy qadriyatlar –	Insoniyatning yashashi, mehnat qilishi uchun zarur bo'lgan, ijtimoiy, iqtisodiy talabini qondiradigan barcha turdagi narsalar va ashyolar yig'indisi.
Muallim –	Muayyan fan yuzasidan ta'lim berishga vakolatli, ta'lim – tarbiya bo'yicha oliy, mahsus tayyorgarlikdan o'tgan, pedagogik va psixologik bilim, ko'nikma, malakalarni va talab darajasidagi mahoratni egallagan, ta'lim-tarbiya, usul, vosita uslubi asosida o'z metodikasi, ishlash qobiliyatiga ega ma'naviy etuk shaxs.
Muammo –	Ilmiy bilishni rivojlantirish zarurligini ifodalashning subyektiv shaklidir. U muammoli vaziyatning, ya'ni jamiyat rivojlanishi jarayonida bilish va bilmaslik o'rtasida obyektiv ravishda vujudga keladigan ziddiyat.
Muomala -	Yaxshilikka sabab bo'lgan ishlarda mayinlik, shirinso'zlik, yoqimtoylilik asosidagi munosabat.
Murakkab malaka -	Kasb mahoratining asosini tashkil etib, bilim, boshlang'ich malaka hamda ko'nikmalarni o'z ichiga oladi va ular asosida shakllanadi. Murakkab malaka shakllanishi shaxsda kasb mahoratini paydo bo'lishiga imkon yaratadi.
Muhit –	Kishiga ta'sir etadigan tashqi voqelik.
Nutq qobiliyati –	Nutq yordamida, shuningdek, imo – ishora vositasida o'z fikr va tuyg'ularini aniq va ravshan ifodalash qobiliyati
Oila –	Kishilar hayotining eng muhim qismi, jamiyatning kichik hujayrasi, ijtimoiy – madaniy organizm.
Omil-	Bir guruhga kiruvchi kamida ikkita ilk mahsul boisdan tashkil topgan ahamiyatli sababdir
Pedagogik jarayon –	Ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan, kattalarning pedagogik faoliyati ta'sirida tashkiliy shakllantirilgan va mazmunan boyitilgan hamda tarbiyaning yo'naltiruvchi va olib boruvchi rahbarlik roli natijasida bolaning o'z-o'zini taraqqiy ettirishidir.
Pedagogik reyting-	Ta'lim ta'lim muassasalarida o'qituvchining faoliyati, dasturi, o'quv rejasi, obro'sini baholovchi individual raqam ko'rsatkichi.
Pedagogik tajriba –	O'qituvchi tomonidan pedagogikaning tamoyillari va amaliy qonunlarini ijodiy faol ravishda o'zlashtirish hamda real sharoitlarni, talabalarning jamoasi, shaxsning o'ziga hosliklarini hisobga olgan holda amaliyotga tadbqiq etishdir.

<i>Pedagogik qarama – qarshiliklar –</i>	Pedagogik amaliyot jarayonida vujudga keladigan, eskirgan pedagogik ko'rsatmalar, qarashlar, qonuniyatlar va pedagogik jarayonning tarbiyaviy samaradorligini pasaytiradigan, shaxsni shakllantirish tizimlari bilan vujudga kelgan nomuvofiqlikdir.
<i>Salohiyat-</i>	Aniq fan yo'nalishida aniq ishni samarali bajarish uchun zarur bo'lgan o'ziga hos hususiyatni bildiradi.
<i>Sezgi –</i>	Kishini o'rab olgan moddiy dunyo, predmet va hodisalarning ongimizda aks etishidir.
<i>Siyosiy madaniyat –</i>	Umumiy madaniyatning muhim turi, jamiyat a'zolari, millat, ijtimoiy guruhlar va qatlamlar hamda har bir fuqaroning, davlatning ichki va tashqi siyosatini tushuna bilish qobiliyati, tahlil qila olish darajasi va siyosiy vaziyatga qarab, mustaqil ravishda o'z hatti – harakatlarini belgilash hamda ularni amalga oshirish madaniyati.
<i>Suhbat –</i>	Pedagogik muloqot usullaridan biri; u evristik, individual, ahborot, mustahkamlash usullaridan farq qiladi.
<i>So'rov, so'roq –</i>	Faqat o'zlashtirilgan ma'lumotlarni tiklabgina emas, balki uni isbotlab va tushuntirib berishdan iborat.
<i>Talab –</i>	Ta'lim va tarbiya jarayonida pedagogning tarbiyalanuvchiga nisbatan shaxsiy munosabatining namoyon bo'lishidir.
<i>Takomillashuv –</i>	Qarama – qarshiliklarning birligi va kurashuvidir, ana shu birlik hamda kurash natijasida ro'y beradigan o'z – o'zidan harakatlanishdir.
<i>Tarbiyaning maqsadi –</i>	Jamiyatning alohida shaxsga bo'lgan ehtiyojlarini aks ettirish, uning mohiyati, ideal talablari, o'ziga hosligi va fazilatlari, hayotga munosabatining aqliy, jismoniy, axloqiy , estetik rivojlanishini nazariy va amaliy umumlashtirishidir.
<i>Tarbiyaning obyektiv qonuniyatlari -</i>	O'quv - tarbiya jarayonini tashkil etish va ijtimoiy hayot, shaxsning o'ziga hosligi hamda sifatlarini shakllantirishdek talablaridagi turg'un bo'lgan an'analaridir.
<i>Ta'lim -</i>	Insoniyat tajribasining ma'lum tomonlarini, ya'ni ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi talablariga muvofiq darajada bilimlarni tarbiyaga ega bo'lishlarini ta'minlaydigan fan, texnika, axloq, madaniyat va san'atni o'zlashtirishga qaratilgan mahsus, uyushtirilgan faoliyat, o'qitish va o'qishdir. Ta'lim turlari ko'p: axloq-odob ta'limi, tabiiy bilimlar bo'yicha ta'lim, texnik ta'lim, kasb-hunar ta'limi, siyosiy ta'lim va hokazo.
<i>Tizim -</i>	Yunoncha “systema” so'zidan olingan bo'lib, bo'laklarda hosil bo'lgan, birikish ma'nosini anglatadi. Ya'ni yahlit, butunlikda faoliyat ko'rsatma oladigan o'zaro bog'liq elementlarning yig'indisidir.

Test –	Aniq pedagogik tadqiqot uchun ishlatiladigan so'rovnoma, sinalayotgan talabaning psixologik va intellektual tavsifi, uning bilim, tushunish, uddalash, ko'nikmalarini o'lchashga imkoniyat beruvchi standartlashtirilgan topshiriqlar.
Texnologiya-	Ashyo yoki yarim xomashyoni tayyor mahsulotga aylantirish uchun holati, shakli, xossasi, hususiyatlarini o'zgartirish usullari majmuasi.
Umumpedagogik tayyorgarlik –	Pedagogik kategoriyalar va metodologik asoslar haqidagi bilimlarni shakllantirish, psixologik - pedagogik sezgirlik, kuzatuvchanlik, pedagogik va o'zini tuta olish, boladan hamda yoshlardan yoshiga ko'ra rivojlanishidan, asosiy qonuniyatlari haqidagi bilimlarni, talabalardan individual o'ziga hosliklari, pedagogik ishlar bilan qiziquvchanligini shakllantirishdir.
Uslub –	Ma'lum o'quv materiallarini o'tishda qo'llanilayotgan asosiy o'qitish usuli bilan birga ikkinchi bor o'qitish usulining ayrim elementlaridan foydalanib ish ko'rishdir.
Usul (usul) –	Falsafiy va ilmiy bilimlarni yaratish va asoslash usuli: voqelikni amaliy va nazariy jihatdan o'zlashtirishga qaratilgan, ma'lum tarzda yo'naltirilgan usul va tajribalar yig'indisi.
Shaxs -	Ijtimoiy va shaxslararo munosabatlarning mahsuli, ongli faoliyatning subyekti bo'lmish individdir. Shaxsga taaluqli bo'lgan eng muhim tasnif - uning jamiyatdagi murakkab ijtimoiy munosabatlarga bevosita aloqadorlik, ijtimoiy faoliyatga nisbatan ham obyekt, ham subyekt bo'lishlikdir.
Estetik ideal –	Bu shaxsning tabiat, jamiyat va san'atdagi maqsad tarzida idrok etadigan, takomillashgan go'zallik borasidagi bahosining aks etishidir.
Estetik tarbiya –	San'atdagi, tabiatdagi qurshab olgan hayot voqeligidan go'zallik vositalari asosida tarbiyalash, insonni garmonik tarbiyalash vositasidir.
Estetik tuyg'u –	Bu shaxsning buyum yoki hodisaga estetik baho berish munosabatini boshdan kechirishidir.
O'z-o'zini anglash –	Subyekt (shaxs) tomonidan obyektiv, real, hayotiy haqiqatni aks ettirish, uning subyektiv qiyofasi, obrazini yaratish va o'z hatti-harakatlari hamda faoliyatini o'z-o'zidan boshqaruvini o'zida namoyon etadigan, o'zini boshqalar bilan taqqoslash imkonini beruvchi ong shakli
O'qitish –.	O'qituvchi va talabaning birgalikdagi faoliyati va bu jarayonda talabalarining ma'lumot olishi, o'quv, ko'nikma va malakasini egallashi, tarbiyalanib, rivojlanib borishi nazarda tutiladi
O'qish -	Talabaning kishilar tajribasidan bilib olgan qonuniyatlarni

	o'zida aks ettirishdir.
Qadriyatlar –	Inson va insonlar uchun ahamiyatli bo'lgan erkinlik, tinchlik, ijtimoiy tenglik, haqiqat, ma'rifat, go'zallik, yahshilikdan iborat holatlar yig'indisidir. Borliq va jamiyat, narsalar, voqealar, hodisalar, inson hayoti, moddiy va ma'naviy boyliklarning ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llaniladigan tushuncha.
Qonuniyat –	Bu barqaror, zaruriy, u yoki bu hodisalar va jarayonlar o'rtasidagi mutanosiblik va muhim aloqa.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.A. Karimov «Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori». T., Sharq 1997y.
2. I.A. Karimov «O'zbekiston kelajagi buyuk davlat». T., O'zbekiston 1992y.
3. I.A. Karimov «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda». T., O'zbekiston 1999y.
4. I.A. Karimov «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda».
5. K.X.Hoshimov va Safo Ochil. «O'zbek pedagogikasi antalogiyasi». T., Uqituvchi 1995y.
6. M. Inomova «Oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlar». T., Fan 1995 y.
7. A. Munavvarov «Oila pedagogikasi». T., O'qituvchi 1994 y.
8. Jahon mamlakatlari tarixi. The word book encyclopedia. 1994 1-11-jild.
9. B.F.Vulfson Sravnitel'naya pedagogika – M., 2003.
10. V.A.Kapranova Sravnitel'naya pedagogika – M., 2004.
11. SH. SHodmonova., Ergashev P. Qiyosiy pedagogika. – T.: TDPU, 2005.
12. A.A. Holiqov “Frantsiyada pedagogik fikr taraqqiyoti” – T.: 1998.
13. The word book encyclopedia. – T.: 1994. 1- jild.
14. The word book encyclopedia. – T.: 1994. 2- jild.
15. The word book encyclopedia. – T.: 1994. 3- jild.
16. The word book encyclopedia. – T.: 1994. 4- jild.
17. The word book encyclopedia. – T.: 1994. 5- jild.
18. The word book encyclopedia. – T.: 1994. 6- jild.
19. The word book encyclopedia. – T.: 1994. 7- jild.
20. The word book encyclopedia. – T.: 1994. 8- jild.
21. The word book encyclopedia. – T.: 1994. 9- jild.
22. The word book encyclopedia. – T.: 1994. 10- jild.
23. The word book encyclopedia. – T.: 1994. 11- jild.
24. “Turk ta'lim tizimi”-T,1994 y.
25. www.ziyo.net.
26. www.bilimdon.uz
27. www.de.uz
28. www.plekhanov.ru
29. www.tgeu.uz
30. www.tatu.uz
31. www.pomorsu.ru.
32. www.MTU-NET.ru.
33. www.bankreferatov.ru.
34. www.elsu.ru.
35. www.mgopu.ru.

M U N D A R I J A

Muqaddima	4
I bob Qiyosiy pedagogikaga (pedagogik komparativistikaga) kirish	5
1.1. Qiyosiy pedagogika alohida fan sohasi sifatida	
1.2. Qiyosiy pedagogikaning metodologik asosi.....	9
1.3. Ilm va fanning bir sohasi sifatida qiyosiy pedagogikaning asosiy rivojlanish bosqichlari.....	14
1.4. “Qiyosiy pedagogika” jamiyati va uning faoliyati.....	30.
 II bob. Qiyosiy pedagogika fani rivojlanishida xalqaro tashkilotlar va ularning faoliyati	39
2.1. YUNESKO tashkilotining ta’lim sohasidagi faoliyati.....	41
2.2. YUNISEF, MOT (XMT) xalqaro tashkilotlarining vazifalari va ta’lim-tarbiya jarayonlari yuksalishidagi o’rni.....	41
2.3. AQSH ning TINCHLIK KORPUSI va uning ish faoliyati.....	44
 III bob. Jahon mamlakatlari ta’limi taraqqiyotining ayrim masalalari	45
3.1. Ta’limni isloh qilishda o’quv dasturlarining ahamiyati.....	45
3.2. Jahon mamlakatlarida ta’limni integratsiyalashtirish va kasbga yo’naltirish masalari.....	48
3.3. Ta’limni differensiyalashtirish muammolari va maxsus maktablar faoliyati.....	49
3.4. O’quvchilar bilimini baholash mezonlari	
IV bob. Yevropa mamlakatlari ta’lim tizimi mazmuni	57
4.1. Germaniyada ta’lim-tarbiya jarayonlarining o’ziga xos xususiyatlari.....	57.
4.2. Fransiyada ta’lim siyosatining olib borilishi.....	66
4.3. Angliya ta’lim tizimi.....	73
4.4. Italiya ta’lim tizimi.....	78
4.5. Polsha ta’lim tizimi.....	84
4.6. Niderlavdiya ta’lim tizimi.....	88
 V bob. Osiyo mamlakatlari ta’lim tizimi	92
5.1. Yaponiya ta’lim tizimi va unga daxldor masalar.....	92
5.2. Koreya va Xitoyda ta’lim-tarbiya jarayonlari.....	99
5.3. Hindiston va Pokiston ta’lim tizimi.....	106
5.4. Turkiyada ta’lim siyosatining olib borilishi.	110
 VI bob. Rivojlangan mamlakatlar ta’lim-tarbiya tizimi va ularga qiyosiy tahlil	113
6.1. AQSH va O’zbekiston ta’lim tizining qiyosiy tahlili.....	113
6.2. Rossiya va O’zbekistonda pedagogika fani taraqqiyotidagi o’ziga	

xosliklar: umumiylik va tafovut.....	119
VII bob. Markaziy Osiyo davlatlarida ta'lim-tarbiyaning o'ziga xosliklari.....	119
7.1. Qozog'istonda pedagogika fani rivojidadagi o'ziga xos jihatlar.....	119
7.3. Tojikiston va Turkmanistonda pedagogika fani rivoji.....	120
VIII bob. Afrika mamlakatlari ta'lim tizimi mazmuni.....	121
8.1. JAR ta'lim tizimi.....	121
8.2. Zambiya ta'lim tizimi.....	121
8.3. Jazoir ta'lim tizimi.....	122
IX bob. Jahon mamlakatlarida pedagog kadrlarni tayyorlash masalalari.....	122
9.1. Jahon mamlakatlarida pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyoj va ularni tayyorlash masalalari.....	123
9.2. Jahon mamlakatlarida o'qituvchilarni ishga qabul qilish	
9.3. Jahon mamlakatlarida o'qituvchilar malakasini oshirish	
X bob. XX-XXI asrlarda ta'lim mazmuni.....	130
10.1. XX-XXI asrlarda xorijda xalqaro ta'lim makoni	130
XXI bob. Ta'lim sohasini isloh qilishda xalqaro tajribalarning ahamiyati.....	138.
11.1. Ta'lim sohasini isloh qilish yo'nalishlari.....	138
Testlar.....	155
Glossariy.....	160
Foydalanilgan adabiyotlar.....	165

